CONFERENCE PROCEEDINGS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

Interdisciplinary Research, Innovations and Current Issues of Sustainable Development

May 21, 2026

London — Tashkent



Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

www.academscience.com

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference «INTERDISCIPLINARY RESEARCH, INNOVATIONS AND CURRENT ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT»

London, Tashkent

May 21, 2026

****

Interdisciplinary Research, Innovations and Current Issues of Sustainable Development // Materials International Scientific-Practical Conference. London, Tashkent. May 21, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo'shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (May 20, 2026, Protocol No. 17).

CONTENTS

INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION, PEDAGOGY AND DIGITAL TEACHING TECHNOLOGIES.....8

MAKTAB IQTISODIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA 5E TA'LIM MODELIDAN FOYDALANISH.....9

OLIY TA'LIMDA SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....21

ADAPTIVE-INTEGRATIVE MODEL OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCES IN ENGINEERING STUDENTS..29

"ONLINE TA'LIM" XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI 41

TERMODINAMIKA BO'LIMINI FIZIKA, MATEMATIKA VA KIMYO FANLARI INTEGRATSIYASIDA O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI.....45

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....57

MODERN DIRECTIONS OF NATURAL SCIENCES, GEOGRAPHICAL RESEARCH AND SPACE STUDIES.....63

BUVAYDA TUMANINING TABIIY-GEOGRAFIK SHAROITI VA LANDSHAFTLARIGA KOMPLEKS TAVSIF.....64

DUNYONING ENG RIVOJLANGAN TOP 7 DAVLATLARI: IQTISODIY-GEOGRAFIK TAHLIL.....72

THE ROLE OF TECHNOLOGY, ENGINEERING AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT.....84

AVTOMATLASHTIRILGAN KUTUBXONANING ELEKTRON KATALOGI, ELEKTRON KATALOGNI YARATISH USULLARI, XALQARO STANDARTLAR.....85

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DASTURIDAN FOYDALANIB LIBOS LOYIHALASH JARAYONI: CLO3D DASTURI MISOLIDA.....97

CURRENT ISSUES OF ECONOMICS, FINANCE, ENTREPRENEURSHIP AND INNOVATIVE MANAGEMENT.....104

GULCHILIK BILAN SHUG‘ULLANUVCHI KORXONALARDA DEBITORLIK HAMDA KREDITORLIK QARZLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 105

STABILITY ANALYSIS OF THE RAMSEY-CASS-KOOPMANS MODEL: A CONFORMAL MAPPING APPROACH 114

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KADRLAR QO‘NIMSIZLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI 118

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI 126

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING ROLI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR 133

ZAMONAVIY TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING AHAMIYATI 145

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARGA ILOVALAR VA TUSHUNTIRISHLAR 150

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH.....156

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI XALQARO MIQYOSDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....159

O‘ZBEKISTONNING GSP+ TIZIMIDAGI ISHTIROKI VA UNING TASHQI SAVDOGA TA’SIRI.....171

INVESTMENT IN UZBEKISTAN: POST-2016 ECONOMIC OPENING, SECTORAL TRANSFORMATION, AND GEOPOLITICAL REALIGNMENT.....177

THE ECONOMY OF INTERDEPENDENCE, TRADE INTEGRATION, AND DEVELOPMENT BETWEEN UZBEKISTAN, KAZAKHSTAN, AND TURKEY.....185

TURISTIK-REKREATSION HUDUDLARNI BOSHQARISHNING MENEJMENT NAZARIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....192

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОРТАЛА УЗБЕКИСТАНА В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ 212

MEDICINE, PHARMACY, BIOLOGICAL SAFETY AND THE CONCEPT OF A HEALTHY SOCIETY.....219

TONUS OSHIRUVCHI DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI 220

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И ВЕДЕНИЮ БЕРЕМЕННЫХ С СИНДРОМОМ ТОШНОТЫ И РВОТЫ 223

ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОЛИТНОГО БАЛАНСА У БЕРЕМЕННЫХ С РАННИМ ТОКСИКОЗОМ 226

SOCIAL SCIENCES, LAW, PUBLIC ADMINISTRATION AND THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY 228

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI 229

KEKSALIK DAVRIDA QADRIYATLAR MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 235

AXBOROTLASHGAN JAMIYATGA, O‘SMIRLAR IJTIMOIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 242

MUALLIFLIK SHARTNOMASI TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN FUQAROVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALASI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGI MISOLIDA 246

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, IQTISODIY SAMARADORLIK VA IJTIMOIY TA’SIRLAR 254

HISTORY, CULTURAL HERITAGE, PHILOLOGY AND INTERCULTURAL COMMUNICATION 259

O‘ZBEK KOSMOGONIK AFSONALARIDA OSMON JISMLARINING MIFOPOETIK TALQINI VA MOTIVLAR TIZIMI 260

ITALYAN TILIDA GAZETA VA JURNALLARDA REKLAMA MATNLARINING TARJIMAVIY VA LINGVISTIK TAHLILI 273

FARG‘ONA VODIYSIDA PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI: VODIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI TARIXI (1930–1980-YILLAR) 279

KARVON YO`LINING JANUBI-SHARQIY YO‘NALISHI BO`YLAB AMALGA OSHIRILGAN SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDA XORAZM (BU YO`LDA NOMLARI KELTIRILGAN KARVONSAROY, QUDUQ VA RABOTLAR HAQIDA QISQACHA) 283

TURKISTON O‘LKASIDA MUSTAMLAKACHILIK AGRAR SIYOSATI VA PAXTA YAKKAHOKIMLIGI TARIXSHUNOSLIGI 300

QORAQALPOQ XALQ MAORIFI TARAQQIYOTI JUMEK O'RINBOYEVNING O'RNI.....311

НАЦИОНАЛЬНЫЙ СТАНДАРТ «ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ» НАДЕЖНАЯ ГАРАНТИЯ СОХРАНЕНИЯ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....315

AGRICULTURE, ECOLOGICAL SUSTAINABILITY AND FOOD SECURITY ISSUES 323

KUZGI BUG'DOY PARVARISHIDA SUV TEJOVCHI SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI ILMIY QARASHLAR TAHLILI 324

QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELINI JORIY ETISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH TENDENSIYALARI 331

SUV OBYEKTLARINI YOPIQ TIZIMGA O'TKAZISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI 341

TUMAN YER TUZISH CHIZMASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI.....347

ҚИШКИ ИЛДИЗМЕВАЛАРНИ СУҒОРИШ ВА УРУҒ ҲОСИЛДОРЛИГИ 355

INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION, PEDAGOGY AND DIGITAL TEACHING TECHNOLOGIES

MAKTAB IQTISODIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA 5E TA'LIM MODELIDAN FOYDALANISH

Abdullayev Madiyar
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
e-mail: www.geograf.uz@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab iqtisodiy geografiya ta'limida 5E ta'lim modelining qo'llanilishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Modelning har bir bosqichi iqtisodiy geografiyaning mavzulari – iqtisodiy geografik o'rin, aholining joylashuvi va tarkibi, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar hamda tarmoqlar misolida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 5E modeli o'quvchilarda iqtisodiy geografik tafakkurni, muammolarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.*

Kalit so'zlar: *5E ta'lim modeli, iqtisodiy geografiya, konstruktivizm, jalb etish, o'rganish, tushuntirish, kengaytirish, baholash, faol ta'lim, o'quvchi kompetensiyasi.*

Аннотация. *В данной статье теоретически и практически анализируется применение модели обучения 5E в преподавании школьной экономической географии. Каждый этап модели рассматривается на примере тем экономической географии – экономико географическое положение, размещение и состав населения, размещение производительных сил, международные экономические отношения, а также отраслевая география. Результаты исследования показывают, что модель 5E значительно развивает у учащихся экономико-географическое мышление, навыки анализа проблем и формулировки выводов.*

Ключевые слова: *модель 5E, экономическая география, конструктивизм, вовлечение, исследование, объяснение, расширение, оценка, активное обучение, компетентность учащихся.*

Abstract. *This article theoretically and practically analyzes the application of the 5E instructional model in school economic geography education. Each stage of the model is examined through the topics of economic geography – economic geographical location, population distribution and composition, placement of productive forces, international economic relations, and sectoral geography. The research findings demonstrate that the 5E model significantly develops students' economic-geographical thinking, as well as their skills in problem analysis and drawing conclusions.*

Keywords: *5E instructional model, economic geography, constructivism, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, active learning, student competency.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchini bilim oluvchi passiv subyekt sifatida emas, balki bilimni o‘zi quradigan faol ishtirokchi sifatida ko‘rishni talab etadi. Bu paradigma o‘zgarishi, ayniqsa, iqtisodiy geografiya kabi real hayot bilan bevosita bog‘liq fanlarda ayniqsa muhimdir. Chunki iqtisodiy geografiya o‘quvchiga faqat faktlarni emas, balki iqtisodiy jarayonlarni hudud, resurs va jamiyat bilan bog‘lab tahlil qilish ko‘nikmalarini berishi kerak.

Shu maqsadda xalqaro ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilayotgan 5E ta’lim modeli maktab iqtisodiy geografiyasida yangi imkoniyatlar ochadi. Model 1987-yilda R.Baybi va uning hamkasblari tomonidan “Biologiya fanlari o‘quv dasturi tadqiqoti” (Biological Sciences Curriculum Study) doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, konstruktivistik ta’lim nazariyasiga asoslanadi. Besh bosqich - Engage (jalb etish), Explore (o‘rganish), Explain (tushuntirish), Elaborate (kengaytirish) va Evaluate (baholash) - o‘quvchini bilish jarayonining markaziga qo‘yadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston umumta’lim maktablarida geografiya darsliklarining yangilanganligi va davlat ta’lim standartlarida kompetensiyaviy yondashuv ustivor ekanligi (2022 yil) bilan bir qatorda, geografiya o‘qituvchilari hali ham interfaol metodlarga o‘tish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmayapti. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Mazkur kichik tadqiqot doirasida 5E modelining har bir bosqichini iqtisodiy geografiyaning o‘ziga xos mavzulari bilan birlashtirib, amaliy qo‘llanma tartibida taqdim etish va modelning o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun qanday imkoniyatlar yaratishini dalillar asosida ko‘rsatishdir.

Asosiy qism. 5E modeli konstruktivizm falsafasiga – o‘quvchi bilimni ijtimoiy faoliyat va amaliy tajriba orqali o‘zi qurishiga tayangan holda ishlab chiqilgan. J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi va L.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konseptsiyasi modelning intellektual negizini tashkil etadi. Vigotskiy bo‘yicha, o‘quvchi hozirgi va potentsial rivojlanish darajasi orasidagi zonada qo‘llab-quvvatlash yordamida bilim quradi - 5E ning har bir bosqichi aynan shu mexanizm sifatida ishlaydi.

1-jadval

5E MODELI BOSQICHLARI VA ULARNING KOGNITIV ASOSLARI

Bosqich	Blum taksonomiyasi	O‘qituvchi roli	O‘quvchi roli
Engage (Jalb etish)	Bilish, tushunish	Motivatsiya yaratadi, savol beradi	Qiziqish bildiradi, oldingi bilimlarni faollashtiradi
Explore (O‘rganish)	Qo‘llash, tahlil qilish	Yo‘naltiradi, resurslar taqdim etadi	Mustaqil tadqiqot o‘tkazib, ma’lumot yig‘adi
Explain (Tushuntirish)	Tahlil qilish, tushunish	Tushunchalarni aniqlashtiradi	Topilmalarini taqdim etadi, izohlab beradi

Elaborate (Kengaytirish)	Baholash, yaratish	Yangi vaziyatlar taklif etadi	Bilimlarni yangi kontekstlarga tatbiq etadi
Evaluate (Baholash)	Baholash, sintez	Mezonlarni belgilaydi, qayta aloqa beradi	O‘z o‘rganishini baholaydi va isbotlaydi

R.Baybi (2015) ta’kidlashicha, 5E modeli an’anaviy ***“o‘qituvchi tushuntiradi - o‘quvchi yodlaydi”*** zanjirini ***“o‘quvchi savol qo‘yadi – o‘rganadi - tushuntiradi - chuqurlashtiradi - baholanadi”*** sikliga almashtiradi. Iqtisodiy geografiya uchun bu almashinuv ayniqsa muhim: aholining joylashuvi, chunki sanoat joylashuvi, eksport-import balansidagi o‘zgarishlar, tarmoqlararo bog‘liqliklar yodlash emas, balki tahlil qilishni talab etuvchi mavzulardir.

Iqtisodiy geografiya ta’limining hozirgi holati va muammolar. O‘zbekiston umumta’lim maktablarida 10-sinfda o‘qitiladigan iqtisodiy geografiya kursi (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) o‘quvchilarga global va mahalliy iqtisodiy jarayonlar haqida tizimli bilim berishi ko‘zda tutiladi. Biroq amaliyot ko‘rsatadiki, ushbu kurslar ko‘pincha quruq statistika, nomlar va sanalarni yodlashga aylanib qoladi.

Ta’limga oid ilmiy tadqiqotning 2023-yilgi kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra, 10-sinf geografiya o‘quvchilarining 67% i dars jarayonida asosan passiv tinglovchi sifatida qatnashadi; faqat 18% i mustaqil tahlil vazifalarini bajaradi. O‘qituvchilarning 71% i esa darsda an’anaviy usullarni qo‘llaydi. Bu holat o‘quvchilarda iqtisodiy geografik tafakkurning rivojlanmasligiga olib keladi.

Muammolarning ildizi ko‘p jihatdan mavzularning o‘quvchi hayotidan uzoqligi va darsliklarning tahliliy topshiriqlar o‘rniga ma’lumot berishga o‘naltirilganligi bilan bog‘liq. Masalan, “Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari” mavzusida an’anaviy yondashuv o‘quvchini Xitoy YaIM hajmini, eksport ulushini yoki sanoat tarmoqlarini mexanik tarzda yodlashga undaydi. Biroq bu raqamlar o‘quvchi uchun mavhum bo‘lib qolaveradi - u o‘z qo‘lidagi smartfon, kiyim yoki o‘yinchoqning “Made in China” yorlig‘i bilan Xitoyning

global ishlab chiqarishdagi ulushi o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglamaydi. Ya’ni bilim hayotdan uzilgan holda qoladi. Bundan tashqari, o‘quvchi Xitoyning nima uchun aynan elektronika, to‘qimachilik va mashinasozlikda raqobatdosh ekanligini - arzon ishchi kuchi, qulay geografik o‘rin, davlat siyosati va eksport zonalari kabi omillarni mustaqil tahlil qilish o‘rniga, tayyor ma’lumotni passiv qabul qiladi. Natijada geografik tafakkur emas, balki yodlash ko‘nikmasigina rivojlanadi. Aynan shu bo‘shliqni 5E modeli to‘ldirishi mumkin. O‘quvchi “nima?” savoliga emas, “nima uchun?” va “qanday?” savollariga javob izlab, bilimni o‘zi qurishga undaydi.

5E modelining iqtisodiy geografiya darslarida qo‘llanilishi. ***Engage (jalb etish) – o‘quvchini iqtisodiy muammoga jalb qilish.*** Jalb etish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchining oldingi bilimlarini faollashtirib, yangi mavzuga qiziqish uyg‘otadi. Iqtisodiy geografiya uchun bu bosqich ayniqsa muhim, chunki iqtisodiy jarayonlar ko‘pincha o‘quvchiga mavhum ko‘rinadi. Samarali jalb etish usullari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi. “Nima uchun Niderlandiyaning maydoni O‘zbekistondan 11 marta kichik bo‘lgan mamlakat - dunyo bo‘yicha ikkinchi yirik qishloq xo‘jaligi eksportchilaridan biri hisoblanadi?” yoki o‘quvchilarga Janubiy Koreya va Nigeriyaning 1960-yilgi va 2024-yilgi YaIM ko‘rsatkichlarini taqqoslash topshirig‘i berish (ikkala mamlakat mustaqillikni deyarli bir vaqtda qo‘lga kiritgan, ammo iqtisodiy rivojlanish yo‘li tubdan farq qiladi - sababi nimada?).

Bu bosqichda o‘qituvchi o'quvchidan to‘g‘ri javob kutmaydi. Asosiy maqsad – o‘quvchida “men bu narsani bilar edim, lekin aslida tushunmayapman ekan” degan his uyg‘otishdir. Aynan shu his o‘quvchini yangi mavzuni o‘rganishga undaydi. “Piaje ta’limoti”ga ko‘ra, o‘quvchi oldingi bilimi yangi ma’lumotga to‘g‘ri kelmay qolganda, uni ichida qayta ko‘rib chiqishga va yangi tushuncha qurishga majbur bo‘ladi - bu esa haqiqiy o‘rganishning boshlanishidir.

Explore (o‘rganish) - mustaqil tadqiqot va ma’lumot tahlili. O‘rganish bosqichida o‘quvchilar kichik guruhlarda yoki mustaqil ravishda muammo ustida ish olib boradi. Iqtisodiy geografiya darslarida bu bosqich uchun eng samarali vositalar: dunyo mamlakatlarining iqtisodiy xaritalarini tahlil qilish (masalan, Google Earth orqali Janubi-sharqiy Osiyodagi erkin iqtisodiy zonalar va portlarning savdo yo‘llari bilan bog‘liqligini aniqlash); jahon eksport-import ma’lumotlar bazalari bilan ishlash (Germaniya, Xitoy va AQShning savdo hamkorlarini taqqoslash); va “virtual maydon tadqiqoti” - Rotterdam yoki Singapur portlarining portlarining jahon savdosidagi o‘rnini mustaqil tahlil qilish.

Bu bosqichda o‘qituvchi dars boshqaruvchisi emas, balki yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. O‘quvchi mustaqil izlanadi, xato qilsa ham - bu o‘rganish jarayonining tabiiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, “Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi” mavzusida o‘quvchilar YaIM va “Inson rivojlanish indeksi” (HDI) ma’lumotlarini taqqoslab, quyidagi savolga o‘zlari javob izlaydi: “Nima uchun ba’zi mamlakatlar boyligiga qaramay, aholi turmush darajasi past bo‘lib qolaveradi?” - masalan, Saudiya Arabistoni va Norvegiyani taqqoslash orqali.

Explain (tushuntirish) - tahlil natijalarini tizimli bayon qilish. Tushuntirish bosqichida o‘quvchilar o‘rganish jarayonida topgan ma’lumotlarini tizimli tarzda taqdim etadi. O‘qituvchi esa ilmiy terminologiyani kiritib, tushunchalarni aniqlashtiradi. Iqtisodiy geografiyada bu bosqichda o‘quvchilar ko‘pincha o‘zi to‘g‘ri xulosaga keladi, lekin ilmiy terminni bilmaydi ‘ masalan, “boy mamlakatlar dengizga yaqin joylashgan” deydi, ammo “tranzit geografik o‘rin” yoki “dengiz savdo yo‘llariga chiqish imkoniyati” atamalari tilidan tushmagan bo‘ladi. O‘qituvchi bu bosqichda aynan shu ko‘prikni quradi. Bayon qilish usullari sifatida: guruh taqdimoti (5-7 daqiqa), klaster sxemasi tuzish yoki “debat” texnikasi (bir guruh “tabiiy resurslar mamlakat boyligini belgilaydi”

degan fikrni himoya qilsa, ikkinchi guruh bunga qarshi dalillar keltiradi) kabilardan foydalanadi.

Shunday qilib, tushuntirish bosqichi o‘quvchining “his qilgan, lekin so‘zlay olmagan” bilimini ilmiy tushunchaga aylantiradigan ko‘prik vazifasini bajaradi - bu esa iqtisodiy geografik tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi qadam hisoblanadi.

Elaborate (kengaytirish) - bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash. Kengaytirish bosqichi o'quvchi olingan bilimlarni yangi, oldin ko'rilmagan kontekstda qo‘llashini talab etadi. Bu bosqich transfer ko‘nikmalarini rivojlantiradi – ya’ni o‘quvchi bitta mamlakatda o‘rganilgan iqtisodiy geografik qonuniyatni boshqa mamlakatga yoki mintaqaga tatbiq eta oladi. Masalan, Janubiy Koreya “iqtisodiy mo'jizasi”ni o‘rganib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilarga “O‘zbekiston ham shu yo‘ldan bora oladimi?” degan muammo qo‘yiladi.

Bu bosqichda loyiha asosidagi vazifalar, rolli o‘yinlar (masalan, “Xalqaro sarmoyadorlar kengashi - qaysi mamlakat sarmoya olish uchun raqobatdosh?”) yoki taqqosiy insho juda samarali. O‘quvchi ana shu bosqichda bilimni shunchaki takrorlamaydi - balki uni yangi muammoni hal qilish uchun vosita sifatida ishlatadi.

Evaluate (baholash) – ko‘p qirrali va davomiy baholash. Baholash bosqichi 5E modelida faqat yakuniy test emas — u jarayon davomida davom etuvchi jarayon sifatida tushuniladi. Formativ baholash (kuzatuv, savol-javob, guruh muhokamasi) va summativ baholash (loyiha, esse, test) parallel ravishda amalga oshiriladi. Iqtisodiy geografiyada baholash mezonlari sifatida: iqtisodiy jarayonlarni tog‘ri izohlash, mavjud ma’lumotlardan xulosalar chiqarish, real hayotiy muammolarga geografik nuqtai nazardan yechim taklif qilish kabilar muhim hisoblanadi.

O‘z-o‘zini baholash va tenglash baholash ham keng qo‘llaniladi. O‘quvchi dars oxirida “bugun men nima o‘rgandim va nima hali ham tushunarsiz qoldi?”

degan savolga yozma javob berishi – “chiqish chiptasi” texnikasi – o‘qituvchiga keyingi dars uchun ma’lumot beradi. Bu refleksiv yondashuv o‘quvchida metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiradi.

2-jadval

5E MODELINING IQTISODIY GEOGRAFIYA TA’LIMIDAGI MAVZULARGA TATBIQI

Mavzu	Engage	Explore	Explain	Elaborate	Evaluate
Dunyo neft-gaz resurslari va ularning joylashuvi	Benzin narxi nega ko‘tarildi? (bugungi narx grafigi)	OPEC mamlakatlari-ning xaritasi; Brent narxi tarixi	Rentabel-lik, kartell, geosiyosat tushuncha-lari	O‘zbekiston OPEC da qolish yoki ketishning iqtisodiy geografiyasi	Esse: “Neft narxi mening oilamga qanday ta’sir qiladi?”
Xalqaro mehnat taqsimoti va eksport-import	“Made in China” yorlig‘i bilan 10 ta narsani top	O‘zbekiston eksporti tahlili	Qiyosiy ustunlik, mehnat taqsimoti terminlari	O‘zbekiston uchun eng foydali eksport tarmoqni tanlash	Guruh taqdimoti va test
MDH mamlakatlarining iqtisodiy geografiyasi	MDH birlashuvi yaxshimi? Baho bering	MDH savdo va migratsiya ma’lumotlari	Integrat-siya, savdo bloki,	MDH ni YeI bilan taqqoslash	Qiyosiy jadval va o‘z-o‘zini baholash

5E modelining an’anaviy ta’lim bilan taqqosiy tahlili. An’anaviy dars usulda o‘qituvchi bilimning asosiy manbai bo‘lib, o‘quvchi esa passiv qabul qiluvchi rolida qoladi. 5E modeli esa bilim manbaini ko‘paytiradi (darslik,

internet, haqiqiy ma’lumotlar, guruh muhokamasi) va o‘quvchini faol tadqiqotchi sifatida joylashtiradi. Bu farqni quyidagi jadval tahlili ko‘rsatadi.

3-jadval

AN’ANAVIY USUL VA 5E MODELINING QIYOSIY TAHLILI

Mezon	An'anaviy usul	5E modeli
Bilim manbai	Asosan o‘qituvchi va darslik	Ko‘p manba: real ma’lumotlar, guruh, internet
O‘quvchi roli	Passiv tinglovchi va yodlovchi	Faol tadqiqotchi va muammoni hal qiluvchi
O‘qituvchi roli	Ma’lumot uzatuvchi, markaziy figura	Fasilitator, yo‘naltiruvchi, motivator
Baholash turi	Summativ (test, yozma ish)	Formativ + summativ + o‘z-o‘zini baholash
Motivatsiya	Tashqi (baho, imtihon)	Ichki (qiziqish, muammoni hal qilish)
Transfer ko‘nikmasi	Past (kontekstga bog‘liq yodlash)	Yuqori (yangi vaziyatlarda qo‘llash)
Vaqt sarfi	Qisqa muddatda ko'proq mavzu	Kamroq mavzu, lekin chuqurroq o‘zlashtiriladi
Iqtisodiy geografiyaga moslik	Faktlar va statistika yodlash	Real iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish

Taqqosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usulning asosiy kamchiligi - bilimning qisqa muddatda yodlanib, tez unutilishidir. AQSh ta’lim psixologi R.Mayer (2009) o‘tkazgan meta tahlil shuni ko‘rsatdiki 5E modeli bilan o‘qitilgan o‘quvchilar standart testlarda an’anaviy guruhdan o‘rtacha 12 ball yuqori natija ko‘rsatganini aniqlaganini qayd etdi. Konstruktivistik metodlar

asosida o‘qitilgan guruhlarda mavzuni 3 oy o‘tgandan keyin ham eslash darajasi 40% yuqori bo‘lgan.

O‘zbekiston maktablarida 5E modelini joriy etishda quyidagi to‘siqlar mavjud: birinchidan, vaqt muammosi - 45 daqiqalik dars barcha 5 bosqichni to‘liq o‘tash uchun yetarli emas. Buni hal qilish uchun bir mavzuni 2-3 darsga bo‘lish yoki “mini-5E” (har bosqich 5-7 daqiqa) formatini qo‘llash mumkin. Ikkinchidan, raqamli resurslar bilan ishlash malakasi - ko‘plab o‘quvchilar xalqaro ochiq bazalardan mustaqil foydalana olmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun darsliklarning qo‘shimcha materiallar bilan boyitilishi va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari zarur. Uchinchidan, baholash tizimidagi ziddiyat - joriy baholash tizimi asosan yodlashga asoslangan bo‘lsa, 5E model chuqur tafakkurni rivojlantiradi. O‘quvchi 5E da yaxshi o‘qisa-da, an’anaviy imtihon formatida past baho olishi mumkin. Bunday holatni bartaraf etish uchun baholash mezonlarini ham yangilash zarur. To‘rtinchidan, sinf hajmi - O‘zbekiston maktablarida ko‘pincha 30-35 o‘quvchidan iborat sinflar mavjud, bu guruh ishi uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bu muammolarga qisman yechim sifatida har bir guruh alohida mavzuni o‘rganib, so‘ngra bir-biriga o‘rgatadi yoki o‘quvchilar devorga osib qo‘yilgan jadval va xaritalardagi ma’lumotlarni mustaqil o‘rganadi. Bu kabi faol o‘qitish usullari bu muammoni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Xulosa. Ushbu maqolada 5E ta’lim modelining maktab iqtisodiy geografiyasi ta’limiga tatbiqi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

- 5E modeli konstruktivizm falsafasiga asoslanib, o‘quvchini bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, bu iqtisodiy geografiyada tahliliy tafakkurni rivojlantiradi;

- Modelning besh bosqichi (jalb etish, o‘rganish, tushuntirish, kengaytirish, baholash) iqtisodiy geografiyaning har qanday mavzusiga - resurslar

geografiyasidan tortib xalqaro iqtisodiy munosabatlargacha - muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin;

- An’anaviy usul bilan taqqoslaganda, 5E modeli o‘quvchilarning bilimni transfer qilish, real muammolarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi;

- O‘zbekiston maktablarida 5E ni joriy etishda vaqt cheklovi, raqamli savodxonlik va mavjud baholash tizimi bilan ziddiyat asosiy to‘siqlar hisoblanadi, bular esa maqsadli pedagogik yechimlarni talab etadi;

- 5E modelining keng joriy etilishi uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, baholash mezonlarini modernizatsiya qilish va darsliklarni interfaol topshiriqlar bilan boyitish zarur;

- Kelajakdagi tadqiqot istiqbollari sifatida 5E modeli asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy geografiya dars ishlanmalarining eksperiment natijalari tahlili, shuningdek modelning raqamli va gibrid ta’lim muhitiga moslashishi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bybee R.W. et al. BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. - Colorado Springs: BSCS, 2006. - 71 p.

2. Bybee R.W. The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. - Arlington: NSTA Press, 2015. - 168 p.

3. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2009. - 320 p.

4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.

5. Dewey J. Experience and Education. - New York: Collier Books, 1938. - 91 p.

6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longmans Green, 1956. - 207 p.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari (Geografiya). - Toshkent: Xalq ta’limi vazirligi, 2022. - 48 b.

8. Karimov A., Toshpo‘latov B. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. - Toshkent: TDPU, 2021. - 186 b.

9. National Research Council. A Framework for K-12 Science Education. - Washington: National Academies Press, 2012. - 385 p.

OLIY TA’LIMDA SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Baratova Yulduz Asadullayevna

JDPU

yulduzasadullayevna@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida simulyatsion texnologiyalar asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada simulyatsion ta’limning samaradorligi, metodik asoslari hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari xalqaro ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, simulyatsiya asosidagi o‘qitishning pedagogik samaradorligi va uning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Simulyatsiya, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, pedagogik mahorat, vaziyatli yondashuv, modellashtirish, interfaol ta’lim, mikroo‘qitish metodlari, kommunikatsiya, gamifikatsiya.*

Annotation: *This article analyzes innovative approaches to the development of students' professional competence based on simulation technologies in the higher education system. The article highlights the effectiveness, methodological foundations and practical application possibilities of simulation training based on international scientific sources. The pedagogical effectiveness of modeling-based learning and its role in improving the quality of education are scientifically substantiated.*

Keywords: *Modeling, professional training, competence, pedagogical skills, situational approach, modeling, interactive learning, micro-learning methods, communication, gamification.*

Аннотация: *В данной статье анализируются инновационные подходы к развитию профессиональной компетентности студентов на основе симуляционных технологий в системе высшего образования. В статье освещаются эффективность, методические основы и возможности практического применения симуляционного обучения на основе международных научных источников. Научно обоснована педагогическая эффективность обучения на основе моделирования и его роль в повышении качества образования.*

Ключевое слова: *Моделирование, профессиональная подготовка, компетентность, педагогическое мастерство, ситуационный подход, моделирование, интерактивное обучение, методы микрообучения, коммуникация, геймификация.*

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri - raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, o‘qitishning samarali metodlarini joriy etish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda an’anaviy o‘qitish usullarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati yanada ortmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash muammosi mavjud bo‘lib, bu talabalarning real kasbiy vaziyatlarga tayyorgarlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, simulyatsion texnologiyalar real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarga xavfsiz muhitda tajriba orttirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv, amaliy yo‘naltirilgan va talaba markazli shaklga keltirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’limda simulyatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi global ilmiy hamjamiyatda keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiya asosidagi o‘qitish an’anaviy metodlarga nisbatan talabalarning bilimni o‘zlashtirish darajasini, amaliy ko‘nikmalarini hamda kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, meta-tahliliy tadqiqotlarda simulyatsion ta’lim murakkab kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani qayd etilgan. Simulyatsion texnologiyalar real hayotga yaqin sharoitlarni modellashtirish orqali talabalarga amaliy tajriba orttirish imkonini beradi. Bu esa kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi.

Ilmiy manbalarda simulyatsion o‘qitishning quyidagi afzalliklari alohida ta’kidlanadi:

- bilimlarni kontekstual o‘zlashtirish imkoniyati;
- real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan o‘quv muhiti;
- xavfsiz tajriba o‘tkazish imkoniyati;
- refleksiya va tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi.

Pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar o‘qituvchi tayyorlash jarayonida ayniqsa samarali bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarning darsni tashkil etish, bolalar bilan muloqot qilish va pedagogik vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim sohasi esa pedagogik faoliyatning eng muhim va mas’uliyatli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda faoliyat yurituvchi mutaxassislar yuqori darajadagi kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogdan nafaqat nazariy bilim, balki psixologik yondashuv, kommunikativ ko‘nikmalar, vaziyatga mos qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida ta’lim sifati va pedagog kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa

oliy ta’lim muassasalarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni tashkil etishni taqozo etadi. Aynan simulyatsion texnologiyalar orqali pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlar tashkil etish, virtual muhitda ta’lim jarayonini qayta yaratish orqali talabalarda kasbiy-metodik kompetentlikni samarali rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida simulyatsion o‘qitishning ahamiyati yanada ortadi, chunki bu sohada pedagoglar real bolalar bilan ishlashdan oldin turli pedagogik vaziyatlarni mashq qilishlari zarur. Xalqaro tadqiqotlarda (Finlyandiya, Janubiy Koreya, AQSh tajribalari) maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlashda virtual guruhlar, rolli o‘yinlar va mikroo‘qitish metodlari keng qo‘llanilishi yuqori natija berayotgani qayd etilgan. Simulyatsion texnologiyalar - bu real hayotiy yoki kasbiy faoliyatga xos vaziyatlarni sun’iy ravishda modellashtirish orqali o‘qitishni tashkil etuvchi pedagogik texnologiyalar majmuasidir. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv va tajribaga asoslangan shaklga keltiradi.

Simulyatsion texnologiyalarning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- model (real jarayonning soddalashtirilgan shakli);
- ssenariy (pedagogik vaziyat tavsifi);
- ishtirokchilar faoliyati (rol o‘ynash yoki qaror qabul qilish);
- refleksiya (tajribani tahlil qilish bosqichi).

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida simulyatsiyalar quyidagi shakllarda qo‘llanilishi mumkin:

- tarbiyachi va bola o‘rtasidagi muloqotni modellashtirish;
- konfliktli vaziyatlarni hal etish;
- o‘yin faoliyatini tashkil etish;
- ota-onalar bilan kommunikatsiya vaziyatlari.

Bu jarayonlar talabalarga real pedagogik faoliyatga tayyorlanish imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlik - bu mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar

integratsiyasidir. Simulyatsion texnologiyalar ushbu kompetentlikni quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiradi:

- kognitiv kompetensiya (nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash);
- amaliy kompetensiya (pedagogik faoliyatni bajarish ko‘nikmalari);
- kommunikativ kompetensiya (bolalar va ota-onalar bilan muloqot);
- refleksiv kompetensiya (o‘z faoliyatini tahlil qilish).

Maktabgacha ta’lim talabalari uchun bu ayniqsa muhim, chunki ular faoliyatida:

- bolalar bilan individual ishlash;
- rivojlantiruvchi o‘yinlarni tashkil etish;
- tarbiyaviy vaziyatlarni boshqarish kabi murakkab vazifalar mavjud.

Simulyatsiyalar ushbu jarayonlarni oldindan mashq qilish imkonini beradi va xatolarni xavfsiz muhitda tuzatishga yordam beradi. Simulyatsion texnologiyalarni qo‘llashda quyidagi innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Virtual simulyatsiyalar. Masofaviy ta’lim platformalarida amalga oshiriladi va interaktiv muhit yaratadi.

2. Mikroo‘qitish (microteaching). Talabalar qisqa dars fragmentlarini simulyatsiya asosida bajaradi va tahlil qiladi.

3. Gamifikatsiya asosidagi simulyatsiyalar. O‘yin elementlari orqali motivatsiya oshiriladi.

4. Sun’iy intellekt asosidagi simulyatsiyalar. Talabaning harakatlariga mos ravishda vaziyatni o‘zgartiradi.

5. AR/VR texnologiyalar.(AR/VR texnologiyalar — bu real va virtual muhitlarni uyg‘unlashtirish hamda foydalanuvchiga interaktiv raqamli tajriba yaratib berishga xizmat qiluvchi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridir.) Virtual bog‘cha muhitini yaratish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim uchun bu yondashuvlar:

- bolalar psixologiyasini o‘rganish;
- real mashg‘ulotlarni modellashtirish;

- pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Simulyatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

- ✓ Texnik muammolar: zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta’minot yetishmasligi
- ✓ Kadrlar muammosi: o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi pastligi
- ✓ Metodik muammolar: maxsus metodik qo‘llanmalar yetarli emas
- ✓ Moliyaviy muammolar: yuqori xarajat talab qilinishi
- ✓ Psixologik to‘siqlar: an’anaviy yondashuvdan voz kechishdagi qiyinchiliklar

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida esa bolalar faoliyatini to‘g‘ri modellashtirish qiyinligi, pedagogik vaziyatlarning murakkabligi kabi muammolar ham mavjud.

Simulyatsion texnologiyalarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va malaka oshirish;
- simulyatsion laboratoriyalar tashkil etish;
- xalqaro tajribalarni joriy etish;
- o‘quv dasturlarini integratsiyalash;
- pedagogik ssenariylar bazasini yaratish;
- raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish.

Maktabgacha ta’lim uchun:

- “virtual bog‘cha” modellari yaratish;
- real pedagogik vaziyatlar bankini shakllantirish;
- rolli o‘yinlar metodikasini takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, simulyatsion texnologiyalarni oliy ta’lim tizimiga joriy etish bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki zamonaviy kompetensiyalarga ega, amaliy faoliyatga tayyor va raqobatbardosh pedagog kadrlarni shakllantirishning strategik yo‘nalishidir. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim

yo‘nalishida ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llash kelajak avlod tarbiyasining sifatini ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
2. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son
3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.02.2026 yildagi PF-19-son
4. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to’g’risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.07.2025 yil VMQ-423-son
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006.
6. Gredler M. Simulation in Education. – 2004.
7. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.
8. Lavrentyev G.V., Lavrentyeva N.B. Innovatsionnie obuchayushie texnologii. – Barnaul, 2004.
9. Nizomova Z. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogika. – T.: 2019.
10. Saidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
11. Semyonov P.S. Simulyatsionnoe obuchenie v pedagogike. – M.: 2015.

12. Shodiyeva Q. Maktabgacha ta’limda innovatsion faoliyat: nazariya va amaliyot. – T., 2021.

13. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

ADAPTIVE-INTEGRATIVE MODEL OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCES IN ENGINEERING STUDENTS

Butaev Tukhtasin

Kokand State University

Email: btuxtasin1957@hgmail.com

Aroyev Dilshod

Kokand State University

Email: dilshod_aroyev@mail.ru

Abstract. *This article highlights the need to develop entrepreneurial competencies to increase the competitiveness of engineering students in the modern labor market. The study analyzes the adaptation of the international model EntreComp to the field of engineering, the role of the "engineer-entrepreneur" personality in a three-dimensional (3D) skill matrix and coaching technology. Also, within the framework of the "University 3.0" concept, proposals were made on the mechanisms for the commercialization of technical developments.*

Keywords: *engineering education, entrepreneurial competence, EntreComp model, adaptive architecture, skills matrix, coaching, University 3.0, commercialization.*

Introduction

High education system by 2030 develop in the concept , young people supreme education with cover to take level , by 2030 up to 50 percent to deliver This process is defined that much supreme educated young people , that is new labor resource work place for claimant to be means . Work resource with related numbers from the year per year exceed It goes on and on . This is the footage .

labor to find bread at the market for strong struggle the beginning means . In wrestling victory earning , working to be for University graduate how knowledge and to skills has to be need ?

Observations this shows that currently technique in the direction of supreme educated expert as , itself work instead of has not happened most (about 30–40 percent) are engineers supreme information not required in the fields , or specialty suitable unreachable in the fields to work forced is happening [1]. Also, again one group (about 20–30 percent) of engineers more money working find , or busyness provision for the purpose of entrepreneurship of activity various to the layers joined This is the situation . or conscious accordingly , or out of necessity , happens to give It is possible . Noting that to pass okay , entrepreneurship with engaged in , or business to do those who want most layer business in the field not only necessary , but minimal knowledge and entrepreneurship also has skills not . Therefore, they are not ready to meet the demands of today's market economy. Most of these cases end with the crisis of the business entity .

In the current complex market economy, the mere possession of technical skills by a graduate of an engineering university, that is, knowledge of the design and operation of technical equipment, the ability to assemble, install, adjust, and design it, cannot guarantee that he will occupy a strong position in the labor market, benefit the economy, and always maintain a good level of economic opportunities for his family needs.

Current in phase of the economy the situation before the university new tasks First of all , the new technologies development high photos due to , continuous education to get , necessary knowledge by himself / herself to master capable personnel preparation issue current to be remains . From this apart from , independent entrepreneurship for every how in the direction expert preparation , today of education important structural part this is entrepreneurship the economy

development main driving force power was class as formation opportunity gives . Local technician developments commercialization Uzbekistan innovative the economy develop on the road take goes .

Literature review.

The implementation of an approach based on entrepreneurial competencies in education allows the formation of a model of a specialist who is ready for practical activity immediately after graduation from a higher educational institution. However, to achieve this result, it is necessary to update both the content and technology of the educational process. Education, first of all, should be aimed at forming close links and connections between science and production and should correspond to the requirements of production and trends in social development [2, 3].

There is a shortage of personnel among engineering graduates, which can be caused by a number of reasons, including: inadequate working conditions, unsatisfactory salaries, remoteness of the workplace, and many other circumstances [4]. Most importantly, the inability of a highly educated engineer to adapt to the labor market is also a serious problem.

Today, it is becoming increasingly clear that it is an urgent task to activate the intellectual capital of our country, to form a new class of entrepreneurs - engineers, who are able and ready to carry out entrepreneurial activities based on the implementation of creative ideas and projects, the creation of new technical samples, models and their implementation. However, young engineers often cannot connect the concepts of "business" and "technical creativity", since the commercialization of their technical ideas remains a very imaginary prospect for them.

Currently, there are still not enough innovative enterprises in Uzbekistan that introduce new technologies based on the latest achievements of science and technology. Business development in the field of production of technical,

electrical, electrotechnological and electronic devices remains less popular than business related to the promotion and sale of foreign (imported) goods in the domestic market.

It is appropriate to ask the following pertinent questions:

– Why are there so few applicants in our country who want to start a business producing information technology equipment, effectively using local raw materials and materials?

– Why are there so few aspiring engineers in our country who want to start a business based on the development and production of electrical and electrotechnical equipment using 100% local raw materials and materials?

To date, it remains important to identify the factors that underlie the formation of entrepreneurial readiness in future engineers. The entrepreneurial knowledge and skills acquired by an engineer in economic sciences do not guarantee their use in subsequent practical activities [5].

What are the needs for developing entrepreneurial competencies in students of engineering disciplines at higher education institutions, and what is the importance of these competencies for future engineers, as well as for society and the economy?

The first requirement is that future engineers, in addition to their professional competencies, must also possess entrepreneurial competencies in order to enter the current and future modern, complex, and highly competitive labor markets, obtain and maintain their jobs for a long time [8, 9, 10, 11, 12].

The second necessity is the gradual introduction of the "University 3.0" concept, which implies the inextricable link between education, science, innovation, and commercialization of research results in higher education institutions, as part of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030.

The main tasks of the concept are:

-The third generation university should not only provide knowledge, but also inextricably link science and education with the activities of bringing innovative research results to the market;

- In this model, to develop business processes at a high level and establish effective and mutually beneficial relationships with real business entities.

Within the framework of this concept, the issue is to develop entrepreneurial competencies in engineering students, that is, to ensure that graduates enter the labor market not as "job seekers", but as **"employers" .**

Thus, in the third-generation university "University 3.0", along with science and education, innovation and commercialization of research results are also carried out. A methodological basis is created so that students' technical developments (for example, microcontroller systems or smart devices) do not remain just theory, but turn into a real market product or a startup in the form of a virtual company. Through the commercialization of local technical developments, Uzbekistan will move towards an innovative economy and intellectual capital will be activated.

Research Methodology

In the context of the transformation of engineering education, the international model of the European Union EntreComp (The Entrepreneurship Competence Framework) serves as a methodological basis for the formation of students' entrepreneurial competencies. However, this model should be adapted not in a universal form, but on the basis of "Adaptive Architectonics", taking into account the technological characteristics of the engineering field.

Within the framework of the study, the 15 core competencies in the EntreComp model can be adapted to the engineering field within three main areas (ideas and capabilities, resources, and action):

1. “Ideas and Opportunities” area (engineering creativity): At this stage, the “Identification of Opportunities” and “Creativity” competencies in EntreComp

are integrated with the “Design of Technological Solutions” of engineering. That is, the student is directed to create not just a business idea, but an innovative and cost-effective solution to a technical problem (engineering development). The “Ethical and Sustainable Thinking” competency is enriched with the principles of creating ecological and energy-efficient technologies in engineering.

2. “Resources” area (management of technological potential): In engineering architecture, the competency “Mobilizing Resources” is directly interpreted as “Optimizing Technological Resources and Laboratory Base”. “Financial and Economic Literacy” is adapted in engineering through the concepts of production cost, energy efficiency of devices and technological audit. “Mobilizing Others” is transformed into the skill of managing engineering teams and project groups (SCRUM, Agile).

3. “Action” domain (Commercialization of Engineering Projects): The “Initiative” and “Planning and Management” competencies are aligned with the “Project Management and Prototyping” stages in engineering. Most importantly, the “Working with Uncertainty, Uncertainty, and Risk” competency in EntreComp serves to increase the student’s cognitive resilience through technological errors and the “failure-driven learning” strategy in engineering.

This developed "Adaptive Architectonics" determines that the entrepreneurial competencies of engineering students are not just theoretical, but also technological and practical in nature. This structure of the model will serve as a methodological basis for transforming students' technical developments (for example, microcontroller systems or smart devices) into real market products within the framework of electronics sciences.

When we observe an entrepreneur, we notice certain qualities in him. These qualities are not so common in representatives of other professions. However, these are not the “basic” properties or aspects of character that are traditionally focused on. They are rather a commonality of perception, decision-making, action

and skills that are formed at certain stages of business life, change their appearance as the business grows, develops and changes, and move from one quality state to another [6, 7].

Based on the principle of “integrative integration”, a skills matrix can be developed that defines the trajectory of a student's professional growth. This matrix represents a three-dimensional (3D) system that logically connects the student's engineering potential with entrepreneurial practice.

1. Structure and hierarchy of the skills matrix

The matrix is formed according to three main vectors, based on the specific characteristics of the "engineer-entrepreneur" personality:

- Vector A (Hard skills - Technical excellence): Design , analysis , technological processes management .
- Vector B (Soft skills - Personal efficiency): Communication , teamwork leadership , adaptability .
- Vector C (Business skills - To the market orientation) : Financial modeling , startup management , marketing.

Matrix intersection at points student's " Innovative" "competence " level For example , Hard and Business skills intersected " Product " in the place commercialization ability ”, the intersection of Soft and Business in place and " Networking" and investment attraction " to do " skill to the surface is coming .

2. Coaching technology : development interactive mechanism

In the matrix skills student to the person to absorb for traditional education from the style give up passing , coaching technology current to grow offer Coaching is to the student ready solutions to give not , maybe in it hidden entrepreneurship " question -answer " and " directed " support " through to the surface release is a process .

Coaching technology stages (GROW model based on):

1.G (Goal) - Goal Designation : Engineering from the idea come out , clear business goal formation (for example , within 6 months) product prototype sale).

2.R (Reality) - Reality analysis To do : Student there is skills matrix according to diagnostics to do

3.O (Options) - Options : Idea done increase engineering and economic Seeing the ways (variability) exit

4.W (Will) - Will and Action: Creating a clear plan of action and taking responsibility.

3. Coaching pedagogical-psychological opportunities

In the coaching process, the teacher moves from being a "distributor" to a "facilitator" and "mentor". This is engineering in students :

- Independent decision acceptance to do (Subjectivity);
- From dangers Risk management ;
- His/ her own strong and weak sides impartial evaluation (Reflection) qualities shapes .

In our research engineer-entrepreneur competence profile traditional linear from the approach different dead , three dimensional matrix in appearance was formed . This The matrix of Hard (special) , Soft (flexible) and Business skills each other impact the area defines (Table 1) .

Table 1 .

Engineer- entrepreneur competencies integrative matrix

Skills group	Components (Matrix) elements)	Engineer-entrepreneur in person function
Special (Hard skills)	Design , technological modeling , IT literacy , engineering analysis .	The project technician perfection and safety supply (Base).
Flexible (Soft skills)	Creativity , communication , leadership ,	Engineering the idea to the team presented to grow

	teamwork performance , adaptability .	and variable to the environment adaptation (Mechanism).
Business skills	Financial planning , marketing, startup management , investment analysis .	Technical the solution commercialization and market to the need coordination (Result).

How the student's theoretical knowledge is transferred to practical entrepreneurial activities is carried out through the following mentoring and consulting processes:

- Transfer to practice through mentoring: Engineering solutions obtained in theoretical classes (for example, developments in electronics or mechatronics) are analyzed under the guidance of mentors as part of the elective course "Entrepreneurship in the Industry". The mentor guides the student in commercializing the idea, adapting its technical capabilities to market requirements, and developing personal qualities (initiative, decision-making).
- Consulting and networking interactivity: At this stage, the student's theoretical project is evaluated by experts (consulting) from a legal and economic perspective. Within the content-methodological block, the student establishes networking (communication) with representatives of industry and business through the "engineering business" cooperation.
- Mentoring-Consulting-Practice Chain: The student's theoretical and technical knowledge is combined with the mentor's practical experience and the strategic advice of the consulting service, resulting in a tangible product in the form of a "startup" project or virtual company. This mechanism serves to transform the student from a mere "job seeker" into a "job creator" engineer-entrepreneur.

As a practical result of this block, students will be provided with a high level

of targeted training in the creation of corporates, virtual and practical firms, and digital business.

conclusion , it is worth noting that the development of entrepreneurial competencies in engineering graduates of higher education is of great importance and urgent issues in order for them to withstand competition in the labor market and get their own jobs or to become specialists with their own business projects and bring economic benefits to society , that is, to independently engage in entrepreneurial activities in their specialty. Also, since 30-40 percent of engineering graduates cannot find work in their specialty, the formation of entrepreneurial skills in them is a requirement of the time. The level of commercialization of scientific developments can be increased by introducing the concept of “University 3.0”. It is necessary to establish a mentoring and consulting chain in order to raise students to the level of engineer-entrepreneurs, not just “job seekers”, but also “employers” (startup creators).

References

1. V. Novikov. Engineering without work: the reason for the unemployment of 40 thousand specialists in Uzbekistan. https://nuz.uz/2024/06/21/inzhenery-bez-raboty-prichiny-ezhegodnoj-bezraboticzy-40-tysyach-speczialistov-v-uzbekistane/

2. I.S. Baidzhanov. Key problems of higher education in Uzbekistan and vozmozhnye puti ix solutions // Nauka i obrazovanie segodnya. 2025. #2 (83).

3. Sushkova I.A. Forming a new model of education - basic requirements for neoindustrial development // Basics. - 2017. – No. 2 (2). - S. 14–21.

4. Bo'tayev T., Namozova M. , Nabixonov CL Technique direction in students entrepreneurship competencies definition // Translation studies and pragmalinguistics progress trends : problems , solutions and Achievements :

International scientific and practical conference proceedings - Tashkent , 2022. - P. 288–292.

5. Butaev T., Begmatov XI, Haydarov XX Model for the training of engineer-entrepreneurs // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). - 2022. - Vol. 14. – Issue 06. DOI: 10.9756/INTJECSE/V14I6.265.

6. Butayev T. Technique in universities students to entrepreneurship preparation skills formation // Profession education . – Tashkent, 2025. – No. 2. – P. 185–189.

7. Doroshenko S.V., Eroshenko E.P. Sistema universitetskogo partnership kak factor razvitiya molodejnogo predprinimatelstva // Ekonomicheskie i sotsialnye peremeny: facts, tendencies, prognos. - 2018. - T. 11. – No. 6. – S. 244–258.

8 . How to become a successful businessman: the qualities of a successful entrepreneur [Electronic resource]. – URL : https :// lindeal . com / trends / kakim - dolzhen - byt - uspeshnyj - biznesmen - kachestva

9 . Khojaev HS University entrepreneurship activities – from the budget outside of funds important basis as // Economics and education – 2021. – No. 6. – P. 200–209.

10 . Jupley I.V., Potenko T.A., Kosienko R.S. Predprinimatelskie kompetentsii: vyzov injenernomu obrazovaniyu // Mir nauki. Pedagogy and psychology . – 2019. – No. 6.

11 . Akhmetshin E. et al. Acquisition of entrepreneurial skills and competencies: curriculum development and evaluation for higher education // Journal of Entrepreneurship Education. - 2019. - Vol. 22. – Issue 1. – P. 1–12.

12 . Talanov S.G., Gadjibabaeva A.A. Predprinimatelstvo v jiznennyx planax studentsov: gendernye razlichiya // Jenshchina v rossiyskom obshchestve. – 2019. – No. 1. – S. 52–63.

13 . Botayev T. Technician in the fields competitive personnel preparation prospects // New Uzbekistan economy development current Issues : Resp . scale scientific and practical conference proceedings . – Namangan , 2022. – 2nd volume. – P. 380–382.

“ONLINE TA’LIM” XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Paraxatova Gulzira Amanbay qizi
Toshkent Menejment va Kommunikatsiya Instituti
e-mail: gulziraparaxatova99@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda online ta’lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar, xususan onlayn platformalarning kengayishi va ularning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida onlayn ta’limning xarajatlarni optimallashtirish, vaqt va resurslardan samarali foydalanish, shuningdek, ta’lim xizmatlari bozorini kengaytirishdagi roli asoslab berilgan. Shu bilan birga, maskur sohada uchraydigan muammolar, jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va foydalanuvchilarning motivatsiyasi bilan bog’liq jihatlar ham tahlil qilingan. Natijada onlayn ta’lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va istiqbollari yuzasidan xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Onlayn ta’lim, iqtisodiy samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, ta’lim xizmatlari, innovatsiya.*

Abstract: *This thesis analyzes the economic efficiency of online education services. In the context of the digital economy, transformational processes in the education system, particularly the expansion of online platforms and their economic significance, are examined. The study highlights the role of online education in optimizing costs, ensuring efficient use of time and resources, and expanding the education services market. Additionally, existing challenges in this field, incuding insufficient technical infrastructure and issues related to user*

motivation, are analyzed. As a result, conclusions are drawn regarding the economic efficiency and future prospects of online education services.

Keywords: *Online educations, economic efficiency, digital economy, education services, innovation.*

Аннотация: *В данной работе анализируется экономическая эффективность онлайн-образовательных услуг. В условиях цифровой экономики рассматриваются трансформационные процессы в системе образования, в частности, расширение онлайн-платформ и их экономическое значение. В исследовании раскрывается роль онлайн-образования в оптимизации затрат, эффективном использовании времени и ресурсов, а также в расширении рынка образовательных услуг. Кроме того, анализируется существующие проблемы, включая недостаточное развитие технической инфраструктуры и вопросы мотивации пользователей. В результате сформулированы выводы об экономической эффективности и перспективах развития онлайн-образовательных услуг.*

Ключевые слова: *Онлайн-образование, экономическая эффективность. Цифровая экономика, образовательные услуги, инновации, дистанционное обучение, расширение рынка, использование ресурсов.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi ham tubdan o’zgarib bormoqda. Ayniqsa, onlayn ta’lim xizmatlari keng tarqalib, an’anaviy ta’limga muqobil sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayon nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Onlayn ta’lim o’zi nima?

Onlayn ta’lim (masofaviy ta’lim) zoom, telegram video chat, google, moodle, youtube va shunga o’xshash boshqa platformalar orqali joylanib boriladigan va tomosha qilish imkoni bo’lgan jarayonga aytiladi. Onlayn ta’lim

asosan 2020 yillarda pandemiya davrida ko'proq avj oldi. Albatta bu jarayon davlatimiz iqtisodiyoti uchun yildan yilga ko'proq samarali boldi. Onlayn ta'limda masofaviy ta'limni joriy etish 2022 yil oktabr oyida hukumat qarori bilan oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish tog'risidagi nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra 2023-2024 o'quv yilidan boshlab davlat va xususiy oliygohlarga masofaviy ta'limga ruxsat berildi.

Onlayn ta'lim xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi bir necha jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

Birinchidan, xarajatlarning kamayishi kuzatiladi. An'anaviy ta'limda bino, transport, kommunal xizmatlar kabi qo'shimcha xarajatlar mavjud bo'lsa, onlayn ta'limda shu xarajatlar keskin kamayadi. Bu esa ta'lim xizmatlarini arzonroq narxda taklif etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, vaqt va resurslardan samarali foydanish ta'minlanadi. Talabalar o'zlariga xulay vaqtda darslarini o'zlashtirishi mumkin, bu esa ish bilan ta'limni birgalikda olib borish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, bozor qamrovi kengayadi. Onlayn ta'lim geografik cheklovlarni bartaraf etadi, natijada bir oqituvchi yoki platforma bir vaqtning o'zida turli hududlardagi talabalarni qamrab olishi mumkin. Bu esa daromadni oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan. Yangi ish o'rinlari yaratiladi. Onlayn platformalari rivojlanishi bilan dasturchilar, marketologlar, kontent yaratuvchilar kabi mutaxassislarga talab ortadi.

Shu bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Internet sifati, texnik vositalarning yetishmasligi hamda ayrim hollarda motivatsiya pasayishi onlayn ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, onlayn ta'lim xizmatlari iqtisodiy jihatdan samarali va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. U xarajatlarni kamaytirish, daromad imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish orqali

iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Kelejakda raqamli texnologiyalar yanada rivojlanishi bilan onlayn ta’limning ahamiyati yanada ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli iqtisodiyot va ta'limni rivojlantirishga oid qarorlar va farmonlar. – Nashr sanasi ko'rsatilmagan. – Bet ko'rsatilmagan.
2. edX. Ta'lim platformasi ma'lumotlari. – Nashr sanasi ko'rsatilmagan. – URL: https://www.edx.org
3. Khan Academy. Ochiq ta'lim resurslari. – Nashr sanasi ko'rsatilmagan. – URL: https://www.khanacademy.org

TERMODINAMIKA BO‘LIMINI FIZIKA, MATEMATIKA VA KIMYO FANLARI INTEGRATSIYASIDA O‘QITISHNING INNOVATSION METODLARI

Turaxujayev Anvarxuja Abbasxuja o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti

atoraxojayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada termodinamika bo‘limini fizika, matematika va kimyo fanlarining integratsiyasi asosida o‘qitishning innovatsion metodlari ko‘rib chiqiladi. Muammoli ta’lim (PBL), teskari sinf (flipped classroom), oshirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari va hamkorlik ta’limini birgalikda qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish sifati va fanlararo muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil etiladi. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etilib, tajriba guruhi (n=40) va nazorat guruhi (n=38) o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkazildi. Pre-test va post-test natijalari integratsion innovatsion yondashuvning o‘quvchilar bilimini an'anaviy usulga nisbatan sezilarli oshirganini ko‘rsatdi (p<0.001). Maqola O‘zbekiston ta’lim islohotlari doirasida STEM yondashuvini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *termodinamika, fanlararo integratsiya, innovatsion o‘qitish, muammoli ta’lim, STEM, oshirilgan haqiqat, o‘quvchi motivatsiyasi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются инновационные методы обучения разделу термодинамики на основе интеграции физики, математики и химии. Анализируется применение проблемно-*

ориентированного обучения (PBL), перевёрнутого класса, технологий дополненной реальности (AR) и кооперативного обучения. Исследование проведено с применением квазиэкспериментального дизайна: экспериментальная (n=40) и контрольная (n=38) группы сравнивались по результатам пре- и пост-теста. Результаты подтверждают значительное повышение уровня концептуального понимания и учебной мотивации при интегративном подходе по сравнению с традиционным (p<0,001).

Ключевые слова: *термодинамика, межпредметная интеграция, инновационное обучение, проблемное обучение, STEM, дополненная реальность, учебная мотивация.*

Annotation: *This paper examines innovative methods for teaching thermodynamics through the integration of physics, mathematics and chemistry. Problem-based learning (PBL), flipped classroom, augmented reality (AR) and cooperative learning approaches are analysed. The study used a quasi-experimental design comparing an experimental group (n=40) and a control group (n=38) via pre- and post-tests. Results confirm that the integrative innovative approach significantly improves students' conceptual understanding and learning motivation compared to traditional instruction (p<0.001). The paper concludes with evidence-based recommendations for strengthening the STEM approach within Uzbekistan's educational reform context.*

Keywords: *thermodynamics, interdisciplinary integration, innovative teaching, problem-based learning, STEM, augmented reality, student motivation.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirishni milliy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilab: *“Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri*

muhtaram muallimlarga bog‘liq” deb ta’kidlagan [11]. 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida esa “*ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”* degan qat’iy qaror ifodalangan [12]. 2022–2026 yillar Milliy dasturi (PF-134-son) aniq va tabiiy fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [13].

Termodinamika - fizika, kimyo va matematikaning kesishuv nuqtasida joylashgan fundamental soha bo‘lib, uning mazmunini bir fan doirasida to‘liq o‘rgatish mumkin emas. [1] Dreyfus, Geller, Meltzer va Sawtelle (2015) ta’kidlaganidek, fizika, kimyo va biologiya fanlarida termodinamikani o‘qitish bo‘yicha alohida adabiyotlar bazasi shakllanib bo‘lgan, biroq bu fanlar orasidagi o‘zaro aloqa hali ham juda cheklangan darajada qolmoqda. Shu sababli termodinamika bo‘limini o‘qitishda an’anaviy bir-fanli yondashuv o‘quvchilarda noto‘g‘ri kontseptsiyalar shakllanishiga, tushunchalarni mexanik o‘rganishga va real hayotiy muammolarga bilimni tatbiq eta olmaslikka olib kelmoqda. g‘

Natalis va Leyh (2025) Scopus va ERIC ma’lumotlar bazalaridan tanlangan 315 ta maqolni tizimli ko‘rib chiqqan holda, entropiya va termodinamikaning ikkinchi qonunini o‘qitishda asosiy to‘siq - mavhum matematikaviy murakkablik, makroskopik va mikroskopik tushunchalar o‘rtasidagi ko‘prikning yo‘qligi hamda o‘quvchilarda musbat munosabat shakllantirishning qiyinligidir, degan xulosaga kelgan. Bu muammolar, o‘z navbatida, fanlararo integratsiya va innovatsion metodlarni joriy etish zaruriyatini qat'iy belgilab beradi. [2]

Gao, Li, Shen va Sun (2020, International Journal of STEM Education) termodinamika va boshqa tabiiy fanlarda fanlararo STEM ta’limini baholash bo‘yicha 2000–2019 yillar orasida chop etilgan 47 ta tadqiqotni o‘rgangan. Ular shuni aniqlaganki, fanlararo integratsion yondashuv nafaqat bilim o‘zlashtirishni, balki muhandislik va texnologiya ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham sezilarli

yaxshilaydi. [3] English (2023, ZDM Mathematics Education) esa STEM asosidagi muammo yechish jarayonida matematikaviy tafakkurning markaziy rolini ko‘rsatib, integratsion ta’lim o‘quvchilarning kognitiv moslashuvchanligini oshirishini isbotlagan. [4]

Ushbu maqola quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: (1) termodinamika bo‘limini fizika, matematika va kimyo fanlarining integratsiyasida o‘qitishning innovatsion metodlarini tahlil etish; (2) Metodologiya bo‘limida ko‘rsatiladigan pedagogik tajriba natijalarini jadval va grafiklar orqali asoslash; (3) O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ASOSIY QISM

Termodinamikani o‘qitishdagi muammolar va fanlararo integratsiya zarurati

Dreyfus va boshqalar (2015, American Journal of Physics, Scopus/WoS) ta’kidlaganidek, termodinamika fizika, kimyo va biologiyani bog‘lovchi universal yo‘nalish bo‘lishiga qaramay, bu fanlar doirasidagi o‘qitish usullari bir-biridan keskin farq qiladi. Fizikada termodinamika makroskopik tizimlar nuqtai nazaridan (P, V, T o‘zgaruvchilari), kimyoda esa entalpiya, entropiya, Gibbs erkin energiyasi orqali ko‘rib chiqiladi. Matematika fani esa bu ikkala yondashuvni birlashtiruvchi tildir. Lekin o‘quvchilar ko‘pincha $\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ formulasini kimyo fanida ko‘rishadi, fizika darsida Karnot sikli samaradorligini hisoblaydi, matematika darsida esa differensial tenglamalarni yechadi - biroq bu uchta bilim bloki ularda birlashmaydi. [1]

Natalis va Leyh (2025, Chemistry Education Research and Practice, RSC; Scopus Q1) olib borgan meta-tahlil shuni ko‘rsatdiki: entropiyani o‘qitishda berilgan turli yondashuvlar - kundalik hayot bilan bog‘lash, vizualizatsiya, o‘yinlar va simulatsiyalar, tartibsizlik metaforasi tanqidi - katta effekt o‘lchamiga

(d > 0.8) ega. Biroq bu yondashuvlarning aksariyati bitta fan kontekstida qo‘llaniladi va fanlararo integratsiya etishmayapti. [2]

[5] Sari va boshqalar (2023, Tadris: Jurnal Keguruan dan Ilmu Tarbiyah) termodinamikani o‘qitishda muammoli ta’lim (PBL) modelini sinab ko‘rgan: 27 nafar tajriba va 23 nafar nazorat guruhi ishtirokida o‘tkazilgan kvazi-eksperimental tadqiqotda PBL guruhi o‘quvchilari kontseptual tushunish va argumentatsiya ko‘nikmalarida nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan muhim farq ko‘rsatgan. Termodinamikada PBL ayniqsa samarali bo‘lib, Karnot sikli, issiqlik quvvati va issiqlik almashinuvi kabi mavzularda fizika va kimyo qonunlarini hamda matematikaviy modellarni bir vaqtda qo‘llashga majbur etadi.

Innovatsion metodlar va ularning fanlararo integratsiyaga ta’siri bu- Zamonaviy ta’lim paradigmasi bir necha asosiy innovatsion metodlarni qo‘llashni tavsiya etadi. Quyidagi 1-jadvalda an'anaviy va integratsion innovatsion yondashuvning mezonlar bo‘yicha taqqoslamasi keltirilgan.

1-jadval. An'anaviy va integratsion innovatsion yondashuvning taqqoslamasi

Mezon	An'anaviy usul	Integratsion innovatsion usul
Fanlararo aloqa	Minimal, bir fan doirasida	Fizika, kimyo, matematika birgalikda
O‘quvchi roli	Passiv qabul qiluvchi	Faol tadqiqotchi, muammo yechuvchi
O‘qitish usuli	Ma’ruza, ko‘chirib yozish	PBL, teskari sinf, simulatsiya, AR

Mezon	An'anaviy usul	Integratsion innovatsion usul
Matematika roli	Formulalarni qo‘llash	Modellash, differensial tenglamalar
Kimyo bog‘liqligi	Alohida mavzularda	$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ integratsiyasi
Baholash	Yozma imtihon	Portfolio, loyiha, kuzatuv
Motivatsiya	Tashqi (baho)	Ichki (qiziqish, amaliy bog‘liqlik)

Zheng, Bhagat, Zhen va Zhang (2020, Journal of Educational Technology & Society, Scopus) 40 ta tadqiqotni o‘rganib, teskari sinf modeli o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari va motivatsiyasiga o‘rtacha va yuqori darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Termodinamikada teskari sinf modeli ayniqsa samarali: o‘quvchilar uyda video ma’ruzalardan Boyl, Gay-Lyussak qonunlarini o‘rganib keladi, sinf vaqtida esa differensial tenglamalarga asoslangan masalalarni kimyoviy reaksiyalar bilan bog‘liq holda guruhda ishlaydi. [6]

Li, Fu, Liu va Hwang (2025, Review of Educational Research, Scopus Q1) teskari sinf bo‘yicha 2-darajali meta-tahlil o‘tkazib, umumiy effekt $g = 0.726$ ($p < 0.0001$) ekanini aniqlagan. Kognitiv, affektiv va xulq-atvor natijalari barchasi ijobiy, biroq kontekstga bog‘liq. Fizika fanida teskari sinf ayniqsa matematik muammolarni sinf ichida hal etish imkonini berishi tufayli samarali hisoblanadi. [7]

Xing, Huang va boshqalar (2023, Computers & Education, Scopus Q1) termodinamikani oshirilgan haqiqat (AR) va o‘quv tahlillari bilan o‘qitishni sinab ko‘rdi. Infraqizil tasvirlash va interaktiv raqamli materiallarni birlashtirgan yondashuv o‘quvchilarning issiqlik almashinuvi va konduksiya mavzularidagi

kontseptual tushunishini sezilarli oshirdi. O‘quvchilar molekulalar harakati va temperaturaning makroskopik ta’sirini vizual ravishda kuzatib, abstrakt formulalarni aniq hodisalarga bog‘lay oldi. [8]

2-jadval. Termodinamika bo‘limida qo‘llanilgan innovatsion metodlar

Metod	Termodinamikadagi mavzu	Fanlar integratsiyasi	Asosiy manbalar
Muammoli ta’lim (PBL)	Karnot sikli, issiqlik almashinuvi	Fizika + Kimyo + Matematika	Dreyfus va boshq. [1]; Sari va boshq. [5]
Teskari sinf (Flipped Classroom)	Termodinamika qonunlari, entropiya	Fizika + Matematika	Zheng va boshq. [6]; Li va boshq. [7]
AR / Virtual laboratoriya	Molekulyar harakat, faza diagrammasi	Fizika + Kimyo	Xing va boshq. [8]; Zhao va boshq. [9]
Hamkorlik ta’limi	Gibbs erkin energiyasi, ΔG, ΔH, TΔS	Kimyo + Matematika	Natalis & Leyh [2]; Gao va boshq. [3]

Metodologiya: Tadqiqot dizayni, jarayon va pedagogik o‘lchov natijalari - Tadqiqot Toshkent shahrining umumta’lim maktablaridan birida, 10-sinf o‘quvchilari (N = 78) ishtirokida 2023–2024 o‘quv yilining termodinamika mavzusini o‘rganish davrida o‘tkazildi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (n = 40) va nazorat guruhi (n = 38). Guruhlar dastlabki bilim darajasi bo‘yicha teng bo‘lib (pre-test natijasida farq statistik jihatdan muhim emas, p = 0.59), bu ekvivaansligi ta’minladi.

Bilim baholash pre-test va post-test (100 ball), kontseptual tushunish maxsus testi, o‘quv motivatsiyasi MSLQ so‘rovnomasi (5 ballik), va fanlararo muammo yechish loyiha topshiriqlari orqali amalga oshirildi. Ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturida mustaqil t-test va Cohen d effekt kuchi ko‘rsatkichi yordamida tahlil etildi.

3-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarining ko‘rsatkichlari taqqoslamasi

Ko‘rsatkich	Nazorat guruh (n=38)	Tajriba guruh (n=40)	Farq (%)	p-qiymat
Pre-test o‘rtacha ball (100 dan)	41.2	42.1	+0.9	0.59
Post-test o‘rtacha ball (100 dan)	61.3	78.6	+28.2%	<0.001
Kontseptual tushunish testi	54.3	74.8	+37.8%	<0.001
O‘quv motivatsiyasi (5 ballik)	3.1	4.4	+41.9%	<0.001
Fanlararo muammo yechish (%)	38.7%	73.4%	+89.7%	<0.001

3-jadval natijalariga ko‘ra, pre-test bosqichida ikki guruh o‘rtasida statistik farq kuzatilmagan (p = 0.59), bu ularning tenglashtirilganligini tasdiqlaydi. Post-test natijalarida tajriba guruhi (M = 78.6) nazorat guruhiga (M = 61.3) nisbatan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik jihatdan muhim ustunlikni ko‘rsatgan. O‘quv motivatsiyasi eng katta o‘sishni qayd etgan (+41.9%), bu integratsion innovatsion yondashuvning affektiv domenga kuchli ta’sir etishini ko‘rsatadi. [14] Usova (1981) fanlararo aloqalar nazariyasida ta’kidlaganidek, fanlar

o‘rtasidagi mazmuniy va vaqtinchalik muvofiqlashtirish o‘quvchilarning bilim tizimini yaxlit holda shakllantirishga xizmat qiladi - tadqiqot natijalari ushbu nazariyani amalda tasdiqlaydi.

Termodinamik kontseptsiyalar va fanlar birlashuvining didaktik sxemasi- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilgi qaroriga binoan oliy ta’lim tizimida xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish, xorijiy tajribadan foydalanish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish belgilangan. Shu asosda termodinamikani o‘qitishda quyidagi didaktik sxema taklif etiladi: Fizika fanida - termodinamikaning qonunlari, issiqlik mashinalari, Karnot sikli; Kimyo fanida - entalpiya (ΔH), entropiya (ΔS), Gibbs erkin energiyasi ($\Delta G = \Delta H - T\Delta S$) va kimyoviy muvozanat; Matematika fanida - differensial tenglamalar, integral hisob, grafik tahlil va numerik modellashtirish. Bu uchala yo‘nalish birlashib, o‘quvchida yaxlit termodinamik tasavvur hosil qiladi. [15]

Mirziyoyev (2019) o‘qituvchi va murabbiylar bilan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta’kidlaganidek: "O‘qituvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak." Bu so‘zlar termodinamika kabi murakkab fanlarni integratsion yondashuv bilan o‘qitish uchun o‘qituvchi malakasini oshirishning qanchalik muhimligini ta’kidlaydi. [11]

XULOSA

Termodinamika bo‘limini fizika, matematika va kimyo fanlarining integratsiyasida innovatsion metodlar yordamida o‘qitish an’anaviy bir-fanli yondashuvga nisbatan bir qator muhim ustunliklarga ega ekanligini tadqiqot natijalari qat'iy tasdiqladi. Muammoli ta’lim (PBL) o‘quvchilarni real muammolar orqali fizika, kimyo va matematikani bir kontekstda qo‘llashga undaydi. Teskari sinf modeli sinf vaqtini faol o‘rganishga ajratish imkonini

beradi. AR texnologiyasi mavhum termodinamik jarayonlarni ko‘rinib, his qilinadigan darajaga tushiradi. Hamkorlik ta’limi esa guruhiy muhokama orqali kontseptual bilimni chuqurlashtiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: birinchidan, termodinamika va boshqa tabiiy fanlar o‘rtasida muvofiqlashtirish guruhlarini tashkil etish; ikkinchidan, o‘qituvchilarni fanlararo integratsion metodikaga o‘rgatish bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish; uchinchidan, maktab va oliy o‘quv yurt laboratoriyalarini virtual simulatsiya va AR imkoniyatlari bilan jihozlash; to‘rtinchidan, milliy o‘quv dasturlarida termodinamika bo‘limini Scopus va WoS maqolalar asosida yangilash. Kelajakdagi tadqiqotlarda o‘quvchilar yosh guruhlari va maktab turlarini kengaytirish, hamda uzoq muddatli kuzatuvlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Dreyfus B.W., Geller B.D., Meltzer D.E., Sawtelle V. Resource Letter TTSM-1: Teaching Thermodynamics and Statistical Mechanics in Introductory Physics, Chemistry, and Biology // American Journal of Physics. – 2015. – Vol. 83. – № 1. – DOI: 10.1119/1.4891673. (Scopus, WoS)

[2] Natalis V., Leyh B. Improving the teaching of entropy and the second law of thermodynamics: a systematic review with meta-analysis // Chemistry Education Research and Practice. – 2025. – Vol. 26. – P. 9–33. – DOI: 10.1039/D4RP00158C. (Scopus Q1, RSC Publishing)

[3] Gao X., Li P., Shen J., Sun H. Reviewing assessment of student learning in interdisciplinary STEM education // International Journal of STEM Education. – 2020. – Vol. 7. – Art. 24. – DOI: 10.1186/s40594-020-00225-4. (Scopus Q1, WoS)

[4] English L.D. Ways of thinking in STEM-based problem solving // ZDM – Mathematics Education. – 2023. – Vol. 55. – № 7. – DOI: 10.1007/s11858-023-01474-7. (Scopus Q1, WoS)

[5] Sari D.A. et al. Applying Problem-Based Learning in Thermodynamics to Enhance Comprehension of Physics Concepts and Argumentation Skills // Tadris: Jurnal Keguruan dan Ilmu Tarbiyah. – 2023. – Vol. 8. – № 1. – DOI: 10.24042/tadris.v8i1.14607.

[6] Zheng L., Bhagat K.K., Zhen Y., Zhang X. The Effectiveness of the Flipped Classroom on Students' Learning Achievement and Learning Motivation // Journal of Educational Technology & Society. – 2020. – Vol. 23. – № 1. – P. 1–15. (Scopus, WoS)

[7] Li S., Fu W., Liu X., Hwang G.-J. Effectiveness of Flipped Classrooms for K-12 Students: Evidence from a Three-Level Meta-Analysis // Review of Educational Research. – 2025. – DOI: 10.3102/00346543241261732. (Scopus Q1, WoS)

[8] Xing W. et al. Teaching thermodynamics with augmented interaction and learning analytics // Computers & Education. – 2023. – Vol. 195. – Art. 104709. – DOI: 10.1016/j.compedu.2023.104709. (Scopus Q1, WoS)

[9] Zhao X., Ren Y., Cheah K.S.L. Leading VR and AR in Education: Bibliometric and Content Analysis from the Web of Science (2018-2022) // SAGE Open. – 2023. – DOI: 10.1177/21582440231190821. (WoS)

[10] Gong J., Chen M. et al. Exploring the Effectiveness of Flipped Classroom on STEM Student Achievement: A Meta-analysis // Technology, Knowledge and Learning. – 2023. – DOI: 10.1007/s10758-023-09700-7. (Scopus)

[11] Mirziyoyev Sh.M. Xalq ta’limi xodimlari bilan videoselektor yig‘ilishidagi nutq. – Toshkent, 2019. – 23 avgust. URL: http://insonhuquqlari.uz/oz/news/presidential-views-on-schooling

[12] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022. – 20 dekabr. URL: https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-sonli Farmoni. 2022–2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur. – Toshkent, 2022. URL: https://lex.uz/docs/-6008663

[14] Usova A.V. Mezhpredmetnye svyazi v uchebno-poznavatel'noy deyatel'nosti uchashchikhsya [Fanlararo aloqalar o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida]. – Moskva: Prosveshcheniye, 1981. – 159 s. [Rus tilida]

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. – Toshkent, 2019. URL: https://president.uz/oz/lists/view/420

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xodjayeva Mahliyoxon Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

makhliyo.khodjayeva.9315@mail.ru

Annotatsiya: *talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning pedagogik imkoniyatlari talabalarning mustaqil, tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning muhim omil ekanligini yoritadi. Ta’lim jarayonida motivatsion metod va texnologiyalardan foydalanish talabalarning faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy tavsiyalari keltirilgan.*

Tayanch tushunchalar: *tanqidiy fikrlash, motivatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayon, mustaqil fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy faoliyat, tahliliy ko‘nikmalar*

Аннотация: *развитие компетенции критического мышления у студентов на основе мотивационного подхода: педагогические возможности раскрывает значение мотивации как важного фактора формирования у студентов самостоятельного, аналитического и творческого мышления. Использование мотивационных методов и технологий в образовательном процессе способствует повышению активности студентов, развитию навыков анализа проблемных ситуаций*

и способности делать обоснованные выводы. Также представлены научно-теоретические основы и практические рекомендации по формированию компетенции критического мышления на основе современных педагогических подходов.

Ключевые понятия: *критическое мышление, мотивационный подход, педагогические технологии, образовательный процесс, самостоятельное мышление, компетентностный подход, творческая деятельность, аналитические навыки*

Annotation: *pedagogical opportunities of a motivational approach in developing students' critical thinking competence highlights the importance of motivation as a key factor in developing students' independent, analytical, and creative thinking skills. The use of motivational methods and technologies in the educational process contributes to increasing students' activity, improving problem-analysis skills, and developing the ability to draw well-reasoned conclusions. The article also presents scientific and theoretical foundations as well as practical recommendations for developing critical thinking competence based on modern pedagogical approaches.*

Key concepts: *critical thinking, motivational approach, pedagogical technologies, educational process, independent thinking, competence-based approach, creative activity, analytical skills*

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan axborot asrida oliy ta’lim tizimining eng muhim vazifasi yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarimizning nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega, qat’iy hayotiy pozitsiyali insonlar bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz lozim” [1]. Ushbu strategik vazifa oliy ta’lim muassasalarida talabalarning intellektual salohiyatini oshirishni,

ularda axborotni saralash va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi. Tanqidiy fikrlash - bu shunchaki axborotni qabul qilish emas, balki uni mantiqiy suzgichdan o‘tkazish va asoslangan xulosalar chiqarish san’atidir. Biroq, ta’lim jarayonida talabaning bu boradagi kognitiv faolligini oshirish uchun faqatgina metodik ko‘rsatmalar yetarli emas; bunda motivatsion yondashuv harakatlantiruvchi kuch vazifasini o‘taydi. Motivatsiya talabani passiv tinglovchidan izlanuvchan tadqiqotchiga aylantiruvchi asosiy pedagogik faktor hisoblanadi. Motivatsion yondashuv orqali talabalarda quyidagi pedagogik imkoniyatlar yuzaga keladi:

- ✓ Kognitiv faollik: Talaba darsda passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi.
- ✓ Refleksiya: O‘z bilimlaridagi bo‘shliqlarni anglash va ularni to‘ldirishga ehtiyoj sezish.
- ✓ Mustaqillik: Tashqi bosimsiz, ichki ehtiyoj tufayli muqobil yechimlarni izlash.

Ushbu pedagogik imkoniyatlarning yuzaga chiqishi, yakuniy natijada talabalarda quyidagi sifatlarning qaror topishiga xizmat qiladi:

Subyektlik pozitsiyasining shakllanishi: Talaba ta’lim jarayonining oddiy obyekti (qabul qiluvchisi) emas, balki uning ongli boshqaruvchisiga aylanadi. Bu esa olingan bilimlarning barqarorligini va ularni amaliyotda qo‘llash samaradorligini oshiradi.

Intellektual moslashuvchanlik: Motivatsion yondashuv orqali rivojlangan tanqidiy fikrlash talabaga nostandart vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot oqimidagi manipulyatsiyalarni farqlash va har qanday ma’lumotni mantiqiy süzgichdan o‘tkazish imkonini beradi.

Uzluksiz ta’limga tayyorlik (Life-long learning): Ichki motivatsiya asosida shakllangan mustaqillik va refleksiya ko‘nikmasi talabani o‘qishni bitirgandan keyin ham o‘z ustida ishlashga, doimiy ravishda malakasini oshirib borishga

o‘rgatadi. Motivatsion yondashuv talabani shunchaki ma’lumotlar bazasi bilan qurollantirib qolmay, balki unda metakognitiv kompetensiyalarni (o‘z fikrlash jarayonini tushunish va boshqarish) rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida yuqori baholanadigan tahliliy salohiyatga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrni tayyorlashning asosiy pedagogik shartidir. O‘zbekistonlik olimlardan R.Safarova kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda subyekt-subyekt munosabatlarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [2]. Ya’ni, o‘qituvchi talabani “fikrlashga majburlashi” emas, balki uni qiziqtira olishi (motivatsiyalashi) lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda motivatsiyaning o‘rni xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Masalan, D. Xalpern o‘zining “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” asarida fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda “shaxsiy moyillik va motivatsiya”ni intellektual qobiliyatdan ustun qo‘yadi [3]. Uning fikricha, agar talabada darsga nisbatan motivatsiya bo‘lmasa, u eng oddiy mantiqiy amallarni ham bajarishni istamaydi. Pedagogik texnologiyalar imkoniyatlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi motivatsion texnologiyalar samarali hisoblanadi:

“Case-study” (Muammoli vaziyatlar): talabalarga real hayotiy muammolar beriladi. Bu ularda “Bu muammoni men qanday hal qilgan bo‘lardim?” degan motivatsiyani uyg‘otadi.

Sokratik muloqot: Savol-javoblar orqali talabani zidiyatli nuqtalarni topishga yo‘naltirish.

Debatlar: O‘z nuqtai nazarini himoya qilish istagi (ijtimoiy motivatsiya) talabani chuqur tahlil qilishga majbur qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda motivatsiya - bu talabaning kognitiv (bilish) jarayonlariga ongli ravishda kirishishini ta’minlovchi triggerdir. Zamonaviy pedagogikada tanqidiy fikrlashni shakllantirish shunchaki intellektual mashq emas, balki shaxsning ijtimoiy moslashuvi sifatida qaraladi. P. Facione o‘zining chop etilgan tadqiqotlarida ta’kidlashicha: “Tanqidiy fikrlashga

moyillik (motivation to think) ko‘nikmaning o‘zidan muhimroqdir. Agar inson mantiqiy tahlil qilishni bilsa-yu, lekin undan foydalanishga xohishi (motivatsiyasi) bo‘lmasa, uning bilimi amaliy ahamiyatga ega emas” [4].

Talabalarda tanqidiy fikrlashni motivatsiyalash quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim: Kognitiv ziddiyat yaratish: Mashg‘ulot davomida talaba kutmagan, uning mavjud bilimlariga zid bo‘lgan ma’lumotni taqdim etish. Bu talabada “Nega shunday?” degan savolni va yechim topish motivini uyg‘otadi. Tanlov imkoniyatini berish: E. Deci va R. Ryanning “O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi”(Self-Determination Theory) ga ko‘ra, talaba topshiriqni bajarishda muayyan darajada mustaqil bo‘lsa, uning ichki motivatsiyasi maksimal darajaga ko‘tariladi [5]. Interfaol qayta aloqa: Faqat baholash emas, balki talabaning tahliliy mulohazalarini rag‘batlantirish. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion yondashuv talabani “nima deb o‘ylash”dan “qanday o‘ylash”ga yo‘naltiradi. Pedagogik imkoniyatlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya talabaning nafaqat darsdagi faolligini, balki uning professional yetukligini ham ta’minlovchi strategik resursdir.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlashini motivatsiyalash jarayoni tajriba-sinov ishlari davomida tahlil qilinganda, quyidagi natijalar kuzatildi. Motivatsion yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda talabalarning axborotni qabul qilish ko‘rsatkichi passiv holatdan faol-tahliliy holatga o‘tganligi namoyon bo‘ldi. R. Paul va L. Elder o‘zlarining so‘nggi tadqiqotlarida ta’kidlashicha, “Tanqidiy fikrlash - bu o‘z-o‘zini yo‘naltiruvchi, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi va o‘z-o‘zini tuzatuvchi fikrlashdir” [6]. Bu jarayonni harakatga keltirish uchun esa o‘qituvchi talabaning ichki “men”iga motivatsiya orqali ta’sir qilishi lozim. Pedagogik kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, motivatsion metodlar (muammoli ma’ruzalar, kognitiv o‘yinlar) qo‘llanilganda talabalarda:

- ✓ Mustaqil qaror qabul qilish darajasi 25-30% ga oshgan;

✓ Axborot ichidan kerakli va ishonchli manbani ajratib olish ko‘nikmasi shakllangan;

✓ O‘z fikrini dalillash (argumentatsiya) madaniyati rivojlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning imkoniyatlari juda keng. Mazkur yondashuv talabani shunchaki bilim oluvchidan, bilimni tahlil qiluvchi subyektga aylantiradi. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

O‘quv dasturlariga tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi motivatsion “Keys”larni ko‘proq kiritish.

Talabalarning mustaqil ishlarini baholashda ularning tahliliy yondashuviga alohida urg‘u berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent : O‘zbekiston nashriyoti, 2021. - 464 b.

2. Safarova, R.G‘. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish / R. G‘. Safarova va boshq. - Toshkent : Fan, 2010. - 120 b.

3. Halpern, D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking / D. F. Halpern. - 5th ed. - New York : Psychology Press, 2014. - 650 p.

4. Facione, P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts / P. A. Facione. - California : Insight Assessment, 2015. - 28 p.

5. Ryan, R.M. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being / R.M. Ryan, E.L. Deci // American Psychologist. - 2000. - Vol. 55, No. 1. - 68-78p.

6. Paul, R. The Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools / R. Paul, L. Elder. - 8th edition. - Rowman & Littlefield, 2020. - 48 p.

MODERN DIRECTIONS OF NATURAL SCIENCES, GEOGRAPHICAL RESEARCH AND SPACE STUDIES

BUVAYDA TUMANINING TABIIY-GEOGRAFIK SHAROITI VA LANDSHAFTLARIGA KOMPLEKS TAVSIF

Qurbonova Nargiza Shovkatjon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Buvayda tumani hududining tabiiy-geografik sharoiti va landshaftlari kompleks yondashuv asosida o‘rganilgan. Tumanning geografik o‘rni, relyefi, geologik tuzilishi, iqlim xususiyatlari, tuproq qoplami, o‘simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy sharoitining asosiy elementlarini tizimli o‘rganish orqali hudud landshaftlarining shakllanish qonuniyatlari ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Buvayda tumani, kompleks tavsif, voha, landshaft, iqlim o‘zgarishi, arid mintaqa.*

Аннотация: *В данной статье на основе комплексного подхода исследуются природно-географические условия и ландшафты Бувайдского района Ферганской области. Систематическое изучение основных элементов природных условий района, таких как его географическое положение, рельеф, геологическая структура, климатические особенности, почвенный покров, флора и фауна, позволило выявить закономерности формирования ландшафтов региона.*

Ключевые слова: *Район Бувайда, подробное описание, оазис, ландшафт, изменение климата, засушливый регион.*

Abstract: *This article studies the natural and geographical conditions and landscapes of the Buvayda district of Fergana region based on a comprehensive approach. Through a systematic study of the main elements of the natural conditions of the district, such as its geographical location, relief, geological structure, climatic features, soil cover, flora and fauna, the laws of formation of the region's landscapes were revealed.*

Keywords: *Buvayda district, comprehensive description, oasis, landscape, climate change, arid region.*

Kirish. Bugungi kunda hududlarning tabiiy-geografik sharoitini tizimli-kompleks o‘rganish, joylardagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ayniqsa, hududi qadimdan o‘zlashtilib kelingan, aholisi zich joylashgan va tabiiy landshaftlarga antropogen ta’sir muntazam ortib borayotgan hududlarda tabiiy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish va tizimli tahlil qilish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday turdagi tatqiqotlar hududiy rejalashtirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, landshaftlarni muhofaza qilish hamda ekologik muommolarni oldini olishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Hozirgi davrda iqlim o‘zgarishi, landshaftlarga bo‘lgan antropogen bosimning ortib borishi va ekologik muvozanatning buzilishi fonida hududlar tabiiy-geografik sharoitini kompleks o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Hududning tabiiy-geografik komponentlari nafaqat tabiiy geotizimlarning asosiy tarkibiy qismi balki resurs salohiyati yuqori bo‘lgan tabiiy geografik obyekt sifatida ham muhim ahamiyatli hisoblanadi. Biroq, ulardan to‘g‘ri foydalanish tartib qoidalari ishlab chiqilmasa yaqin kelajakda jiddiy geoekologik muammolar yuzaga kelishi mumkin va

hududning tabiiy va ekologik muvozanati barqarorligi buzilishini yanada jadallashtiradi. Mazkur holatlarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son farmoni “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.[1] Bu qonunda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish”,[2] 2024-yil 24-iyundagi PF-233-son “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari qabul qilingan.[3] Bunda asosiy e’tibor iqlim o‘zgarishlariga ta’sir etuvchi omillar va uning xo‘jalikning turli sohalari va tabiatga bo‘lgan ta’sirini kamaytirishga qaratiladi. Bundan kelib chiqadiki, hududlarni kompleks o‘rganish, muommoning asl sababini aniqlash, kuzatilayotgan o‘zgarishlarni tahlil qila olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maqsad va vazifasi. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi Buvayda tumani tabiiy sharoitiga ilmiy asoslangan kompleks tavsif berishdan iborat. Tumanning geologik tuzilishi va relyef xususiyatlarini tabiiy -geografik jihatdan tasniflash, hududda tarkib topgan landshaftlarni tavsiflash va ularning shakllanish xususiyatlarini o‘rganish, tabiiy resurslardan foydalanish fonida yuzaga kelayotgan muommolarni tahlil qilish ushbu ishning vazifasi hisoblanadi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Buvayda tumani Farg‘ona vodiysining tabiiy-geografik tuzilishi jihatidan o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, vodiyning shimoliy qismiga yaqin, markaziy tekislik hududida joylashgan. Bunday geografik o‘rin hududning tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi, tuproq-o‘simlik qoplami va landshaft tuzilishini ko‘p jihatdan Farg‘ona vodiysining markaziy

qismiga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlar asosida shakllanishiga olib kelgan. Buvayda tumani geografik joylashuviga ko‘ra Farg‘ona vodiysining past botiq voha qismida joylashganligi, tumanning iqlim sharoitlari, suv resurslari bilan ta’minlanganligi, yer osti suvlarining harakati va tuproqlarning sho‘rlanish darajasi hamda landshaft turlarining tarkib topishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Buvayda tumani Qo‘qon vohasi hududida joylashgan. Ma’muriy-hududiy chegaralariga ko‘ra Buvayda tumani janubiy va janubi-sharqiy tomondan Bag‘dod tumani, sharqdan Oltiariq tumani, janubi-g‘arb va g‘arb tomondan Uchko‘prik tumani, shimoli-g‘arb tomondan Dang‘ara tumani hamda shimoliy tomondan Namangan viloyati bilan chegaradoshdir. Bunday chegaralanish hududning iqtisodiy, transport va demografik aloqalarida muhim rol o‘ynaydi.[4]

Buvayda tumani Farg‘ona vodiysining markaziy botiq hududida joylashgan. Farg’ona vodiysi tektonik botiq sifatida poleozoy erasida vujudga kelgan. Poleozoy yotqiziqlari asosan vodiyni o’rab turgan tog’ tizimlarida uchraydi. Lekin shu davrlarda ham tektonik harakatlar tufayli dengiz havzasi Farg’ona hududini tark etadi va bu yerda tog’ tizmalari bilan birga juda katta maydonni egallab yotgan tog’ oralig’i tektonik botiq ham shakllangan. Buvayda tumani hududi shu tog‘ oralig’ining botiq qismida joylashgan. Mezozoy erasi tektonik harakatlarning biroz tinchroq rejim holati bilan xarakterlanadi. Quyi bo’r davrining oxiriga qadar tuman hududi kontinental sharoitda rivojlanadi. Shu bilan birga bo’r davrida vodiy yuzasi asta-sekin pasaya boradi va kontinental holat o’rnini suv havzasi egallaydi. Bo’r davrida Buvayda hududida ko’l allyuvial tekislik, chuchuk va sho’rtob suvli havzalar, sayoz dengiz hukmronlik qilgan. Paleogen yotqiziqlari asosan gil, mergel, dolomit, ohaktosh, gips va qumoq jinslardan tashkil topgan. Ularning eng qalin joyi 400 m ga yetadi. Paleogen davri mobaynida vodiy faqat tebranma harakatni boshdan kechiradi. Dastlabki tektonik ko’tarilishlar oligotsenning oxirida boshlanadi. Ana shu vaqtdan boshlab nafaqat tuman hududi balki Farg’ona vodiysi o’zining hozirgi qiyofasini egallay

boshlaydi va dengiz yotqiziqlari kontinental yotqiziqlar bilan almashinadi. Yuqoridagi tektonik harakatlar natijasida hududning geologik asosi allyuvial, prolyuvial va delyuvial yotqiziqlar tashkil topadi. Ushbu yotqiziqlar asosan qum, qumoq, gil va shag‘al qatlamlaridan iborat bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik uchun nisbatan qulay sharoit yaratadi.[5] Relyef jihatidan tuman hududi tekislikdan iborat bo‘lib, shimoliy qismida yengil to‘lqinsimon qum barxanlari saqlanib qolgan. Ushbu barxanlar o‘z holicha saqlanib qolingan tabiiy landshaftlar hisoblanadi. Mutlaq balandliklar dengiz sathidan 400–480 metr oralig‘ida o‘zgaradi. Relyefning tekisligi hududda irrigatsiya tizimlarini qurish, qishloq xo‘jaligi yerlarini keng miqyosda o‘zlashtirish va aholi punktlarini joylashtirish imkonini bergan. Shu bilan birga, past botiq relyef tufayli suvning tabiiy oqimini sekinlashadi va ayrim joylarda sho‘rlanish va botqoqlanish jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

So‘ngi yillarda bo‘layotgan iqlimiy o‘zgarishlar Farg‘ona vodiysida, jumladan Buvayda tuman hududida ham meteorologik kuzatishlar natijasida o‘z isbotini topmoqda. Hududda 1930-yildan 1960-yilgacha yanvar oyining o‘rtacha harorati -7,1^{o}C dan 0,8^{o}C gacha o‘zgargan. 2022-yida esa ushbu ko‘rsatkich eng maksimal darajaga 4,2^{o}C ga yetgan. Yozda esa iyulning o‘rtacha harorati 27,9^{o}C dan 26,8^{o}C gacha o‘zgarib turgan. Hozirda esa iyul oyining o‘rtacha harorati 30,3^{o}C yetdi. 1930-1960-yillarda o‘rtacha yillik harorat 12,5-14,7^{o}C orasida bo‘lgan. So‘ngi 5 yilda o‘rtacha yillik harorat 15,5^{o}C dan pastga tushmaganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘ngi yillarda tumanda shamollarning tezligi va takrorlanishi, kuchi ortib bormoqda.[6] Ayniqsa bahor va kuzda Mirzacho‘l tomondan Farg‘ona vodiysiga tomon esadigan, tezligi sekundiga 15-25 m ga yetadigan Qo‘qon shamoli ahamiyatlidir.

Buvayda tumanida tuproqlarning xilma xil bo‘lishi va ularning geografik tarqalishi grunt suvlarining yer yuzasiga yaqin yoki uzoq joylashuviga bog‘liq, chekka shimoliy qismlarida qum barxanlarini ham uchratish mumkin. Tumanga

tutash cho‘l mintaqasida tuproq qoplami sur-qo‘ng‘ir hamda och tusli tuproqlardan tashkil topgan bo‘lib, ushbu tuproqlarning asosiy qismi o‘zlashtirilib, qadimiy voha tuproqlariga aylantirilgan. Bundan tashqari o‘tloq, o‘tloq-botqoq tuproqlardan ham dehqonchilikda foydalaniladi.[6] Hududda tarkib topgan tuproq tiplari qishloq xo‘jaligini tashkil etish, ekin turlari va sug‘orish ishlarini tashkil etish turlarini belgilab beradi.

Buvayda va unga yondosh tumanlarda landshaftlarning ekologik barqarorligi litogen asos xususiyatlari, tabiiy jarayon va hodisalarning dinamikasi, iqlimiy ko‘rsatkichlarning ta’siri, drenajlanganlik darajasi hamda sug‘orma suv bilan ta’minlanganlik mezonlari asosida baholangan. Hududda o‘tkazilgan qator tadqiqot natijalariga ko‘ra landshaftlar barqarorlik darajasiga qarab nisbatan barqaror, barqarorligi kam va beqaror (barqaror emas) guruhlarga ajratilgan. Nisbatan barqaror landshaftlar asosan lyossimon loyqa va lyoss bilan qoplangan do‘ngliklar, hamda shag‘alli-prolyuvial tekisliklarda shakllangan. Bu landshaftlarda asosiy tabiiy jarayonlar eol jarayonlari, ya’ni deflyatsiya va akkumulyatsiya bilan ifodalanadi. Drenajlanish darajasi jadal, sug‘orma suv bilan ta’minlanganlik esa me’yorida bo‘lib, bu holat landshaftlarning nisbatan barqarorligini ta’minlaydi. Barqarorligi kam bo‘lgan landshaftlar quyi yirik bo‘lakli yotqiziqlar usti lyossimon loyqa, qumoq va qum bilan qoplangan allyuvial-prolyuvial tekisliklarda rivojlangan. Bu hududlarda galogeokimyoviy jarayonlar, shuningdek meliorativ tadbirlar ta’sirida landshaftlar sun’iy barqarorlashtirilgan hisoblansa-da, ayrim joylarda mahalliy sho‘rlanish jarayonlari kuzatiladi. Drenajlanganlik darajasi sust bo‘lib, grunt suvlarining oqimi sekin kechadi. Sug‘orma suv bilan ta’minlanganlik yuqoridagi nisbatan barqaror hududlarga nisbatan bir xil darajada emas, bu esa landshaftlarning ekologik barqarorligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Barqaror bo‘lmagan, ya’ni beqaror landshaftlar qadimdan sug‘orilib kelinayotgan agroirrigatsion tekisliklarda tarqalgan. Bu hududlarda faol galogeokimyoviy

jarayonlar ustun bo‘lib, sho‘rlanish va ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlari kuchli rivojlangan. Atmosfera havosi transport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalar bilan ifloslangan.[6] Drenaj tizimlari amalda yetarli darajada ishlamaydi yoki umuman mavjud emas, sug‘orma suv bilan ta’minlanganlik esa yetarli bo‘lmasligi natijasida tuproq va landshaftlarning ekologik holati yomonlashgan. Umuman olganda, ushbu ma’lumotlar landshaftlarning ekologik barqarorligi bevosita litogen asos xususiyatlari, meliorativ holat, drenaj tizimining samaradorligi hamda antropogen ta’sir darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, sug‘oriladigan hududlarda meliorativ tadbirlarning yetarli darajada olib borilmasligi landshaftlarning beqarorlanishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Buvayda tumanida turli landshaftlarning tarkib topishi va ekologik holatning barqarorlik darajasi, hududning geografik o‘rni, geologik tuzilishi, relyefi, iqlimiy sharoitlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tumanning Farg‘ona vodiysi markaziy cho‘l hududida joylashganligi hududdagi tabiiy geografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarda tarkib topishiga sabab bo‘lgan. Joyning geologik genezisi, lyoss va lyosssimon yotqiziqlar, relyefning asosan tekis joylashuvi yer osti suvlarining harakati, tuproq qoplamining shakllanishi va tuproqlarning sho‘rlanish darajasiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda yuqoridagi ma’lumotlar hududda tarkib topgan landshaftlarning ekologik barqarorligiga bevosita litogen asos xususiyatlari, meliorativ holat, zovur-drenaj tizimining samaradorligi hamda antropogen ta’sir darajasi bilan chamcharchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Muommoni yumshatish, yer osti suvlari sathini me’yorida ushlash turish maqsadida drenaj tizimlarini maqsadli tashkil etish, sug‘orish qoidalariga amal qilish, landshaftlarga bo‘lgan antropogen bosimni kamaytirish usullarini qo‘llash foydali hisoblanadi. Hududning asosan arid mintaqada joylashganligi hamda yog‘in miqdorining kamayib, aksincha o‘rtacha haroratning ortib borayotganligi, shamol tezligining

kuchayib borishi iqlim o‘zgarishi natijasi o‘laroq baholanadi. Hududda tabiiy daraxtzorlarni o‘stirish, yashil hududlarning maydonini ko‘paytirish, yerlarni o‘zlashtirishda tabiiy geografik xususiyatlarni chuqur tahlil qilish kelajakda kutilayotgan ekologik muommolarni birmuncha kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-106-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish” to‘g‘risidagi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-iyundagi PF-233-son “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni.

4. Buvayda tumanining ijtimoiy-iqtisodiy holati axborotnomasi. –Farg‘ona: 2025.

5. Soliyev E.A. Iqlim o‘zgarishining Farg‘ona vodiysi suv resurslariga ta’siri. Monografiya.–Namangan: “Namangan nashriyoti”, 2021.

6.Meliboyeva F.S. Iqlim o‘zgarishining Qo‘qon vohasi landshaftlari ekologik holatiga ta’sirini baholash. Monografiya. –Qo‘qon: “Yosh-hunarmandlar uyi”, 2025.

DUNYONING ENG RIVOJLANGAN TOP 7 DAVLATLARI: IQTISODIY-GEOGRAFIK TAHLIL

Suyarova Nargiza Ashur qizi
Kasbi tumani 57-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
nargizasuyarova09@gmail.com
Do‘smurodov Bunyod Sirojiddin o‘g‘li
Kasbi tumani 57-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Annotatsiya. *Mazkur mavzuda dunyoning iqtisodiy, siyosiy va texnologik jihatdan yetakchi hisoblangan top 7 davlatlari haqida ma’lumot beriladi. Ushbu davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, sanoati, ilm-fani, harbiy salohiyati hamda xalqaro munosabatlardagi ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning aholi soni, tabiiy resurslari, eksport-import ko‘rsatkichlari va rivojlanish omillari haqida umumiy tavsif beriladi. Mavzu orqali rivojlangan davlatlarning bugungi global taraqqiyotdagi ahamiyatini tushunish mumkin.*

Kalit so‘zlar*: G-7, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Germaniya, Fransiya,*

G7 davlatlari jahon iqtisodiyoti, siyosati, sanoati, texnologiyasi va xalqaro savdo tizimida eng katta ta’sirga ega bo‘lgan rivojlangan mamlakatlar guruhidir. Bu davlatlar tabiiy sharoiti, aholisi, hududiy kattaligi va iqtisodiy ixtisoslashuvi jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy omil — yuqori darajadagi sanoatlashuv, kuchli boshqaruv tizimi, rivojlangan infratuzilma va global iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatidir.

Hududiy jihatdan eng katta davlatlar AQSH va Kanada hisoblanadi. Kanada maydoni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi, lekin aholisi nisbatan kam va shimoliy hududlarida yashash sharoiti murakkab. AQSH esa katta hudud,

ko‘p sonli aholi, boy tabiiy resurslar va kuchli iqtisodiy tizimga ega bo‘lib, G7 ichida eng yetakchi davlat sanaladi. Yaponiya, Italiya va Buyuk Britaniya hududi nisbatan kichikroq bo‘lsa-da, ular ilm-fan, sanoat, moliya va texnologiya orqali yuqori taraqqiyotga erishgan.

Tabiiy resurslar nuqtayi nazaridan Kanada va AQSH eng qulay imkoniyatlarga ega. Kanada neft, gaz, uran, oltin, temir rudasi, o‘rmon va suv resurslariga boy. AQSH ham neft, gaz, ko‘mir, oltin, kumush va boshqa foydali qazilmalarga ega. Germaniya, Yaponiya va Italiya esa tabiiy resurslarga nisbatan kambag‘alroq bo‘lib, sanoat uchun zarur xomashyo va energiya manbalarining katta qismini import qiladi. Shunga qaramay, ular yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, mashinasozlik, avtomobilsozlik va eksport salohiyati orqali kuchli iqtisodiy tizim yaratgan.

Iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha Germaniya Yevropaning eng qudratli sanoat davlati hisoblanadi. Uning avtomobilsozlik, kimyo, elektrotexnika va mashinasozlik tarmoqlari juda rivojlangan. Fransiya esa sanoat bilan birga qishloq xo‘jaligi, aviatsiya, moda, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarida yetakchi hisoblanadi. Italiya sanoat, moda, oziq-ovqat, avtomobilsozlik va turizmga tayanadi. Buyuk Britaniya esa moliya, bank, sug‘urta, xizmat ko‘rsatish va ilmiy tadqiqotlar sohasida kuchli mavqega ega.

Yaponiya G7 davlatlari ichida tabiiy xavflar eng yuqori bo‘lgan mamlakatlardan biridir. U Tinch okeanining “olov halqasi”da joylashgani sababli zilzila, vulqon va sunami xavfi yuqori. Ammo Yaponiya bu muammolarni texnologiya, seysmik xavfsiz qurilish va ogohlantirish tizimlari orqali boshqarishga erishgan. Bu jihatdan Yaponiya tabiiy resurslarga emas, balki inson kapitali, innovatsiya va intizomli boshqaruvga tayangan davlat sifatida ajralib turadi.

Aholi joylashuvi bo‘yicha AQSH va Germaniya yirik mehnat resurslariga ega. Yaponiya, Italiya va Germaniyada esa aholining qarishi va tabiiy o‘sishning

pasayishi muhim demografik muammo hisoblanadi. Kanada va AQSHda immigratsiya aholi soni va mehnat resurslarini to‘ldirib turuvchi asosiy omillardan biridir. Buyuk Britaniya va Fransiyada ham migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Turizm jihatidan Fransiya va Italiya eng kuchli mavqega ega. Fransiya Parij, Alp tog‘lari, dengizbo‘yi hududlari va madaniy merosi bilan, Italiya esa Rim, Venetsiya, Florensiya, Milan, Piza va boshqa tarixiy shaharlari bilan dunyo turizmining markazlaridan hisoblanadi. Buyuk Britaniya tarixiy obidalari va London shahri bilan, Yaponiya esa texnologiya, qadimiy madaniyat va tabiiy landshaftlari bilan sayyohlarni jalb qiladi. Quyida G-7 davlatlarning o‘ziga tavsif keltirilgan:

AQSH

Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lib, federativ tuzilishga ega 50 ta shtatdan tashkil topgan. Ayrim manbalarda 51 ta shtat haqida ma’lumot uchrasada, bu noto‘g‘ri talqin hisoblanadi, chunki Washington, D.C. alohida shtat emas, balki federal hudud maqomiga ega siyosiy markazdir. Mazkur hududning me’moriy loyihasi fransuz muhandisi Pierre Charles L’Enfant tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda xalqaro siyosiy uchrashuvlar va davlat boshqaruvi markazi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSHning taraqqiyotida ingliz tilining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ingliz tili tarixan anglo-sakson davrida shakllanib, keyinchalik fransuz va lotin tillari ta’sirida boyigan. Hozirgi davrda u xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va diplomatiyaning asosiy vositasiga aylangan. Dunyo bo‘ylab milliardlab insonlar tomonidan qo‘llanilishi AQSHning global madaniy va iqtisodiy ta’sirini yanada kuchaytiradi.

Mamlakat aholisi sonining yuqoriligi va etnik tarkibining rang-barangligi ham AQSHning asosiy xususiyatlaridan biridir. Aholining shakllanishida

immigratsiya muhim omil bo‘lib, har yili millionlab insonlarning ko‘chib kelishi davlatning mehnat resurslari va iqtisodiy salohiyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, New York, Los Angeles va Chicago kabi yirik shaharlarda urbanizatsiya jarayoni yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyatning markazlari hisoblanadi.

AQSH tabiiy geografik jihatdan ham nihoyatda xilma-xil hudud hisoblanadi. Katta maydon tufayli mamlakatda turli iqlim zonalari shakllangan. Uni ikki yirik okean — Tinch va Atlantika okeanlari o‘rab turadi. Mamlakat hududidagi Missisipi, Missuri va Kolorado kabi daryolar nafaqat tabiiy resurs, balki transport va xo‘jalik rivojida ham muhim rol o‘ynaydi. Rokki, Appalachi va Syerra-Nevada tog‘ tizmalari esa AQSHning tabiiy landshaftini boyitib, turizm va tabiiy boyliklardan foydalanishda katta imkoniyat yaratadi.

AQSH tabiiy resurslarga boy davlatlardan biri bo‘lib, neft, tabiiy gaz, ko‘mir, temir rudasi va uran kabi strategik xomashyo zaxiralari mamlakat iqtisodiy qudratining asosiy omillaridan sanaladi. Ayniqsa Texas va Alyaska hududlari neft qazib olish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Shu bilan birga, Kaliforniya tarixida “oltin davri”ning mavjud bo‘lishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida tabiiy boyliklarning naqadar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Mamlakat hududining qariyb uchdan bir qismi o‘rmonlar bilan qoplangan bo‘lib, bu ekologik barqarorlik va bioxilma-xillikni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Alyaska hududidagi ulkan o‘rmonlar hamda Black Hills National Forest kabi tarixiy tabiiy maskanlar AQSHning ekologik va madaniy merosini namoyon etadi. Ushbu hududlar nafaqat tabiiy resurs, balki turizm, ekologik muhofaza va tarixiy qadriyatlarni saqlash nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Yaponiya

Yaponiya Sharqiy Osiyoda joylashgan yuqori darajada rivojlangan orol davlat bo‘lib, 47 ta prefekturadan tashkil topgan. Mamlakatning asosiy siyosiy va

iqtisodiy markazlari Tokio, Osaka hamda Kyoto hududlari hisoblanadi. Aholisi qariyb 125 million kishini tashkil etib, Yaponiya dunyodagi eng zich joylashgan davlatlardan biri sanaladi. Umumiy maydoni 377 ming km² dan ortiq bo‘lishiga qaramay, hududning asosiy qismi tog‘li relyefdan iboratligi sababli aholining katta qismi qirg‘oqbo‘yi tekisliklarida yashaydi.

Yaponiya to‘rtta yirik orol — Honsyu, Hokkaydo, Kyusyu va Okinavadan tashkil topgan bo‘lib, mamlakat Tinch okeanining “Olov halqasi” hududida joylashgan. Shu sababli bu yer dunyodagi eng seysmik faol mintaqalardan biri hisoblanadi. Tinch okeani, Filippin dengizi, Yevrosiyo va Shimoliy Amerika plitalarining tutashgan nuqtasida joylashgani tufayli yil davomida minglab zilzilalar kuzatiladi. Zilzilalarning aksariyati kuchsiz bo‘lsa-da, ayrim hollarda yirik sunami va tabiiy ofatlar yuzaga kelishi mumkin. Shunga qaramay, Yaponiya zilzilalarni kuzatish, erta ogohlantirish va seysmik xavfsiz qurilish texnologiyalari bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Mamlakat hududining qariyb 70 foizi tog‘lardan iborat bo‘lib, eng baland cho‘qqi — 3776 metrli Fudzi tog‘i Yaponiya ramziga aylangan. Bundan tashqari, Kitadake va Okuhotaka kabi baland tog‘lar ham mavjud. Daryolari qisqa bo‘lsa-da, Shinano, Tone va Ishikari daryolari mamlakat xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega.

Yaponiya tabiiy resurslarga nisbatan kambag‘al davlat hisoblanadi. Ko‘mir, oltin, mis va temir zaxiralari kam bo‘lgani sababli sanoat uchun zarur xomashyoning katta qismi import qilinadi. Shunga qaramay, mamlakat yuqori texnologiyalar, robototexnika, avtomobilsozlik va elektronika sanoati orqali jahondagi eng kuchli iqtisodiyotlardan biriga aylangan. Pul birligi — yen hisoblanadi.

Yaponiya o‘rmonlari ham tabiiy boylik sifatida muhim o‘rin tutadi. Subtropik, mo‘tadil va ignabargli o‘rmonlar mamlakatning turli hududlarida tarqalgan bo‘lib, sugi, hinoki va qarag‘ay daraxtlari keng uchraydi.

O‘rmonlarning katta qismi Ikkinchi jahon urushidan keyin yog‘och ehtiyojini qoplash maqsadida sun’iy ravishda barpo etilgan. Shu jihatdan Yaponiya tabiat va texnologiya uyg‘unlashgan davlat sifatida ajralib turadi.

BUYUK BRITANIYA

Buyuk Britaniya rivojlangan davlatlar sifatida tabiiy-geografik sharoiti cheklangan bo‘lishiga qaramay, ilm-fan, texnologiya hamda samarali boshqaruv orqali jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqega erishgan mamlakatlar hisoblanadi. Hududi asosan orollarda joylashgani ularning transport, savdo va dengiz iqtisodiyoti rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, tabiiy resurslarning yetishmasligi sanoat va iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishda shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Buyuk Britaniya qulay dengiz iqlimi, rivojlangan sanoati va moliyaviy markazlari orqali global iqtisodiy tizimda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa Londonning xalqaro moliya markazi sifatidagi roli mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi ta’sirini oshiradi.

United Kingdom dunyodagi eng qadimiy parlament demokratiyalaridan biri hisoblanadi. Parlament tizimi ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘lgan. Mamlakat 4 ta tarixiy-siyosiy qismdan iborat: Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya. Poytaxt London dunyoning eng yirik moliyaviy markazlaridan biri bo‘lib, xalqaro bank va sug‘urta tizimida muhim o‘rin tutadi.

Kanada

Kanada, Fransiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy taraqqiyot faqat tabiiy boyliklarga emas,

balki ilm-fan, texnologiya va samarali boshqaruv tizimiga ham bevosita bog‘liqdir. Ushbu davlatlar turli tabiiy sharoitlarga ega bo‘lsa-da, ular geografik imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali jahonda yetakchi iqtisodiy markazlarga aylangan.

Kanada hudud jihatdan dunyodagi eng yirik davlatlardan biri bo‘lib, tabiiy resurslarga nihoyatda boy mamlakat hisoblanadi. Neft, tabiiy gaz, uran, nikel, oltin va temir rudasi kabi yer osti boyliklari uning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, mamlakatning Arktika hududlariga yaqin joylashuvi, tundra va tayga ekotizimlarining mavjudligi hamda uzoq davom etuvchi sovuq iqlimi Kanada geografiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Tabiiy resurslarning ko‘pligi eksport salohiyatining shakllanishida muhim omil bo‘lib, ayniqsa AQSH bilan iqtisodiy integratsiya mamlakat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Kanada hududi jihatidan dunyodagi ikkinchi eng katta davlat hisoblanadi. Faqat Rassiya undan kattaroq. Kanada uchta okean — Atlantika, Tinch va Arktika okeanlari bilan tutashgan kam sonli davlatlardan biridir. AQSH bilan Kanada o‘rtasidagi chegara dunyodagi eng uzun xalqaro chegara hisoblanadi. Uning uzunligi qariyb 8900 km ga teng. Ottawa Kanada poytaxti bo‘lsa-da, mamlakatning eng katta shahri Toronto hisoblanadi. Kanada rasmiy ravishda ikki tilli davlatdir. Ingliz va fransuz tillari davlat tillari hisoblanadi.

Kanada hududida 2 milliondan ortiq ko‘l mavjud. Bu dunyodagi barcha ko‘llarning katta qismini tashkil qiladi. Lake Superior dunyodagi eng katta chuchuk suvli ko‘llardan biri bo‘lib, uning bir qismi Kanada hududida joylashgan.

Kanada o‘rmonlarga juda boy davlat hisoblanadi. Hududining katta qismi tayga o‘rmonlari bilan qoplangan. Rocky Mountains tog‘ tizmasi Kanadaning eng go‘zal tabiiy hududlaridan biri sanaladi.

Vancouver va Calgary yashash sifati yuqori bo‘lgan shaharlardan hisoblanadi. Kanada dunyoda eng ko‘p immigratsiya qabul qiladigan davlatlardan biri sanaladi. Mamlakat aholisi juda ko‘p millatli tarkibga ega. Kanada ekologik tozaligi, xavfsizligi va yuqori turmush darajasi bilan dunyodagi eng yashash uchun qulay davlatlardan biri hisoblanadi.

Italiya

Italiya Respublikasi Janubiy Yevropada, O‘rta Yer dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti hamda boy tarixiy-madaniy merosi bilan dunyoning muhim davlatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat hududining asosiy qismini Apennin yarim oroli tashkil etadi hamda Sitsiliya va Sardiniya kabi yirik orollar ham Italiya tarkibiga kiradi. Shimolda Fransiya, Avstriya, Shveysariya va Sloveniya bilan chegaradosh bo‘lgan davlat strategik jihatdan Yevropa va O‘rta Yer dengizi mintaqasini bog‘lovchi muhim hudud vazifasini bajaradi. Shuningdek, San-Marino va Vatikan kabi anklav davlatlarning Italiya hududi bilan o‘ralganligi mamlakat geografik tuzilishining o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

Italiya relyefi asosan tog‘lardan iborat bo‘lib, shimolda Alp tog‘lari, markaziy va janubiy qismlarda esa Apennin tog‘ tizmasi joylashgan. Alp tog‘lari nafaqat tabiiy chegara, balki iqlim hosil qiluvchi muhim omil sifatida ham ahamiyatga ega. Yevropaning eng baland cho‘qqilaridan biri bo‘lgan Monblan tog‘i ham Italiya hududiga yaqin joylashgan. Po daryosi oqib o‘tadigan Padan tekisligi mamlakatning eng muhim iqtisodiy va qishloq xo‘jalik rayonlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Italiya seysmik jihatdan faol hududda joylashgan bo‘lib, Etna, Vezuviy va Stromboli kabi harakatdagi vulqonlarning mavjudligi tabiiy xavf darajasini oshiradi. Bu holat mamlakatning geologik jihatdan murakkab hududda joylashganligini ko‘rsatadi.

Iqlimining asosan O‘rta Yer dengizi subtropik tipi bilan xarakterlanishi Italiyada qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Yozning

issiq va quruq, qishning esa yumshoq va seryog‘in bo‘lishi uzum, sitrus mevalari, pomidor va zaytun kabi subtropik ekinlarni yetishtirish imkonini beradi. Shu sababli Italiya Yevropa va jahonda zaytun moyi, vino hamda meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Aholisi 60 milliondan ortiq bo‘lgan Italiya Yevropadagi yirik demografik markazlardan biri sanaladi. Biroq mamlakatda tabiiy o‘sishning manfiyligi va aholi qarish jarayoni kuzatilmoqda. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining kuchayishi demografik tarkibga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholining asosiy qismi shaharlarda yashaydi va Milan, Rim, Turin hamda Neapol kabi yirik shaharlarda iqtisodiy faollik yuqori darajada rivojlangan. Diniy jihatdan katoliklik yetakchi o‘rinda bo‘lib, Vatikan markazining aynan Italiya hududida joylashgani mamlakatning diniy-madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

Italiya iqtisodiyoti Yevropadagi eng rivojlangan iqtisodiyotlardan biri bo‘lib, mamlakat “Katta yettilik” davlatlari tarkibiga kiradi. Mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Ayniqsa “Made in Italy” brendi ostidagi avtomobillar, kiyim-kechak, poyabzal va maishiy texnika mahsulotlari jahon bozorida yuqori mavqega ega. Biroq tabiiy yoqilg‘i va metall resurslarining cheklanganligi sababli mamlakat sanoati ko‘plab xomashyo va energiya resurslarini import qilishga majbur.

Milliy iqtisodiyotning eng muhim va daromadli tarmoqlaridan biri turizm hisoblanadi. Qadimiy Rim sivilizatsiyasi merosi, Uyg‘onish davri madaniyati, tarixiy obidalar va tabiiy landshaftlarning boyligi Italiyani dunyoning eng mashhur turistik markazlaridan biriga aylantirgan. Rim, Venetsiya, Florensiya, Milan va Piza kabi shaharlardagi tarixiy-madaniy yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatidan keng o‘rin olgan. Shu sababli Italiya tarix, madaniyat, iqtisodiyot va turizm uyg‘unlashgan yirik sivilizatsion markaz sifatida jahon miqyosida alohida ahamiyat kasb etadi.

Fransiya

Fransiya geografik jihatdan qulay hududda joylashgan bo‘lib, Atlantika okeani va O‘rta Yer dengizi bilan tutashgani sababli transport va savdo aloqalarida muhim o‘rin egallaydi. Alp va Pireney tog‘lari, Sena va Luara kabi daryolari mamlakatning tabiiy-geografik salohiyatini boyitadi. Qishloq xo‘jaligi uchun qulay tekisliklar, rivojlangan sanoat hamda dengizorti hududlarining mavjudligi Fransiyaning iqtisodiy va geosiyosiy ta’sirini kuchaytiradi.

Fransiya va Germaniya Yevropaning siyosiy, iqtisodiy hamda geostrategik jihatdan eng muhim davlatlari qatoriga kiradi. Har ikki mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, aholisi va rivojlangan iqtisodiy tizimi ularning jahon xo‘jaligidagi mavqeini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu davlatlar Yevropa Ittifoqining yetakchi markazlari sifatida nafaqat mintaqaviy, balki global iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Fransiya G‘arbiy Yevropada joylashgan bo‘lib, Atlantika okeani va O‘rta Yer dengizi oralig‘idagi qulay geografik o‘rni bilan ajralib turadi. Mamlakatning Ispaniya, Italiya, Germaniya, Belgiya va Shveysariya kabi rivojlangan davlatlar bilan chegaradoshligi xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Fransiya relyefining katta qismi tekisliklardan iborat bo‘lsa-da, janubiy va sharqiy hududlarida Alp, Pireney va Yura tog‘ tizmalari joylashgan. Bu esa mamlakatda turizm, transport va gidroenergetika rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Fransiyaning iqtisodiy salohiyati uning sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, mashinasozlik, aviatsiya, kimyo va energetika sohalari yetakchi o‘rin tutadi. Bundan tashqari, Fransiya Yevropadagi eng yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Mamlakatning subtropik va mo‘tadil iqlim sharoiti uzumchilik, bog‘dorchilik va chorvachilikning rivojlanishiga xizmat

qiladi. Shu bilan birga, Parij shahri xalqaro moliya, moda, madaniyat va turizm markazi sifatida dunyo miqyosida muhim mavqega ega.

Germaniya

Germaniya Yevropaning markazida joylashganligi sababli qit'aning asosiy transport va iqtisodiy tugunlaridan biri hisoblanadi. Shimoliy va Boltiq dengizlariga chiqish imkoniyati, shuningdek, Reyn, Dunay va Elba kabi yirik daryolarning mavjudligi mamlakatda ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Kil kanali orqali Shimoliy va Boltiq dengizlarining tutashtirilgani Germaniyaning strategik transport ahamiyatini yanada oshiradi.

Germaniya tabiiy resurslarga boy bo‘lmasa-da, ko‘mir, temir rudasi va kaliy tuzlari sanoat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Mamlakat iqtisodiyoti asosan yuqori texnologiyali sanoat, mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo va elektrotexnika tarmoqlariga tayanadi. Germaniya jahondagi eng yirik eksportyor davlatlardan biri bo‘lib, “Mercedes-Benz”, “BMW”, “Volkswagen” kabi sanoat brendlari orqali global bozorda yetakchi mavqeni egallaydi.

Demografik jihatdan Germaniya Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri hisoblanadi. Tug‘ilish darajasining pastligi sababli tabiiy o‘sish manfiy bo‘lsa-da, tashqi migratsiya hisobiga aholi soni barqaror saqlanmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojini qoplashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Urbanizatsiya darajasining yuqoriligi Berlin, Gamburg, Myunxen va Frankfurt kabi yirik shaharlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga olib kelgan.

Umuman olganda, Germaniya Yevropaning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida tayanch davlatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning rivojlanish modeli geografik qulaylik, sanoat salohiyati, innovatsion texnologiyalar va inson kapitaliga tayanadi. Shu sababli mazkur davlatlar zamonaviy global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish va yuqori raqobatbardoshlikning yorqin namunasi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, G7 davlatlarini taqqoslaganda, AQSH global siyosiy va iqtisodiy yetakchi, Kanada tabiiy resurslarga boy davlat, Germaniya sanoat qudrati, Yaponiya texnologik taraqqiyot namunasi, Fransiya madaniyat va qishloq xo‘jaligi salohiyati, Italiya tarixiy meros va turizm markazi, Buyuk Britaniya esa moliyaviy xizmatlar va xalqaro siyosiy ta’sir markazi sifatida ajralib turadi. Ularning umumiy xulosasi shuki: zamonaviy taraqqiyot faqat tabiiy boyliklarga emas, balki ilm-fan, innovatsiya, samarali boshqaruv, inson kapitali va xalqaro iqtisodiy aloqalarga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘aniyev A., Soliyev A. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
3. Vahobov H., Mamatqulov M. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Baratov P. Dunyo siyosiy xaritasi va rivojlangan davlatlar geografiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Karimov B. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Rodionova I.A. Мировая экономика и международные отношения. – Москва: Юрайт, 2021.

THE ROLE OF TECHNOLOGY, ENGINEERING AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT

AVTOMATLASHTIRILGAN KUTUBXONANING ELEKTRON KATALOGI, ELEKTRON KATALOGNI YARATISH USULLARI, XALQARO STANDARTLAR

Abduzoirov Shaxobiddin Najmiddinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
shaxob29.uz@gmail.com
Jumayeva Nafosat Jo‘ra qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti jumayevanafosat763@gmail.com
Dexqonova Aziza Kamoliddin qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti azizadexqonova701@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda avtomatlashtirilgan kutubxonalarda elektron katalogni shakllantirish jarayonlari hamda ushbu jarayonda qo‘llaniladigan xalqaro va milliy standartlar tahlil qilingan. MARC, Dublin Core, ISBD, ISO 2709, O‘z DSt 1215:2009 va Z39.50 kabi standartlarning elektron katalog yaratishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bibliografik yozuvlarni standartlashtirish va axborot almashinuvi jarayonlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *elektron katalog, avtomatlashtirilgan kutubxona, metadata, bibliografik yozuv, MARC, Dublin Core, ISBD, ISO 2709, Z39.50, axborot-kutubxona tizimi.*

Abstract. *This thesis analyzes the processes of forming electronic catalogs in automated libraries and the international and national standards used in this process. The role of standards such as MARC, Dublin Core, ISBD, ISO 2709, O‘z DSt 1215:2009, and Z39.50 in creating electronic catalogs is highlighted.*

In addition, the issues of standardizing bibliographic records and information exchange processes are discussed.

Keywords: *electronic catalog, metadata, MARC, Dublin Core, ISBD, automated library, bibliographic record.*

Elektron katalog avtomatlashtirilgan kutubxonaning axborot ta’minotining bir qismi hisoblanib, uni shakllantirish yuqori bilim, ko‘nikma va tajriba hamda uzoq vaqt talab etadigan murakkab jarayaonlarni talab etadi. Elektron katalog — tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro‘yxatining elektron shakli hisoblanadi. Elektron katolog ma’lum milliy yoki xalqaro stamdartlar asosida shakllantiriladigan bibliografik yozuvlardan tashkil topib, foydalanuvchilarga turli mezonlar bo‘yicha axborot – kutubxona muassalarida saqlanayotgan axborot – kutubxona resurslarini qidirib topish uchun foydalaniladi.

Statement of International Cataloguing Principles (ICP) – Xalqaro kataloglashtirish tamoyillari bayonoti IFLA tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro normativ hujjat bo‘lib, kataloglashtirishning nazariy asoslari, maqsadlari va tamoyillarini belgilaydi. Ushbu hujjat foydalanuvchiga yo‘naltirilgan kataloglashtirish tajribasini ta’minlashga, qidiruv, identifikatsiya, tanlash va axborot resurslariga kirishni soddalashtirishga qaratilgan. ICP kataloglashtirish qoidalari va standartlarida xalqaro muvofiqlikni targ‘ib qiladi va RDA, MARC21 va UNIMARC kabi zamonaviy tavsif tizimlari uchun kontseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. ICP da kataloglashtirish kodlarini yaratish va ishlab chiqish, katalogchilar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni va ma’lumotlarga kirish va almashish bo‘yicha siyosatni boshqarish uchun quyida 13 ta tomoillar[3] belgilangan:

– Foydalanuvchi uchun qulaylik. Qulaylik deganda barcha ma’lumotlar tushunarli va foydalanuvchilar uchun mos bo‘lishi uchun barcha sa’y-harakatlar qilinishi kerakligi tushuniladi. “Foydalanuvchi” so‘zi katalogni

qidiradigan va bibliografik yoki avtoritet ma’lumotlardan foydalanadigan har bir kishini anglatadi. Tavsiflar va kirish uchun nomlarning boshqariladigan shakllarini yaratishda qabul qilinadigan qarorlar foydalanuvchini yodda tutgan holda qabul qilinishi kerak.

– Umumiy foydalanish. Tavsiflar va kirish nuqtalarida ishlatiladigan lug‘at ko‘pchilik foydalanuvchilarning lug‘atiga mos kelishi kerak.

– Axborotni taqdim etish. Tavsif resursni qanday ko‘rinishda bo‘lsa, xuddi shunday ifodalashi lozim. Shaxslar, tashkilotlar va oilalar nomlarining nazorat qilinadigan shakllari subyektning o‘zini qanday tavsiflashiga asoslanishi kerak. Asarlar sarlavhalarining nazorat qilinadigan shakllari dastlabki ifodaning birinchi namoyon bo‘lishida aks etgan shaklga asoslanishi lozim. Agar bu imkonsiz bo‘lsa, ma’lumotnoma manbalarida keng qo‘llaniladigan shakldan foydalanish kerak.

– Aniqlik. Bibliografik va avtoritet ma’lumotlar tavsiflangan obyektning aniq tasviri bo‘lishi kerak.

– Yetarlilik va zaruriyat. Ma’lumotlarning shunday elementlari kiritilishi kerakki, ular: barcha turdagi foydalanuvchilarga, shu jumladan, muayyan ehtiyojlarga ega bo‘lgan foydalanuvchilarga kirishni osonlashtirishi; katalogning maqsad va vazifalarini bajarishi; obyektlarni tavsiflashi yoki identifikatsiyalashi lozim.

– Ahamiyati. Ma’lumotlar elementlari tavsifga mos kelishi, e’tiborga molik bo‘lishi va obyektlarni farqlash imkonini berishi kerak.

– Iqtisod. Maqsadga erishishning muqobil yo‘llari mavjud bo‘lganda, umumiy maqsadga muvofiqlik va amaliylikni eng yaxshi ta’minlaydigan usulga (ya’ni, eng kam xarajat yoki eng oddiy yondashuv) ustunlik berilishi kerak.

– Izchillik va standartlashtirish. Kirish nuqtalarining tavsiflari va qurilishi izchillikni ta’minlash uchun iloji boricha standartlashtirilishi kerak.

– Integratsiya. Barcha turdagi resurslar va barcha turdagi subyektlar nomlarining nazorat qilinadigan shakllari uchun tavsiflar iloji boricha umumiy qoidalar to‘plamiga asoslanishi kerak.

– Interoperabellik. Kutubxona hamjamiyatida va undan tashqarida bibliografik va avtoritet ma’lumotlarni almashish va qayta ishlatishni ta’minlash uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshirish kerak. Ma’lumotlar va topish vositalarini almashish uchun avtomatik tarjima qilish va ajratishni osonlashtiradigan lug‘atlardan foydalanish juda tavsiya etiladi.

– Ochiqlik. IFLAning Ochiq foydalanish to‘g‘risidagi bayonotida e’lon qilinganidek, shaffoflikni ta’minlash va Ochiq foydalanish tamoyillariga rioya qilish uchun ma’lumotlarga cheklovlar minimal darajada bo‘lishi kerak. Ma’lumotlardan foydalanishga har qanday cheklov to‘liq bayon etilishi kerak.

– Qulaylik. Bibliografik va avtoritet ma’lumotlarga kirish, shuningdek, qidiruv qurilmalarining funksiyalari IFLA kutubxonachilar va boshqa axborot xodimlari uchun axloq kodeksida tavsiya etilgan xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

– Ratsionallik. Kataloglashtiruvchi koddagi qoidalarga o‘zboshimchalik bilan munosabatda bo‘lishi emas, balki himoya qilinishi kerak. Agar muayyan vaziyatlarda barcha tamoyillarga amal qilishning iloji bo‘lmasa, unda amaliy yechimlar topilishi va asoslanganligi tushuntirilishi kerak.

Elektron katalogni shakllantirishda bibliografik yozuv va bibliografik tavsifni tuzish qoidalarini bilish va bibliografik yozuvni yaratish talablarini puxta o‘rganish muhim hisoblanadi.

1-sxemadagi avtomatlashtirlgan kutubxonada elektron katalogni shakllantirishning xalqaro va milliy standartlarga asoslangan axborot modelini 1-jadval asosida o‘rganib chiqamiz.



1-sxema. Avtomatlashtirlgan kutubxonada elektron katalogni shakllantirishning axborot modeli.

1. – jadval.

Avtomatlashtirlgan kutubxonada elektron katalogni shakllantirishning axborot modeli tavsifi.

/R	Ob'ekt nomi	Tavsifi	Namunalar
	AAKT	Alohida kutubxona yoki kutubxonalar tizimidagi kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi tashkiliy, axborotli, texnik va algoritmik dasturlashtirilgan vosita majmuasi. Texnologik jarayonlami qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi[4].	ARMAT KADATA Koha IRBIS Folio Alma
	MARC	Machine-Readable Cataloging - bu mashinada o'qiladigan kataloglash yozuvlari formati.	=LEADER 00000nam a2200000 a 4500 =001 000000001 =005 20260128000000.0 =008 060101s2006 uz ||||| |||| 00| 0 uz d =020 \\$c

			=040 \\$aUZ$brda$cUZ =041 0\$auzb =100 1\$aSaidov, U. =245 10$aKutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati /$cU. Saidov, Z. Nigmatova, Sh. Shamsiyev ; mas’ul muharrirlar: A. Rafiyev, Sh. Rizayev. =260 \\$aToshkent :$bO‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,$c2006. =300 \\$a224 b. =500 \\$aO‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashri. =700 1\$aNigmatova, Z. =700 1\$aShamsiyev, Sh. =700 1\$aRafiyev, A.,$eeditor. =700 1\$aRizayev, Sh.,$eeditor.

	DublinCore	Dublin yadrosi elektron hujjatlar tavsifini yaratishga mo‘ljallangan metama’lumotlar tizimi bo‘lib, bugungi kunda u elektron hujjatlarga ishlov berish usullarini tavsiflashga mo‘ljallangan eng istiqbolli kotsepsiyalardan biridir va uni ixtiyoriy maqsadlar uchun ixtiyotiy tipdagi hujjatlarga tadbiq qilish mumkin[5]. Standart 15 ta asosiy va 3 qo‘shimcha elementlardar iborat.	<dc:title>Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati</dc:title> <dc:creator>Saidov, U.</dc:creator> <dc:creator>Nigmatova, Z.</dc:creator> <dc:creator>Shamsiyev, Sh.</dc:creator> <dc:contributor>Rafiyev, A. (mas’ul muharrir)</dc:contributor> <dc:contributor>Rizayev, Sh. (mas’ul muharrir)</dc:contributor> <dc:publisher>O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati</dc:publisher> <dc:date>2006</dc:date> <dc:type>Text</dc:type> <dc:format>224 bet</dc:format> <dc:language>uz</dc:language> <dc:subject>Kutubxonashunoslik</dc:subject>

			<dc:subject>Bibliografiya</dc:subject> <dc:description>Izohli lug‘at. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashri.</dc:description> <dc:coverage>Toshkent</dc:coverage>
	ISO 2709	Bibliografik tavsiflar uchun ISO standarti bo‘lib, “Axborot va hujjatlar – Ma’lumot almashinuvi formati” deb nomlangan.	00748nam 2200193 i 450 001000300000008004100003040001300044100002600057245012300083260006500206300002200271500008900293546001300382650004000395650003700435084001400472700003400486700003400520- -081229s2006 uzr d l000 0yuzb d- aDLCbuzb-1 aSaidov,Ulug‘bek.4aut-00aKutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati : blug‘at/cU. Saidov, Z. Nig‘matova, Sh. Shamsiyev.- aToshkent:bO‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,c2006- a224b.+c21 cm.б.- aAt head of title: O§zbekistan Respublikasi Oily va O§rta Maxsus Ta§lim Vazirligi.- aIn Uzbek-04aKutubxonashunoslikxUzbek language.-04aLibrary sciencexUzbek language.- a782rubbk-1 aNig§matova,Z.q(Ziroat)-4aut-1 aShamsiyev,Sh.q(Shuhrat)4aut-
	O‘z DSt 2785:2013	“Ma’lumotlar almashish uchun format, Yozuvning mazmuni” Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo‘yicha standartlar tizimi bo‘yicha milliy standart. Ushbu standart ma’lumotlar almashish uchun ma’lumotlar tarkibi, mazmuni va elementlari taqdim etilishini belgilaydi va almashishda qo‘llaniladi.	
	ISBD	Xalqaro standart bibliografik tavsif – Xalqaro kutubxona assotsiatsiyalari va institutlari	Saidov U.

		federatsiyasi (IFLA) tomonidan bibliografik tavsifni standart, inson o‘qishi mumkin bo‘lgan shaklda yaratish uchun, ayniqsa, bibliografiya yoki kutubxona katalogida foydalanish uchun ishlab chiqarilgan qoidalar to‘plami	Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati/ U.Saidov, Z.Nigmatova, Sh. Shamsiyev; OlzR. oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; Mas’ul muharrirlar: A. Rafiyev, Sh. Rizayev. - T.: 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 224 b.
	ASSR-2	***Anglo – Amerika Kataloglash Qoidalari*** kutubxona kataloglashning xalqaro stand arti edi . Birinchi marta 1967 yilda nashr etilgan va C. Sumner Spalding tomonidan tahrirlangan, Maykl Gorman va Pol V. Vinkler tomonidan tahrirlanganikkinchi nashr (**AACR2**) 1978 yilda nashr etilgan, keyingi tahrirlar (**AACR2R**) 1988 va 1998 yillarda paydo bo‘lgan; barcha yangilanishlar 2005 yilda to‘xtatildi.	**Saidov, U.** Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati / U. Saidov, Z. Nigmatova, Sh. Shamsiyev ; mas’ul muharrirlar: A. Rafiyev, Sh. Rizayev. — Toshkent : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. — 224 b.
	O‘z DSt 1215:2009	“Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talablar va tuzish qoidalari” Axborot, kutubxonachilik va nashriyotchilik ishi bo‘yicha standartlar tizimi bo‘yicha milliy standart. Ushbu standart hujjat, uning qismi yoki hujjatlar guruhiga	**S16** **Saidov, Ulug‘bek.** Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug‘ati : [: Текст : Электронный ресурс] : lug‘at / U. Saidov, Z.

		bibliografik tavsif tuzish: bibliografik tavsifning sohalari va elementlarini, ularni joylashtirish ketma-ketligini, qismlarini to‘ldirish va berish yo‘llarini, tinish belgilarini qo‘yish va qisqartirishlarni qo‘llash qoidalari va ularga umumiy talablarni belgilaydi.	Nig‘matova, Sh. Shamsiyev. - Toshkent : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 224 b. + 21 sm. BBK 78
	Z39.50/ OAI	**Z39.50** - masofaviy bibliografik ma’lumotlar bazalaridan ma’lumotlarni qidirish va olish uchun mijoz-server protokoli ANSI /NISO Z39.50 va ISO -23950 sifatida standartlashtirilgan . Standartni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy agentlik - Kongress kutubxonasi .	Domen nomi: lx2.loc.gov Port: 210 MB nomi: LCDB (UTF-8 records) MB nomi: LCDB_MARC8 (MARC8 records) MB nomi: NLSBPH (UTF-8 records) Mavjudligi: 24 soat/kun; 7 kun/hafta

Xulosa qiladigan bo‘lsak avtomatlashtirilgan kutubxonalarda elektron katalogni shakllantirish axborot-kutubxona faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron kataloglarni yaratishda xalqaro va milliy standartlardan foydalanish bibliografik yozuvlarning yagona shaklda yuritilishi, ma’lumot almashinuvi va axborot resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Tadqiqot davomida MARC, Dublin Core, ISBD, ISO 2709, O‘z DSt 1215:2009 va Z39.50 kabi standartlarning elektron katalog yaratishdagi ahamiyati yoritildi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimlarida metama’lumotlar va bibliografik tavsiflarni standartlashtirish elektron katalog sifati hamda interoperabellikni oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DASTURIDAN FOYDALANIB LIBOS LOYIHALASH JARAYONI: CLO3D DASTURI MISOLIDA

Axmedova Mukaddam Taxirovna o‘qituvchi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

12.1-13_AMT_1@kiut.uz

Annotatsiya. *Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va bunga bog'liq holda shaxslararo muloqotning tezlashuvi, ko'plab sohalarni o'zgarish va rivojlanish jarayoniga tortib kirdi. Ushbu o'zgarishning negizida raqamlashtirish (dijitalizm) yotar ekan, raqamlashtirish; axborotga kirish, muloqot, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, ish jarayonlarini raqamli muhitda amalga oshirish va boshqa raqamli vositalardan foydalanish kabi unsurlarni o'z ichiga oladi.*

Raqamli texnologiyalar dasturidan foydalangan holda virtual libos dizayni jarayonining asosiy ish bosqichlari tushuntirilib, dizaynerlar nuqtai nazaridan ushbu jarayonning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish maqsad qilingan. Virtual libos dizayni dasturlari orasida CLO3D dasturining; real vaqtdagi libos dizayni jarayonidagi foydalanish qulayligi, tezligi va u taqdim etgan realistik ko'rinishlar kabi xususiyatlarga ega ekanligi ko'rildi.

Kalit so'zlar: *Moda, Virtual libos dizayni, CLO3D.*

Abstract. *The rapid development of information technology and the concurrent acceleration of interpersonal communication have involved numerous fields in a continuous process of transformation and advancement. At the core of this transformation lies digitalization, which encompasses elements such as access to information, communication, data analysis, artificial intelligence, the execution of workflows within a digital environment, and the utilization of various digital tools.*

This study aims to elucidate the primary operational stages of the virtual garment design process using digital technologies, and to analyze the advantages and limitations of this process from the perspective of fashion designers. Among the available virtual garment design software, CLO 3D has been observed to possess distinct features, including ease of use during the real-time garment design process, high operational speed, and the generation of highly realistic visual renderings.

Keywords: *Fashion, Virtual clothing design, CLO3D.*

Аннотация. *Стремительное развитие информационных технологий и связанное с этим ускорение межличностной коммуникации вовлекли множество сфер в процесс непрерывной трансформации и развития. В основе этих изменений лежит цифровизация, которая включает в себя такие элементы, как доступ к информации, коммуникация, анализ данных, искусственный интеллект, выполнение рабочих процессов в цифровой среде и использование различных цифровых инструментов.*

Цель данного исследования — разъяснить основные рабочие этапы процесса виртуального проектирования одежды с использованием цифровых технологий, а также проанализировать преимущества и недостатки этого процесса с точки зрения дизайнеров. Было отмечено, что среди программ для виртуального проектирования одежды CLO 3D выделяется такими характеристиками, как удобство использования в процессе проектирования одежды в реальном времени, высокая скорость работы и создание высокореалистичных визуализаций.

Ключевые слова: *Мода, Виртуальный дизайн одежды, CLO3D.*

Moda sanoati va texnologik rivojlanishlar o'rtasida tobora ortib borayotgan o'zaro ta'sir kuzatilmoqda va moda sohasida texnologiyalardan foydalanish sezilarli darajada oshgani ma'lum. Sohada keng tarqalayotgan texnologik yutuqlardan foydalanish esa iste'molchilar talablaridagi o'zgarishlar va globallashuv ta'siri kabi omillar sababli

tezlashmoqda. Moda sanoatida raqamlashtirish jarayoni bilan bir qatorda dizayn va ishlab chiqarish jarayonlaridan tortib marketing strategiyalarigacha bo'lgan ko'plab sohalarda o'zgarishlar kuzatilmoqda .

Raqamli texnologiyalardan foydalanish deyarli har bir sohada o'z ta'sirini ko'rsatayotgan bir paytda, moda sanoatida ham virtual libos dizayni bilan birinchi o'ringa chiqdi va soha uchun virtual libos dizaynlarini amalga oshirish maqsadida; Browzwear, Marvelous Designer, CLO3D kabi dasturlar ishlab chiqildi. Bu dasturlar; dizayn jarayonlariga samaradorlik va tezlik olib kelib, an'anaviy prototip ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajatli va vaqtni tejaydigan yondashuvni taqdim etmoqda. Real vaqtdagi simulyatsiyalar va 3D modellashtirish xususiyatlari dizaynerlarga realistik ko'rinishdagi dastlabki tekshiruv (oldindan ko'rish) imkoniyatini taqdim etib, dizayn xatolarini ilk bosqichlardayoq aniqlashlariga imkon yaratadi. Shu tariqa, virtual libos dizayni jarayoni orqali ishlab chiqarish jarayonidagi keraksiz resurslar sarfining oldi olinib, ishlab chiqarish samaradorligi oshirilmoqda va bu o'rinda barqarorlikka ham muhim darajada hissa qo'shilmoqda.

Raqamli loyihalash jarayoni, eng avvalo, dastlabki tayyorgarlik amallaridan boshlanadi. Ushbu tayyorgarlik ishlaridan so'ng avatar tanlash, eskiz chizish, mato xususiyatlarini belgilash hamda aksessuarlarni joylashtirish kabi bosqichlar izchil davom etadi.

Xalqaro moda sanoatida keng ommalashgan CLO3D dasturi o'zining kuchli simulyatsiya mexanizmlari (dvigatellari) yordamida ko'p qatlamli va o'ta murakkab detallarga ega bo'lgan modellarni loyihalash imkonini taqdim etadi. Ushbu dasturiy ta'minot orqali oddiy bluzkadan tortib, murakkab naqsh bo'laklari (andoza qismlari) va tuzilishga ega bo'lgan har qanday texnik mahsulotlar dizaynini yaratish mumkin. Shuningdek, CLO3D vositasida yaratilgan virtual libos dizayni asosidagi 3D kiyim-kechaklarni namoyish etishga mo'ljallangan virtual do'konlar tashkil etilishi, buning

natijasida 3D raqamli mahsulotlarni elektron savdo platformalariga integratsiya qilish orqali ularni jismoniy ishlab chiqarishdan oldin sotuvga chiqarish imkoniyati mavjud.

Virtual do'konlardan tashqari, yirik chakana moda ishlab chiqaruvchilari va mashhur brendlar 3D modellar ishtirokida virtual moda namoyishlarini (defilelarini) tashkil etmoqda hamda ushbu tayyorlangan ko'rgazmalarni raqamli moda haftaliklarida taqdim etishmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, yaqin kelajakda moda sanoatida an'anaviy usullar o'rnini to'liq raqamli texnologiyalar egallashi bashorat qilinmoqda. Ushbu prognoz doirasida olib borilgan tadqiqotda, moda industriyasida keng qo'llaniladigan CLO3D dasturining dizaynerlar uchun qulayliklari va kamchiliklarini tahlil qilish maqsad qilib olindi hamda shaxsiy tajriba natijasida to'plangan ma'lumotlar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Virtual libos dizayni jarayoni moda sanoatidagi klassik loyihalash yondashuvlaridan farqli o'laroq, to'liq raqamli texnologiyalarga asoslangan bosqichdir. Mazkur usul dizaynerlarga kiyim prototiplarini raqamli formatda yaratish imkonini berib, eskiz bosqichidan tortib to ishlab chiqarish va marketinggacha bo'lgan barcha jarayonlarni jadallashtiradigan hamda yengillashtiradigan innovatsion yechim hisoblanadi.

Ushbu bo'limda virtual kiyim dizayni bosqichlari atroflicha yoritilgan bo'lib, jarayon davomidagi amaliy misollar CLO3D dasturining 7.1-versiyasidagi menyu funksiyalariga tayangan holda tushuntirilgan. Bajarilgan amaliy namunalar muallif tomonidan tayyorlangan vizual tasvirlar (rasmlar) orqali ifodalangan.

Dastur ishga tushirilganda, interfeysning chap qismida 3D dizayn amallari bajariladigan ishchi hudud, o'ng qismida esa 2D libos andozalari (bichimlari) tayyorlanadigan maydon namoyon bo'ladi. Dastur ochilgan vaqtdagi ishchi darchalarning ekran ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.

Virtual libos dizayni moda dizaynerlari va to'qimachilik sanoati tomonidan qo'llaniladigan an'anaviy yondashuvlarni to'ldiruvchi (boyituvchi) innovatsion texnologiyadir. Raqamli prototiplash imkoniyatlari sharofati bilan dizaynerlar o'zlari loyihalashtirgan kiyimlarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etiladigan real materiallar yordamida real vaqt rejimida simulyatsiya qila oladilar va loyihadagi ehtimoliy xato-nuqsonlarni barvaqt aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu holat loyihalash hamda ishlab chiqarish jarayonlarida vaqt va xarajatlarni tejamkorlik bilan sarflashni ta'minlabgina qolmay, dizaynerlarga yanada innovatsion va kreativ dizaynlarni yaratishlari uchun qulay muhit yaratadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur afzalliklar qatoridan ekologik barqarorlik (sustainability), atrof-muhitga zararsiz ishlab chiqarish tizimi va elektron savdo (onlayn) platformalariga integratsiya qilinish kabi muhim omillar ham o'rin olgan.

Elektron savdo maydonchalariga integratsiyalashuv natijasida iste'molchilar loyihalashtirilgan kiyimlarni masofadan turib batafsil ko'zdan kechirishlari va xarid qilishlari mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mahsulotlarga buyurtma olish jarayonini fizik (haqiqiy) namunalar ishlab chiqarilmasdanoq amalga oshirish mumkinligi va jismoniy do'konlardagi ortiqcha kiyim namunalari miqdorini qisqartirish orqali, virtual libos dizayni barqaror moda aylanmasi poydevorini mustahkamlashga bevosita o'z hissasini qo'shadi.

CLO3D dasturiy ta'minoti moda sanoati uchun bir qator afzalliklarni taqdim etishi bilan birga, o'ziga xos ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Ushbu kamchiliklarning eng asosiysi shundan iboratki, dasturdan to'laqonli foydalanish uchun yuqori unumdorlikka ega kompyuterlar hamda kuchli grafik kartalar kabi maxsus apparat ta'minoti talab qilinadi va bu o'z-o'zidan katta xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bunday moliyaviy va texnik talablar, ayniqsa, kichik biznes vakillari yoki mustaqil izlanuvchi dizaynerlar uchun jiddiy to'siqqa aylanishi mumkin. Yana bir qiyin jihati – dasturni professional darajada o'zlashtirish uchun ma'lum bir o'quv jarayoni va davr

talab etilishidadir. Bu holat dizaynerlar nuqtai nazaridan sohaga qo'shimcha vaqt va resurslar investitsiya qilish zaruratini anglatadi.

Raqamli texnologiyalarning narxi nisbatan qimmatligi ko'pchilik foydalanuvchilarning ushbu vositalardan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Qolaversa, texnologik kamchiliklar va foydalanuvchi tajribasidagi (user experience) ba'zi bir qiyinchiliklar ushbu raqamli innovatsiyalarning to'liq salohiyatini yuzaga chiqarishiga monelik qilishi mumkin. Shu sababli, kelgusi tadqiqotlar va amaliy ishlarda moda industriyasi vakillari hamda texnologiya ishlab chiquvchilari o'rtasida yanada zichroq hamkorlik aloqalarini o'rnatish, sohaga zarur sarmoyalarni jalb qilish, shuningdek, raqamli ta'limga alohida ahamiyat qaratgan holda bu yo'nalishda ko'proq maxsus o'quv materiallari va akademik kontentlar yaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova Mukaddam Taxirovna. Zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda talabalarni libos dizayni orqali kompetensiyalarini shakllantirish // Belarusian-Uzbek scientific and methodologikal journal. – 2023. – №5. – 17–21-bet.
2. Axmedova Mukaddam Taxirovna. Zamonaviy libos dizaynerlarini tayyorlashda maxsus kompetensiyalarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari // Science and technologies: global Challenges and innovative solutions. – 2026. – 626–630-bet.
3. Aydın, E. Namunalar raqamli, do'konlar virtual / Intervyu oluvchi: G. Alagöz. – 2022-yil 5-dekabr. – Murojaat sanasi: 2023-yil 28-yanvar. – URL: https://www.hurriyet.com.tr/ekonomi/numuneler-dijital-magazalar-sanal-42182170
4. CLO3D. By CLO Marketing. – 2022. – Murojaat sanasi: 2023-yil 7-aprel. – URL: https://clovirtualfashion.blog/2022/10/07/the-4th-3d-creative-design-competition-comes-to-a-close-attracting-584-participants-from-48-countries/

5. CLO3D. Company. – 2023. – Murojaat sanasi: 2023-yil 7-aprel. – URL: https://www.clo3d.com/en/company/clients#2

Çete, Ş. Metaverseda. – 2022-yil 18-iyul. – Murojaat sanasi: 2023-yil 14-aprel. – URL: https://artdogistanbul.com/metaversede-moda-haftasi/

CURRENT ISSUES OF ECONOMICS, FINANCE, ENTREPRENEURSHIP AND INNOVATIVE MANAGEMENT

GULCHILIK BILAN SHUG‘ULLANUVCHI KORXONALARDA DEBITORLIK HAMDA KREDITORLIK QARZLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Shavkatov Sherzod Shuhrat o‘g‘li

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

e-mail: sherzodshavkatov098@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gulchilik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida “GULZUHRA” xususiy korxonasi misolida debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi, ularning tarkibi, aylanish darajasi hamda korxona moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, korxonada hisob-kitob operatsiyalarini yuritishdagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada debitorlik qarzlarini kamaytirish, kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish, elektron hisob tizimlaridan foydalanish hamda ichki nazoratni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari gulchilik korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, gulchilik korxonalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy barqarorlik, hisob-kitob operatsiyalari, ichki nazorat, elektron hisob tizimi, moliyaviy tahlil, to‘lov intizomi.*

Аннотация. *В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты организации учета дебиторской и кредиторской задолженности на предприятиях, занимающихся цветоводством. В процессе*

исследования на примере частного предприятия «GULZUHRA» проанализированы формирование дебиторской и кредиторской задолженности, их структура, уровень оборачиваемости и влияние на финансовую устойчивость предприятия. Также были выявлены существующие проблемы в ведении расчетных операций и разработаны научно-практические предложения и рекомендации по их устранению. В статье особое внимание уделено вопросам сокращения дебиторской задолженности, эффективного управления кредиторской задолженностью, использования электронных систем учета и усиления внутреннего контроля. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования бухгалтерского учета и повышения финансовой эффективности цветоводческих предприятий.

***Ключевые слова**: дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, цветоводческие предприятия, бухгалтерский учет, финансовая устойчивость, расчетные операции, внутренний контроль, электронная система учета, финансовый анализ, платежная дисциплина.*

***Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of organizing the accounting of accounts receivable and accounts payable in floriculture enterprises. During the research process, using the example of the "GULZUHRA" private enterprise, the formation of receivables and payables, their structure, turnover level, and impact on the financial stability of the enterprise were analyzed. Existing problems in the organization of settlement operations were identified, and scientific and practical recommendations for their elimination were developed. Particular attention was paid to reducing accounts receivable, effective management of accounts payable, the use of electronic accounting systems, and strengthening internal control. The results of the study are important for improving accounting practices and increasing the financial efficiency of floriculture enterprises.*

Keywords: *accounts receivable, accounts payable, floriculture enterprises, accounting, financial stability, settlement operations, internal control, electronic accounting system, financial analysis, payment discipline.*

KIRISH. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, hisob-kitob tizimini samarali tashkil etish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligining tarkibiy qismi bo‘lgan gulchilik tarmog‘ida faoliyat yurituvchi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu sohada mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilish jarayonlari mavsumiy xususiyatga ega bo‘lib, hisob-kitob operatsiyalarining uzluksiz va to‘g‘ri yuritilishi korxona faoliyatining barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
Korxonalarda debitorlik qarzlari mahsulot va xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan mablag‘larni ifodalasa, kreditorlik qarzlari esa boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni aks ettiradi. Mazkur qarzlarning me’yoridan ortib ketishi korxona likvidliligi va to‘lov qobiliyatining pasayishiga, pul mablag‘lari aylanishining sekinlashishiga hamda moliyaviy xavflarning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli debitorlik va kreditorlik qarzlarini buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish, ularni tahlil qilish va samarali boshqarish zamonaviy korxona boshqaruvining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.
O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, Soliq kodeksi hamda buxgalteriya hisobi milliy standartlari korxonalarda moliyaviy hisobni shaffof va ishonchli yuritishning huquqiy asosini yaratib bermoqda. Bu esa debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali nazorat qilish hamda hisob yuritish tizimini takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Gulchilik korxonalarida mahsulotlarning tez buziluvchanligi, xaridorlar bilan muddatli to‘lov asosidagi munosabatlarning keng qo‘llanilishi hamda mol yetkazib beruvchilar bilan doimiy hisob-kitoblarning mavjudligi qarzdorliklarni boshqarishni murakkablashtiradi. Shu bois ushbu sohada debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini takomillashtirish, elektron hisob tizimlaridan foydalanish, ichki nazoratni kuchaytirish va moliyaviy tahlil usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada gulchilik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobining nazariy hamda amaliy jihatlari o‘rganilib, “GULZUHRA” xususiy korxonasi misolida mavjud holat tahlil qilinadi. Shuningdek, qarzdorliklarni samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni oshirish va hisob tizimini raqamlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USULLARI. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanida faoliyat yurituvchi “GULZUHRA” xususiy korxonasi tanlab olindi. Korxona gulchilik mahsulotlarini yetishtirish, parvarishlash va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug‘ullanib, o‘z faoliyati davomida xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, bank muassasalari hamda davlat tashkilotlari bilan turli hisob-kitob munosabatlariga kirishadi. Shu sababli korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarining shakllanishi, ularning hisobini yuritish va boshqarish jarayonlarini o‘rganish tadqiqot uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot predmetini gulchilik korxonalarida debitorlik va kreditorlik qarzlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish, ularni tahlil qilish, nazorat qilish hamda samarali boshqarish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida korxonaning moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya registrlari, hisob-kitob hujjatlari va ichki ma’lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, Soliq kodeksi, Buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning bir qator zamonaviy usullaridan foydalanildi. Xususan, iqtisodiy tahlil usuli yordamida korxonadagi debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi, dinamikasi va moliyaviy holatga ta’siri o‘rganildi. Taqqoslash usuli orqali turli davrlardagi moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirilib, qarzdorlik darajasidagi o‘zgarishlar baholandi. Statistik kuzatish va guruhlash usullari asosida qarzlarning shakllanish manbalari, muddati va iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tizimli tahlil amalga oshirildi.

Shuningdek, moliyaviy koeffitsientlar tahlili yordamida korxonaning likvidlilik darajasi, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi baholandi. Analitik va sintetik hisob ma’lumotlarini o‘rganish orqali esa debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobga olish amaliyotidagi mavjud muammolar aniqlandi. Tadqiqot natijasida qarzdorliklarni samarali boshqarish, hisob-kitob tizimini takomillashtirish hamda elektron hisob tizimlaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Tadqiqot jarayonida “GULZUHRA” xususiy korxonasida debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobining amaldagi holati tahlil qilindi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, korxonada xaridorlar bilan hisob-kitoblar hajmining oshishi debitorlik qarzlarining ko‘payishiga sabab bo‘layotgani aniqlandi. Ayniqsa, mahsulotlarni muddatli to‘lov asosida realizatsiya qilish holatlari pul mablag‘lari aylanish tezligining sekinlashishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa korxonaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kreditorlik qarzlari tarkibida asosiy ulush mol yetkazib beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar oldidagi majburiyatlarga to‘g‘ri keladi. Korxonada kreditorlik qarzlarining ma’lum darajada mavjud bo‘lishi ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini таъминlashga xizmat qilsa-da, ularning ortib ketishi moliyaviy xavf darajasini oshirishi mumkin. Shu sababli korxonada

qarzdorliklarni nazorat qilish va monitoring qilish tizimini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Quyidagi rasmda debitorlik va kreditorlik qarzlarining korxona moliyaviy faoliyatiga ta’siri aks ettirilgan.



Tadqiqot davomida korxonada elektron hisob tizimlaridan foydalanish darajasi yetarli emasligi ham kuzatildi. Hisob-kitob operatsiyalarining ayrim qismi an’anaviy usullarda yuritilishi natijasida hujjatlar aylanishida vaqt yo‘qotilishi va ayrim xatoliklarning yuzaga kelish ehtimoli mavjudligi aniqlandi. Shu bois elektron hisob-fakturalar tizimidan keng foydalanish, ichki audit va nazorat tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

Quyidagi jadvalda korxonadagi debitorlik va kreditorlik qarzlarining korxona faoliyatiga ta’siri umumlashtirilgan.

Jadval 1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining korxona faoliyatiga ta’siri

Tadqiqot usuli	Mazmuni	Tadqiqotdagi ahamiyati
Iqtisodiy tahlil	Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o‘rganish	Korxona moliyaviy holatini baholash

Tadqiqot usuli	Mazmuni	Tadqiqotdagi ahamiyati
Taqqoslash usuli	Turli davr ko‘rsatkichlarini solishtirish	Qarzdorlik dinamikasini aniqlash
Statistik kuzatish	Moliyaviy ma’lumotlarni umumlashtirish	Qarzlar tarkibini tahlil qilish
Guruhlash usuli	Qarzdorliklarni turlarga ajratish	Hisob-kitob tizimini soddalashtirish
Moliyaviy koeffitsientlar tahlili	Likvidlilik va to‘lov qobiliyatini aniqlash	Moliyaviy barqarorlikni baholash

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, korxonada debitorlik qarzlarini qisqartirish uchun to‘lov muddatlarini qat’iy nazorat qilish, xaridorlarning to‘lov intizomini baholab borish hamda elektron monitoring tizimidan foydalanish muhimligi aniqlandi. Shuningdek, kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va pul oqimlarini optimallashtirish mumkinligi asoslab berildi.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot natijasida gulchilik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini samarali tashkil etish korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan “GULZUHRA” xususiy korxonasida debitorlik qarzlarining ortishi pul mablag‘lari aylanish tezligining pasayishiga, kreditorlik qarzlarining ko‘payishi esa moliyaviy majburiyatlarning oshishiga sabab bo‘layotgani kuzatildi. Bu holat korxonaning likvidlilik darajasi hamda to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillar natijasida korxonada hisob-kitob operatsiyalarini yuritishda ayrim kamchiliklar mavjudligi, xususan qarzdorliklarni monitoring qilish tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi hamda elektron hisob tizimlaridan foydalanish darajasi

pastligi aniqlandi. Shu bilan birga, xaridorlar bilan muddatli to‘lov asosida ishlash holatlarining ko‘pligi debitorlik qarzlari hajmining ortishiga olib kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Tadqiqot davomida debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, to‘lov intizomini kuchaytirish, qarzdorliklarni doimiy monitoring qilish, elektron hisob-faktura tizimidan keng foydalanish hamda ichki nazorat tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Shuningdek, moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari asosida qarzdorlik holatini muntazam baholab borish korxonaning moliyaviy xavflarini kamaytirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Umuman olganda, gulchilik korxonalarida debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda samarali boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir), 2016 yil 13 aprel, O‘RQ–404-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). – Toshkent, 2023.
4. Lex.uz milliy qonunchilik bazasi
5. IFRS Foundation rasmiy sayti
6. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – Wiley, 2022.
7. Horngren C.T., Harrison W.T., Oliver M.S. Accounting. – Pearson Education, 2021.

8. Ergashev R.R. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
9. Pardaev A.X. Moliyaviy tahlil asoslari. – Samarqand, 2021.

STABILITY ANALYSIS OF THE RAMSEY-CASS-KOOPMANS MODEL: A CONFORMAL MAPPING APPROACH

Tolib Otaboev
Turin Polytechnic University in Tashkent;
International Islamic Academy of Uzbekistan
tolib.fgi@gmail.com

Abstract. This paper examines the stability properties of the Ramsey-Cass-Koopmans (RCK) economic growth model through the lens of conformal mapping theory. The phase plane is treated as a complex plane, and by applying the Riemann Mapping Theorem, a geometric characterization of the saddle path is obtained and stability conditions are reformulated in terms of curvature theory. The results are verified using the Cobb-Douglas production function as an illustrative example.

Keywords: RCK model, conformal mapping, saddle path, phase plane, holomorphic function, stability analysis.

1. Introduction

The Ramsey-Cass-Koopmans (RCK) model [1–3] is one of the cornerstones of modern macroeconomics, describing the intertemporal optimization problem of households as a two-dimensional system of autonomous differential equations. Classical stability analysis relies on the eigenvalues of the Jacobian matrix evaluated at the steady state [4]: the condition $\det(J) < 0$ guarantees saddle-path stability, i.e., the existence of a unique optimal trajectory — the saddle path — converging to equilibrium [5]. In this paper, we reinterpret this classical result through the geometric tools of conformal mapping theory.

2. Model and Classical Results

The RCK model is written as the following two-dimensional autonomous system:

$$\dot{k} = f(k) - c - \delta k,$$

$$\dot{c} = (c/\sigma)(f'(k) - \delta - \rho),$$

where k is capital per worker, c is consumption, $\delta > 0$ is the depreciation rate, $\rho > 0$ is the discount rate, and $\sigma > 0$ is the inverse of the intertemporal elasticity of substitution. The steady state (k^*, c^*) satisfies:

$$f'(k^*) = \delta + \rho, \quad c^* = f(k^*) - \delta k^*.$$

Since $f''(k) < 0$ (concavity of the production function), the Jacobian determinant $\det(J) = (c^*/\sigma)f''(k^*) < 0$, implying real eigenvalues of opposite sign $\lambda_1 < 0 < \lambda_2$, which characterizes saddle-path stability [4, 5].

3. Conformal Mapping Approach

We identify the phase plane with the complex plane by introducing the variable $z = (k - k^*) + i(c - c^*) \in \mathbb{C}$, so that the equilibrium corresponds to $z = 0$. The dynamics define a vector field $F(z) = \dot{k} + i\dot{c}$. Although F is not holomorphic in general, a local holomorphic approximation near $z = 0$ can be constructed via linearization. By the Riemann Mapping Theorem [6], for any simply connected open neighborhood $U \subset \mathbb{C}$ of the equilibrium ($U \neq \mathbb{C}$), there exists a biholomorphic mapping $\varphi: U \to \mathbb{D}$ with $\varphi(0) = 0$, where $\mathbb{D}$ denotes the open unit disk. Since conformal mappings preserve angles [7], the geometric properties of phase plane trajectories are reflected faithfully in their images in the unit disk.

4. Main Results

Theorem 1. Let U be a simply connected local neighborhood of the steady state (k^*, c^*), and let $\varphi: U \to \mathbb{D}$ be the biholomorphic mapping guaranteed by the Riemann Mapping Theorem, with $\varphi(k^*, c^*) = 0$. Then:

(i) The image $\varphi(\Gamma)$ of the saddle path $\Gamma \subset U$ under φ is a smooth arc in the unit disk converging to a diameter;

(ii) The curvature of $\varphi(\Gamma)$ at $w = 0$ is given by $\kappa = |\mathrm{Im}(\varphi''(z^*)/\varphi'(z^*))|$;

(iii) The convergence rate satisfies: $|\lambda_1| \propto |\varphi'(z^*)| \cdot (1 - \kappa^2 r^2)^{\wedge}(1/2)$ as $r \to 0$.

Proof. Since φ is biholomorphic, $\varphi' \neq 0$ everywhere on U. The saddle path Γ lies along the direction of the λ_1-eigenvector in the phase plane. As φ preserves angles, $\varphi(\Gamma)$

is a smooth curve in $\mathbb{D}$ tangent to the radial direction at $w = 0$. The curvature formula follows from the ratio φ''/φ', and claim (iii) is obtained by comparing the local representation of the eigenvalue λ_1 with the modulus of φ'. □

Corollary 1. The RCK model has saddle-path stability at the steady state if and only if the curvature radius of $\varphi(\Gamma)$ tends to infinity as $r \to 0$. This condition is equivalent to $\det(J) < 0$, but expressed in the language of conformal geometry.

5. Cobb-Douglas Production Function: An Example

Consider $f(k) = k^{\alpha}$, $0 < \alpha < 1$. For the parameter values $\alpha = 1/3$, $\rho = 0.04$, $\delta = 0.05$, $\sigma = 1$, the steady state is $k^* \approx 2.924$, $c^* \approx 0.878$, with eigenvalues $\lambda_1 \approx -0.112$ and $\lambda_2 \approx 0.152$. The conformal mapping near the steady state admits the local Taylor expansion:

$$\varphi(z) = a_1 z + a_2 z^2 + a_3 z^3 + \ldots,$$

where $a_1 = \varphi'(0)$ is determined by a normalization condition. The image of the saddle path takes the form:

$$w(t) = \varphi(z(t)) \approx a_1 \cdot A \cdot e^{\wedge}(\lambda_1 t) \cdot (v_1, k + i \cdot v_1, c),$$

which is a straight-line approximation converging exponentially to 0 in the unit disk. The curvature correction $\kappa \sim |2a_2/a_1|$ is sensitive to α: smaller values of α (lower capital elasticity) produce a slightly curved saddle path image. This explicitly confirms claim (iii) of Theorem 1.

6. Conclusion

This paper has examined the stability properties of the RCK model through the theory of conformal mappings. The main contribution is a geometric characterization of the saddle path (Theorem 1): its conformal image is a smooth arc converging to a diameter of the unit disk, and stability conditions are reformulated in terms of curvature theory. The Cobb-Douglas example provides explicit numerical confirmation. Future directions include extensions to two-sector and open-economy models, stochastic settings, and empirical calibration of curvature coefficients.

References

[1] Ramsey F.P. A Mathematical Theory of Saving. *Economic Journal*, 38(152), 1928, pp. 543–559.

[2] Cass D. Optimum Growth in an Aggregative Model of Capital Accumulation. *Review of Economic Studies*, 32(3), 1965, pp. 233–240.

[3] Koopmans T.C. On the Concept of Optimal Economic Growth. *Pontificiae Academiae Scientiarum Scripta Varia*, 28, 1965, pp. 225–300.

[4] Acemoglu D. *Introduction to Modern Economic Growth.* Princeton University Press, 2009.

[5] Barro R.J., Sala-i-Martin X. *Economic Growth,* 2nd ed. MIT Press, 2004.

[6] Ahlfors L.V. *Complex Analysis,* 3rd ed. McGraw-Hill, 1979.

[7] Krantz S.G. *Geometric Function Theory: Explorations in Complex Analysis.* Birkhäuser, 2006.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KADRLAR QO‘NIMSIZLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

Xolmatov Muhriddin Mo‘min o‘g‘li

Toshkent davlat Iqtisodiyoti universiteti

m.xolmatov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kuzatiladigan kadrlar qo'nimsizligi muammosi ko'rib chiqilgan. Maqolada qo'nimsizlikning asosiy sabablari tasniflanib, uning ilmiy-pedagogik tarkibga ta'siri tahlil qilingan. Xorijiy universitetlar tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy HR-yondoshuvlar Total Rewards, mentorlik, bashoratli tahlil va Employee Wellbeing dasturlari O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kadrlar qo'nimsizligi, iste'dodlarni boshqarish, oliy ta'lim, HR strategiyasi, Total Rewards, employee retention, bashoratli tahlil.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема текучести кадров в высших учебных заведениях. Проведён анализ основных причин нестабильности кадрового состава и её влияния на научно-педагогический потенциал. На основе опыта зарубежных университетов разработаны рекомендации по внедрению современных HR-подходов в систему высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: текучесть кадров, управление талантами, высшее образование, HR-стратегия, удержание персонала, прогностический анализ.

Oliy ta'lim muassasalari (OTM) jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy institutlar sifatida nafaqat ta'lim sifati, balki kadrlar barqarorligi

nuqtai nazaridan ham katta mas'uliyat zimmasiga oladi. Jahon amaliyotida OTMlarda kadrlar qo'nimsizligi muammosi yildan-yilga keskinlashib borayotganligi qayd etilmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda universitetlarda pedagogik xodimlar orasidagi yillik qo'nimsizlik ko'rsatkichi 12–18% atrofida qayd etilmoqda, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 25–30% ga yetadi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimining kengayib borishi yangi universitetlar ochilishi, xususiy OTMlar soni ortishi va xorijiy universitetlar filiallarining faoliyat boshlashi malakali ilmiy-pedagogik kadrlar uchun raqobat muhitini keskin kuchaytirib yubordi. Bunday sharoitda an'anaviy kadrlar boshqaruvi usullari samarali natija bermayapti. Shu boisdan OTMlarda kadrlar qo'nimsizligini boshqarishning zamonaviy yondoshuv va mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kadrlar qo'nimsizligi (employee turnover) masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Price (1977) kadrlar qo'nimsizligini tashkilotdan xodimning ixtiyoriy yoki majburiy ketishi sifatida ta'riflagan bo'lsa, Mobley (1982) ushbu jarayonning psixologik bosqichlarini modellashtirdi. Keyinchalik March va Simon (1958) ning «mavjudlik» va «istak» konsepsiyasi asosida Hom va Griffeth (1995) tomonidan ishlab chiqilgan kengaytirilgan model OTMlarga ham qo'llanila boshlandi.

Oliy ta'lim kontekstida Johnsrud va Rosser (2002) AQSh universitetlari misolida pedagogik xodimlar ketishining asosiy oldinchisi sifatida ish muhitidan qoniqmaslik, o'sish imkoniyatlari cheklanganligi va rahbarlik bilan munosabatlar nosozligini aniqladi. Luna va Cullen (1995) tadqiqotlari esa akademik muhitda ishchi o'rni sifati (job quality) tushunchasini markazga qo'ydi. Zamonaviy tadqiqotchilar (Hausknecht va Trevor, 2011; Ployhart, 2022) esa kadrlar qo'nimsizligini tashkiliy kapital va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan baholaydi.

O'zbekiston kontekstida bu masala G'oyipnazarov (2021), Abduraxmanova va Abdumalikova (2023) ishlarida qisman ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, OTM muhitiga moslashtirilgan yaxlit empirik tadqiqotlar hali yetarli emas. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida yozilgan.

KADRLAR QO'NIMSIZLIGINING SABABLARI VA OQIBATLARI

OTMlarda kadrlar qo'nimsizligining sabablari ko'p qirrali bo'lib, ularni quyidagi toifalar asosida tasniflash mumkin:

№	Omil toifasi	Asosiy sabablari	Ta'sir darajasi
1	Moddiy-moliyaviy	Past ish haqi, imtiyozlar yo'qligi, moliyaviy rag'batlantirish etishmasligi	Yuqori
2	Kasbiy-shaxsiy	Kasbiy o'sish imkoniyatlari cheklanganligi, malaka oshirish dasturlari yetarliligi	O'rta-Yuqori
3	Tashkiliy-boshqaruv	Noqulay mehnat muhiti, rahbarlik uslubi, kamsitish va adolatsizlik holatlari	O'rta
4	Ijtimoiy-psixologik	Jamoadagi ziddiyatlar, tan olinmaslik, professional burnout (kasbiy charchash)	O'rta
5	Tashqi bozor omillari	Xususiy sektor va xorijiy talab, muqobil ish o'rinlari mavjudligi	Yuqori

1-jadval. Kadrlar qo'nimsizligining sabablari tasnifi

Iqtisodiy oqibatlari

Kadrlar qo'nimsizligi OTMlar uchun bevosita va bilvosita iqtisodiy zararga olib keladi. Bevosita xarajatlarga yangi xodim yollash, tanlash, o'qitish va moslashtirishga sarflanadigan mablag'lar kiradi. SHRM (2022) ma'lumotlariga ko'ra, bitta malakali

xodimni almashtirishning to'liq qiymati uning yillik maoshining 50–200% ini tashkil qilishi mumkin. Bilvosita xarajatlar esa bilim va tajriba yo'qotilishi, jamoaviy ruh pasayishi, talaba va hamkorlar oldidagi reputatsiya zarari sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston OTMlari uchun iqtisodiy zararga qo'shimcha ravishda ilmiy salohiyat yo'qotilishi ham katta muammo hisoblanadi. Doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan yosh olimlarning bir qismi akademik muhitdan xususiy sektor yoki xorijga ketishi O'zbekiston fani va ta'limining strategik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Xorijiy universitetlar tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida kadrlar qo'nimsizligini boshqarish bo'yicha turli samarali strategiyalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan:

Yondashuv nomi	**Mohiyati**	**Qo'llanilgan joy**
Total Rewards strategiyasi	Ish haqi + imtiyozlar + tan olish tizimini yaxlit boshqarish	AQSh, Evropa OTMlari
Mentorlik va коучинг tizimi	Yangi xodimlarni tajribali ustozlar bilan birlashtirish	Janubiy Koreya, Singapur
Kasbiy rivojlanish yo'lxaritalari	Har bir xodim uchun individual o'sish rejasi tuzish	Germaniya, Niderlandiya
Predictive Analytics (bashoratli tahlil)	Ma'lumotlar asosida qo'nimsizlik riskini oldindan aniqlash	MIT, Stanford
Employee Wellbeing dasturlari	Psixologik, jismoniy va moliyaviy sog'lom muhit yaratish	Skandinaviya mamlakatlari
Exit interview va Retention intervyu	Ketayotgan va qolayotgan xodimlar bilan chuqur suhbat	Global amaliyot

2-jadval. Kadrlar qo'nimsizligini boshqarishning zamonaviy yondoshuv va amaliyotlari

Zamonaviy HR-boshqaruvning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri kadrlar qo'nimsizligini oldindan bashorat qilish va oldini olishga qaratilgan ma'lumotlar tahlili (people analytics). MIT Sloan tadqiqotlari ko'rsatishicha, mashinali o'qitish (machine learning) algoritmlarini qo'llash orqali xodimlarning ketish ehtimolini 85–92% aniqlik bilan bashorat qilish mumkin. Buning uchun asosan quyidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi: ish staji va mehnat unumdorligi dinamikasi; ish vaqtidan tashqari qoladigan vaqt miqdori; korporativ treniinglarga ishtiroki; menejer bilan munosabatlar sifati; so'nggi 6 oy ichidagi ish hajmi o'zgarishi.

O'zbekiston OTMlari uchun bunday tizimni joriy etish hozircha ommaviy bo'lmasada, HR axborot tizimlari (1C:Kadrlar, Oracle HCM) ni kengaytirilgan tahlil imkoniyatlari bilan birlashtirib, bosqichma-bosqich tatbiq etish texnik jihatdan mumkin va maqsadga muvofiqdir.

Xodimlar farovonligiga kompleks yondashuv (Employee Wellbeing) zamonaviy OTMlarda keng ommalashmoqda. Bu yondashuv uch asosiy yo'nalishni qamrab oladi: jismoniy sog'liq (tibbiy sug'urta, sport zallari, sog'lom ovqatlanish), ruhiy sog'liq (psixolog xizmatlari, stress-menejment dasturlari, moslashuvchan ish grafigi) va moliyaviy farovonlik (pensiya jamg'armalari, kreditlash imkoniyatlari, bonus tizimlar).

Gallup (2023) tadqiqotiga ko'ra, wellbeing dasturlari to'liq joriy etilgan tashkilotlarda ixtiyoriy qo'nimsizlik ko'rsatkichi 40–60% ga kamaygan. Skandinaviya universitetlari, xususan Uppsala (Shvetsiya) va Helsinki (Finlandiya) bu yondoshuvni o'n yildan ortiq muvaffaqiyatli qo'llayapti.

Yuqoridagi tahlillar asosida O'zbekiston OTMlarida kadrlar qo'nimsizligini boshqarish uchun quyidagi chora-tadbirlar tizimini joriy etish tavsiya etiladi:

1. Ish haqi va rag'batlantirish tizimini isloh qilish: bazaviy ish haqiga qo'shimcha ravishda ilmiy faoliyat, nashrlari, grant va loyihalarga asosiy kuchlarini sarflayotgan o'qituvchilar uchun differensial bonuslar joriy etish.

2. Individual kasbiy rivojlanish rejalarini (IDP) tuzish: har bir xodim uchun 3–5 yillik kasbiy o'sish yo'lxaritasini kafedra mudiri va HR bo'limi birgalikda ishlab chiqishi.

3. Mentorlik tizimini institutsionallashtirish: yangi va yosh pedagoglarni tajribali professorlar bilan rasmiy mentorlik shartnomasi asosida birlashtirish.

4. HR axborot tizimiga people analytics modulini qo'shish: kadrlar qo'nimsizligi riskini kuzatuvchi asboblar joriy etish, exit interview natijalarini tizimli tahlil qilish.

5. Psixologik yordam markazlari tashkil etish: OTM xodimlari uchun maxfiy psixologik konsultatsiya xizmati va stress-menejment dasturlari yaratish.

6. Akademik erkinlik va taniqlilik muhitini mustahkamlash: ilmiy tadqiqotlar, konferensiyalar va xalqaro hamkorlik uchun teng imkoniyatlar yaratish, muvaffaqiyatlarni ommaviy tan olish tizimi joriy etish.

Kadrlar qo'nimsizligi oliy ta'lim muassasalari uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu muammoni hal etish uchun birgina maosh ko'tarish yetarli emas kompleks yondashuv, ya'ni moddiy va nomoddiy rag'batlantirish, psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy o'sish imkoniyatlari va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimining uyg'un birlashishi talab etiladi.

O'zbekiston OTMlari uchun ushbu yondoshuvlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish, birinchi navbatda esa kadrlar qo'nimsizligini monitoring qilish va sabablarini chuqur tahlil qilish lozim. Ushbu maqolada taklif etilgan chora-tadbirlar tizimi nafaqat

kadrlar barqarorligini oshirish, balki OTMlarning raqobatbardoshligini, ta'lim sifatini va ilmiy-tadqiqot salohiyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Байденко В.И. Болонский процесс: середина пути. – Москва: Исслед. центр подготовки специалистов, 2005. – 380 с.

2. Голерова С.Н. Качество профессионально-педагогического образования в университетах Австралии и России: сравнительный анализ // Омский научный вестник. – Омск, 2009. – № 3(78). – С. 159-162.

3. Материалы Болонского семинара в городе Генте (19–20.05.08) (Эгрон-Полак Э.) в кн. «Болонский процесс: 2007–2009. Между Лондоном и Левеном / Лувен-ла-Невом» (2009 г.). – С. 67-79. // www.rc.edu.ru.

4. Стандарты и руководства для обеспечения качества высшего образования в европейском пространстве высшего образования (ESG) // Одобрено Конференцией министров в Ереване, 14–15 мая 2015 г. – С. 156.

5. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2016.

6. Hazelkorn E. Impact of Global Rankings on Higher Education Research and the Production of Knowledge. The UNESCO Forum on Higher Education, Research and Knowledge. November 25, 2008.

7. John W. Morgan. Lifelong Learning, Entrepreneurship and Social Development: The Role of Higher Education. EURASHE, Prague, 21-23th May 2009.

8. Шолиев Х., Азизов О.Э. Мотивы педагогико-психологической деятельности, присущие профессии учителя-педагога // Актуальные

научные исследования в современном мире. – Переяслав-Хмельницкий, 2016.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Achilov Salohiddin Salomovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Email:salohiddinachilov5@gmail.com

Uzoqboyev Zufar Jamshidovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

E-mail: zufaruzoqboyev007@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini transformatsiya qilish jarayonlari, mavjud tizimli muammolar va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq ma’lumotlarini raqamlashtirish va qayta ishlash, algoritmik shaffoflik, nazorat-audit mexanizmlari hamda inson kapitali bilan bog‘liq muammolar aniqlangan. Ularni hal etish uchun ma’lumotlarni to‘liq raqamlashtirish, algoritmik adolatni ta’minlash va muntazam auditga asoslangan uch bosqichli model taklif etilgan. Mazkur yondashuv soliq tizimi samaradorligini oshirish, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish va byudjet barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar. *raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish, algoritmik adolat, audit, elektron soliq xizmatlari.*

Аннотация. *В статье проанализированы процессы трансформации налоговой системы в условиях цифровой экономики, существующие системные проблемы и научно-практические пути их устранения. В ходе исследования выявлены проблемы, связанные с цифровизацией и обработкой налоговых данных, алгоритмической прозрачностью, механизмами контроля и аудита, а*

также развитием человеческого капитала. Для их решения предложена трёхэтапная модель, основанная на полной цифровизации данных, обеспечении алгоритмической справедливости и внедрении регулярного аудита. Данный подход способствует повышению эффективности налоговой системы, сокращению административных расходов и укреплению устойчивости государственного бюджета.

Ключевые слова. *цифровая экономика, налоговая система, налоговое администрирование, цифровизация, алгоритмическая справедливость, аудит, электронные налоговые услуги.*

Abstract. *The article analyzes the transformation of the tax system in the context of the digital economy, existing systemic problems, and scientific and practical ways to overcome them. The study identifies issues related to the digitalization and processing of tax data, algorithmic transparency, control and audit mechanisms, and human capital development. To address these problems, a three-stage model is proposed, based on the full digitalization of data, ensuring algorithmic fairness, and introducing regular audit procedures. This approach contributes to improving the efficiency of the tax system, reducing administrative costs, and strengthening the sustainability of the state budget.*

Keywords. *digital economy, tax system, tax administration, digitalization, algorithmic fairness, audit, electronic tax services.*

Kirish. Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarning mazmuni, shakli va boshqaruv mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron savdo, raqamli xizmatlar, onlayn to‘lov tizimlari, elektron hujjat aylanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirilgan axborot platformalarining keng qo‘llanilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati tobora ko‘proq raqamli muhitga ko‘chmoqda. Ushbu jarayon davlat moliyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan soliq tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, soliq

bazasini aniqlash, soliq tushumlarini hisoblash, nazorat qilish, prognozlash va soliq to‘lovchilar faoliyatini monitoring qilish jarayonlariga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi nafaqat fiskal barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq to‘lovchilar uchun qulay xizmatlar yaratish va davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu bois zamonaviy soliq ma’murchiligi an’anaviy nazorat usullaridan raqamli platformalar, real vaqt rejimidagi ma’lumotlar almashinuvi, riskga asoslangan tahlil, elektron hisob-fakturalar va sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlariga bosqichma-bosqich o‘tmoqda.

Biroq raqamli transformatsiya soliq tizimining imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, qator tizimli muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, katta hajmdagi soliq ma’lumotlarini yig‘ish, saqlash va qayta ishlashdagi murakkabliklar, axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyalashuv darajasi yetarli emasligi, algoritmik qaror qabul qilish jarayonlarining shaffof emasligi, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarining muntazam auditdan o‘tkazilmasligi hamda raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar yetishmovchiligi soliq tizimi samaradorligini cheklovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur holat soliq tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishda kompleks, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Xususan, soliq ma’lumotlarini to‘liq raqamlashtirish, yagona axborot makoniga integratsiyalash, algoritmik shaffoflik va adolat tamoyillarini ta’minlash, raqamli soliq platformalarini muntazam auditdan o‘tkazish hamda soliq organlari xodimlarining raqamli salohiyatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish hamda soliq

ma’murchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda soliq tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonida ma’lumotlar bilan ishlash, algoritmik boshqaruv, audit mexanizmlari va inson kapitali bilan bog‘liq omillar alohida tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish uchun uch bosqichli kompleks model taklif etiladi.

Shu nuqtai nazardan, maqola mavzusi raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma’murchiligida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash masalalarini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qismi. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimining transformatsiya jarayonlari, uning institutsional, axborot-texnologik va boshqaruv mexanizmlariga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Unda iqtisodiy operatsiyalarning raqamli muhitga o‘tishi soliq bazasini aniqlash, soliq tushumlarini hisoblash, nazorat qilish, prognozlash va soliq to‘lovchilar faoliyatini monitoring qilish jarayonlariga yangi talablar qo‘yayotgani asoslab berilgan. Mazkur yondashuv soliq tizimini faqat fiskal mexanizm sifatida emas, balki raqamli boshqaruv, axborot almashinuvi va institutsional ishonchni ta’minlovchi murakkab tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Raqamli soliq tizimida yuzaga kelayotgan muammolar to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan. Jumladan, soliq ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlashdagi murakkabliklar, algoritmik boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shaffof emasligi, nazorat va audit tizimining to‘liq shakllanmaganligi hamda inson kapitali salohiyatining raqamli texnologiyalar talablariga mos emasligi soliq tizimi samaradorligini cheklovchi muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu tasnif maqolaga ilmiy izchillik beradi, chunki unda muammolar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq institutsional va texnologik jarayonlar majmui sifatida talqin qilingan [1].

Birinchi yo‘nalishda soliq ma’lumotlari hajmi, tezligi va xilma-xilligining ortib borishi mavjud axborot tizimlariga yuqori yuklama berayotgani ta’kidlangan. Bu holat ayrim operatsiyalarning kechikib qayd etilishi, noto‘g‘ri tasniflanishi yoki soliq nazorati doirasidan tashqarida qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada soliq bazasini to‘liq qamrab olish, yashirin aylanmalarni aniqlash va byudjet tushumlarini barqaror prognozlash imkoniyatlari cheklanadi. Shu jihatdan, soliq ma’lumotlarini yagona axborot makonida jamlash, ularni real vaqt rejimida qayta ishlash hamda turli davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyalash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalishda algoritmik shaffoflik va algoritmik adolat masalalari tahlil qilingan. Soliq ma’murchiligida sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan risk-tahlil tizimlari va algoritmlar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarining kengayishi nazorat jarayonlarini tezlashtiradi. Biroq bunday tizimlarning “qora quti” tamoyili asosida ishlashi soliq to‘lovchilar uchun qarorlarning qanday shakllanganini tushunishni qiyinlashtiradi. Bu esa soliq organlariga bo‘lgan ishonch va institutsional ochiqlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun algoritmik qarorlar bo‘yicha izoh berish mexanizmlarini joriy etish, soliq to‘lovchilarning e’tiroz bildirish huquqini kafolatlash va avtomatlashtirilgan qarorlarning huquqiy asoslarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Uchinchi yo‘nalishda raqamli soliq platformalari va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini muntazam auditdan o‘tkazish zarurati asoslangan. Raqamli tizimlarning samaradorligi faqat ularni joriy etish bilan emas, balki ularning uzluksiz monitoringi, mustaqil baholanishi va xatoliklarni o‘z vaqtida aniqlash mexanizmlari bilan ta’minlanadi. Audit mexanizmlarining sustligi soliq hisob-kitoblarida tizimli xatolar, byudjet yo‘qotishlari va soliq to‘lovchilar huquqlarining buzilishi xavfini kuchaytiradi. Shu sababli raqamli soliq platformalarining texnik, funksional va huquqiy auditi muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim.

To‘rtinchi yo‘nalishda inson kapitali masalasi yoritilgan. Raqamli soliq ma’murchiligini samarali tashkil etish uchun axborot texnologiyalari, ma’lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va algoritmik boshqaruv bo‘yicha yetarli malakaga ega mutaxassislar talab etiladi. Shu sababli soliq organlari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish raqamli transformatsiyaning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda xodimlarni qayta tayyorlash, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va tahliliy fikrlash salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga ega.

Maqolada aniqlangan muammolarni hal etish uchun uch bosqichli kompleks model taklif qilingan. Birinchi bosqich soliq ma’lumotlarini to‘liq raqamlashtirish va yagona axborot muhitiga integratsiyalashni nazarda tutadi. Ikkinchi bosqich algoritmik shaffoflik va adolatni ta’minlashga qaratilgan. Uchinchi bosqich esa raqamli platformalar, algoritmlar va ma’lumotlar oqimlarini muntazam auditdan o‘tkazish hamda riskka asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu model muammo — yechim — natija tamoyiliga asoslangan bo‘lib, soliq tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Taklif etilgan modelning ilmiy qiymati shundaki, u soliq tizimi samaradorligini oshirishni faqat texnologik modernizatsiya bilan cheklamaydi, balki institutsional shaffoflik, huquqiy aniqlik, axborot xavfsizligi va inson kapitali rivoji bilan uzviy bog‘laydi. Bunday yondashuv raqamli soliq ma’murchiligini kompleks tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, soliq to‘lovchilar bilan davlat soliq organlari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish darajasini oshirish va byudjet tushumlari barqarorligini ta’minlashda mazkur modelning ahamiyati yuqori hisoblanadi [3].

Umuman olganda, maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimida yuzaga kelayotgan muammolar tizimli ravishda ochib berilgan va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuv taklif etilgan. Mazkur yondashuv soliq tizimini

raqamli muhitga moslashtirish, uning shaffofligi, barqarorligi va samaradorligini oshirish hamda davlat byudjeti daromadlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Шу билан бирга, таҳлилни аниқ статистик кўрсаткичлар, қиёсий жадваллар ва халқаро тажриба билан бойитиш мақоланинг илмий даражасини янада оширади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xurramov Sh. X. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 384 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni: 2012-yil 2-may, O‘RQ-328-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — Elektron manba. — Murojaat sanasi: 16.05.2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari: 2024-yil yanvar–dekabr. — Toshkent, 2025. — Elektron statistik ma’lumot. — E’lon qilingan sana: 13.02.2025. — Murojaat sanasi: 16.05.2026.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING ROLI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

Choriyev Ravshan Quvondiq o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti
ravshanc333@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni (KOB) rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tahlil qilinadi. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, qonunchilik hujjatlari va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida 2017–2024 yillarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, soliq yukini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar, garovsiz kredit dasturlari va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish KOBning YaIM dagi ulushini 46,8 foizdan 51,5 foizga ko'tarishga imkon berdi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan cheklangan foydalanish, malakali kadrlar taqchilligi va huquqiy muhitning to'liq barqarorlashmaganligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Xulosa qismida siyosiy tavsiyalar va 2030-yilga maqsadli ko'rsatkichlar asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, davlat siyosati, soliq imtiyozlari, tadbirkorlik, O'zbekiston, KOB, moliyalashtirish, islohotlar*

KIRISH

Kichik va o'rta biznes zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etib, band aholi, YaIM hosil qilish va innovatsiyalar manbayi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik

korxonalar iqtisodiyotdagi barcha ish o'rinlarining 60–70 foizini ta'minlaydi va YaIM ning katta qismini hosil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 638 221,7 mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, bu iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,5 foizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, sektorning rivojlanishida bir qancha tizimli to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqola mazkur ziddiyatni — davlat siyosatining faol chora-tadbirlari bilan ularning hali to'liq hal etilmagan muammolari o'rtasidagi farqni — ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining zamonaviy holatini baholash, amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini o'lchash va yanada takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda tahliliy-sintetik, qiyosiy va statistik usullardan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy press-relizlari, Prezident farmon va qarorlari (lex.uz), Jahon banki ma'lumotlari hamda ilmiy jurnallardagi tadqiqotlar ishlatildi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2023-yil yanvar-sentabr davri uchun e'lon qilingan press-reliziga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,5 foizini ta'minladi. Bu ko'rsatkich 2019-yildagi 46,8 foizdan barqaror o'sib kelmoqda (1-diagrammaga qarang).



1-diagramma. KOB ning YaIM dagi ulushi (%), 2019–2023

Sanoat ishlab chiqarishida ham kichik biznesning o'rni sezilarli: 2024-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,7 foizni tashkil etdi. Toshkent shahri bo'yicha esa 2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 30 987,3 mlrd so'mni tashkil etdi — bu 2022-yilning tegishli davriga nisbatan 19,8 foizga ko'proq (2-diagramma).



2-diagramma. Toshkent shahri: KOB sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)

1-jadval. O'zbekistonda kichik biznesning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	Manba
KOB / YaIMdagi ulushi (%)	48,9	50,2	51,5	stat.uz press-reliz
Sanoat KOB ulushi (%)	22,1	23,4	24,7*	stat.uz, 2024-I-III
Toshkent sanoat KOB (mlrd so'm, y-s)	21 101	24 538	30 987	stat.uz, 2023
O'sish sur'ati (sanoat, %)	—	+16,3	+26,3	hisoblangan
Yangi tashkil qilingan KOBlar (ming)	55,2	63,7	78,4**	TIU, 2023
Davlat xaridlarida KOB kvotasi (%)	15	15	20	PQ-292, 2023

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati bir necha muhim qaror va farmonlar bilan mustahkamlangan. 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son qarorga muvofiq, 'Biznesni rivojlantirish banki' tashkil etilib, uning faoliyati ustuvor ravishda kichik biznes subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirildi. Shu bilan birga, ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlarga garov talabi 50 foizga kamaytirilib taqdim etildi.

2025-yil 19-martdagi PF-50-son Prezident Farmoni bilan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyaning asosiy maqsadi — KOB uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. 2030-

yilga qadar KOB ning YaIM dagi ulushini 60 foizga yetkazish, eksport hajmini 20 milliard AQSh dollaridan oshirish hamda 2 million yangi ish o'rni yaratish maqsad qilingan.

Soliq siyosati sohasida ham muhim o'zgarishlar bo'ldi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikrobiznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning 4–25 foizgacha bo'lgan ko'p stavkali tizimi o'rniga yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari yillik 20–30 mln so'm to'lash evaziga buxgalteriya hisobini yuritish va soliq idoralariga taqdim etish majburiyatidan ozod etilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Davlat qo'llab-quvvatlashining asosiy yo'nalishlari:

– Moliyaviy ko'mak: 50 mln so'mgacha garovsiz kredit (Oilaviy tadbirkorlik dasturi), 150 mln so'mgacha (Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash dasturi)

– Soliq imtiyozlari: mikrobiznes uchun yagona 4% aylanma solig'i, umumiy soliq tartibiga yangi o'tgan korxonalarga bir yil davomida foyda solig'i 2 barobar kamaytirilishi

– Davlat xaridlari: kichik biznes uchun 20 foizlik kvota va oldindan 50 foiz mablag' to'lab berish tartibi

– Institutsional ko'mak: 14 ta viloyat kichik biznesga ko'maklashish markazi, Biznesni rivojlantirish banki, Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi

– Ma'muriy yengillik: 'Bir oyna' prinsipi, Biznes portal, elektron hujjat aylanishi tizimi



3-diagramma. Davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanish dinamikasi

2-jadval. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy normativ-huquqiy hujjatlari

Hujjat raqami va sanasi	Asosiy mazmun	Ahamiyati
PF-21, 10.02.2023	Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish, soliq siyosatini takomillashtirish	Yuqori
PQ-292, 04.09.2023	Biznesni rivojlantirish banki tashkil etish, garov talabini 50% kamaytirish	Yuqori
VMQ-37, 20.01.2024	'Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash' kompleks dasturi	Yuqori

PF-50, 19.03.2025	KOB strategiyasi — 2030-yilga maqsad: YaIM 60%, eksport $20 mlrd	Juda yuqori
O'RQ-812, 30.12.2022	2023-yil uchun soliq siyosati: QQS stavkasi pasaytirish, imtiyozlar	O'rta

Yuqorida ko'rib chiqilgan ijobiy o'zgarishlarga qaramay, kichik biznes sektorida bir qancha tizimli muammolar hali bartaraf etilmagan. Tadqiqot asosida quyidagi asosiy to'siqlar aniqlandi:

Birinchidan, moliyaviy resurslardan cheklangan foydalanish muammosi. Garov talabini 50 foizga kamaytirish muhim qadam bo'lsa-da, bank kreditlariga kirishning umumiy darajasi hali past. Amaliyotda davlat xaridlarida 20 foizlik kvota belgilanishiga qaramay, amalda uning atigi 15 foizi qo'llanilganligi hujjatlarda qayd etilgan (PQ-292-sonli qaror, 2023).

Ikkinchidan, aylanma solig'ining qat'iy belgilangan stavkasiga o'tish amaliyotda to'liq amalga oshmadi. Gazeta.uz tahlillariga ko'ra, bu tartibdan foydalanayotgan tadbirkorlar ham hali buxgalteriya hisobi va inventar qoldiqlarini yuritish majburiyatidan xalos bo'lmagan.

Uchinchidan, kadrlar va raqamli savodxonlik muammosi. Kichik korxonalarning ko'p qismi zamonaviy menejment va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish uchun yetarli bilim va ko'nikmaga ega emas.

3-jadval. Asosiy muammolar, ularning manbalari va tavsiya etilgan yechimlar

Muammo	Normativ manba	Tavsiya etilgan yechim

Moliyaviy resursga kirishning cheklanganligi	PQ-292 (15% amalda)	Kafolat fondlarini kengaytirish, kredit reyting tizimini rivojlantirish
Aylanma solig'i qat'iy tartibining to'liq ishlamasligi	Gazeta.uz, 2024	Hisobot talablarini soddalashtirish, digital monitoring tizimi
Davlat xaridlari kvotasidan kam foydalanish	PQ-292 (20% kvota)	Elektron davlat xaridlari platformasini takomillashtirish
Kadrlar va raqamli savodxonlik taqchilligi	Ekspert baholari	IT Park, INHA va kasb-hunar maktablari orqali maxsus dasturlar
Mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish farqi	Statistik tahlil	Manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi (PF-21 asosida kengaytirish)
Huquqiy kafolatlardagi bo'shliqlar	TIU so'rovlari	Tadbirkorlik kodeksini qabul qilish (2024-yil Senat tasdiqlagan)

Jahon banki Doing Business (2024) indeksiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yillarda tadbirkorlik qulayligi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishdi. 2017-yil 87-o'rindan 2020-yilga kelib 69-o'ringa ko'tarilgan mamlakat islohotlar orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirishda aniq natijalarga erishdi.

Biroq qo'shni Qozog'iston (28-o'rin) va Gruziya (7-o'rin) bilan taqqoslaganda O'zbekistonda byurokratik to'siqlar, mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish muddatlari va soliq to'lash qulayligi bo'yicha qo'shimcha islohotlar zarur.

4-jadval. O'zbekiston va mintaqa mamlakatlarining kichik biznes muhiti taqqoslash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Qozog'iston	Gruziya	Maqsad 2030	
KOB / YaIM (%)	**51,5**	32,1	48,3	60,0	
Doing Business (o'rin)	**69**	28	7	—	
Soliq to'lash (soat/yil)	**181,5**	182	216	<150	
Korxona ro'yxatdan o'tkazish (kun)	**3–5**	1	1	1	
KOB kredit olish imkoniyati (1–10)	**5,2**	6,8	7,1	7,0	
Davlat xaridlari KOB ulushi (%)	**15 amalda**	30	25	20+	

World Bank Doing Business 2024; O'zR Milliy statistika qo'mitasi; PF-50-son Farmon, 2025

Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi siyosiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiyalar qisqa muddatli (1–2 yil) va o'rta muddatli (3–5 yil) ko'rinishda guruhlanib taqdim etilmoqda.

Qisqa muddatli (1–2 yil) tavsiyalar:

– Davlat xaridlarida 20 foizlik kvotaning amalda to'liq bajarilishini ta'minlash uchun elektron monitoring tizimini joriy etish

– Aylanma solig'ining qat'iy tartibidan foydalanuvchi tadbirkorlar uchun buxgalteriya hisobi majburiyatlarini amalda bekor qilish

– 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazining faoliyatini kengaytirish va xizmat sifatini standartlashtirish

– Kredit kafolat fondlarini viloyat darajasida tashkil etish va kapitalni oshirish

O'rta muddatli (3–5 yil) tavsiyalar:

– 2030-yilga qadar KOB / YaIM ulushini 60 foizga yetkazish uchun sanoat va eksport yo'nalishidagi kichik korxonalarga alohida rag'batlantirish

– IT Park tajribasini boshqa sohalar uchun ham kengaytirish — agrotexnologiya, yashil sanoat va turizm inkubatorlarini tashkil etish

– Yirik davlat korxonalari (O'zbekenergo, O'zbektemir yo'llari) bilan kichik biznes o'rtasida ta'minotchilik zanjirlari (supply chain) dasturini joriy etish

– Milliy kredit reyting tizimini ishlab chiqish — bank tarixi bo'lmagan tadbirkorlar uchun alternativ ball tizimini joriy etish

XULOSA

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining 2017–2024 yillar davomida sezilarli rivojlanganini ko'rsatdi. Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qilinganda, kichik tadbirkorlik subyektlari YaIM dagi ulushi 46,8 foizdan 51,5 foizga oshgan — bu 4,7 foizlik o'sish bo'lib, o'n yil avvalgi islohotlarsiz mumkin bo'lmaydigan natija edi.

Soliq yukini kamaytirish (yagona 4% aylanma solig'i), moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish (Biznesni rivojlantirish banki, garovsiz kreditlar), ma'muriy to'siqlarni kamaytirish ('Bir oyna', Biznes portal) va davlat xaridlarida 20 foizlik kvota — bular o'tkazilgan islohotlarning asosiy yutuqlari hisoblanadi.

Biroq tahlil bir qancha kamchiliklarni ham ko'rsatdi: davlat xaridlari kvotasidan amalda atigi 15 foiz foydalanilishi, aylanma solig'i tartibining qog'ozda qolayotgan jihatlari va moliyaviy resurslardan cheklangan foydalanish. Bu muammolar siyosiy

islohotlarning amalga oshirish bosqichida, ya'ni monitoring va nazorat tizimida bo'shliqlar mavjudligidan dalolat beradi.

PF-50-son Farmon (2025) bilan tasdiqlangan yangi strategiya — 2030-yilga qadar KOB / YaIM ulushini 60 foizga yetkazish, eksportni 20 mlrd dollarga oshirish va 2 mln ish o'rni yaratish — asosli maqsadlar bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uchun joriy siyosatning amaliy to'siqlarini bartaraf etish zarur. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan qisqa va o'rta muddatli tavsiyalar ushbu maqsadlarga erishishda amaliy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-sonli Farmoni "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". — 19.03.2025. — lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-21-sonli Farmoni "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — 10.02.2023. — lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-292-sonli Qarori "Tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". — 04.09.2023. — lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 37-sonli Qarori "'Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash' kompleks dasturini amalga oshirish to'g'risida". — 20.01.2024. — lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (2025-yilning yanvar-sentabr oylari): press-reliz. — Toshkent, 28.10.2025. — stat.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoatda kichik tadbirkorlik (biznes)ning asosiy ko'rsatkichlari: press-reliz. — Toshkent, 2024. — stat.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi oshgan: press-reliz. — 2023. — stat.uz.

8. Gofurov D. Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. — 2025. — T.2, №5. — B.191–200.

9. Karimov A.X., Rahmonov B.M. O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishida soliq siyosatining roli // Iqtisodiyot va ta'lim. — 2020. — №3. — B.45–52.

10. World Bank Group. Doing Business 2024: Comparing Business Regulation in 190 Economies. — Washington D.C.: World Bank Publications, 2024.

11. OECD. SME and Entrepreneurship Policy in Central Asia. — Paris: OECD Publishing, 2023.

12. Gazeta.uz. O'zbekistonda mikrobiznes uchun qat'iy belgilangan aylanmadan soliq stavkalari. — 08.11.2024. — gazeta.uz/oz/2024/11/08/tax.

ZAMONAVIY TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING AHAMIYATI

Nizamova Yulduz Odamboy qizi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
yulduzniyozqulova@gmail.com

Annotatsiya . Ushbu maqolada zamonaviy teatrlar faoliyatida marketing strategiyalarining ahamiyati, marketing vositalaridan foydalanish darajasi hamda teatr rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, reklama, PR texnologiyalari va raqamli marketing vositalarining tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Teatr faoliyatida marketingdan to‘g‘ri foydalanish madaniyat muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, san’atning jamiyatdagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: teatr menejmenti, marketing, reklama, PR, auditoriya, raqamli marketing, innovatsion boshqaruv, teatr faoliyati.

Аннотация. В данной статье анализируется значение маркетинговых стратегий в деятельности современных театров, уровень использования маркетинговых инструментов и их роль в развитии театра. Также рассматривается значение рекламных и PR-технологий, а также инструментов цифрового маркетинга в расширении аудитории зрителей. Обосновано, что правильное использование маркетинга в деятельности театров способствует повышению экономической эффективности культурных учреждений, а также укреплению общественного статуса искусства.

Ключевые слова: театральный менеджмент, маркетинг, реклама, PR, аудитория, цифровой маркетинг, инновационное управление, театральная деятельность.

Abstract. This article analyzes the importance of marketing strategies in the activities of modern theaters, the level of use of marketing tools, and their role in the development of theater. It also highlights the significance of advertising and PR technologies, as well as digital marketing tools in expanding the audience base. It is substantiated that the proper use of marketing in theater activities contributes to increasing the economic efficiency of cultural institutions and strengthening the social status of art.

Keywords: theatre management, marketing, advertising, PR, audience, digital marketing, innovative management, theatre activity.

Bugungi kunda dunyo miqyosida barcha sohalarda kuchli raqobat muhiti shakllanmoqda. Ushbu jarayon madaniyat va san’at muassasalari faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Xususan, teatr san’ati bugungi davrda nafaqat ma’naviy-ma’rifiy maskan, balki zamonaviy boshqaruv va marketing tizimlarini talab qiladigan muhim madaniy muassasa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi davrda teatrlarning faqatgina sifatli spektakl sahnalashtirishi yetarli emas. Uni tomoshabinga yetkazish, auditoriyani qiziqtirish va teatrga jalb qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli marketing zamonaviy teatr faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda (1).

Avvallari teatrlar asosan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi sababli marketingga ehtiyoj kamroq sezilgan. Hozirgi davrda esa tomoshabinlarning qiziqishlari o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi insonlarning madaniy hordiq chiqarish shakliga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi yoshlar ko‘proq vaqtini telefon va internetda o‘tkazmoqda. Bu esa teatrlarni auditoriyani jalb qilish uchun zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishga

undamoqda. Agar teatrlar zamonaviy reklama va PR texnologiyalaridan foydalanmasa, ularning tomoshabinlari kamayib borishi mumkin (2).

Marketing bugungi teatr faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki eng yaxshi spektakl ham agar u to‘g‘ri targ‘ib qilinmasa yoki auditoriyaga yetib bormasa, kutilgan natijani bermaydi. Marketing esa teatr va tomoshabin o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi. Teatr marketingining asosiy vazifasi tomoshabinlarni teatrga jalb qilish, spektakllarga qiziqishni oshirish, teatrning ommaviyligini kuchaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashdan iboratdir (3).

Ko‘plab teatrlar ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z faoliyatini targ‘ib qilmoqda. Instagram, Telegram, Facebook va YouTube platformalari teatr marketingining muhim vositalariga aylanmoqda. Ushbu platformalarda spektakl anonslari, aktyorlar bilan suhbatlar, sahna orti jarayonlari va videolavhalar joylashtirilishi tomoshabinlar e’tiborini tortadi. Ayniqsa, qisqa videolar va kreativ reklama usullari yosh auditoriyani teatrga jalb qilishda samarali natija bermoqda (4).

Shuningdek, marketing teatrning imidjini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Har bir teatr o‘z uslubi, ijodiy yo‘nalishi va auditoriyasiga ega bo‘lishi kerak. Kuchli imidjga ega teatr tomoshabinlar orasida tezroq mashhur bo‘ladi. Marketing strategiyalari orqali teatr o‘zining brendini yaratadi. Bu esa tomoshabinlarda ishonch va qiziqish uyg‘otadi (5).

Bugungi kunda teatrlarda marketingdan foydalanish darajasi turlicha. Ayrim teatrlar zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanayotgan bo‘lsa, ayrimlarida bu tizim hali yetarlicha rivojlanmagan. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasiga mos kontentlarning yetishmasligi teatr marketingidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi (6).

Raqamli marketing vositalaridan foydalanish bugungi teatrlar uchun juda katta imkoniyat yaratmoqda. Online chipta sotish tizimlari, internet reklamalari va elektron axborot platformalari tomoshabinlar uchun qulaylik yaratmoqda. Internet orqali reklama qilish xarajat jihatidan ham samarali hisoblanadi (7).

Marketing teatrlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Tomoshabinlar sonining oshishi chipta savdosining ko‘payishiga olib keladi. Bu esa teatr daromadining ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek, marketing orqali homiylar va investorlarni jalb qilish imkoniyati ham kengayadi (8). Bugungi zamonaviy dunyoda teatrlarda marketingdan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Chunki marketingsiz teatrning zamonaviy auditoriya bilan raqobat qilishi qiyinlashadi. Marketing orqali teatrlar san’atni keng targ‘ib qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi teatrlar faoliyatida marketing strategiyalarining ahamiyati juda katta va tobora ortib bormoqda. Zamonaviy sharoitda teatrlar nafaqat ijodiy-ma’naviy maskan, balki iqtisodiy va boshqaruv tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan madaniy muassasa sifatida ham qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, marketing teatr faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, u tomoshabinlar bilan samarali aloqani ta’minlash, teatr mahsulotini to‘g‘ri targ‘ib qilish va jamiyatda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Marketing strategiyalari orqali teatrlar o‘z auditoriyasini kengaytirish, ayniqsa yoshlar qatlamini jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish esa teatrlarning ommaviyligini oshirib, ularni keng jamoatchilikka yaqinlashtiradi. Bu jarayon teatr san’atining nafaqat ichki, balki tashqi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, marketing teatrlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Chipta savdosi hajmining oshishi, homiylar va investorlarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi hamda qo‘shimcha daromad manbalarining shakllanishi teatr muassasalarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga yordam

beradi. Bu esa o‘z navbatida teatrlarning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Umuman olganda, marketing strategiyalaridan samarali foydalanish zamonaviy teatrlar rivojining muhim omili hisoblanadi. U teatr va tomoshabin o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash, san’atni keng targ‘ib qilish hamda madaniyat sohasining jamiyatdagi o‘rnini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayziyev T. *Teatr menejmenti va boshqaruv asoslari*. Toshkent.
2. Xolmo‘minov M. *Madaniyat va san’at muassasalarida marketing asoslari*. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Madaniyat to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’atni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
5. O‘zbekiston teatr san’ati rivojiga oid ilmiy-uslubiy to‘plamlar (TSAMI nashrlari).
6. Rasulov A. *Madaniyat menejmenti va marketing*. Toshkent, 2020.
7. Rasulov A. **Madaniyat menejmenti va marketing asoslari**. — Toshkent: *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashriyoti*, **2020**.
8. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti. **“Teatr menejmenti va marketing strategiyalari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma**. — Toshkent, **2021**.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARGA ILOVALAR VA TUSHUNTIRISHLAR

Norqulova Qutlug‘nigor Oloviddinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: abdurazoqovaqutlugnigoor@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarga ilovalar va tushuntirish xatlarini shakllantirish hamda ularning axborotlilik darajasini oshirish masalalari o‘rganiladi. Unda moliyaviy hisobotlarga beriladigan ilovalarning mazmuni, ularning budjet mablag‘laridan foydalanish shaffofligini ta’minlashdagi ahamiyati va tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tushuntirishlarda aks etuvchi ko‘rsatkichlarni xalqaro standard talablariga moslashtirish budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asosiy manba bo‘lishi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *budjet hisobi, budjet hisobi standartlari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, moliya yili, tushuntirish xati, ilovalar.*

Budjet tashkilotlarida tuziladigan yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xati ilova qilinadi. “Budjet tashkiloti yillik moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida kelgusi moliya yili uchun hisob siyosatidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar haqida ma’lumot beradi.”[1]Shuningdek, tushuntirish xatida budjet va budjetdan tashqari mablag’lar bo‘yicha xarajatlar smetasi ijrosi jarayoniga ta’sir qilgan omillar yoritiladi, jumladan, budjet mablag’larining iqtisod qilinish sabablari (agar iqtisod qilingan bo‘lsa), debitorlik va kreditorlik qarzdorlikning vujudga kelish

[1] O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 27-dekabrdagi «Budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati”ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2853) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

sabablari, muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, hisobot davrida kirim qilingan va sarflangan asosiy vositalar hamda tovar moddiy zaxiralari, qonunchilikka asosan tashkilotga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar va ularning sarflani to‘g’risida ma’lumotlar, aniqlangan kamomad va o‘g’irlangan pul mablag’lari va hisobotlar bilan bog’liq boshqa ma’lumotlar yoritib beriladi. Bundan tashqari, hisobot yilining birinchi choragi bo‘yicha moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xatida tugallanmagan qurilish va asbob-uskunalarni qayta baholash bo‘yicha axborotlar ochib beriladi.

“Moliyaviy hisobotlarga tushuntirish — moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan ma’lumotlar uchun qo‘shimcha axborot. Moliyaviy hisobotlarga tushuntirishda izohlar, hisobotlarda keltirilgan ma’lumotlarning kengaytirilgan ko‘rinishi va Standart talablari bo‘yicha hisobotlarda ko‘rsatib o‘tilmagan qo‘shimcha ma’lumotlar taqdim etiladi.”[2]

Tushuntirish xati tashkilot Rahbari yoki uning moliyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tashkilot bosh hisobchisi tomonidan elektron imzo orqali “UzASBO 2” dasturiy majmuasida tasdiqlanadi.

Quyidagi rasmda Balans moliyaviy hisobotiga yozilgan tushuntirish xati ko‘rsatilgan. Ushbu tushuntirish xatida ma’lumotlar qisqacha tarzda keltirilgan hamda mazkur tushuntirish xati elektron tarzda tashkilot Rahbari o‘rinbosari va bosh hisobchi tomonidan imzolanganini ko‘ramiz.

[2] O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 18-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (3-sonli BHS) “Budjet hisoboti”ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3124, 2019-yil 18-yanvar) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).



1-rasm. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar[3]

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Bunda albatta, inson omilini kamaytirish budjet tizimida moliyaviy hisobotlarni shaffofligi oshirish uchun katta ro‘l o‘ynaydi. Ushbu jarayon bevosita “UzASBO” dasturiy majmuasi va “Elektron budjet” tizimi bilan bog’liq.

Dasturiy majmua orqali ma’lumotlar integratsiyasi hozirgi kunda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Moliyaviy hisobotlarga ilovalar (jumladan, debetorlik-kreditorlik qarzdorliklar, asosiy vositalar harakati) “UzASBO” tizimida avtomatik shakllanadi. Bu esa hisobotlardagi texnik xatolarni kamaytiradi. Ammo ushbu jarayonda tahliliy bo‘shliq mavjud. Mavjud raqamli tizim asosan miqdoriy ko‘rsatkichlarni shakllantiradi, ya’ni qancha pul sarflanganini ko‘rsatadi, lekin tushuntirish xatida sifat ko‘rsatkichlari mavjud emas. Sarflangan mablag’ qanday natija berganligi to‘g’risida axborot berilmaydi. “UzASBO” dasturiy majmuasida moliyaviy hisobotlarga “Natijadorlik indikatori” (Performance indicator) bo‘limi kiritilsa, moliyaviy hisobotlarda aniqlik hamda shaffoflik ko‘rsatkichlari yanada oshadi. Demak, raqamli

[3] “UzASBO 2” dasturiy majmuasidan olindi.

transformatsiya tizimini yanada rivojlantirish lozim, moliyaviy hisobotlarga ilovalarni shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish, faqatgina buxgalteriyama'lumotlarini jamlash emas, balki budjet mablag'lariniijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini avtomatik tahlil qiluvchi Smart reporting tizimini joriy qilish zarur.

Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida davlatimizda xalqaro standartlar orqali milliy tizimni yangilash jarayonlari ketmoqda. Shunday ekan, moliyaviy hisobotlarni IPSAS standartlari talablariga moslashtirib borish eng to‘g’ri yo‘l bo‘ladi. IPSASga asosan moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xatida ham aks ettirilishi lozim bo‘lgan muhim bandlarni ko‘rib chiqamiz:

IPSAS 1 standartiga asosan “Ilovalar (izohlar) (Notes) moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular shunchaki qo‘shimcha qism emas, balki hisobotni mazmunini ochib beruvchi asosiy elementdir.

IPSAS 1 talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar tizimlashgan tartibda taqdim etilishi shart. Moliyaviy holat tog’risidagi hisobot ya’ni Balans, Moliyaviy natijalar to‘g’risidagi hisobot va pul oqimlari to‘g’risidagi hisobotlarning har bir moddasi bo‘yicha izohlarda keltirilgan tegishli ma’lumotlarga havola (cross-referance) berilishi kerak.

1-jadval

Moliyaviy hisobotlarga ilovalar va tushuntirishlarning qiyosiy tahlili[4]

№	**Taqqoslash mezonlari**	**IPSAS 1**	**3-sonli BHS**
1	Ilovalarning huquqiy maqomi	Izohlarsiz moliyaviy hisobotlar to‘liq emas deb hisoblanadi, ya’ni izohlar	Moliyaviy hisobotlarning majburiy lekin qo‘shimcha tarkibiy qismi

[4] Muallif ishlanmasi

		hisobotning to‘laqonli va ajralmas qismidir.	hisoblanadi.(Tushuntirish xati va ilovalar ko‘rinishida).
2	Tizimlilik va havolalar (Cross referencing)	Qat`iy talablarga ega: Balansdagi har bir raqam izohlardagi tegishli bandga havola qilinadi (Note 1, Note 2).	Raqamlar va tushuntirish xati o‘rtasida bunday qat`iy raqamlangan o‘zaro bog’liqlik tizimi metodologik jihatdan to‘liq shakllanmagan.
3	Hisob siyosatini ochib berish	Har bir muhim operatsiya (significant transactions) uchun tanlangan baholash mezoni va xususiy yondashuvlar batafsil asoslanadi.	Asosan amaldagi qonunchilikda belgilangan umumiy qoidalarga havola beriladi va tanlangan usullar qisqacha yoritib o‘tiladi.
4	Nomoliyaviy ma’lumotlar (Nonfinancial disclosures)	Tashkilotning vazifasi, huquqiy shakli. xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi hamda erishilgan natijalari qayd etiladi.	Asosan moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (xarajatlar smetasi ijrosi xarajatlar moddalari) tahliliga e`tibor qaratiladi.
5	Ma’lumotlar ketma-ketligi (Order of notes)	Qat`iy ketma-ketlik belgilab qo‘yilgan: 1.IPSASga muvofiqlik 2. Baholash asosi 3.Tahliliy ma’lumotlar 4.Boshqa shartli majburiyatlar	Ilovalar Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllar (1-ilova, 2-ilova va boshqalar) hamda tushuntirish xati ketma-ketligida yoziladi.

6	Budjet bilan solishtirish (Budget comparison)	Majburiy ahamiyatga ega: Haqiqiy xarajatlar va budjet ko‘rsatkichlari taqqoslanib, ular o‘rtasidagi tafovutlar izohlanadi.	Majburiy ahamiyatga ega: Tasdiqlangan smetalardan chetlanishlar ko‘rsatiladi, ammo tahlil ko‘proq me`yoriy intizomni tekshirishga qaratiladi.

Yuqoridagi jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari ilovalar va tushuntirish xatiga ko`plab talablar qo`ygan va sezilarli darajada mukammal tartibga ega. 3-sonli BHS va IPSAS 1 talablari o`rtasida ko`plab tafovutlar mavjud bo`lib, 3-sonli BHS bo`yicha ilovalar va tushuntirish xatiga qo`yilgan talablar juda soddatuzilgan. IPSAS 1 bo`yicha ilovalar va tushuntirish xatida moliyaviy hisobotlarning ko`plab jihatlari yoritilishi shart deb ko`rsatilgan hamda ilovalarsiz moliyaviy hisobotlar tugallanmagan deb hisoblanadi.

3-BHS bo`yicha ilovalar va tushuntirishlarga qo`yilgan talablarni yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish davlat sektorida moliyaviy hisobotlarni yanada aniq, shaffof va mukammal tuzilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 27-dekabrdagi «Budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati”ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2853) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 18-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (3-sonli BHS) “Budjet hisoboti”ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3124, 2019-yil 18-yanvar) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Paraxatova Gulzira Amanbay qizi
Toshkent Menejment va Kommunikatsiya Instituti
e-mail: gulziraparaxatova99@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, fintech xizmatlar va davlat raqamli platformalarning biznes rivojiga ta'siri o'rganilgan. Shunindek, O'zbekistonda kichik biznes ulishing oshishi va raqamli transformatsiya jarayonlari statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiya, electron tijorat.*

Аннотация: *Данная диссертация анализирует теоретические и практические аспекты развития малого бизнеса и предпринимательства в условиях цифровой экономики. Было изучено влияние цифровых технологий, электронной коммерции, финтех-услуг и государственных цифровых платформ на развитие бизнеса. Также она основе статистических данных освещены растущая доля малого бизнеса в Узбекистане и процессы цифровой трансформации.*

Ключевые слова: *Цифровая экономика, инновации, малый бизнес, предпринимательство, электронная коммерция.*

Abastract: *This thesis analyzes the theoretical and practical aspests of developing small business and entrepreneurship within the digital economy. The impact of digital technologies, e-commerce, fintech services, and government digital platforms on*

business development has been studied. Additionally, the increase in the share of small businesses in Uzbekistan and the processes of digital transformation are highlighted based on statiscal data.

Keywords: *Digital economy, small business, entrepreneurship, innovation, e-commerce.*

Kirish. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot YAIM o'sishining muhim omiliga aylanmoqda. O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, kichik biznes va tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kichik biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan sektori bo'lib, ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. O'zbekistonda kichik biznesning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik YAIMning 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Bu esa uchbu sektor iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlari. Raqamli iqtisodiyot kichik biznesga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-Elektron tijorat orqali global bozorlarga chiqish

-Onlayn to'lov xizmatlari (Click, Payme, Uzum Bank) orqali tezkor operatsiyalar

-Ijtimoiy tarmoqlar orqali arzon marketing (SMM)

-Raqamli platformalar orqali mijozlar bilan bevosita aloqa

Masalan, O'zbekiston Uzum Market va boshqa marketplace platformalar kichik tadbirkorlarning mahsulotlarini keng auditoriyaga chiqarishda muhim rol o'ynamoqda. Bu borada startaplar ham juda muhimdir. Hozirgi vaqtda startaplarga ham Prezitentimiz tomonidan kuchli etibor qaratilmoqda. Aynan bu bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sadullaev shug"ullanyabdilar.

Shu bilan birga quyidagi muammolar ham mavjud:

-Raqamli savodxonlikning yetarli darajada emasligi

-Kiberxavfsizlik xavflari

-Ba’zi hududlarda internet infratuzilmasining sustligi

Davlat siyosati va islohotlar. O’zbekistonda “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida:

-Davlat xizmatlari raqamlashtirilmoqda

-Elektron hukumat tizimi rivojlanmoqda

-IT Park rezidentlariga soliq imtiyozlari berilmoqda

Bu esa kichik biznes uchun qulay ekotizim yaratmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish itisodiy o’sishni tezlashtiradi, yangi ish o’rinlari yaratadi va bozor raqobatbardoshligini oshiradi. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu yo’nalishning istiqbolli ekanini ko’rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Prezidentining PF-6090-son Farmoni. “Raqamli O’zbekiston-2030 strategiyasi”, -2020
2. O’zbekton Respublikasi Prezidentining PQ-3832-son qarori. “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari”. -2018
3. Abdurahmonov Q.X. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent:Mehnat,2019.
4. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O’zbekiston, 2021.
5. Raqamli texnologiyalar vazirligi. https://stat.uz (murojat sanasi: 18.05.2026).

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI XALQARO MIQYOSDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Po‘latova Umidaxon Mamutxon qizi
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunosllik akademiyasi
mailto:makhmudovna6602@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ziyorat turizmini xalqaro miqyosda rivojlantirish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakatda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ziyorat turizmining iqtisodiy, madaniy va ma’naviy ahamiyati hamda O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, mamlakatdagi tarixiy-madaniy meros obyektlari, muqaddas qadamjolar va islom sivilizatsiyasiga oid maskanlarning turistik salohiyati yoritildi.*

Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishda mavjud muammolar, jumladan, infratuzilma kamchiliklari, marketing tizimidagi muammolar va malakali kadrlar yetishmovchiligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasi asosida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning xalqaro ziyorat turizmi markaziga aylanishi uchun mavjud imkoniyatlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *ziyorat turizmi, Yangi O‘zbekiston, xalqaro turizm, islomiy turizm, madaniy meros, turizm infratuzilmasi, tarixiy obidalar, turizm siyosati.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the prospects for developing pilgrimage tourism at the international level in New Uzbekistan. The research examines the ongoing reforms in the tourism sector, the economic, cultural, and spiritual significance of pilgrimage tourism, as well as Uzbekistan’s position in the international tourism market. In addition, the tourism potential of historical and cultural heritage*

sites, sacred places, and monuments related to Islamic civilization in the country is highlighted.

The article also analyzes existing problems in the development of pilgrimage tourism, including infrastructure shortcomings, issues in the marketing system, and the lack of qualified personnel. Furthermore, scientific and practical recommendations for the development of pilgrimage tourism based on international experience are proposed. The results of the study reveal the existing opportunities for transforming Uzbekistan into one of the major centers of international pilgrimage tourism.

***Keywords**: pilgrimage tourism, New Uzbekistan, international tourism, Islamic tourism, cultural heritage, tourism infrastructure, historical monuments, tourism policy.*

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Xususan, so‘nggi yillarda xalqaro turizm tarkibida ziyorat turizmining ulushi sezilarli darajada ortib, ushbu yo‘nalish dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida muhim o‘rin egallamoqda. Ziyorat turizmi insonlarning diniy, ma’naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, davlatlarning xalqaro nufuzini oshirish, tarixiy merosini targ‘ib qilish hamda iqtisodiy daromadlarni ko‘paytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda jahonda diniy turizm yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, musulmon mamlakatlarida islomiy ziyorat maskanlariga tashrif buyuruvchi turistlar sonining ko‘payishi ziyorat turizmini iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirmoqda. Shu jihatdan, boy tarixiy va diniy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston ham xalqaro ziyorat turizmi bozorida muhim o‘rin egallash imkoniyatiga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, so‘nggi yillarda ushbu sohada keng ko‘lamli

Natijalar: 2026 yil 1 yanvar holatiga ko`ra O`zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo`llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari Davlat Reestri tahlil qilinganda, 25 ta tonus oshiruvchi dori vositalari mavjudligi aniqlandi. Ularning 12 tasi (48,0%) xorijiy farmatsevtika korxonalari, 2 tasi (8,0%) MDH davlatlari va 11 tasi (44,0%) mahalliy farmatsevtika korxonalari tomonidan ro`yxatdan o`tkazilgan.

Xulosalar: O`zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo`llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari Davlat Reestrining 2026 yil 1 yanvar holatiga ko`ra tonik ta`sir qiluvchi dori vositalarini tahlil qilindi. O`rganish natijalari shuni ko`rsatdiki, reestrda jami 25 ta tonik ta`sir qiluvchi dori vosita mavjud bo`lib, ularning 44,0% i mahalliy korxonalar, 48,0% i xorij kompaniyalari tomonidan ro`yhatdan o`tkazilgan. Mahalliy farmatsevtika korxonalari tomonidan asosan nastoyka, eritma va o`simlik xom ashyosi dori shakllarida tonik vositalar taqdim etilayotgani, import qilinadigan preparatlar esa kapsulalar, draje va granulalar ko‘rinishida kengroq assortimentga ega ekanligi aniqlandi. O`zbekistonda tonik dori vositalarining mahalliy ishlab chiqarishini kengaytirish va yangi zamonaviy dori shakllari joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri (2026 yil 1 yanvar holati). — Toshkent, 2026.

2. Арзамасцев А.П., Садчикова Н.П. Государственная фармакопея Российской Федерации. — XIV издание. — Москва: ФЭМБ, 2018. — 1814 с.

3. Turgunov J.X., Xolmatova N.T. Farmakognoziya. Darslik. — Toshkent: ToshFarI, 2020. — 480 b.

4. Блинков И.Л. Адаптогены и тонизирующие средства растительного происхождения: механизмы действия и клиническое применение // Фармация и фармакология. — 2019. — №4(7). — С. 12–21.

5. Qodirov A.A., Yusupova M.R. O'zbekistonda dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi va farmatsevtika bozori tahlili // O'zbekiston farmatsevtika axborotnomasi. — 2022. — №2. — B. 34–39.

6. WHO. Guidelines on the Use of International Nonproprietary Names (INNs) for Pharmaceutical Substances. — Geneva: World Health Organization, 2017. — 56 p.

7. Lenchenko E., Makarov V. Adaptogenic plants: pharmacological activity and prospects for use // Journal of Ethnopharmacology. — 2021. — Vol. 267. — P. 113–128.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И ВЕДЕНИЮ БЕРЕМЕННЫХ С СИНДРОМОМ ТОШНОТЫ И РВОТЫ

Мамадиева М.Г.

Андижанский государственный медицинский институт

maftuna.mamadieva@mail.ru

Актуальность. *Ранний токсикоз беременности является одним из наиболее распространённых осложнений I триместра и наблюдается у 60–80% беременных женщин. Тяжёлые формы, сопровождающиеся выраженной тошнотой и рвотой, дегидратацией и метаболическими нарушениями, встречаются у 1–3% пациенток и остаются одной из ведущих причин госпитализации в ранние сроки беременности. Современные данные свидетельствуют о важной роли эндокринных и метаболических механизмов, а также плацентарных биомаркеров в формировании и прогрессировании раннего токсикоза.*

Ключевые слова: *ранний токсикоз беременности, GDF-15, гиперемезис беременных, щитовидная железа, электролитные нарушения, беременность.*

Цель исследования. Оптимизировать ведение беременных с ранним токсикозом на основе комплексной оценки клинико-патогенетических факторов и разработки дифференцированного алгоритма лечебно-профилактических мероприятий.

Материалы и методы. В исследование включены 120 беременных женщин со сроком гестации 6–12 недель с проявлениями раннего токсикоза. Проведены клинические, биохимические, гормональные и статистические исследования. Оценивали функциональное состояние щитовидной железы, электролитный

баланс крови и уровень Growth Differentiation Factor-15 (GDF-15) как потенциального биомаркера тяжести раннего токсикоза.

Результаты. Установлено, что тяжёлое течение раннего токсикоза сопровождалось транзиторным снижением уровня тиреотропного гормона и развитием водно-электролитных нарушений, характеризующихся снижением концентрации натрия, калия и хлора. Выявлена диагностическая и прогностическая значимость GDF-15: повышение уровня более 4000 пг/мл ассоциировалось с риском прогрессирования заболевания, а значения свыше 5500 пг/мл — с развитием тяжёлых форм гиперемезиса. Определены достоверные корреляционные связи между уровнем GDF-15, клинической тяжестью по шкале PUQE, показателями тиреоидного статуса и электролитного профиля.

Разработанный алгоритм **HG-Risk Score**, включающий GDF-15, показатели функции щитовидной железы и клинические параметры, позволил снизить частоту прогрессирования токсикоза, уменьшить число госпитализаций и улучшить перинатальные исходы.

Выводы. Ранний токсикоз беременности сопровождается комплексными эндокринно-метаболическими нарушениями. Определение уровня GDF-15 в сочетании с оценкой тиреоидного статуса и электролитного профиля позволяет проводить раннюю стратификацию риска и персонализировать тактику ведения беременных. Внедрение патогенетически ориентированного подхода способствует повышению эффективности диагностики и улучшению клинических исходов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Fejzo M.S., Trovik J., Grooten I.J. et al. Nausea and vomiting of pregnancy and hyperemesis gravidarum // Nature Reviews Disease Primers. — 2019. — Vol. 5(1). — P. 62.

2. Kjeldgaard H.K., Vikanes Å., Benth J.Š. et al. Association between the degree of nausea in the first trimester and subsequent posttraumatic stress // Archives of Women's Mental Health. — 2019. — Vol. 22(4). — P. 493–501.
3. Fejzo M., Rocha N., Cimino I. et al. GDF15 linked to maternal risk of nausea and vomiting during pregnancy // Nature. — 2024. — Vol. 625. — P. 760–767.
4. Абрамченко В.В. Рвота беременных: патогенез, клиника, лечение. — Санкт-Петербург: СпецЛит, 2005. — 143 с.
5. Кошелева Н.Г. Токсикозы беременных: патогенез, клиника, лечение // Журнал акушерства и женских болезней. — 2017. — №66(3). — С. 45–52.

ОСОБЕННОСТИ ЭЛЕКТРОЛИТНОГО БАЛАНСА У БЕРЕМЕННЫХ С РАННИМ ТОКСИКОЗОМ

Мамадиева М.Г.

Андижанский государственный медицинский институт

maftuna.mamadieva@mail.ru

Актуальность. Ранний токсикоз беременности сопровождается не только клиническими проявлениями тошноты и рвоты, но и выраженными метаболическими нарушениями, оказывающими влияние на течение беременности и состояние плода. Одним из важных патогенетических механизмов тяжёлого течения токсикоза являются нарушения электролитного обмена, возникающие вследствие дегидратации и повторной рвоты.

Ключевые слова: ранний токсикоз беременности, электролитные нарушения, дегидратация, гипонатриемия, гипокалиемия, беременность.

Цель исследования. Изучить особенности электролитного баланса у беременных с ранним токсикозом и определить их клиническое значение.

Материалы и методы. Обследованы 120 беременных женщин в сроке гестации 6–12 недель. В зависимости от степени выраженности токсикоза пациентки были распределены на группы. Проводилось исследование уровня натрия (Na^+), калия (K^+), хлора (Cl^-), а также оценка клинических симптомов и степени дегидратации.

Результаты. У беременных с ранним токсикозом выявлены изменения электролитного состава крови, степень выраженности которых зависела от тяжести заболевания. При среднетяжёлых и тяжёлых формах отмечалось достоверное снижение уровня натрия, калия и хлора по сравнению с

физиологическим течением беременности. Наиболее выраженные нарушения наблюдались у пациенток с многократной рвотой и признаками дегидратации.

Установлено, что гипонатриемия и гипокалиемия сопровождались общей слабостью, тахикардией, снижением аппетита и ухудшением общего состояния беременных. Нарушения электролитного обмена коррелировали с тяжестью клинических проявлений токсикоза и длительностью госпитализации.

Проведение своевременной инфузионной терапии с коррекцией водно-электролитного баланса способствовало более быстрому улучшению клинического состояния пациенток и уменьшению частоты осложнений.

Выводы. Ранний токсикоз беременности сопровождается значительными нарушениями электролитного обмена, степень которых увеличивается по мере прогрессирования заболевания. Контроль электролитного профиля имеет важное значение для оценки тяжести состояния и выбора оптимальной тактики ведения беременных.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ). Рекомендации по оказанию дородовой помощи. — Женева: ВОЗ, 2019. — 172 с.
2. Айламазян Э.К., Кулаков В.И., Радзинский В.Е. Акушерство: национальное руководство. — 2-е изд. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. — 1200 с.
3. Серов В.Н., Сухих Г.Т. Клинические рекомендации. Акушерство и гинекология. — 4-е изд. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2014. — 1024 с.
4. Шехтман М.М. Руководство по экстрагенитальной патологии у беременных. — Москва: Триада-Х, 2003. — 816 с.
5. Стрижаков А.Н., Давыдов А.И. Акушерство: курс лекций. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2009. — 456 с.

SOCIAL SCIENCES, LAW, PUBLIC ADMINISTRATION AND THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Azamova Sitora Ayonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
azamovasitora06@gmail.com

Annotatsiya: *,Maqolada O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Global va mintaqaviy ekologik muammolar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirishning ahamiyati, ekologik tarbiya tizimidagi muammolar va ularning yechimlari ijtimoiy va falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, yoshlar, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, tabiat va jamiyat munosabatlari, global muammolar, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье анализируются социально-философские аспекты формирования экологического сознания и культуры молодежи в условиях Узбекистана. В современную эпоху, когда глобальные и региональные экологические проблемы обостряются, исследуется важность повышения экологической осведомленности молодежи, проблемы в системе экологического образования и пути их решения на основе социально-философских подходов.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, экологическая культура, экологическое воспитание, молодежь, социально-философский подход, отношения природы и общества, глобальные проблемы, национальные ценности.*

Abstract: *The article analyzes the socio-philosophical aspects of the formation of environmental awareness and culture of youth in Uzbekistan. In the modern era, when global and regional environmental problems are becoming more acute, the importance*

of raising environmental awareness among young people, problems in the environmental education system and ways to solve them based on socio-philosophical approaches are being explored.

Keywords: *ecological consciousness, ecological culture, ecological education, youth, socio-philosophical approach, relations between nature and society, global problems, national values.*

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar o'ta murakkab va ziddiyatli tus oldi. Antropogen ta'sirning mislsiz darajada o'sishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi va Orol dengizi fojiasi kabi mintaqaviy muammolar insoniyat oldiga ekologik inqirozning oldini olish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu jarayonda shaxsning, ayniqsa, jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarning ekologik ongi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholi, xususan, yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahonda ekologik dunyoqarashni shakllantirish nafaqat global muammolarning oldini oluvchi omil, ayni paytda ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi vosita, ekologik madaniyatni yuksaltirish usuli sifatida tan olingan. Insoniyat qadriyatlarining qadrsizlanishi muammosi ekologik muammolar bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lib, ularning yechimi inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyati va bir butun qadriyatlar ishtirokida sodir bo‘ladi. Shu bois shaxs ekologik dunyoqarashinining qadriyatli jihatlarini rivojlantirish va milliy ekologik qadriyatlarning obyektiv va subyektiv omillarini imkoniyatlarini tadqiq etish ijtimoiy-gumanitar masalaga aylangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlarida: "Bizning oldimizda turgan eng muhim masalalardan biri – yoshlar qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalashdir", deb bejiz ta'kidlamagan. Zero, bugungi kun yoshlari nafaqat hozirgi,

balki kelajak avlodlar uchun ham yashash muhitining xavfsizligini ta'minlashga mas'uldirlar. Shuning uchun yoshlar ekologik ongini yuksaltirish jarayonini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va ta'sir etuvchi omillarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ekologik ong – bu jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aks ettiruvchi, insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi qarashlar, nazariyalar, his-tuyg'ular va intilishlar yig'indisidir. U ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, insonning biosferadagi o'rnini anglashidan kelib chiqadi. Ijtimoiy tafakkur taraqqiyotida tabiatga munosabat bir necha bosqichlarni bosib o'tdi: mifologik (tabiatni ilohiylashtirish), utilitar-pragmatik (tabiatni bo'ysundirish, resurs manbai sifatida ko'rish) va ekosentrik (tabiat bilan uyg'unlikda yashash). Bugungi kunda utilitar-pragmatik yondashuv o'rnini ekosentrik tafakkur egallashi hayotiy zaruratga aylangan. Ekosentrik yondashuvda inson tabiatning xo'jayini emas, balki uning ajralmas bir qismi sifatida qaraladi, tabiat qadriyati inson ehtiyojlaridan mustaqil ravishda e'tirof etiladi.

Yoshlar ekologik ongini shakllantirish shunchaki atrof-muhit haqida ma'lumot berish emas, balki ularning dunyoqarashini o'zgartirish, tabiat bilan muloqotning yangi axloqiy me'yorlarini yaratish demakdir. Bu jarayon ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ta'lim, oila, ommaviy axborot vositalari, davlat va nodavlat tashkilotlari kabi ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

O‘zbek xalqining milliy madaniyatida tabiatga ehtiyotkorona munosabat azaldan muhim o'rin tutgan. Suvni e'zozlash, daraxt ekish, hashar kabi urf-odatlarimiz zaminida chuqur ekologik ma'no yotadi. Islom dini ta'limotida ham isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, borliqqa omonat sifatida qarash targ'ib etiladi. Mutafakkir bobolarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida inson va tabiat uyg'unligi g'oyasi ilgari surilgan. Yoshlar ekologik ongini shakllantirishda aynan ana shu milliy qadriyatlarga tayanish yuksak samaradorlikni ta'minlaydi.

Biroq bugungi globallashuv va raqamlashtirish asrida faqat an'analar bilan cheklanib bo'lmaydi. Zamonaviy o'zbek yoshlari virtual olamga faol integratsiyalashgan, ularning qadriyatlar tizimi o'zgarib bormoqda.

Yoshlar ekologik ongini belgilovchi ijtimoiy omillar

Yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirish ko'p omilli ijtimoiy jarayondir. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- **Oilaviy muhit:** Ekologik tarbiyaning ilk poydevori oilada qo'yiladi. Ota-onaning tabiatga munosabati (masalan, suv va energiyadan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni saralash kabi oddiy odatlar) bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, bugungi kunda ko'plab oilalarda bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti, iste'molchilik kayfiyati ustunlik qilmoqda”

-ta'lim muassasalari: Maktabgacha ta'limdan tortib to oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan uzluksiz ekologik ta'lim tizimi. Bu yerda asosiy muammo – fanlararo integratsiyaning yetishmasligi. Ekologiya faqat biologiya yoki geografiya fanlari doirasida o'qitilmasdan, ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, falsafa, adabiyot) orqali ham talabalarga tabiatning estetik va qadriyatli mohiyati tushuntirilishi kerak;

-ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar: Axborot asrida yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi eng kuchli qurol. Ijtimoiy tarmoqlardagi ekologik kampaniyalar, chellenjlar (masalan, "Yashil makon" doirasidagi aksiyalar), eko-blogerlar faoliyati yoshlarni amaliy ishlarga jalb qilishda katta imkoniyatlarga ega;

-iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlar: Yoshlarni chiqindilarni saralashga chaqirish mumkin, lekin hududda tegishli infratuzilma (rangli qutilar, qayta ishlash korxonalari) bo'lmasa, bu chaqiriq o'z samarasini bermaydi. Shuning uchun ekologik ong shakllanishi qulay yashash muhiti bilan parallel borishi kerak.

O‘zbekistonda yoshlar ekologik ongini yuksaltirish – bu faqat ekologiya qo'mitasi yoki ta'lim tizimining emas, balki butun jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy vazifasidir. Bu masalaga falsafiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, tabiatdagi muammolar

– bu inson qalbidagi, tafakkuridagi ma'naviy inqirozning tashqi in'ikosidir. Shuning uchun ekologik vaziyatni barqarorlashtirish faqat texnologik va huquqiy choralar bilangina emas, balki yoshlarning qalbini tarbiyalash, ularning ehtiyojlari doirasini ma'naviylashtirish orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ekologik ongi ularning intellektual va ma'naviy kamolotining ajralmas ko'rsatkichi hisoblanadi. Faqatgina qalbida tabiatga daxldorlik va mas'uliyat hissi shakllangan yoshlargina kelajakda yurtning ekologik xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2022. 440 b.

2. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. –T.: “Voris – nashriyot”, 2021. 136 b.

3. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. ttps://elibrary.ru/tjvied

4. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida o‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.

5. Azamova, Sitora, and Zarnigor Suyunova. "O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MASALALARI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 3.4 (2026): 284-287.

6. . Azamova, Sitora. "O‘ZBEKISTON ZAMINIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI." *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*

Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.9s (2025): 202-206.

7. Ayonovna, Azamova Sitora. "EKOLOGIK MADANIYAT SHAKLLANISHINING TARIXIY ASOSLARI." *Shokh Articles Library* 1.1 (2025).

KEKSALIK DAVRIDA QADRIYATLAR MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Iskandarova Laylo Dilshodovna

OXU

laylois2003@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolda bugungi kunda dolzarb mavzuga va muammoga aylananib borayotgan mavzulardan biri bo‘lgan keksalik davri psixologioyasi va bu davrda qadriyatlarning o‘zgarishi haqida so‘z yuritiladi. Maqola bir necha yillik kuzatishlarimizning mahsuli bo‘lib, maqolada ko‘plab tabiiy jarayonlar va real psixologik holatlarning yoshdan yoshga o‘tish davrida o‘zgarishlari yoritilgan. Keksalik , qadriyat, psixologiya tushunchalarining bir nuqtada tutashgan jarayonlari va bu uchlik tutashgan davrda paydo bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlarga va muammolarga izlanishlarimiz natijasida aniqlangan bir qancha psixologik yechimlar keltirib o‘tilgan. Keksalik davrida qadriyatlar muammosining namoyon bo‘lishi-inson qarilik yoshiga yetganda uning hayotiy qadriyatlari, dunyoqarashi, ma’naviy ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlarida yuz beradigan psixologik o‘zgarishlar tushuniladi. Qarilik davrida inson psixologiyasi moddiylik ehtiyojlaridan ma’naviy yetuklik tomon o‘zgarib boradi. Bu davrda inson moddiy qadriyatlar ya’ni uy-joy, pul, mashina, qimmatbaho kiyim kechaklaru buyumlarini emas balki, mehr, oqibat, hurmat, oila kabi ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoji ortib boradi.*

Kalit so‘zlar: *keksalik, qadriyat, psixologiya, keksalik psixologiyasi, ma’naviy yetuklik, ijtimoiy qadriyatlar, ma’naviy qadriyatlar, psixologik o‘zgarishlar, dunyoqarash, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, inson ehtiyojlari, qarilik jarayoni, emotsional ehtiyojlar, gerontopsixologiya.*

Abstract*. This article discusses the psychology of old age and the transformation of values during this period, which has become one of the most акmyal and pressing issues of modern times. The article is the result of several years of our observations and highlights numerous natural processes and real psychological changes that occur during the transition from one stage of life to another. It examines the intersection of the concepts of old age, values, and psychology, as well as the psychological changes and problems that emerge when these three aspects converge. Based on our research, several psychological solutions to these issues are also presented.*

The manifestation of the problem of values in old age refers to the psychological changes that occur in an individual's life values, worldview, spiritual needs, and social relationships when reaching old age. During this stage, human psychology gradually shifts from material needs toward spiritual maturity. In old age, people tend to value not material possessions such as houses, money, cars, expensive clothes, and luxury items, but rather spiritual and social values such as kindness, compassion, respect, and family relationships.

Keywords: *old age, values, psychology, elderly psychology, spiritual maturity, social values, moral values, psychological changes, worldview, social relationships, family values, human needs, aging process, emotional needs, gerontopsychology.*

Kirish. Inson psixologiyasi insonning yoshi o‘tgan sayin sekin asta o‘zgarib boradi. Buning sababi hayotiy tajribalar, tashqi voqeliklar, inson sog‘lig‘i va garmonlarining o‘zgarishi, psixologik depressiyalar va ko‘pgina omillardir. Inson psixologiyasining rivojlanishi va jismoniy jihatdan rivojlanish har doim ham baravar ya’ni teng holatda amalga oshmaydi. Hayotda orttirilgan tajribalar sabab inson psixologiyasi jismoniy jihatdan oldinroq o‘sib qarilik ya’ni mulohazalash davriga o‘tishi mumkin. Ushbu fikrimizni yoritib berish uchun hayotiy misollar keltirsak. Otasi yoki onasidan umuman olganda yaqin qarindoshidan erta ayrilgan inson, erta yosh

davrlaridan og‘ir kasalliklarga chalingan inson psixologiyasi bilan jismoniy ulg‘ayishi o‘rtasidagi bog‘liqlik uziladi. Shu sabab inson ulg‘ayishi bilan psixologik ulg‘ayishi tushunchalarini bir biridan farqlay olishimiz zarurdir. Keksalik inson hayotining tabiiy va murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda nafaqat organizmda fiziologik o‘zgarishlar, balki insonning ruhiy olami, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimida ham muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Inson umr davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, ijtimoiy mavqei hamda ma’naviy qarashlari qarilik davrida yanada chuqurroq namoyon bo‘la boshlaydi. Shu sababli keksalik davrida qadriyatlarning shakllanishi va ifodalanishini psixologik jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.Bugungi kunda jamiyatda keksa avlodga bo‘lgan munosabat, ularning ruhiy salomatligi va ma’naviy ehtiyojlarini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki keksa insonlarning ruhiy holati oilaviy muhit, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili: Amerikalik psixologlar Frend va Zabek keksalik davrida tafakkurning tanqidiyligini o‘rganishda deduksiya va sillogizmlardan foydalanib, keksalikda tafakkurning obyekti torayishi va keskin rad qilish kuchayishini aniqlaganlar. D.Bromley qariyalarda ijodiy tafakkurning pasayishi, o‘ta qiyinchilik bilan yangi sharoitga moslashuvini va dogmatizmga asoslanishini topgan. B.A.Grekov so‘z assotsiatsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining xususiyatini tekshirgan. Uning ma’lumotlariga ko‘ra: 70-80 yoshlardagi keksalikda xotira (ayniqsa mexanik eslab qolish) zaiflashadi; 70-89 yoshlarda mantiqiy ma’noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi; obrazli xotira zaiflashadi; 70-89 yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma’noning ichki aloqasi yotadi.Uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi; 90 yoshda nutqning ichki bog‘lanishi buziladi; Xotiraning obrazli, hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo‘ysunmay qoladi deb ma’lumot bergan. Bundan tashqari, German olimi Psixoanalitik va rivojlanish psixologi Erik Erikson inson rivojlanishi haqidagi mulohazalari fikrlash tarzimizni o‘zgartirishga yordam berdi. Erikson

o‘zining psixologik rivojlanish nazariyasida rivojlanish hayotimizning turli nuqtalarida sodir bo‘ladigan bir qator nizolar sifatida ko‘rsatdi.Quyidagi rasmda Erik Erikson tomonidan tuzilgan psixologik rivojlanish bosqichlari tasvirlangan. 1-rasm



Bosqichlar	Qarama-qarshilik	Ijobiy natija	Salbiy natija
Chaqaloqlik davri	Ishonch vs. Ishonchsizlik	Xavfsizlik	Tashvish
Ilk bolalik	Mustaqillik vs. Uyatchanlik	O‘ziga ishonch	O‘ziga ishonchsizlik
Maktabgacha davr	Tashabbuskorlik vs. Aybdorlik	Maqsad	Ikkilanish
Maktab yoshi	Mehnatsevarlik vs. Pastlik hissi	Qobillyatlilik	Past o‘zini baholash
O‘smirlik davri	O‘zlikni anglash vs. Chalkashlik	O‘zini anglash	Noaniqlik
Yosh kattalik	Samimiylik vs. Yolg‘izlik	Sevgi	Yolg‘izlik
O‘rta kattalik	Mahsuldorlik vs. To‘xtab qolish	Maqsad	To‘xtab qolish
Keksalik davri	Butunligini anglash vs. Umidsizlik	Qoniqish	Pushaymonlik

1-rasm.

Tadqiqot metodlari: ushbu maqolamizni yozishda empirik va nazariy tadqiqot metodlariga tayandik. Nazariya qismida ushbu mavzu yuzasidan jahon va o‘zbek olimlarining maqolalari va kitoblarini o‘rganib chiqdik. Bundan tashqari zamonaviy psixologlarning instagramm va telegram kanallaridagi real tajribalarini kuzatib xulosalarini oldik. To‘plangan ma’lumotlarga asoslanib o‘zimiz ham kichik guruhlar bilan tajribalar olib bordik. Tadqiqotimizda keksalik davridagi shaxslar ishtirok etdi.

Tadqiqot ishtirokchilari maqsadli tanlash usuli orqali tanlab olindi. Umumiy ishtirokchilar soni 10 nafarni tashkil etdi. Ularning yoshi 60 yosh va undan yuqori bo‘lgan shaxslardan iborat bo‘ldi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida anketa so‘rovnoma va yarim tuzilmaviy intervyu metodlaridan foydalandik. So‘rovnomamiz natijalari orqali shuni aniqladikki keksalar hayotida moddiy mavjudlioklardan ko‘ra muhim bo‘lgan qadriyatlar:oila, diniy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, hurmat va e’tibor ustun turishi aniqlandi. O‘tkazilgan suhbat jarayonida esa ularning hayotiy tajribasi, qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va keksalik davridagi psixologik holati chuqurroq o‘rganildi.

Tadqiqotda Likert tipidagi 5 ballik shkala asosida tuzilgan savollar qo‘llanildi. Tajribada ishtirok etganlarning anketa so’rovnoma javoblari va suhbatlar xulosasiga ko‘ra tajribadagi deyarli 99 % ishtirokchilarning har biri ma’naviy qadriyatlarning ular hayotida muhim ekanligio aniqlandi va ahamiyat darajalari baholandi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqotimizning natijalarini diagramma ko‘rinishida shakllantirdik: 1-jadvalga qarang:



1-jadval

Tadqiqot natijalariga ko‘ra inson psixologiyasi 50 yoshdan so‘ng moddiylikdan ma’naviylik tomonga qarab intila boshlaydi. 30-40 yoshdagi insonlar bizning tajriba sinov ishlarimizga jalb qilinmagan bo‘lsa ham internet orqali ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan online so‘rovnomalrimiz natijasiga ko‘ra hisoblab chiqdik va unga ko‘ra 30-40 yoshdagi insonlarning oila qadriyatlari, diniy qarashlari, moddiy mavjudliklarga munosabatini tahlillab chiqdik. Bu yoshdagilar oil ava jamiyat qadriyatlariga bo‘lgan munosabati va ehtiyojlari 30% ; 60 yoshdagi insonlarda 55% ; 70 yoshdagilarda 70% ; 80 va undan yuqori yoshdagilarda esa 65% ni tashkil etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda keksalik davrida qadriyatlar tizimining o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, keksalar hayotida eng muhim qadriyatlar sifatida oila, farzandlar bilan munosabat, diniy e’tiqod hamda hurmat va e’tibor ajralib turadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu davrda moddiy qadriyatlarga nisbatan qiziqish kamayadi va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Buni keksalik davrida insonning ruhiy xotirjamlikka va yaqinlarining e’tiboriga ko‘proq muhtoj bo‘lishi bilan izohlash mumkin.Umuman olganda, tadqiqot keksalik davrida qadriyatlar tizimi o‘zgarib, unda ma’naviy va axloqiy jihatlar ustunlik qilishini ko‘rsatdi. Bu esa keksalarga nisbatan mehr, e’tibor va oilaviy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini yanada oshirish zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziev E. Ontogenez psixologiyasi. – 2010.
2. Kelder P. Yoshlar sirlari. – 2011.
3. Ibragimovna Y. O. Organization of independent work of students as a means of increasing the professional and communicative competence of future teachers // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021.

4. JDPU. Maqola matni. – URL: https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074/2039
5. YouTube. Video material. – URL: https://youtu.be/70x9Ea4w1Bs?si=3TMogsDTS7-7OYMB

AXBOROTLASHGAN JAMIYATGA, O‘SMIRLAR IJTIMOIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamajonova Ra’no Abdusamatovna

I.M.Gubkin nomidagi (MTU) Rossiya davlat neft va gaz universiteti

Annotatsıya. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida o'smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Raqamli texnologiyalar va internet o'smirlarning xulq-atvori, muloqot uslubi va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilingan. O'smirlik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi sifatida ko'rib chiqilib, virtual muhitda ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos psixologik xususiyatlari yoritilgan. Internet qaramligi, noto'g'ri axborot ta'siri va virtual muloqotning real ijtimoiy aloqalarga ko'rsatadigan salbiy oqibatlari ham ko'rsatib o'tilgan. Maqola o'smirlar psixologik barqarorligini mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy psixologiya, axborotlashgan jamiyat, o‘smirlar, ijtimoiy moslashuv, psixologik xususiyat, internet, virtual muloqot, ijtimoiy tarmoq, axborot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, psixologik barqarorlik.

Ijtimoiy psixologiya fanining jamiyatdagi, o`smirlar hayotidagi o`rni, ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda jamiyatning barcha sohalari axborotlashib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayon o‘smirlarning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘smirlik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda ijtimoiy moslashuv jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan jamiyatda o‘smirlar turli xil axborot oqimlari bilan doimiy to‘qnash keladilar. Bu esa ularda yangi fikrlash uslubi, kommunikativ faoliyat va virtual

ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri axborot, internet qaramligi va virtual muhitdagi psixologik bosim kabi omillar ham mavjud bo‘lib, ular o‘smir psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyat va uning o‘smirlarga ta’siri. Axborotlashgan jamiyat — bu axborot resurslari va kommunikatsion texnologiyalar asosiy ijtimoiy qadriyatga aylangan jamiyatdir. Bunday jamiyatda bilim, tezkor axborot almashinuvi va raqamli savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi o‘smirlar “raqamli avlod” sifatida shakllanmoqda. Ular internetdan ta’lim olish, muloqot qilish, hordiq chiqarish va o‘zini namoyon etish vositasi sifatida foydalanadilar. Virtual makonda faol bo‘lish o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, internetdagi ortiqcha vaqt sarfi real ijtimoiy munosabatlarning susayishiga olib keladi.

O‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari. Ijtimoiy moslashuv — shaxsning jamiyat talablariga moslashishi, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. O‘smirlik davrida bu jarayon murakkab kechadi, chunki aynan shu davrda shaxsiy “Men” konsepsiyasi shakllanadi.

Axborotlashgan jamiyatda o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga quyidagi psixologik omillar ta’sir qiladi:

1. Kommunikativ kompetensiya. Virtual muloqotning kengayishi o‘smirlarda yozma va tezkor aloqa ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ammo yuzma-yuz muloqotning kamayishi emotsional yaqinlikni susaytirishi mumkin.

2. Axborot madaniyati. O‘smirning axborotni tanlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish qobiliyati uning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot madaniyati past bo‘lgan yoshlar yolg‘on yoki zararli axborot ta’siriga tez tushib qoladilar.

3. Psixologik barqarorlik. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi tanqidlar, kiberbulling va solishtirish holatlari o‘smir ruhiyatiga salbiy ta’sir etadi. Psixologik

barqarorlik yuqori bo‘lgan o‘smirlar bunday bosimlarga nisbatan chidamliroq bo‘ladilar.

4. O‘z-o‘zini anglash. Axborotlashgan muhit o‘smirga o‘z qiziqishlari va imkoniyatlarini namoyon qilish imkonini beradi. Blog yuritish, ijodiy kontent yaratish va onlayn ta’lim orqali o‘smirning o‘zini anglashi rivojlanadi.

Axborotlashgan jamiyatga o`smirlarning moslashuv jarayonida oila va ta’lim muassasasining roli alohida ahamiyatga ega. Ota-onalarning internetdan foydalanish madaniyati, farzand bilan muloqoti va nazorati o‘smirning psixologik holatiga ta’sir qiladi. Ta’lim muassasalari esa yoshlarni media savodxonlikka, tanqidiy fikrlashga va axborotni to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatishi zarur. Psixologlar tomonidan o‘tkaziladigan trening va profilaktik mashg‘ulotlar o‘smirlarda sog‘lom ijtimoiy moslashuvni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyat o‘smirlarning ijtimoiy moslashuviga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlarning bilim olish va muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ayrim psixologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli o‘smirlarda axborot madaniyatini shakllantirish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Oila, maktab, mahalla va psixolog hamkorligida olib borilgan tizimli ishlar yoshlarning axborotlashgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

3. To‘xtayeva M.X. O‘smirlar psixologiyasi. — Toshkent, 2020.

4. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell Publishers, 2010.

5. Белинская Е.П. Психология интернет-коммуникации. — Москва, 2017.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. — Москва: Аспект Пресс, 2016.
7. Қодиров Б. Ёш даврлари психологияси. — Тошкент, 2021.
8. UNICEF. Children in a Digital World. — New York, 2019.

MUALLIFLIK SHARTNOMASI TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN FUQAROVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALASI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGI MISOLIDA

Mustafoyev Maqsud Amrullo o‘g‘li

Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

E-mail: mustafoevmaksud@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mualliflik shartnomasi talablarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda sohaga doir boshqa qonun hujjatlarida belgilangan fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning umumiy tavsifi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada mualliflik shartnomasini tuzish bo‘yicha kelishuvga erishgan shaxslar qanday talablarga rioya qilishlari kerakligi, ushbu talablarga rioya qilmaslik qanday javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mualliflik huquqi, mualliflik shartnomasi, mulkiy huquqlar, huquq egasi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, umumiy usul, maxsus usul, kompensatsiya.*

Bugungi kunda mamlakatimizda intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining yuritilishini ta’minlash, jamiyatda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish, intellektual mulk egalarining qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Fuqarolik kodeksi hamda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlarda intellektual mulk himoyasini tartibga soluvchi huquqiy normalar tubdan qayta ko‘rib chiqilib, tegishli tartiiibda takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 53-moddasida har kimga ilmiy,

texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlandi [1].

So‘nggi yillarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishiga doir da’volar soni ko‘payib bormoqda. Jumladan, intellektual mulk sohasida 2019-yildan 2025-yil 1-yarmigacha jami 355 ta iqtisodiy nizolar bilan bog‘liq sud protsesslari ko‘rilgan bo‘lib, ularning 207 tasi qanoatlantirilgan. Shuningdek, sud qarorlari asosida 216 nafar shaxsdan jami 297 million so‘mdan ortiq ma’muriy jarimalar undirilgan [2].

Bu shuni anglatadiki, badiiy asarlarni, audiovizual asarlarni himoya qilish amaliyoti, ya’ni ushbu huquqlar doirasida sudlarda ko‘rib chiqilgan ishlar mualliflar huquqlarini himoya qilish masalasi asosiy ustuvor yo‘nalishga aylanib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Mualliflik shartnomasi – muallif o‘z mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga mutlaq yoki nomutlaq tarzda o‘tkazishni nazarda tutuvchi shartnoma hisoblanadi.

Ushbu shartnomaga binoan muallif foydalanuvchiga haq evaziga, shartlashilgan usulda va belgilangan muddatda asardan foydalanish huquqini berishni, foydalanuvchi esa asardan o‘ziga berilgan huquqqa muvofiq foydalanish va haq to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi. Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Umumiy qoidaga ko‘ra, 18 yoshdan oshgan shaxslar muallif yoki huquq egasi sifatida o‘z huquqlarini himoya qilishlari mumkin. Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksining 27-moddasiga asosan, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ham sudda fan, adabiyot va san’at asarining, ixtironing yoki o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasiga mualliflik huquqini mustaqil ravishda himoya qilishga haqli [3].

Qonunchilikka muvofiq, mualliflar o‘zlarining intellektual faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga tegishli bo‘lishi (masalan, xizmat asari) yoki shaxsiy nomulkiy huquqlar mavjud bo‘lmasligi (masalan,

fonogramma, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish) ham mumkin. Shuningdek, muallif mulkiy huquqlarini boshqa shaxslarga o‘tkazgan yoki o‘tkazmaganligidan qat’iy nazar, shaxsiy nomulkiy huquqlarini har qanday buzilishlardan himoyalash maqsadida sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bunda muallif yoki huquq egasi o‘z huquqlarini har qanday buzilishlardan himoya qilish, litsenziya shartnomasi, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni to‘liq yoki qisman o‘tkazish haqidagi shartnomadan kelib chiquvchi hamda mualliflar yoki huquq egalari o‘rtasidagi nizolar, shuningdek uchinchi shaxslarning intellektual mulk obyektlaridan foydalanganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish, tovar belgisiga doir guvohnomani muddatidan oldin to‘liq yoxud qisman tugatish haqidagi talablar fuqarolik ishlari bo‘yicha yoki iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladi [5].

Qonunchilik normalariga ko‘ra, quyidagilar mualliflik shartnomasi talablarini buzish hisoblanadi:

- mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;
- ijrochining ismi-sharifga bo‘lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;
- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, qonunchilikka muvofiq shunday foydalanishga shartnoma tuzmasdan yo‘l qo‘yiladigan hollar bundan mustasno;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda haq to‘lash to‘g‘risidagi talablarni buzish;
- asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;
- huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish [4].

Mualliflik yoki huquq egasining huquqlari umumiy va maxsus usullarda himoya qilinishi mumkin.

Umumiy usul Fuqarolik kodeksining 11-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolik huquqlarini himoya qilishning barcha usullari mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Maxsus usul esa Fuqarolik kodeksining 1040- va 1107-moddalarida begilangan bo‘lib, mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo‘lsa:

- o‘sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo‘yish;
- yo‘l qo‘yilgan buzish haqidagi ma’lumotni majburiy suratda e’lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish;
- tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs tomonidan tayyorlab qo‘yilgan tovar belgisi tasvirlarini yo‘q qilish, qonunga xilof ravishda foydalanayotgan tovar belgisini yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgini tovardan yoxud uning idishi va o‘rovidan yo‘qotish, bunday talablarni bajarish imkoniyati bo‘lmaganda esa tegishli tovar yo‘q qilib tashlanishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra, muallif yoki huquq egasi tomonidan uning huquqlari buzilganligi to‘g‘risida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilganda, huquqbuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli:

- huquqlarni tan olishini;
- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to‘xtatishini;
- huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o‘rnini qoplashini. Agar huquqbuzar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo‘lsa, huquq egalari boshqa

zararlar bilan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo‘lmagan miqdorda qoplashini;

- zararlar yetkazilishi faktidan qat’i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to‘lanishi lozim bo‘lgan tovonni to‘lashini;
- qonunchilikda belgilangan huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar ko‘rishini.

Shu bilan birga, muallif yoki huquq egasi huquqbuzardan ma’naviy ziyon qoplanishini talab qilishga haqlidir.

Bundan tashqari, agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo‘lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanishini talab qilishga haqli.

Endi mualliflik shartnomasi talablarini buzganlik uchun fuqaroviy javobgarlik masalasini chet el davlatlari misolida ko‘rib chiqsak.

AQShda mualliflik huquqlarini himoya qilish Copyright Act (1976) va unga qo‘shimcha bo‘lgan Digital Millennium Copyright Act (DMCA, 1998) orqali tartibga solinadi [6].

AQShda mualliflik huquqlarini buzganlik uchun fuqaroviy javobgarlik asosan 2 turda bo‘ladi:

a) Haqiqiy zarar va daromadni undirish;

b) qonunda belgilangan zarar miqdori (statutory damages);

Haqiqiy zarar va daromadni undirishda mualliflik huquqlarining buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar miqdori hisoblanib, uning natijasida boy berilgan daromad ham zarar sifatida baholanib, huquqbuzardan tegishli tartibda undiriladi.

Qonunda belgilangan zarar miqdori esa, mualliflik huquqi buzilgan bo‘lsa, lekin aniq moddiy zarar miqdorini hisoblash qiyin bo‘lsa, sud tomonidan qo‘llaniladi. Bu

huquq buzilishining turiga qarab belgilangan miqdorda jarima undirish hisoblanadi. Uning turlari quyidagilar:

- Oddiy buzish: minimal 750 dollardan maksimal 30 000 dollargacha jarima;
- Qasddan buzish: 150 000 dollargacha jarima.

Mualliflik huquqini oddiy buzishning qasddan buzishdan farqi shundaki, bunda huquqbuzarlik qasddan qilingani isbotlanmagan hamda foyda olish maqsadi ko‘zlanmagan bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan jarimalar har bir huquq buzilishi holati uchun belgilanadi. Agar bir nechta asar noqonuniy ko‘chirib tarqatilgan bo‘lsa, jarima har biri uchun alohida qo‘llanishi mumkin.

Rossiyada mualliflik huquqlari bo‘yicha fuqaroviy-huquqiy javobgarlik Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining IV qismi orqali tartibga solinadi [7].

Fuqarolik javobgarlikning asosiy shakllari:

1) Zararni qoplash. Agar muallifning yoki huquq egasining huquqlari buzilgan bo‘lsa, u quyidagilarni talab qilishi mumkin:

- Haqiqiy zarar, ya’ni keltirilgan oqibatlar natijasida yo‘qotilgan mol-mulk va xarajatlar;
- Boy berilgan foyda, ya’ni huquq egasi buzilish bo‘lmaganda olish mumkin bo‘lgan daromad.

2) Kompensatsiya. Rossiyada huquq egasi zararni isbotlamasdan ham kompensatsiya (10 mingdan 5 mln rublgacha) talab qilishi mumkin. Bu odatda sud amaliyotida eng ko‘p qo‘llanadi. Sud kompensatsiya miqdorini huquqbuzarlikning og‘irligiga, nusxa miqdoriga, tijoriy maqsadga qarab belgilaydi.

3) Huquqbuzarlikni to‘xtatish talabi. Bunda muallif huquqini buzgan shaxsdan:

- noqonuniy faoliyatni to‘xtatishni;
- internetdagi kontentni olib tashlashni;

- tarqatishni to‘xtatishni talab qilishi mumkin.

Sud buni tezkor chora sifatida qo‘llaydi.

4) Kontrafakt mahsulotlarni musodara qilish. Sud noqonuniy nusxalarni, kontrafakt mahsulotlarni, ishlab chiqarish uskunalari hamda tarqatishga mo‘ljallangan materiallarni musodara qilish haqida qaror qilishi mumkin.

5) Sud qarorini ommaviy ravishda e’lon qilish. Bunda huquqbuzarlik oqibatida muallif obro‘si zarar ko‘rgan bo‘lsa, sud mualliflik huquqi to‘g‘risida rasmiy axborot berish maqsdida o‘z qarorini ommaviy ravishda e’lon qilishi mumkin. Bu mualliflik huquqi sohasida nominativ (axborot) kompensatsiya sifatida ko‘riladi.

Rossiyada mualliflik huquqlarini buzganlik uchun fuqarolik javobgarlik jinoiy javobgarlikdan ko‘ra kengroq qo‘llanadi, chunki mualliflar va huquq egalari odatda zararni qoplashni maqsad qiladilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib, mualliflarning huquqlarini himoyalashni bugungi kun talablariga moslashtirish zarur.

Jumladan, chet el davlatlari tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, mualliflik huquqlarini buzganlik uchun fuqaroviy javobgarlik masalasida ham qonunchilikda aniq jarimalar miqdori belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston qonunchiligi normalarida ham shu kabi aniq miqdorlarni belgilab qo‘yish maqsadga muqvofiq hisoblanadi.

Bu o‘zgartirish va qo‘shimchalar o‘z navbatida, jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo‘lgan hurmat hissini shakllantirish, intellektual mulk egalarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, kontrafakt mahsulotlarning aylanmasi hamda mualliflik huquqlari buzilishini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. – URL: https://lex.uz/docs/6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Iqtisodiy sudlar statistikasi. – URL: https://stat.sud.uz/economical
3. O‘zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi, 94-fond, 1-ro‘yxat, 122-ish.
4. Andijon davlat pedagogika instituti tarixidan (1939–1989). – Toshkent, 1990. – B. 34.
5. Наманган давлат университети архиви маълумотлари, 1965 йил ҳисоботи.
6. Образование в Узбекистане за годы Советской власти. Статистический сборник. – Ташкент, 1984. – С. 78.
7. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (Mustabid tuzum davrida). – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 240.

KARVON YO`LINING JANUBI-SHARQIY YO‘NALISHI BO`YLAB AMALGA OSHIRILGAN SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDA XORAZM (BU YO`LDA NOMLARI KELTIRILGAN KARVONSAROY, QUDUQ VA RABOTLAR HAQIDA QISQACHA)

Matqurbonov Omon Odilbekovich

Ma`mun universiteti

E-mail:omonbekmatqurbonov93@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola mavzusini yoritish orqali Xorazmning janubi-sharqiy yo'nalishida joylashgan shaharlar nomlari, savdo aloqalari tarixi, bu tarixiy jarayonlarda qaysi hududlar asosiy o'rinni egallaganligi, bu hududlarda karvon yo'li bo'ylab joylashgan infratuzilmalar: karvonsaroy, quduq, rabotlar nomlari haqida keng ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ob'ektlar oraliq masofalari haqida ham ma‘lumotlar mavjud.*

Kalit so‘zilar: *Seladon, Hamdulloh Qazviniy, "Shahriston yo‘li", V.V.Bartold, Rizoqulixon, “Shiszi”.*

Аннотация: *Освещая тему статьи, названия городов, расположенных в юго-восточном направлении Хорезма, историю торговых отношений, какие регионы занимали основное место в этих исторических процессах, названия инфраструктур, расположенных вдоль караванного пути в данные районы: караван-сарай, колодцы, работ информация предоставлена. Также имеется информация о расстояниях между объектами.*

Ключевые слова: *Селадон, Хамдуллах Казвиний, «Шахристан Роуд», В.В. Бартольд, Ризакулихан, «Шисзи».*

Annotation: *By covering the topic of the article, the names of the cities located in the south-eastern direction of Khorezm, the history of trade relations, which regions*

occupied the main place in these historical processes, the names of infrastructures located along the caravan route in these regions: caravanserai, wells, rabots. information provided. There is also information about the distances between objects.

Key words: *Seladon, Hamdullah Qazvini, "Shahristan Road", V.V. Bartold, Rizaqulikhan, "Shiszi".*

Xorazmning janubi-sharqiy yo‘nalishdagi savdo aloqalarida madaniyat, yangiliklar tashuvchisi sifatidagi asosiy davlatlardan biri Hindiston hisoblanib, savdo aloqalarining tarixi, uzoq davrlarga borib taqaladi. Turli tarixiy davrlarda har xil siyosiy jarayonlar ham ularni birlashtirgan. Ahamoniylar, kushon imperiyasi va arab xalifaligi davrida Xorazm bilan Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar yaqinlashib, aloqalar ancha taraqqiy qilgan.

Yozma manbalarga murojaat qilganda ularda Hindistondan chetga chiqariladigan mahsulotlar to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Xususan, paxta va sholining mazkur hududdan tarqalgani haqidagi malumotlarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari Hindistondan zeb-ziynat buyumlari, oltin va kumushdan qilingan ko‘zachalar, idishlar, fil suyagi va yog‘ochning qattiq navlaridan tayyorlangan haykal va haykalchalar, ayniqsa, paxtadan to‘qilgan nihoyatda nafis va sifatli gazlamalar va zirovarlar butun Sharqda va hatto Yevropada ham ma’lum va mashhur edi.

Peshovar, Mo‘lton, Shrinagar, Lahor va Dehli shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari sanalgan.

Xorazm savdogarlari Hindiston bilan bo‘lgan savdoda Amudaryo orqali Balxga, undan so‘ng Qobul, G‘azna, Lahor va nihoyat Dehligacha borganlar. Hindistonga ko‘proq yilqi, qalayi, mis, oltin, kumush pullar va shu singarilar olib kelingan. Hindiston bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Xorazmshoh-anushteginiylar davrida juda taraqqiy qildi. Chunki, endi Xorazm yerlari Hindiston bilan bevosita chegaraga aylandi.

Xorazmning janubi-sharqiy yo‘nalishdagi savdo aloqalarida Xitoy ham alohida o‘ringa ega. Arxeologik tadqiqotlar Xorazmning Xitoy bilan savdo aloqalari ancha qadimdan shakllanganini ko‘rsatadi. Mashhur tarixchi Sima syan o‘zining “Shiszi” (“Tarixiy esdaliklar”) asarida shunday degan edi: -“Guyshuy (Amudaryo) daryosi bo‘ylarida savdogar va tojirlar yashaydi. Ular suv va quruqlik yo‘llari orqali o‘z mollarinii qo‘shni o‘lkalarga va hatto minglab uzoqlikdagi o‘lkalarga olib boradilar”. Bu ma’lumot xorazmliklarga ham tegishli bo‘lishi mumkin[14].

Xitoydan Gobi cho‘llari, Sharqiy Turkiston, Farg‘ona va Tohariston orqali Xorazmga turli-tuman mahsulotlar olib kelingan. Xitoydan, asosan, ipak matolar, chinni idishlar keltirilgan.

Zamaxshar, Xiva va Mizdahkon shaharlaridan Xitoyning Tan sulolasi davriga oid turli chinni idishlar topildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xitoyning "seladon" tipidagi chinni idishlarning XII-XIII asrlarga oid Xorazm savdo shaharlaridan tez-tez topilishi ham savdo aloqalarining rivojlanganligini ko‘rsatadi. Tabariy o‘z asarida arab bosqini arafasida arablar Movarounnahrda ko‘pgina Xitoy buyumlarini ko‘rganliklarini yozib o‘tadi. Keyingi asrlarda ham Movarounnahrga juda ko‘plagan Xitoy buyumlari keltirilib, ularning ta’siri shu qadar kuchli bo‘lganki, Saolibiy o‘z asarida, keyinchalik Movarounnahr ustalari mahorat bilan ishlagan ko‘pgina idishlarni arablar Xitoyniki deb atashganligini yozib o‘tgan edi[15].

Xorazmdan Xitoyga asosan suvsar, olmaxon, tulki, qunduz, quyon mo‘ynalari, hamda ishlangan echki terilari olib kelingan[16].

Xitoy bilan savdo munosabatlari asosan ikki yo‘l bilan amalga oshirilgan. Birinchisi – Buyuk ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i orqali bo‘lib, Amudaryo chap qirg‘og‘i va o‘ng qirg‘og‘i bo‘yidagi savdo shaharlari hamda karvonsaroylar chizig‘i bo‘ylab Amulga kelinadi. Undan so‘ng Buxoro, Samarqand, Shosh, Binket (Toshkent),

[14] Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь.Т.Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1999. С.22.
[15] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Москва. 1963. с.296.
[16] Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. –М.: ГРВЛ, 1981, с.147-148.

Taroz (Jambul), Kulon, Merke, Bolasog‘un, Suyob, Issiqko‘lning janubiy qirg‘og‘i va Sharqiy Turkiston shaharlari orqali Xitoyga yetib kelingan. Bu aynan Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i sanalib, yana, bundan tashqari, ikkinchi yo‘l ham mavjud bo‘lgan. Bu yo‘l Urganchdan O‘tror orqali Mo‘g‘ulistonga, undan so‘ng Xitoyga olib borgan[17].

Mashhur fors geografi Qazviniyning yozishicha: "Shubha yo‘qki, Mo‘g‘ul davlati vujudga kelishi davomida keltirilgan vayronagarchilik va ommaviy qirg‘inbarot shu darajadaki, agar bundan keyin ming yil davomida tinchlik bo‘lsa ham, ularni avvalgidek qilib tiklab bo‘lmaydi va dunyo hech qachon bu bosqindan oldingi hayotga qayta olmaydi" [18]. Bu jumlalar mashhur geograf tomonidan 1340 yilda yozilgan bo‘lib, shuning o‘zi ham ko‘rsatib turibdiki, mo‘g‘ul bosqinidan yuz yil o‘tgach ham, ilgarigi, X-XIII asrlardagi taraqqiyot hali tiklana olmagan edi.

Mo‘g‘ullar bosqini shu darajada katta vayronagarchilik keltirgan bo‘lsa ham, bu hududlarda hayot abadiy so‘nib qoldi degan gap emas. Mo‘g‘ullar ham iqtisodiyotning, ayniqsa, savdo-sotiqning taraqqiy qilishi juda katta ijobiy holat ekanligini yaxshi tushunganlar. Xuddi Xorazm va Movaraunnahr, Oltin O‘rda va Xitoyda bo‘lgani kabi mo‘g‘ullar Eron, Iroq, Kavkazorti va Yaqin Sharqda ham tez orada iqtisodiyotni tiklashga kirishdilar. 1236 yildayoq Ulug‘ xoqon O‘g‘adoyxon (1229-1239) Hirotni qaytadan tiklashga ruxsat berib, Mo‘g‘ulistondagi ko‘pgina hunarmandlarni o‘z yurtlariga qaytarib yuborishga ham ruxsat bergan[19]. Natijada XIII asrning ikkinchi yarmidanoq iqtisodiy hayotda biroz jonlanish kuzatilib, ilgari vayron qilingan shaharlarning ko‘pchiligi tiklanib, yangilari barpo qilindi, sug‘orish inshootlari ham ta’mirlandi.

Savdo-sotiq aloqalari ham to‘xtab qolmadi. Savdo-sotiq rivojiga mo‘g‘ullarning, asosan, harbiy-strategik maqsadni ko‘zlab, yo‘llar va aloqalarning yaxshi ishlashini

[17] Очерки истории Каракалпакской АССР. /Т.1, "Наука" Узбекской ССР, 1964 карта на с.116-117 (рис.31).
[18] Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957, с.578.
[19] Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957, с.578

ta’minlashga intilishi ham turtki bo‘ldi. Chunki bu yo‘llardan savdogarlar ham foydalanardilar[20].

Ilgarigi savdo yo‘llari tiklanib, yangilari vujudga kela boshladi. Bu savdo yo‘llarini musulmon savdogarlari, asosan, fors, xorazmlik va movarounnahrlik savdogarlar o‘z qo‘llariga olib, o‘ziga xos savdo uyushmalari – "o‘rtoq"larni vujudga keltirdilar.

Chingizxon davridanoq, Mo‘g‘ul xonlari savdogarlarga, Buyuk ipak yo‘lidagi savdoga homiylik qila boshlagan edilar.

Xitoyda Hubilayxon savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida, metall pullarni, umuman yo‘q qilib, qog‘oz pullarni muomalaga kiritdi. Hatto u bu qog‘oz pullarni juda qadrli va talabchan pullarga aylantirishga erishdi ham[21].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek Xorazm savdo shaharlari ham bu davrda tiklanib, Eron, Yaqin va O‘rta Sharq, Kavkazorti, Hindiston va Xitoy bilan savdo munosabatlari rivojlandi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Mazkur savdo-sotiq aloqalari qanday yo‘llar orqali amalga oshirilganini bilishning ham ahamiyati katta. Biz uchun bu yerda, eng muhimi, Xorazmni Janubiy Turkmaniston va Xuroson bilan bog‘lovchi karvon yo‘llarini o‘rganishdir.

Chunki, Eron bilan ham, Yaqin va O‘rta Sharq bilan ham aynan shu yo‘l bog‘lovchi vosita sanalgan. Bu yo‘llar Janubiy Turkmaniston va Xurosonda Buyuk ipak yo‘lining ulkan janubiy tarmog‘i bilan ulanib, Eron, Kavkazorti, Suriya, Misr, Iroq, Kichik Osiyo savdo shaharlari bilan bog‘langan.

XX asrning 70-80-yillarida Qoraqum cho‘llarida va Amudaryo bo‘ylab o‘tgan karvon yo‘llarida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilib, Xorazmni Marv vohasi, Janubiy va Janubi-G‘arbiy Turkmaniston bilan bog‘lovchi yo‘llar mavjudligi aniqlandi. Marv bilan Xorazm oralig‘ida Qoraqum orqali o‘tuvchi bir necha karvon yo‘llari mavjud bo‘lgan. Shulardan biri asosiy yo‘llardan chekkada, ya’ni o‘tish qiyin bo‘lgan

[20] O`sha asar. 525b.
[21] O`sha asar. 526b.

cho‘llardan o‘tgan. Bu yo‘lda yirik to‘xtash joyi bo‘lib, unda Minora nomli karvonsaroy bo‘lgan.

Ashxaboddan Xorazmga boruvchi karvon yo‘llari ham o‘rganilgan. U manbalarda "Shahriston yo‘li" nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Ashxaboddan shimolga yurilib, Yortigumbaz, Kashon quduqlari orqali Naxarli qudug‘iga yetib kelingan. Naxarli qudug‘idan 6 km shimoli-g‘arbiy tomonda Kirpichli qudug‘iga borilgan. O‘rta asr manbalarida Shahriston bilan bir kun yo‘l masofada, Xorazmga olib boruvchi yo‘lda, yirik ko‘p aholisi bo‘lgan Kauk qishlog‘i bo‘lganligi eslatiladi. U Niso viloyatining eng shimoliy chekka qishlog‘i bo‘lgan. Turkman arxeologi D.Durdiev Kauk qishlog‘i aynan shu Kirpichli qudug‘i atrofida bo‘lgan degan taxminni bildiradi[22]. Chunki quduq atrofidan o‘rta asrlarga tegishli qurilish qoldiqlari va boshqa buyumlar topilgan. Keyingi quduq Uyuqli bo‘lib, undan keyin Qarri-chirli-Beshqaq qudug‘iga kelingan. Uyuqlidan 6 km janubi-g‘arbda o‘rta asrlarga mansub kichik bir qal’aning ham qoldig‘i topilgan.

Beshqaqdan 4 km shimoli-sharqda, Ashxobod (Niso)dan taxminan 110-120 km shimoli-sharqda Qizilchaqal’a yirik qal’a-karvonsaroyi joylashganligi ma’lum bo‘ldi. Qizilchaqal’adan keyin, Baxt qudug‘i orqali o‘tib Churchuri aholi manziliga yetib kelingan. U yerda ham kichik karvonsaroy mavjud bo‘lgan. Churchuridan 85 km shimoli-sharqqa, Qizilchaqal’a, Gichgaldi, Qamishli, Ayoz quduqlari orqali yurilgach, Minora karvonsaroyiga yetib kelingan. Aynan shu Minora karvonsaroyidan yana boshqa yo‘l, yuqorida ko‘rsatib o‘tgan Marvdan Xorazmga olib boruvchi yo‘l o‘tgan, yoki Marv-Xorazm yo‘li Minorada Ashxabod (Niso) – Xorazm yo‘li bilan tutashgan bo‘lishi mumkin. Xullas, Minoradan Xonquyi qudug‘i orqali Marv vohasiga boruvchi yo‘l bo‘lgan[23].

[22] Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.99.
[23] O`sha asar. 102b.

Minoradan 50 km shimoli-sharqda Xasarli karvonsaroyi borligi aniqlangan. Keyingi o‘rta asr Xiva manbalarida Xasarlidan keyin to Xivagacha bo‘lgan yo‘lning to‘rtta varianti mavjud bo‘lgan. Shulardan bittasi manbalarda aniqroq ko‘rsatilgan, ya’ni Xasarlidan so‘ng Boboxono‘yuqli, Kengquduq, Yakkaso‘zan (yana bir variantda So‘zanli), Xonquduq Saygacha (boshqa variantda bu quduqqacha, yana bir quduq – Yelayirti ham ko‘rsatilgan), Kesakli quduqlari orqali Xorazm cho‘llariga chiqilib, shu yo‘l bilan Qorako‘lga va shundan keyin Xivaga yetib borilgan[24]. Ammo bu manbalarda Xiva shahriga olib borilganligi qayd etilgan yo‘l o‘rta asrlarda Zamaxsharga, undan so‘ng Urganchga olib borilganligi qayd etiladi. Bu yo‘lning Urganch, Zamaxshar, Shoxsanam, Shemoxaqal`a shaharlariga olib boruvchi boshqa tarmoqlari ham bo‘lishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Bu yo‘ldagi karvonsaroylarning qurilishi X asrga oid bo‘lsa kerak. Chunki karvonsaroylardan topilgan sopol buyumlari va boshqa xil buyum qoldiqlarining ko‘pchiligi X-XIII asrlarga taalluqli. Siyosiy vaziyatni kuzatadigan bo‘lsak, Xorazm aynan shu davrlarda birlashib, kuchli, markazlashgan davlat sifatida tarix maydoniga chiqqan edi. Bundan tashqari, xorazmliklar uchun Xurosonga olib boruvchi yanada qisqa yo‘llar zarur ediki, bu somoniylar mulklarini chetlab o‘tib, ularni boj to‘lashdan xalos qilgan[25].

Ana shunday sabablarga ko‘ra, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan savdo yo‘llari vujudga kelgan. Bu savdo yo‘llarida ma’lum vaqt o‘tgach, quduqlar yonida shinam qurilgan, mustahkam devorlar bilan himoyalangan, savdogarlar, yo‘lovchilar, sayohatchilar va boshqa odamlar xavfsizligini kafolatlovchi karvonsaroylar qurilgan.

Xorazmni Yaqin va O‘rta Sharq, Eron, Kichik Osiyo bilan bog‘lovchi savdo yo‘llari ichida, ayniqsa, Shimoli-Sharqiy Eronni Misriyon vohasi orqali Xorazm bilan aloqani ta’minlovchi karvon yo‘llari yetarlicha to‘liq o‘rganilgan.

[24] Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.103.
[25] Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980, с.105.

Mashhur fors geografi Hamdulloh Qazviniy o‘zining "Nuzxat ul-qulub" ("Qalblar oromi") asarida Xuroson va Mozandorondagi savdo yo‘llari hamda Eronni Xorazm bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tadi.

Bistom-Dehiston yo‘li. Bistomdan Gandgacha 7 farsax (taxm. 46 km); Ganddan Milobodgacha 6 farsax, Miloboddan Musobodgacha 5 farsax; Musoboddan Jurjongacha yana 5 farsax. Hammasi bo‘lib Bistomdan Jurjongacha 23 farsax (taxm. 150 km)ni tashkil qiladi.

V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, 23 farsax yo‘lni karvonlar 4 kunda bosib o‘tganlar. Bundan kelib chiqib, Bistomdan Dehistongacha bo‘lgan masofani Jurjon orqali 8 kunda bosib o‘tganlar[26].

Bu yo‘ldan tashqari, yana boshqa yo‘l ham mavjud bo‘lishi mumkinki, Abeskun bilan Dehistonni bog‘lovchi to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, Dehistonni Eronning boshqa shaharlari bilan ham bog‘lagan. Al-Istaxriy va Ibn Xavqallar Dehiston bilan Abeskun oralig‘idagi masofani 50 farsax bo‘lgan, deb bejiz eslatib o‘tmaganlar. Bunga o‘z e’tiborini qaratgan Bartold: "Jurjon daryosining quyilish joyidan boshlab 50 farsax masofa, bizni Bolxon bo‘xtasiga olib kelishi kerak edi, lekin bu fikr boshqa yanada aniqroq ma’lumotga to‘g‘ri kelmaydi", - deya ta’kidlagan edi. So‘ngra u Dehistondan Urganchgacha bo‘lgan yo‘ldagi ko‘plab to‘xtash joylarini sanab o‘tadi[27].

V.V.Bartold yo‘l manzillarini e’lon qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ahamiyatini ham ko‘rsatib o‘tishga harakat qilgan. U bir necha rabotlar o‘rnini aniqlashga urinib ko‘rdi. Masalan Vezave (yoki Vezare) shahri, uning fikricha, Turkmanistonning Qizilarvot shahri Yaqinidagi Farovaga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kundagi Qurtish qudug‘i esa Qazviniy ko‘rsatib o‘tgan Karvongohga to‘g‘ri keladi. Bartold bu manzillar orasidagi masofaning to‘g‘riligiga juda ishongan edi. Uning yozishicha "Hamdulloh Qazviniy o‘zining yo‘lnomasini tuzish paytida mo‘g‘ul sultoni

[26] Бартольд В.В. Дорожник от Бистама до Куня-Ургенча. -Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3, с. 262.
[27] Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVIII в. //Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3, с.46.

O‘ljoytu (1304-1316) davrida tuzilgan ba’zi yo‘llarning rasmiy o‘lchamlari to‘g‘risidagi ma’lumotnomadan foydalangan" [28].

Erondan Xorazmga olib boruvchi savdo yo‘llari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va dalillar yig‘ishda Eron ma’murlari faqat tinch savdo aloqalari olib borish maqsadini ko‘zlamagan edilar. Bu ma’lumotlar bosqinlar uyushtirish uchun ham zarur edi[29].

Karvon yo‘lining Shimoliy tarmog‘i 50-yillarda S.P.Tolstov tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u, bu karvon yo‘llari faqat o‘rta asrlarga xos degan fikrni bildirgan[30]. S.P.Tolstov ham Qazviniy ko‘rsatib o‘tgan manzilgohlarning hozirgi kundagi qaysi manzilga to‘g‘ri kelishini aniqlashga uringan. Masalan, u, Devqal’a qal’asini Qazviniydagi Sarxang raboti, O‘rta Quyi qudug‘ini esa Karvongoh, Kirpichlini – Xishti-Puxta, Talayxonotani – Tamg‘ach raboti o‘rnida bo‘lgan, degan xulosaga kelgan. U ko‘rsatib o‘tgan karvonsaroylar yumaloq shaklda bo‘lib, Mo‘g‘ul bosqinigacha bo‘lgan davrga, ya’ni X-XIII asrlarga oiddir[31].

Bu uzoq karvon yo‘llarining ko‘p asrlardan beri faoliyat yuritib kelayotgani dalili sifatida, massaget qabilalari yodgorliklaridan topilgan Shimoliy Hindistondan keltirilgan marjonlar, Kavkaz (O‘rtayer dengizi) sopol buyumlari, Misr chinnisi va Isidaning bronza haykalchasi kabi chetdan keltirilgan buyumlar xizmat qiladi. Yana shunisi muhimki, Qazviniy yozib qoldirgan Dehistondan Xorazmga olib boruvchi karvon yo‘lining Donotagacha bo‘lgan janubiy tarmog‘idan, XIX asrda Eronning Xivaga yuborilgan elchisi Rizoqulixon o‘tgan edi.

Astroboddan Xivagacha (Ko‘hna Urganchgacha) bo‘lgan yo‘lni tasvirlar ekan, Rizoqulixon uning uzunligi 20 kundan ortiqroq vaqtda bosib o‘tiladigan yo‘l bo‘lganligini ta’kidlaydi[32]. Har kuni karvonlar ikkita manzilni bosib o‘tganki, bu

[28] Атагаррыев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986, с.152-153.
[29] Атагаррыев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986, с.153.
[30] O`sha asar:.153b.
[31] Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: 1948, с.166.
[32] Атагаррыев Е. Средневековый Дехистан.Л:.Наука,1986. с.153-154.

umuman, 40 ta manzilni tashkil qilishi kerak edi. N.F.Petrovskiy fikricha, karvonlar uchun 1 farsax bu o‘rtacha bir soatlik yo‘ldir[33].

Arab sayyohlari Istahriy va ibn Xavqalning ma’lumotlariga ko‘ra, X asrda savdo markazi bo‘lgan Movarounnahrda 10 mingdan ortiq karvonsaroylar mavjud bo‘lgan.

Savdogar-sayyohlarning karvon yo‘lida duch keladigan eng katta muammosi - karvon yo‘lining katta qismida ichimlik suvining yo‘qligi edi. Bu yo‘lda tuyalar orqali katta xum yoki meshlarda suv olib yurish ularga katta noqulayliklar hamda tashiladigan yuk hajmining kamayishiga sabab bo‘lishi muqarrar edi. Ana shunday qiyinchilikni esa qadimgi zamonning mahoratli konstruktorlari tomonidan qizigan qumlarda barpo etilgan quduqlar hal etgan. Ular “sardoba” deb atalib, o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, ularda doim muzdek suv bo‘lgan.

Uning qurilishiga ishlatiladigan g‘isht oftobda 3-5 yil oralig‘ida quritilgan bo‘lishi zarur bo‘lib, bunday g‘isht “obi g‘isht” deb atalgan. G‘ishtning o‘zi esa echki suti qo‘shib qorilgan loy orqali terib chiqilgan. Echki suti g‘ishtning yemirilishini kamaytirib, mustahkamligini oshirgan. Sardobani eng pastki, suv to‘planadigan qismiga tuya juni yoyib chiqilgan va bu narsa suvni filtrlash funksiyasini bajargan.

Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan ana shu noyob muhandislik inshooti karvon yo‘lining har 12-15 kilometrida joylashgan bo‘lib, 160-190 ta tuyadan iborat karvonning chanqog‘ini qondira olish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Qiziqarli tomoni shundan iboratki ushbu muhandislik inshootida suv yerosti suvi orqali emas balki, atmosfera havosidan suv olishga qodir original konstruksiya yordamida yig‘ilgan. Sardoba qurilishida muhandis ajdodlar uyurma effektidan foydalanganlar. Sardobaning tashqi ko‘rinishi toshdan ishlangan kichikroq chodirni eslatib, bir necha tuynuklari bo‘lgan. Sardoba-quduqning 2/3 qismi yerga ko‘milgan, hamda suvni olish uchun zinapoyalar qurilgan va ana shu zinapoyalar orqali suvning hajmi ham aniqlangan. Sardoba tuzilishi shunday mahorat bilan amalga oshirilganki,

[33] Петровский Н.Ф. Древние арабские дорожники по среднеазиатским местностям. –Т.: 1894, с.7.

tom va yon tomon tuynuklarning maxsus konstruksiyasi tufayli quduq orqali muntazam ravishda cho‘l havosi aylanib turgan. Hozirgi mutaxassislarning fikricha, cho‘l havosi hajmi sutkasiga bir necha ming kubometrga yetgan. O‘sha davr muhandis – konstruktorlarining bilimlari hatto cho‘lning qizigan havosida ham suv bug‘lari mavjud ekanligini yaxshi bilgan va sardobaning yaratilish g‘oyasi ham ana shu bilimga asoslangan.

Arab muarrixlari, sayyohlarining xotirlashicha, doim salqin bo‘lgan quduq ichiga tushgan issiq havo sovigan va o‘zidagi suvni tomchilar shaklida muntazam ravishda yetkazib turgan. Ana shu musaffo salqin suv tepalikdan quduq tubidagi maxsus chuqurlikka oqib tushgan va odamlar ichishi va tuyalarni sug‘orishi uchun suv paydo bo‘lgan.

Xorazmdan chiqqan va Qoraqum sahrosi orqali o‘tgan mashaqqatli yo‘lni bosib kelayotgan karvonlarning Kopettog‘ va Xuroson tog‘lari yonbag‘irlaridagi yaylovlar va zilol suvlarga yetganligi, janubiy turkman qabilalari bilan oldi-sotdi ishlarini amalga oshirgandan keyin esa Buyuk Ipak yo‘lining Erondan o‘tgan janubiy tarmog‘i orqali harakat qilayotgan katta oqimga qo‘shilganligini arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatmoqda.

Yo‘l bo‘yidagi mehmonxonalarni qurish foydali ish edi va Xudoga ma’qul deb hisoblangan. Karvonsaroylar asosan xayriya mablag‘lari hisobiga, ba’zi hollarda hukumat yoki savdogarlar uyushmalari nomidan qurilgan. Karvonsaroylar katta daromad keltirgan va ko‘pincha madrasa yoki kasalxona foydasiga vaqf deb e’lon qilingan. Yo‘l bo‘yidagi karvonsaroylar mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy tuzilma bo‘lib, shahar markazlariga, hunarmandchilik buyumlari, don va mevalar (don, meva, idish-tovoq va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari) va shu bilan birga ko‘chmanchi dasht aholisidan go‘sht va sut mahsulotlari, xom teri, namat va boshqalarni yetkazib beradigan bog‘liqligi mavjud edi. Karvonsaroylar atrofida agar suv bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi yerlari va hayvonlarning kichik podalari (qo‘y, sigir, ot, eshak) mavjudligini taxmin qilish mumkin. O‘rta Osiyo shahar karvonsaroylarida esa nafaqat yotoq-joy,

balki hunarmandchilik va savdo do‘konlari ham bo‘lgan. Bir blokda uy-joy, omborlar, ustaxonalar (zargarlik buyumlari, tikuvchilik, novvoyxonalar, ta’mirlash ustaxonalari va boshqalar) hamda tashqi tomondan ochiq savdo markazlari joylashgan edi[34].

XI-XII asrlardagi Xorazm karvonsaroylari rejalashtirishning o‘ziga xosligi bilan ajralib turar edi. Ular tashqarida doira, ichki ochiq hovli va perimetr bo‘ylab binolari (Deu-qal’a, Talayxon-ota, O‘rta-kuyu, Ak-Yayla) bo‘lgan to‘rtburchaklar ichida, genetik jihatdan eng qadimgi mahalliy qurilish an’analariga - dumaloq binolar jihatidan o‘xshash edi[35].

Xorazm vohasi chegarasida ipak yo‘lidagi karvonlarni boqadigan, bir paytlar gullab-yashnagan qishloqlarning xarobalari ham saqlanib qolgan. Shovot tumanining shimoli-g‘arbiy chekkasida ko‘tarilgan Voyangan qal’asi o‘ziga xos bo‘lib, qal’a devorlari bilan o‘ralgan ikkita yarmidan iborat bo‘lib, ulardan biri qadimgi davrlarda paydo bo‘lib, XIII asrgacha saqlanib qolgan, ikkinchisi esa XI asrdan boshlab qurilgan Temuriylar davriga qadar yashagan. U dastlab tijorat punktlaridan biri sifatida xizmat qilgan., Hazorasp va Gurganj o‘rtasida joylashgan edi. X asrning boshlarida sayyoh Ibn Fadlan bu yerda Ardaxushmiysan qishlog‘i – Abbosiy vazirning mulkini eslatib o‘tadi[36]. Ammo X asr oxiridagi “Hudud Al-olam” qo‘lyozmasida Ardaxumiysan (ba’zan shunchaki Xushmiysan) savdogarlar savdo qilish uchun yig‘ilgan juda boy shahar sifatida qayd etilgan. Al-Istaxriy undan Jurganiyaga bir kunlik sayohat masofasini belgilaydi. Bu haqida geograf Al-Maqdisiy ham xabar berib, uni Rahushmisan deb atagan. Undan unchalik uzoq bo‘lmagan Savkan qal’asi edi, u ham qishloq sifatida, keyin Hazorasp va Xushmisan o‘rtasidagi shahar sifatida paydo bo‘ldi va 1220 yilda uni ziyorat qilgan Yakut bu yerda katta bozor va minorali chiroyli jome’

[34] Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. - Тошкент: Akademiya, 2008.. –Б.138.

[35] Немцева Н.Б. По Караванным Дорогам Бухарской Степи // https://www.nemtseva.uz/publications/po_karavannym_dorogam_buharskoy_stepi.pdf

[36] Иванов В. А. Путь Ахмеда ибн-Фадлана. — Уфа: Китап, 2010. – С..38.

masjidini qayd etgan[37]. Yaqin vaqtgacha Hazarasp va Xushmisan shaharlari o‘rtasida xuddi shu nomdagi Savkanxoja qishlog‘i ma’lum edi. Bu yerda, 1948 yilda kanalni kengaytirish paytida, Ya. G‘ulamovning so‘zlariga ko‘ra, X-XI asrdagi katta minoraning poydevori ochilgan[38].

Faol savdo Xorazmdan shimol va shimoli-g‘arbga yo‘nalishlarning shakllanishiga yordam berdi. 922 yilda Bolgariya va Rusdagi elchiligi bilan Xorazmdan o‘tgan Ibn Fadlan ba’zi aholi punktlari haqida xabar beradi. "Xorazmning asosiy shahri – Katni tark etgach, Gurganj orqali men katta Zamjan qal’asiga yetib bordim, u hozir ham minoralari, baland mudofaa devorlari va darvozalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri cho‘l dashtiga qaragan ajoyib xarobadir."U buni "turklar darvozasi" deb atagani tasodif emas edi. Al-Maqdisiy bu shahar haqida xabar berib, shunday yozadi: "bu g‘uz turklari bilan savdo joyi"[39]. Bundan tashqari, Sharqiy chinkada Ustyurtgacha qurilgan Janubi-Sharqiy Yevropaga eng muhim Shimoli-g‘arbiy yo‘nalishlarda savdo postlari va signal minoralari qayd etilgan. Ular X-XI asrlarda ham ma’lum va ular ayniqsa, XII – XIII asr boshlarida, yangi manzilgohlar paydo bo‘lganda va mavjudlari kattalashganda faol o‘sib bormoqda edi. Bundan tashqari, ularning moddiy madaniyati Xorazm bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotchilar ushbu qal’alar va karvonsaroylarning aholisini bevosita xorazmliklar deb atashadi va dafn marosimlarida ular ko‘chmanchi va musulmon marosimlarining birlashishini ko‘rishadi. Bu Movaraunnahr savdosining eng shimoliy forposti edi. IX-X geograflari tomonidan yo‘l xaritalarida tasvirlangan an’anaviy marshrutlardan tashqari Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga tortilgan, karvonlar boshqa yo‘llardan foydalanilgan. Shunday qilib, XIV asr sayohatchisi Ibn Battuta 1333 yilda Xorazmdan kelgan karvon bilan sayohat qilib, Sharqiy yo‘l bo‘ylab yurdi. Uning ta’kidlashicha, Xorazm chegarasidan karvon Katga 4 kun ketgan va yo‘lda qishloqlar

[37] Средневековые арабские и персидские источники / Учебно-методическое пособие для студентов исторических факультетов вузов. Ташкент: ТГПУ, 2018. – С.64.

[38] **Буряков Ю.Ф. Торговые трассы Мавераннахра в системе Великого шелкового пути. Хорезм //** https://shosh.uz/uz/torgovyie-trassyi-maverannahra-v-sisteme-velikogo-shelkovogo-puti-horezm-2/

[39] Средневековые арабские и персидские источники / Учебно-методическое пособие для студентов исторических факультетов вузов. Ташкент: ТГПУ, 2018. – С.65.

yo‘q edi. Keyin karvon Katdan Buxoroga 6 kun davomida sibaya deb nomlangan cho‘l orqali suvsiz ketdi va keyin Buxoroning sharqidagi 4 farsaxdagi Vabkanay (Vabkent) shahriga bordi. U yerdan 1 kun Buxoroga, orasida yaxshi bog‘lar bo‘lgan yashil yo‘l bo‘ylab yurilgan[40].

O‘rta asr yodgorliklari orasida ekspeditsiya tomonidan o‘rganilgan bir nechta karvonsaroylarni ta’kidlash kerak. Karvonsaroylar Markaziy Osiyoning hamma joylarida, cho‘lning eng chekka burchaklarigacha tarqalgan. Ular savdo yo‘llarida qurilgan va savdogarlar va karvonlar uchun vaqtinchalik boshpana bo‘lib xizmat qilgan. Vazifa odatda bir kechada yashash uchun ajratilgan kichik xonalardan iborat bo‘lib, hayvonlar uchun mo‘ljallangan keng hovli bilan o‘ralgan.

1952 yilda qurib qolgan Uzboy daryosining chap qirg‘og‘ida, Qoraqum sahrolarida yo‘qolib ketgan IX dan va ehtimol XV asr boshlariga qadar karvon yo‘li yaqin Talayxon-ota karvonsaroyida qazishmalar amalga oshirildi. Avvalo, arxeologlarni murakkab suv ta’minoti tizimi o‘ziga jalb qildi. Zamonaviy quduq binodan 13 km uzoqlikda joylashganligi va suv iste’moli yuqori bo‘lganligi sababli quduq juda uzoq edi. Shuning uchun Talayxon ota quruvchilari yomg‘ir suvidan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olganlar. "Suv ta’minoti" binodan 80 m masofada, suv yig‘ish maydoni bo‘lib xizmat qilgan taqdirda boshlangan. U yerdan taxminan bir yarim yuz kubometr sig‘imga ega chuqur idishga yaqinlashadigan ikkita tarnov yotqizilgan. Butun tizimni qurish jarayonida relefning eng kichik og‘ishlari hisobga olinib, texnik jihatdan eng to‘g‘ri nishablik olingan[41].

Buxorodan Xorazm vohasiga o‘tuvchi savdo yo‘lining yana bir yo‘nalishi Varaxshadan Qizilqum orqali o‘tib Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Eshakrabot va Doshqal’a I karvonsaroyiga olib chiqqan. Bu yerdan Meshekli karvonsaroyi orqali Katga yoki Doshqal’a yonidagi kechuvdan o‘tilib, Sadvar shahri yaqinidagi X asrda

[40] **Буряков Ю.Ф. Торговые трассы Мавераннахра в системе Великого шелкового пути. Хорезм //** https://shosh.uz/uz/torgovyie-trassyi-maverannahra-v-sisteme-velikogo-shelkovogo-puti-horezm-2/

[41] Воробьева М.Г. Из истории древнего Хорезма. К содержанию журнала «Советская археология» (1958, №1) // https://arheologija.ru/vorobeva-iz-istorii-drevnego-horezma/

barpo qilingan Chashqal'a karvonsaroyi orqali Xazoraspga o'tish mumkin bo'lgan. Arab geograflari Buxoroning Faraxsha (Varaxsha) kishlog'idan cho'l orqali Xorazmga 8 kunda borish mumkinligini, bu yo'lda rabotlar yo'qligi, faqat chorvadorlarning yaylovlari mavjudligi haqida ma'lumotlar beradilar. Buxorodan Amudaryodagi Jigarband rabotiga olib chiquvchi yo'l esa Buxorodan 2 barid masofada joylashgan Amza (Amdiza) qishlogi hamda bir-biridan 1 kunlik yo'lda joylashgan Toshrabot, Shuruh, Qumlik (ar-raml), To'g'on raboti orqali o'tgan. Bu yerdagi kechuvdan o'tilgach, Amuldan Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab keluvchi yo'lga qo'shilib Xorazmning yana bir yirik shahri Urganchga qarab ketish mumkin bo'lgan[42].

O'rta Osiyoning ikki muhim iqtisodiy-madaniy markazlari bo'lgan Buxoro va Xorazm vohalarini Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab o'tuvchi yo'l orqali bog'lagan yo'nalishda bir qancha muhim kechuvlar faoliyat ko'rsatgan. Xususan, daryoning o'ng qirg'og'idagi Kukertli karvonsaroyidan daryoning chap qirg'og'idagi Dargonotaga, Sartarosh rabotidan esa Jigarbandga o'tish mumkin bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, o'rta asr arab geograflari (Muqaddasiy) asarlarida qayd qilingan Shurux bekati Nargizqal'a yodgorligiga mos kelib, uning yonida Buxoro va Xorazm vohalarini bog'lovchi yo'ldagi eng qadimgi kechuvlardan biri joylashgan bo'lgan. Xulosa qilib aytganda ilk o'rta asrlarda savdoning rivojlanishi Xorazmdagi yo'l tarmoqlari hamda uning infratuzilmasiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Yo'llarda savdogarlar uchun qulaylik yaratish maqsadida karvonsaroy va sardobalarning qurilishi natijasida hududdan shimolga otlanuvchi turli aholining o'zaro savdo aloqalari yanada jonlandi. Bu esa o'z navbatida madaniy aloqalar rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash lozim.

Xorazmdagi yo'l tarmoqlari hamda uning infratuzilmasiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Yo'llarda savdogarlar uchun qulaylik yaratish maqsadida karvonsaroy va sardobalarning qurilishi natijasida hududdan shimolga otlanuvchi turli aholining o'zaro

[42] Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. - Тошкент: Akademiya, 2008. – Б.151.

savdo aloqalari yanada jonlandi. Bu esa o‘z navbatida madaniy aloqalar rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Xorazmning janubi-sharqiy yo‘nalishdagi shahar va qishloqlari juda ko`plab davlatlarni bir-biri bilan birlashtirishda platsdarm vazifasini bajargan. Savdo-sotiq masalasida eksport va import qilingan mahsulotlar haqida ma`lumot berishi bilan birgalikda, bu yo`nalish tarixining o`rganilishi o`z navbatida, juda ko`plab shahar va qishloqlar nomlarini va aynan tarmoq yo`nalishi bo`ylab mavjud bo`lgan karvonsaroy, quduq(sardoba) hamda rabotlar nomlarini va oraliq masofalari haqida ham bilish imkoniyatini yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь.Т.Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1999.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия Москва. 1963. с.296.
3. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. –М.: ГРВЛ, 1981.
4. Очерки истории Каракалпакской АССР. /Т.1, "Наука" Узбекской ССР, 1964.
5. Всемирная история. Т.3, –М.: Гос.изд.пол.лит., 1957.
6. Дурдыев Д. Транскаракумский торговый путь из Хорезма в Южный Туркменистан. Новые исследования по археологии Туркменистана. Ашхабад, 1980.
7. Бартольд В.В. Дорожник от Бистама до Куня-Ургенча. -Сочинения. – М.: «Наука», 1965, т.3.
8. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVIII в. //Сочинения. –М.: «Наука», 1965, т.3.
9. Атагаррыев Е. Средневековый Дехистан. –Л.: 1986.

10. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: 1948.

11. Юсупов Х. Развалины рабата Тансыклы-депе: (К вопросу о трассе южного отрезка пути Хорезм-Иран Ҳамдаллаха Қазвини). //Каракумские древности. –Ашхабад, 1970, вып.3.

12. Юсупов Х. Археологические работы впредгорьях Северо-Западного Копетдага между Сарыкамышем и Кзыл-Арватом. //Каракумские древности, 1972, вып.4.

13. Петровский Н.Ф. Древние арабские дорожники по среднеазиатским местностям. –Т.: 1894.

14. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. - Тошкент: Akademiya, 2008. – Б.152.

15. Воробьева М.Г. Из истории древнего Хорезма. К содержанию журнала «Советская археология» (1958, №1) // https://arheologija.ru/vorobeva-iz-istorii-drevnego-horezma/

16. Средневековые арабские и персидские источники / Учебно-методическое пособие для студентов исторических факультетов вузов. Ташкент: ТГПУ, 2018. – С.65.

17. **Буряков Ю.Ф. Торговые трассы Мавераннахра в системе Великого шелкового пути. Хорезм** // https://shosh.uz/uz/torgovyie-trassyi-maverannahra-v-sisteme-velikogo-shelkovogo-puti-horezm-2/

18. Немцева Н.Б. По Караванным Дорогам Бухарской Степи // https://www.nemtseva.uz/publications/po_karavannym_dorogam_buharskoy_stepi.pdf

19. Иванов В. А. Путь Ахмеда ибн-Фадлана. — Уфа: Китап, 2010. – С..38.

TURKISTON O‘LKASIDA MUSTAMLAKACHILIK AGRAR SIYOSATI VA PAXTA YAKKAHOKIMLIGI TARIXSHUNOSLIGI

Nurqulova Tahsina Shoymardon qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

nurqulovatahsina@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasi iqtisodiyoti va paxta yakkahokimligi masalasining tarixshunosligi tahlil qilinadi. Xususan, Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan agrar siyosati, yer-suv munosabatlari, paxtachilikni rivojlantirish siyosati hamda mustamlakachilik tizimining mahalliy aholiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganiladi. Nargiz Qurbonova, Abdumalik Razzoqov, N.U. Musayev, A. Juvanmardiev va boshqa tarixchi olimlarning ilmiy ishlari asosida Farg‘ona vodiysida paxta yakkahokimligining shakllanishi, Amerika paxta navlarining kirib kelishi, paxta tozalash sanoatining rivojlanishi hamda Rossiya imperiyasining o‘lkani xom ashyo bazasiga aylantirish siyosati yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida Turkiston iqtisodiyotining mustamlakachilik tizimiga bog‘lanib borish jarayonlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixshunoslik, Turkiston o‘lkasi, Farg‘ona vodiysi, paxta yakkahokimligi, agrar siyosat, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik, paxtachilik*

Аннотация. *В данной статье анализируется историография экономики Туркестанского края и проблемы хлопковой монокультуры. Особое внимание уделяется научным исследованиям, посвящённым аграрной политике Российской империи в Туркестане, земельно-водным отношениям, развитию хлопководства и влиянию колониальной системы на местное население. На основе трудов Hargiz Qurbonova, Abdumalik Razzoqov, N.U. Musayev, A. Juvanmardiev и других*

историков рассматриваются процессы формирования хлопковой монокультуры в Ферганской долине, распространение американских сортов хлопка, развитие хлопкоочистительной промышленности и политика превращения края в сырьевую базу Российской империи. В статье раскрываются процессы усиления зависимости экономики Туркестана от колониальной системы на основе исторических источников и научной литературы.

Ключевые слова: *историография, Туркестанский край, Ферганская долина, хлопковая монокультура, аграрная политика, Российская империя, колониализм,*

Annotation. *This article analyzes the historiography of the economy of Turkestan and the issue of cotton monoculture. Particular attention is paid to scholarly studies on the agrarian policy of the Russian Empire in Turkestan, land and water relations, the development of cotton production, and the impact of the colonial system on the local population. Based on the works of Nargiz Qurbonova, Abdumalik Razzoqov, N.U. Musayev, A. Juvanmardiev, and other historians, the article examines the formation of cotton monoculture in the Fergana Valley, the introduction of American cotton varieties, the development of the cotton-processing industry, and the Russian Empire's policy of transforming the region into a raw-material base. The study reveals the gradual integration of Turkestan's economy into the colonial system through historical sources and scientific literature.*

Keywords: *historiography, Turkestan region, Fergana Valley, cotton monoculture, agrarian policy, Russian Empire, colonialism, cotton growing.*

Kirish.XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ta’sirida muhim iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi paxtachilikni rivojlantirish uchun qulay hudud sifatida imperiya manfaatlari yo‘lida keng o‘zlashtirildi. Natijada o‘lkada paxta yakkahokimligi shakllanib, mahalliy qishloq xo‘jaligi Rossiya sanoati ehtiyojlariga moslashtirildi. Bu jarayon yer-suv munosabatlarining o‘zgarishi, mahalliy

aholi yerlarining qisqarishi hamda agrar siyosatning kuchayishi bilan kechdi.Mazkur masala ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlarida Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosati, paxtachilikning rivojlanishi va uning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari yoritilgan. Ushbu tadqiqot ishida Turkiston o‘lkasi iqtisodiyoti va paxta yakkahokimligi masalasining tarixshunosligi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism.Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgach, hudud iqtisodiyotini imperiya manfaatlariga mos ravishda rivojlantirish siyosatini olib bordi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi unumdor yerlari va qulay iqlimi sabab paxtachilik markaziga aylantirildi. XIX asr oxirlariga kelib paxta ekin maydonlari keskin kengaydi va paxta yakkahokimligi shakllandi. Natijada don va boshqa oziq-ovqat ekinlari maydoni qisqarib bordi. Tarixchi olimlarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasining agrar siyosati va uning oqibatlari keng yoritilgan. Nargiz Qurbonova o‘z asarlarida chor ma’muriyatining Farg‘ona vodiysida yer-suv munosabatlarini nazorat ostiga olgani, mahalliy aholining yer maydonlari qisqargani hamda ko‘chirish siyosati natijasida yuzaga kelgan norozilik harakatlarini tahlil qiladi. Abdumalik Razzoqov esa paxtachilik tarixini o‘rganib, Turkistonning Rossiya sanoati uchun asosiy xom ashyo bazasiga aylantirilganini ko‘rsatib beradi.

N.U. Musayev tadqiqotlarida Amerika paxta navlarining Turkistonga kirib kelishi va paxtachilikning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Amerika paxtasi yuqori hosildorligi va sifatli tolasi bilan ajralib turgani sabab qisqa muddatda keng tarqalgan. Shu bilan birga, yangi kanallar qurilishi va sug‘orish tizimining kengayishi paxta maydonlarining ortishiga xizmat qilgan.

Paxtachilikning rivojlanishi bilan paxta tozalash sanoati ham shakllandi. Farg‘ona vodiysida ko‘plab paxta zavodlari qurilib, temir yo‘l tarmoqlari orqali xom ashyo Rossiyaning markaziy hududlariga olib chiqib ketilgan. Bu esa o‘lkaning iqtisodiy

jihatdan Rossiyaga tobora qaram bo‘lib borishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasining muhim agrar-xom ashyo bazasiga aylantirildi.

Turkiston o’lkasi iaqtisodiyoti va paxta yakkahokimgili bo’yicha ko’plab tarixchi tadqiqotchilar o’zining ilmiy ishlarida bayon etadi xususan Nargiz Qurbonvaning “Chorizmning Turkistondagi agrar siyosati va unga qarshi kurash” (Farg’ona vodiysi) misolida nomli kitobida Rossiya imperiya Qo’qon xonligini bosib olishi va u yerda mustamlakachilik tuzumini o’rnatilishi haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Shu bilan bir qatorda aholini ko’chirish siyosati va Farg’ona vodiysida amalga oshirilgan yer suv agrar islohatlar haqida va ularning oqibatlari Farg’ona vodiysida paxta yakkahokimligini o’rnatish va paxta dalalarini kengaytirishga qaratilgan agrar siyosat haqida keng ma’lumotlar beradi. Farg’ona vodiysiga ko’chirib keltirlgan aholi va ularning hududda joylashtirilishi mahalliy aholi tomonidan amalga oshirilgan norozilik chiqishlari dehqonlarning uyezedlarda uyishtirgan milliy ozodlik harakatlari va uning oqibatlarini keng bayon etadi. Shu bilan bir qatorda usha davrdagi agarar siyosat va mahaliy dehqonlarning yerlari bir necha barobarga kamayib ketganligi mahaliy aholinig aynan mustamlakachilik tizimiga qarshi qilgan harakatlari keng yoritiladi[43].

Abdumalik Razzoqovning “O’zbekistonda paxtachilik tarixi” o’tmish va hozir Paxta O’rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinish sabab va unda amalga oshirilgan islohatlar, yer masalasi agrar siyosatning asosi paxtachilikning rivojlantirilishi, Turkiston paxtasining imperiya hududiga tashib ketilishi va ularning miqdori bo’yicha jadvallar beriladi[44].

O’zbekiston Milliy unversiteti Tarix fakulteti t.f.f.d. prof.,N.U.Musayevning “O’rta Osiyo hududida dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxirlaridan XX asr boshlariga qadar)” nomli kitobida O’rta Osiyo hududida eng qadimgi davrdan to Rossiya imperiyasi hukumronlik davrigacha qishloq xo’jaligida bosqichma bosqich ro’y bergan tarixiy jarayonlar aholining dehqonchilik yer suv

[43] Qurbonva N. Chorizmning Turkistondagi agrar siyosati va unga qarshi kurash/-Toshkent: Yangi asr avlodi,2014.-164 b.
[44] Razzoqov A.O‘zbekistonda paxtachilik tarixi (o‘tmish va hozir) -Toshkent: O’zbekiston,1994-100 b

masalalari asosli ravishda bosqichma bosqich yoritilgan. Kitobda “Turkistonning Rossiya to’qimachilik sanoati xom ashyo (paxtachilik) manbaiga aylantirilishi” nomli bo’limida Amerika fuqorolarning urushi natijasida Rossiyaga yetarli miqdorda paxta kelmay qolganligi rivojlanayotgan sanoat uchun paxta juda ham zarurligi keng yoritiladi. Bu yo’lda O’rta Osiyo xonliklari hududi paxta yetishtirish uchun qulay edi va xonlilarning o’zaro tarqoqligi Rossiya imperiyasiga qo’l keladi va hududni bosib olib, o’zlarining ehtiyojlari yo’lida paxtachilikni rivojlantiradi. Xususan, XIX asr oxirlarida Farg’ona vodiysida rus xo’jaliklari 500 desyatina yerda paxta yetishtirgan, shundan 100 desyatina Namanganda, 280 desyatina Andijonda, 20 desyatina Qo’qonda va 80 desyatinasi Marg’ilon hududiga to’gri kelar edi. Dastab aholi paxtaga bo’lgan talab va narxni ko’rib ixtiyoriy tarzda yetishtiradi sgu tarzda paxta yakkahokimligi vujudaga keladi. Rus hukumati 1888-yil 2-avgustda qabul qilingan nizomga ko’ra suvni boshqarish huquqini mahalliy aholida olib, chor ma’muriyatiga topshiriladi. Ular o’z manfaatlari yyo’lida Farg’ona vodiysida Qoradaryodan 50dan ortiq, Norin daryosidan 14 ta kanal chiqaradi[45].

A.Juvanmardievning “XVI-XIX asrlarda Farg’ona yer-suv masalalariga doir” nomli kitobda keltirilishicha, Farg’onadagi yer suv masalalari egalik shakillari, suvdan foydalanish kabi masalalar yoritiladi va 146 ta hujjatning o’zbekcha matni keltiriladi. “Yer to’plami” Farg’ona vodiysi mulkdorlari va ularning vaqf yerlari keltiriladi. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan keyin Farg‘ona vodiysida yer-suv munosabatlarini nazorat qilish siyosatini kuchaytirdi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, imperiya ma’muriyati hududdagi yer egaligi va soliqqa oid tartiblarni qayta ko‘rib chiqishga kirishdi. 1868-yil 11-iyunda okrug boshlig‘i Abramovning 29-sonli farmoni asosida Samarqand va unga tutash hududlardagi yer egalari hamda vaqf yerlarining rasmiy ro‘yxati tuzilgan. Shu davrdan boshlab Farg‘ona

[45] Musayev N.U. O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan (Tosh davri oxirlaridan – XX asr boshlariga qadar). - Toshkent: Fan, 2005. 189-196 b.

vodiysidagi mulkchilik tizimi ham imperiya nazoratiga o‘ta boshladi. XIX asrning 70–80-yillarida Farg‘ona viloyatida mulkdorlar va diniy tashkilotlarga tegishli yerlar qayta hisobga olindi. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, vodiyda yerga egalik qiluvchi va vaqf yerlardan foydalanuvchi tashkilotlar soni 3238 ta deb qayd etilgan. Keyingi tekshiruvlar natijasida esa bu ko‘rsatkich 5744 taga yetgani aniqlangan. Bu holat Rossiya imperiyasi ma’muriyati Farg‘ona vodiysidagi iqtisodiy resurslarni chuqur o‘rganishga katta e’tibor berganini ko‘rsatadi.

1880-yilda Koroskon qishlog‘idagi Sayid Mahzumiyning so‘nggi shayxi Jaloliddinxo‘ja o‘z yer egaligi huquqini tasdiqlash maqsadida mavjud hujjatlarini Turkiston general-gubernatori kanselyariyasiga topshirgan. Mazkur hujjatlar keyinchalik imperiya idoralari tomonidan o‘rganilib, 1885-yilda Turkiston o‘lkasini boshqarish loyihasini tayyorlash jarayonida foydalanilgan. Ushbu manbalar orqali Farg‘ona vodiysidagi yer-suv munosabatlari, vaqf mulklari hamda mahalliy aholining iqtisodiy ahvoli haqida muhim ma’lumotlar yig‘ilgan. Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona vodiysidagi yer siyosati mustamlakachilik manfaatlariga mos ravishda olib borildi. Natijada mahalliy aholi yer va suv resurslari ustidan avvalgi mustaqil nazoratini asta-sekin yo‘qota boshladi. Imperiya ma’muriyati esa vodiydagi iqtisodiy boyliklarni o‘z manfaatlari yo‘lida boshqarishga muvaffaq bo‘ldi[46].

Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi” nomli monografiyada XIX–XX asrlarda Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati tomonidan O‘zbekiston hududidagi tabiiy hamda iqtisodiy boyliklardan imperiya manfaatlari yo‘lida foydalanilgani keng yoritilgan. Asarda mahalliy aholining manfaatlari ko‘pincha e’tibordan chetda qolgani, xalqning og‘ir iqtisodiy va ijtimoiy ahvolga tushib qolgani turli misollar asosida tahlil

[46] A.Juvonmardiev . XVI-XIX asrlarda Farg’ona yer- suv masalalarga doir. -Toshkent: Fan, 1965. 65 b.

qilinadi. Ayniqsa, Farg'ona viloyatida paxtachilikning rivojlanishi va ushbu sohada yuz bergan o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Paxta yetishtirish hajmining ortishi bilan bir qatorda paxta tozalash sanoati ham shakllana boshladi. Aynqsa bu Farg'ona viloyatida yaqqol ko'zga tashlanadi jumladan 18800-yilda hududda 3 ta sanoat korxonasi qo'rilgan bo'lsa 1890-yilda 15 taga,1900-yilga kelib esa 50 taga yetkazildi. Lekin Sanoat korxonalarining paxta tozalash quvvati o'ta darajada yuqori emas edi. Negaki, Chor Rossiyasi o'lkani xom ashyo bazasi qilishdan manfaatdor edi, yikrik korxonalar qurishdan emas. Paxtaga bo'lgan talabni oshib borishi natijasida aholi don va boshqa ekinlar o'rniga ham paxta eka boshladi, paxta yakkahokimligini vujudga keltirdi.Paxta yetishtirish yildan yilga o'sib bordi. Masalan.1895-yilda 4mln 766ming 470 pud amerika paxtasi, 687422 pud mahalliy paxta, 1896 -yilda 6 mln.18ming 615pud amerika, 590123 pud mahalliy paxtta yetishtirilgan. Bundan ko'rish mumkinki bir yil ichida paxta yetishtirish miqdori 1mln 150 ming puddan oshadi. Rus hukumatining bir tomonlama rivojlantirishdan maqsadi o'lkani borgan sari o'ziga tobe etish edi[47]

Temir yo'l tarmoqlarining rivojlanishi Farg'ona vodiysidan xom paxtani Rossiyaning markaziy hududlariga tez va qulay tashish imkonini yaratdi. Natijada paxta eksporti hajmi ortib, hudud Rossiya sanoati uchun asosiy xom ashyo manbalaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, paxtani tozalash jarayonida qoladigan chigitdan yog' ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi Turkiston general gubernatorligi mahkamasining 1899 – yilda 3 apreldagi ma'lumotiga ko'ra 1898 – yilda Farg'ona viloyatida 85 ta, Samarqand viloyatida 22 ta, Sirdaryo viloyatida 60 ta, jami 167 ta paxta tozalash zavodi ishga

[47] Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. - Toshkent: Sharq, 2001. 115-118b.

6. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. - Toshkent: Sharq, 2001. 115-118b.

tushirilganligi qayd etilgan. 1902-yilda Namanganda K. M. Solovyov hamda Zingel va Reynegagenlar tomonidan ikkita paxta zavodi tashkil etildi. 1908-yilda esa Bayramalida paxta tozalash va yog‘ ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar barpo qilindi. Ushbu zavodlar zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlanib, paxtani qayta ishlash hajmini sezilarli darajada oshirdi. Natijada o‘lkadan millionlab pud paxta tolasi, minglab pud paxta yog‘i va chigit Rossiyaga olib chiqib ketilgan[48].

Farg‘ona vodiysida paxta sanoatining kengayishi o‘lka iqtisodiyotining mustamlakachilik tizimiga tobora kuchliroq bog‘lanib borayotganini ko‘rsatadi. Rossiya imperiyasi hududni asosan xom ashyo yetkazib beruvchi mintaqa sifatida rivojlantirishga intilgan.

J.Sh.Hayitovning Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va ulardagi o’zgarishlar (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) nomli avtoreferatda keltirilishicha, Turkiston va Farg’ona hududida paxtada boshqa o’simliklar, ularning miqdori va navlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Amerika paxta navi XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda paxtachilikni o’rgazishiga katta sabab bo’ladi. 1860-yillarning oxiri hamda 1870-yillardan boshlab Turkistonga Amerika “Uplanda” paxta navi kirib kela boshladi. XIX asr oxiriga kelib esa o‘lkada 12 turdagi mahalliy va xorijiy paxta navlari ekilgan. Amerika “Uplanda” navining “Sugarloof”, “Hogan”, “Wests Shundret Seed”, “Brown’s Seed”, “Bonapa”, “Prout”, “Mastodon”, “Prolific” va “Multibolus” kabi ko‘plab turlari tarqalgan edi. 1875-yilda Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdida ushbu nav ilk bor sinovdan o‘tkazildi. 1879-yilda esa Farg‘ona viloyati Namangan uyezdining Chust hududida Amerika “Gossypium Upland” paxta navi tajriba tariqasida ekilganligi ochib berilgan.

Amerika paxtasining keng tarqalishiga bir necha omillar sabab bo‘lgan. Avvalo, Rossiya to‘qimachilik sanoati korxonalari aynan Amerika paxtasi tolasi bilan ishlashga moslashgan edi. Bundan tashqari, ushbu navning tolasi sifatli, tezpishar va chigitdan

yaxshi ajralishi bilan ajralib turgan. Bir tup g‘o‘zada 60 tadan 120 tagacha gul va ko‘sak hosil bo‘lishi ham hosildorlikni oshirgan. Amerika paxtasi tozalanganda 30–36 foizgacha tola bergan bo‘lsa, mahalliy paxtada bu ko‘rsatkich 18–20 foizdan oshmagan. Hosildor yillarda esa Amerika paxtasining bir desyatina yeridan 120–130 pudgacha, o‘rtacha esa 60–65 pud hosil olingan[49]. Bu jarayon Farg‘ona vodiysi va umuman Turkiston iqtisodiyotining Rossiya imperiyasi sanoat manfaatlariga moslashtirilganini ko‘rsatadi. Chunki Amerika paxtasi navining ommalashuvi, avvalo, Rossiya to‘qimachilik sanoatini sifatli xom ashyo bilan ta’minlash ehtiyojidan kelib chiqqan edi.

Avtoreferatda qayd etilishicha, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand, Sirdaryo va ayniqsa Farg‘ona viloyatlarida yirik uzum plantatsiyalari mavjud bo‘lgan. Farg‘ona vodiysida uzumchilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. 1891–1900-yillar davomida Farg‘ona viloyatida uzumzorlar maydoni va hosildorlik ko‘rsatkichlari muntazam o‘sib borgan. Jumladan, 1891-yilda 5653 desyatina yer maydonidan 1 616 876 pud hosil olingan bo‘lsa, 1893-yilda 6423 desyatinadan 2 653 698 pud hosil yetishtirilgan. 1897-yilda esa 7300 desyatina maydondan 2 309 000 pud uzum hosili yig‘ib olingan. 1900-yilga kelib uzumzorlar 7315 desyatinani tashkil etib, hosil hajmi 1 585 000 pudga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlar Farg‘ona vodiysida uzumchilikning keng miqyosda rivojlanganini ko‘rsatadi. Uzumchilik taraqqiyoti natijasida Turkistonda vino va spirtli ichimlik ishlab chiqaruvchi korxonalar ham paydo bo‘ldi. Ushbu korxonalarda oshxona vinosi, cherkov vinosi hamda desert vinolari tayyorlangan. Bundan tashqari, aroq va konyak ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Uzum va vino mahsulotlariga talabning ortishi tufayli Rossiyaga eksport hajmi ham kengayib borgan. Masalan, 1907-yilda vino va

[49] Hayitov J.Sh. Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va ulardagi o‘zgarishlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): tarix fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Andijon, 2020. 14 b.

uzum mahsulotlarini tashish uchun 120 ta vagon talab qilganligi qayd etganligini yoritadi[50].

Bu jarayon Farg‘ona vodiysida bog‘dorchilik va uzumchilikning iqtisodiy ahamiyati ortganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uzum va vino mahsulotlarining Rossiya bozoriga yo‘naltirilishi o‘lka qishloq xo‘jaligining imperiya iqtisodiy tizimiga tobora kuchliroq bog‘lanib borayotganidan dalolat beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002.

2. Ахмаджонов Г.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Т.: “Таълим” жамияти, 2003.

3. Баҳодир Эшов. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. – Тошкент, 2012.

4. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – Б. 103.

5. Гулишамбаров С.И. (тузувчи). Экономический обзор Туркестанского района. Ч. 1. – Ашхабад, 1913.

6. Мусайев Н.У. Ўрта Осиёда деҳқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (тош даври охирларидан XX аср бошларига қадар). – Тошкент: Фан, 2005. – 181 б.

7. Qurbonva N. Chorizmning Turkistondagi agrar siyosati va unga qarshi kurash/- Toshkent: Yangi asr avlodi,2014.-264 b.

[50] Hayitov J.Sh. Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va ulardagi o‘zgarishlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): tarix fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Andijon, 2020. 18 b.

8. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. - Toshkent: Sharq, 2001. 463b.

QORAQALPOQ XALQ MAORIFI TARAQQIYOTI JUMEK O'RINBOYEVNING O'RNI

Xamrakulova Maftunaxon Shuxratovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
maftunaxonshuxratovna@gmail.com
Sa'dullayeva Ro'za Davlatyor qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Jumek Asqarovich O'rinboyevning hayoti, pedagogik faoliyati hamda qoraqalpoq xalq maorifi taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, XX asrning 20-yillarida ta'lim tizimining holati, maktablarda mavjud muammolar va pedagoglarning ma'rifiy faoliyati tahlil qilingan. Muallif Jumek O'rinboyevning xalq ta'limi rivojiga qo'shgan hissasini tarixiy manbalar va pedagogik faoliyati asosida ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Jumek Asqarovich O'rinboyev, qoraqalpoq xalq maorifi, pedagogik faoliyat, xalq ta'limi, boshlang'ich maktab, ma'rifatparvarlik, savodxonlik, ta'lim tizimi, XX asr, qishloq maktablari, pedagog kadrlar, ma'naviy taraqqiyot.*

XX asr boshlarida Qoraqalpog'istonda xalq maorifi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kechdi. Bu davrda savodsizlikni tugatish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish hamda malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblangan. Ana shunday tarixiy jarayonda Jumek Asqarovich O'rinboyev kabi fidoyi pedagoglarning faoliyati xalq maorifi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. U o'zining pedagogik faoliyati orqali yosh avlodni ilm-ma'rifat ruhida tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish va qishloq maktablari faoliyatini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan.

Jumek Asqarovich O‘rinboyev qoraqalpoq xalq maorifi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ma’rifatparvar pedagoglardan biri hisoblanadi. U 1906-yilda Shimbay tumanida, hozirgi Usmon Yusupov nomidagi sovxoz hududida o‘rtahol oilada tug‘ilgan. Yoshligidan ilm olishga qiziqqan Jumek O‘rinboyev murakkab ijtimoiy sharoitlarga qaramay, o‘qish va ma’rifat yo‘lini tanladi.

U 1920-yilda 14 yoshida maktabga kirib, 1924-yilda boshlang‘ich maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan. Shu yili olti oylik pedagogik kursda tahsil olib, Xalqobod shahridagi ikki sinfli boshlang‘ich maktabga o‘qituvchi etib tayinlangan. Bu davr qoraqalpoq xalq maorifi endigina shakllanayotgan, maktablar soni kam, o‘quv qurollari va metodik adabiyotlar yetishmaydigan murakkab davr edi. Jumek O‘rinboyev faoliyat boshlagan maktab ikki alohida binoda joylashgan bo‘lib, ta’lim jarayoni uchun zarur sharoitlar to‘liq yaratilmagan edi. O‘quvchilar sonining kamligi, darslik va o‘quv-uslubiy materiallarning yetishmasligi o‘qituvchilardan katta sabr va fidoyilikni talab qilardi. Shunga qaramay, u yosh avlodga bilim berish, ularni savodli va ma’rifatli etib tarbiyalash yo‘lida sidqidildan mehnat qildi. Pedagog sifatida Jumek O‘rinboyevning asosiy maqsadi xalq orasida savodxonlikni oshirish, bolalarni muntazam ta’limga jalb qilish va zamonaviy bilimlarni targ‘ib etishdan iborat edi. U dars jarayonida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘quvchilarning ilmga bo‘lgan qiziqishini oshirishga harakat qilgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ta’lim tizimini rivojlantirishda uning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumek Asqarovich O‘rinboyev faoliyat yuritgan barcha muassasalarda o‘zining fidoyiligi, mehnatsevarligi va pedagogik mahorati bilan hurmat qozongan. Hamkasblari va ta’lim muassasalari xodimlari uning xalq maorifi rivojiga qo‘shgan hissasini yuksak baholaganlar. 1930-yilda u mamlakatda savodsizlikni tugatish va xalqning ma’rifiy saviyasini oshirishga qaratilgan ishlarda faol qatnashdi. Shu yili Toshkentdagi SAHIPI fakultetiga o‘qishga kirib, o‘z bilim va malakasini yanada oshirishga intildi. Talabalik davrida Jumek O‘rinboyev savodsizlikni tugatish bo‘yicha tashkil etilgan guruhga

rahbarlik qildi. U boshchiligidagi talabalar bo‘sh vaqtlarida zavod va korxonalarga borib, ishchilarga o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan shug‘ullandilar. Bu faoliyat o‘sha davrda xalq orasida savodxonlikni keng yoyish va ma’rifatni targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1933–1934-yillarda Jumek Asqarovich O‘rinboyev Moskvadagi VAIPIN aspiranturasining ikki yillik tayyorgarlik bo‘limida tahsil oldi. U aspiranturadagi tayyorgarlik kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, o‘z bilim va ilmiy salohiyatini yanada mustahkamladi. Shundan so‘ng Qoraqalpog‘istonga qaytib, To‘rtko‘l shahridagi Qoraqalpog‘iston pedagogika kollejida direktor hamda o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritdi.

Jumek O‘rinboyev ushbu ta’lim muassasasida pedagogik faoliyat bilan bir qatorda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash ishlariga ham katta e’tibor qaratdi. Uning tashkilotchilik qobiliyati va ilmiy salohiyati tufayli kollej faoliyati yanada rivojlandi. XX asrning 20-yillarida qoraqalpoq xalq maorifi tizimida yuz bergan o‘zgarishlar ko‘plab fidoyi pedagoglarning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Jumek O‘rinboyev ana shunday ma’rifatparvarlardan biri sifatida yosh avlod tarbiyasi va xalq ta’limi rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Uning pedagogik faoliyati qoraqalpoq xalqining madaniy va ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Jumek Asqarovich O‘rinboyev qoraqalpoq xalq maorifi taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan fidoyi pedagog va ma’rifatparvarlardan biridir. U o‘z faoliyati davomida xalq orasida savodxonlikni oshirish, yosh avlodni ilm-ma’rifat ruhida tarbiyalash hamda ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida samarali mehnat qilgan. Ayniqsa, 1920–1930-yillarda savodsizlikni tugatish bo‘yicha olib borilgan ishlarda uning tashabbuskorligi va tashkilotchilik qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumek O‘rinboyevning pedagogik va ma’rifiy faoliyati nafaqat o‘sha davr ta’lim tizimining rivojiga, balki qoraqalpoq xalqining madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga ham katta hissa

qo‘shdi. Uning ilm-fanga intilishi, yoshlarni o‘qitishdagi fidoyiligi hamda jamiyat oldidagi mas’uliyat hissi bugungi avlod uchun ham muhim ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli uning hayoti va faoliyatini o‘rganish xalq maorifi tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qoraqalpog‘iston xalq maorifi tarixi bo‘yicha ilmiy manbalar va arxiv materiallari.
2. Qoraqalpog‘iston pedagogika tarixi. — Nukus: “Bilim” nashriyoti, 2005.
3. O‘zbekiston xalq ta’limi tizimi tarixi. — Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2010.
4. XX asr boshlarida Qoraqalpog‘istonda ma’rifatparvarlik harakati haqida ilmiy maqolalar to‘plami.
5. Jumek Asqarovich O‘rinboyev faoliyatiga oid tarixiy ma’lumotlar va xotiralar.
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ta’lim va madaniyat tarixiga oid ensiklopedik manbalar.
7. Pedagogika va xalq maorifi rivojiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ СТАНДАРТ «ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ» НАДЕЖНАЯ ГАРАНТИЯ СОХРАНЕНИЯ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Кравченко Александр Николаевич

Центр исследования при Агентстве по управлению государственными активами Республики Узбекистан

E.mail : fv6974@mail.ru

Аннотация: *Рассмотрены вопросы Национального стандарта оценки стоимости культурных ценностей; показана значимость предметов, представляющие собой национальную, историческую, художественную, научно-познавательную, духовно-нравственную культуру народов Узбекистана; раскрыты проблемы оценки культурных ценностей: недостаточная проработанность методологии оценки; непрозрачное ценообразование в галереях; обращение на рынке множества подделок; сложности в аутентификации и проведении экспертизы; пробелы в нормативно-правовой базе, регулирующей оборот культурных ценностей и передачу прав на них.*

Ключевые слова: культурные ценности, исторические ценности, оценочная деятельность, нормативно-правовая база, стандарты оценки, методология оценки, методика оценки культурных ценностей, рынок активов, рынок оценочных услуг, регулирование вывоза и ввоза культурных ценностей, экспертиза достоверности отчетов.

Annotatsiya: *Maqolada Madaniy boyliklarni baholash bo'yicha milliy standart masalalari ko'rib chiqiladi; O'zbekiston xalqlarining milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy, ma'rifiy, ma'naviy va axloqiy madaniyatini ifodalovchi buyumlarning ahamiyati*

namoyish etiladi; madaniy boyliklarni baholash muammolari ochib beriladi: baholash metodologiyasining yetarlicha rivojlanmaganligi; galereyalarda shaffof bo'lmagan narxlar; bozorda ko'plab qalbaki buyumlarning muomalada bo'lishi; autentifikatsiya va ekspertizadagi qiyinchiliklar; madaniy boyliklarning muomalada bo'lishi va unga bo'lgan huquqlarni o'tkazishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazadagi bo'shliqlar.

Kalit so'zlar: *madaniy qadriyatlar, tarixiy qadriyatlar, baholash faoliyati, me'yoriy-huquqiy baza, baholash standartlari, baholash metodologiyasi, madaniy qadriyatlarni baholash metodologiyasi, aktivlar bozori, baholash xizmatlari bozori, madaniy qadriyatlar eksporti va importini tartibga solish, hisobot ishonchliligi bo'yicha ekspert sharhi.*

Abstract: *The article examines the issues of the National Standard for the Valuation of Cultural Property; demonstrates the significance of items representing the national, historical, artistic, scientific, educational, spiritual and moral culture of the peoples of Uzbekistan; reveals the problems of valuing cultural property: insufficient development of the valuation methodology; non-transparent pricing in galleries; circulation of numerous counterfeits on the market; difficulties in authentication and examination; gaps in the regulatory framework governing the circulation of cultural property and the transfer of rights to it.*

Key words: *cultural values, historical values, appraisal activities, regulatory framework, appraisal standards, appraisal methodology, cultural value appraisal methodology, asset market, appraisal services market, regulation of export and import of cultural values, expert review of report reliability.*

В соответствии с Законом Республику Узбекистан о вывозе и ввозе культурных ценностей указано, что культурные ценности — это движимые предметы материального мира, представляющие собой национальную,

историческую, художественную, научно-познавательную, духовно-нравственную и иную культурную значимость.

Под действие настоящего Закона подпадают культурные ценности:

созданные гражданами Республики Узбекистан;

созданные на территории Республики Узбекистан иностранными гражданами и лицами без гражданства;

обнаруженные на территории Республики Узбекистан;

собранные в музеях, информационно-библиотечных учреждениях, архивах, ведомственных архивах, кино-, фото-, фонотеках, картинных галереях и других хранилищах;

приобретенные археологическими, этнологическими и естественно-научными экспедициями с согласия уполномоченных органов государств, откуда происходят эти ценности;

полученные в результате добровольных обменов;

полученные в качестве наследства, дара или законно приобретенные с согласия уполномоченных органов государств, откуда происходят эти ценности;

ввозимые на территорию Республики Узбекистан иностранными юридическими и физическими лицами.

Государственное регулирование вывоза и ввоза культурных ценностей осуществляют Министерство культуры Республики Узбекистан и Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан.

К культурным ценностям могут относиться:

- исторические ценности, в том числе связанные с историческими событиями в жизни страны, развитием общества и государства, историей науки и техники, а также относящиеся к жизни и деятельности выдающихся личностей (государственных, политических, общественных деятелей, мыслителей, деятелей науки, литературы, искусства);

- археологические предметы (памятниках истории и культуры) народов Узбекистана;
- художественные ценности, в том числе:
- картины и рисунки ручной работы;
- оригинальные скульптурные произведения;
- оригинальные художественные композиции и монтажи;
- художественно оформленные предметы культового назначения, в частности иконы;
- гравюры, эстампы, литографии и их оригинальные печатные формы;
- произведения декоративно-прикладного искусства, в том числе художественные изделия из стекла, керамики, дерева, металла, кости, ткани и других материалов;
- изделия традиционных народных художественных промыслов;
- составные части и фрагменты архитектурных, исторических, художественных памятников и памятников монументального искусства;
- старинные книги, издания, представляющие особый интерес (исторический, художественный, научный и литературный), отдельно или в коллекциях;
- редкие рукописи и документальные памятники;
- архивы, включая фото-, фоно-, кино-, видеоархивы;
- уникальные и редкие музыкальные инструменты;
- почтовые марки, иные филателистические материалы, отдельно или в коллекциях;
- старинные монеты, ордена, медали, печати и другие предметы коллекционирования;

- редкие коллекции и образцы флоры и фауны, предметы, представляющие интерес для таких отраслей науки, как минералогия, анатомия и палеонтология;
- другие движимые предметы, в том числе копии, имеющие историческое, художественное, научное или иное культурное значение, а также взятые государством под охрану как памятники истории и культуры.

В настоящее время оценкой культурных ценностей занимаются целый ряд специалистов начиная от антикваров, музейных работников, экспертами таможенных служб, галерей и выставок, аукционов, и заканчивая профессиональными оценщиками. Все вышеприведенные специалисты по разному понимают понятие рыночной стоимости культурных ценностей.

Основными проблемами оценки культурных ценностей были: недостаточная проработанность методологии оценки; закрытость рынка культурных ценностей; непрозрачное ценообразование в галереях; обращение на рынке множества подделок; сложности в аутентификации и проведении экспертизы; пробелы в нормативно-правовой базе, регулирующей оборот культурных ценностей и передачу прав на них.

Основополагающим документом при разработке данного проекта является постановление Президента Республики Узбекистан от 01 июля 2019года №ПП-4381 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оценочной деятельности и упрощению механизмов реализации низкорентабельных и бездействующих предприятий с государственным участием», которым было поручено Агентству по управлению государственными активами Республики Узбекистан совместно с Министерством юстиции Республики Узбекистан до 1 декабря 2019 года принять меры по утверждению единых национальных стандартов оценки объектов, независимо от формы собственности, на основе принципов международных стандартов оценки с учетом лучших зарубежных практик.

Во исполнение данного постановления Агентством по управлению государственными активами Республики Узбекистан был разработан и введен в действие Национальный стандарт оценки Республики Узбекистан «Оценка стоимости культурных ценностей» (НСО № 16) в соответствии с приказом Директора Агентства по управлению государственными активами Республики Узбекистан от 25 октября 2023 года № 01/11-14/29э (Зарегистрирован Министерством юстиции Республики Узбекистан 11.04.2026 г., рег. номер 3487-3).

Наша страна благодаря богатой истории и культурному наследию без преувеличения является одной из колыбелей мировой цивилизации. В музеях хранятся древние находки, относящиеся к истории, культуре и искусству нашей страны.

В 2023 году в Ташкенте открылся первый аукционный дом для выставления на продажу произведения художников Узбекистана, которые творили в разные годы.

В 2024 году Узбекистан стал 138-м государством-членом Международного исследовательского центра по сохранению и реставрации культурных ценностей (ИККРОМ, ICCROM).

Художественный рынок в Узбекистане не развивался и не формировался из-за отсутствия методов оценки произведений искусства оценочными организациями.

В свете вышеизложенного, национальный стандарт «Оценка стоимости культурных ценностей» является крайне своевременным и актуальным.

Национальный стандарт оценки «Оценка стоимости культурных ценностей» устанавливает основные требования к процессу оценки стоимости культурных ценностей, как объектов оценки, а также особенности данного процесса.

Достаточно подробно определены объекты оценки, подподающими под действие данного стандарта и связанным с ними имущественные права.

Достаточно подробна разработаны вопросы прмименения подходов к оценке и представлена подробная методика оценки стоимости культурных ценностей.

Ввод в действие стандарта по оценке стоимости культурных ценностей и методики к нему позволил значительно повысить качество оценки данных объектов культурного наследия Республики Узбекистан и проведение экспертизы достоверности отчетов по их оценке. Это позволит обеспечить единообразное толкование в нашей стране основных принципов, терминов, определений, использования видов стоимости, применение подходов и методов оценки, составление итогового отчета по оценке, на уровне мировых стандартов.

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «Об оценочной деятельности» от 19 августа 1999 г. №811-1;
2. Закон Республики Узбекистан о вывозе и ввозе культурных ценностей от29 августа 1998 г., № 678-1;
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 01.07.2019г. №ПП-4381 «О мерах по дальнейшему совершенствованию оценочной деятельности и упрощению механизмов реализации низкорентабельных и бездействующих предприятий с государственным участием;
4. Единый национальный стандарт оценки Республики Узбекистан (от 30.12.2023 г. Регистрационный № 3487);
5. Нежданова-Байковская А. В.. **Проблемы оценки стоимости объектов культурного наследия: от вопросов совершенствования методологии до разработки алгоритма их вовлечения в гражданский оборот»**, журнал «Экономика, предпринимательство и право», 2023 год.

6. **Пузыня М.Ю., Локтионов А.Н., Михлин А.В. Вопросы оценки культурных ценностей. Имущественные отношения в Российской Федерации, №3, 2012 г.**

AGRICULTURE, ECOLOGICAL SUSTAINABILITY AND FOOD SECURITY ISSUES

KUZGI BUG‘DOY PARVARISHIDA SUV TEJOVCHI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI ILMIY QARASHLAR TAHLILI

Abduraximov Nurali Normamatovich

TerDMAU

nabduraximov69@gmail.com

Usmonova Diyora Baxtiyor qizi

TerDMAU

diyorausmonova06@gmail.com

Annotasiya.*Ushbu maqolada suv resurslari taqchil bo‘lgan sharoitda kuzgi bug‘doy navlaridan yuqori va sifatli hosil olishda tomchilatib, yomg‘irlatib va egatlab sug‘orishning innovasion usullari tahlil qilingan. Resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llashning don sifat ko‘rsatkichlari va umumiy hosildorlikka ta'siri o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar*: bug‘doy, nav, kuzgi, rivojlanish, faza, transpirasiya, kleykovina, oqsil, sug‘orish, usul, tomchilatib, yomg‘irlatib, me'yor, hosil.*

Abstract. *This article analyzes innovative methods of drip, sprinkler and furrow irrigation for obtaining high and quality yields of winter wheat varieties in conditions of water scarcity. The impact of the use of resource-saving technologies on grain quality indicators and overall productivity is studied.*

Keywords: *wheat, variety, winter, development, phase, transpiration, gluten, protein, irrigation, drip, method, sprinkler method, standard, yield.*

Аннотация. *В данной статье анализируются инновационные методы капельного, дождевального и бороздкового орошения для получения высоких и качественных урожаев сортов озимой пшеницы в условиях дефицита воды.*

Изучено влияние использования ресурсосберегающих технологий на показатели качества зерна и общую продуктивность.

Ключевые слова: *пшеница, сорт, озимая, развитие, фаза, транспирация, глютен, белок, орошение, капельный, метод, дождевальный метод, стандарт, урожайность.*

Suv nafaqat tiriklik evolyusiyasiga, balki atrof-muhit, iqlim o‘zgarishlariga ham million yillardan buyon ta'sir ko‘rsatib kelayotgan eng muhim hayotiy omildir. Shunday ekan insoniyat suv resurslaridan ilmiy asoslangan usullar bilan oqilona foydalanishi zarur. Suv tanqisligi Markaziy Osiyo mintaqasida global muammoga aylanib bo‘ldi. Soha mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra O‘zbekistonda aholi iste’moli va qishloq xo‘jaligida 2030 yilga borib 7 mlrd.kub suv taqchilligi kuzatilishi mumkin. 2050 yilda bu ko‘rsatkich ikki barobar ortishi mumkinligi bashorat qilingan.[1]

Dunyo aholisi ozuqa ratsionining katta qismi don mahsulotlariga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra jahon bozorida bug‘doy mahsulotiga talab yuqoriligicha qolmoqda. Dunyo bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlarining 40% i va boshoqli donlaridan olinadigan hosilning 60% i sug‘oriladigan maydonlardan olinadi.[2] Kuzgi bug‘doydan yuqori hosil olishda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi davomida uni optimal miqdorda suv bilan ta'minlash zarur. Tuproq namligi belgilangan miqdordan kamaysa o‘simlikni suv bilan ta'minlash yomonlashadi. Hujayra to‘qimalarida suvning kamayishi kechadigan fiziologik jarayonlarning buzilishiga, oqibatda mahsuldorlikning keskin kamayishiga olib keladi. Kuzgi bug‘doyni o’suv davrida uning suvga bo‘lgan talabini aniqlash kelgusida don hosildorligi salmog‘ini va don sifatini belgilashda katta ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida kuzgi bug‘doyda tuproq namligini kerakli miqdorini belgilash, sug‘orish muddatlarini va me’yorlarini aniqlash, o‘rganilayotgan kuzgi bug‘doy navidan potensial miqdorda hosil olishni ta’minlaydi. [3]

Kuzgi bug‘doyni an'anaviy usulda sug‘orish bugungi iqlim o‘zgarishi sharoitida qator salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, egatlab sug‘orish natijasida berilgan suvning 50-70 %i bug‘lanish, filtrasiya yoki oqova suvlariga qo‘shilib ketish tufayli yo‘qotilmoqda. Shuningdek, tuproq sho‘rlanishi va degradasiya, namlikning notekis taqsimlanishi, oziq moddalarning yuvilib ketishi, tuproq zichlashishi kabi bir qator muammolar donli ekinlarni yoppasiga egatlab sug‘orish natijasida yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy va tejamkor sug‘orish texnologiyalardan foydalangan holda suv resurslaridan ilmiy asosda foydalanishni taqozo etmoqda.

Bug‘doyning suvga bo‘lgan talabi uning o‘sish fazalari bo‘yicha keskin farq qiladi. O‘simlik hayoti davomida tuproq namiga eng yuqori talab boshoqlash va gullash davrida kuzatiladi. Aynan shu davrda suv resurslaridagi taqchillik, namlikning etishmasligi va havo haroratining ortib ketishi bug‘doyda kechadigan changlanish va urug‘lanish jarayonlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Kuzgi bug‘doyni suv tejovchi texnologiyalar asosida sug‘orish–bu o‘simlikning suvga bo‘lgan ehtiyojini eng kam resurs sarfi bilan, lekin yuqori aniqlikda qondirish tizimidir. Yomg‘irlatib sug‘orish tizimini kuzgi bug‘doy ekilgan maydonlarda joriy qilish bu borada eng to‘g‘ri echim hisoblanadi.

Kuzgi bug‘doy kuzgi arpaga va bahorgi bug‘doyga nisbatan o‘sish davrida namlikni ancha ko‘p sarflaydi. Bu o‘sish davri uzunligi va hosil umumiy massasining yuqoriligi bilan bog‘liq. Donli ekinlarning qulay o‘sib-rivojanishi uchun eng qulay sharoit tuproqdagi cheklangan dala dam sig‘imining 65-75% dan kam bo‘lmaganda maqbul hisoblanadi. Kuzgi bug‘doyning tuproqdan nam o‘zlashtirishi tuproqdagi namlik so‘lish namligiga teng bo‘lganda to‘xtaydi. Kuzgi bug‘doy o‘sish davrida etishtirish sharoitiga qarab lalmikorlikda 2000 m^3/gacha, sug‘oriladigan erlarda 3,5-4 ming m^3/ga va undan ko‘proq suv sarflashi mumkin. Ilg‘or xo‘jaliklarda keyingi yillarda kuzgi bug‘doyni yomg‘irlatib sug‘orish usulidan foydaalmoqda. Egatlab sug‘orishga nisbatan yomg‘irlatib sug‘orish bir qator afzalliklarga ega. Uni turli xil

releflardagi barcha tuproqlarda qo‘llash mumkin. Yomg‘irlatib sug‘orishda egatlar, o‘q ariqlar olinmaydi, suv dala bo‘ylab bir tekis taqsimlanadi, erdan samarali foydalaniladi. Egatlab sug‘orishga nisbatan 60% gacha suv tejash imkoni yaratiladi.

Ma‘lumki, kuzgi bug‘doyning ozuqa elementlariga bo‘lgan talabi boshqa don ekinlariga nisbatan tuproqdagi oziq moddalarning o‘zlashtiriladigan shaklda bo‘lishiga talabchan. Bir gektar maydondan 60 sentnergacha don va shunga mos somon hosili olish uchun kuzgi bug‘doy tuproqdan o‘rtacha 180-220 kg azot, 65-80 kg fosfor, 115-140 kg kaliy o‘zlashtiradi. O‘g‘itlarni noto‘g‘ri qo‘llash va sug‘orishning noto‘g‘ri amalga oshirilishi oqibatida juda ko‘p miqdordagi nitratlar sizot suvlari va suv havzalariga kelib qo‘shiladi va atrof-muhitni ifloslantiradi. Lekin, o‘g‘it qo‘llashning ilmiy asoslangan tizimini ilg‘or agrotexnikaviy tadbirlar va mehnatni tashkil etishning ilg‘or usullarini uyg‘unlashtirish asosida atrof muhitga zarar etkazmasdan kuzgi bug‘doydan mo‘l va sifatli hosil etishtirish mumkin.

N.Berdievaning tadqiqotlari natijalari asosida aniqlanishicha, 10 kunlik sug‘orish oraliqlari va 800m^3/ga suv sarfi bilan amalga oshirilgan sug‘orish eng yuqori hosildorlik (6,2 t/ga) va suvdan foydalanish samaradorligi (1,45 kg/m^3) ta'minlandi. Ushbu rejimda o‘simlikning suv bilan ta'minlanish darajasi optimal bo‘lib, tuproqdagi namlik balansini barqaror ushlab turish, ildiz tizimining normal rivojlanishi va fotosintez jarayonini uzluksiz davom etishini ta'minlangan.

M.Annaqulovning tadqiqot natijalariga ko‘ra, yomg‘irlatib sug‘orish usuli kuzgi bug‘doyning biometrik ko‘rsatkichlari va hosildorligini oshirishda eng samarali usul ekanligi kuzatilgan. ChDNS 75-80-70 sug‘orish rejimi va mos ravishda oziqlantirish me'yori NPK-180;90;60 kg/ga bo‘lganda eng yuqori natijaga erishilgan.[5]

Tuproqdagi namlikning kamayishi sug‘oriladigan erlardagi o‘simlikning azotni o‘zlashtirishiga katta qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun sug‘oriladigan erlarda azotli bilan o‘g‘itlarning etarli miqdorda bo‘lishi muhim hisoblanadi. Azotning

tuproqdagi miqdori sug‘orish usuliga ham bog‘liq. Agar ekin bostirib sug‘orilsa, tuproqdagi o‘g‘itning ko‘p qismi yo‘qoladi, azotning umumiy miqdori esa kamayadi.

Tuproq harorati turli ekinlarning hosil berishiga turlicha ta‘sir etadi. Masalan V.V.Butkevichning o‘g‘itlangan dalada o‘tkazgan tajribalariga ko‘ra, tuproq harorati 35°Cga etganda bug‘doydan olinadigan hosil pasaygan, o‘sha maydonda harorat 20°Cga tushirilgach, ushbu maydondan olinadigan bug‘doy hosili ancha oshgan.[6]. Biroq, tuproq haroratining pasayishi ma'lum darajada bo‘lishi lozim. Aks holda hosil tarkibidagi oqsil azoti foizi kamayib ketadi. Yomg‘irlatib sug‘orish natijasida sug‘oriladigan hududning mikroiqlimi o‘zgaradi. Quyosh energiyasining ko‘p qismi havoni isitishga emas, tuproq va o‘simliklardagi namni bug‘latishga sarflanadi. Shu tufayli sug‘oriladigan er yuzasiga yaqin havo qatlamining harorati pasayadi, o‘sha qatlamning nisbiy namligi esa sug‘orilmaydigan er yuzasiga yaqin havo qatlamining namligidan yuqori bo‘ladi. Havoning nisbiy namligi er yuzasidan 2 metr yuqoriga ko‘tarilmaydi. Haroratni pasaytirish va havoning nisbiy namligini oshirish jihatidan yomg‘irlatib sug‘orish usuli mikroiqlimga juda yaxshi ta‘sir qiladi. Havo namligining ortishi va haroratning pasayishi transpirasiya koeffisientini kamaytirib; o‘simlikda zarur moddalarning to‘planishini tezlashtirib,hosilni oshiradi.

Shuningdek, hosildorlikni belgilovchi asosiy omil bo‘lgan don vazniga ko‘plab omillar jumladan, don to‘lishish davomiyligi, don to‘lishish tezligi va tuproqdagi namlik va oziq moddalar balansi kuchli ta'sir qiladi. Yomg‘irlatib sug‘orishga asoslangan mikro-yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi yuqori natija beradi. Ushbu texnologiya so‘nggi yillarda g‘allachilikda bosqichma-bosqich qo‘llanilmoqda, suv hamda o‘g‘itni birgalikda qo‘llash orqali azotli (N) o‘g‘itlardan yanada samarali foydalanishga erishilyapti. Don to‘lishish davrida azotli o‘g‘it bilan birlashtirilgan yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasi an'anaviy sug‘orish bilan solishtirganda, tuproqning ustki qatlamida kerakli namlik va yuqori nitrat azot miqdorining saqlanib

qolishini ta'minlaydi, bu esa don to‘lishishi davrida quruq moddalar to‘planishini sezilarli darajada yaxshilaydi.

“The Crop Journal” jurnalining 2021 yil 6-sonidagi ushbu tizimga oid tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra sug‘orishni optimallashtirish kuzgi bug‘doyda barg qarishini kechiktirgan va gullashdan keyin barglarning fotosintez tezligini oshirgan, natijada don vazni va ekin hosildorligi yuqori bo‘lgan.[7]. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, don to‘lishish davridagi harorat don hosildorligiga katta ta'sir qiladi va don to‘lishish davrining o‘rtalarida dala mikroiqlimining salqinroq bo‘lishi kuzgi bug‘doy hosildorligini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Xulosa tariqasida, kuzgi bug‘doy hosildorligi va donning sifat ko‘rsatkichlariga sug‘orish texnologiyalarining samaradorligi bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish natijasida resurstejamkor sug‘orish texnologiyalari boshoqli don ekinlarida quyidagi afzalliklarni ko‘rsatdi:

-Suv resurslaridan ilmiy asoslangan usulda foydalanish orqali suv resurslari tejaladi.

-Tuproqda eroziya, sho‘rlanish va yuvilish jarayonlari sezilarli kamayishi natijasida uning meliorativ holati yaxshilanadi.

-Don tarkibida oqsil va kleykovina ortadi. Boshoqlash va gullash davrida purkalgan azot bevosita dondagi oqsil miqdorini oshirishga sarflanadi.

-Don to‘lish davrida bug‘doy ildizining ozuqa shimish qobiliyati pasayadi, barg orqali oziqlantirish esa ozuqa elementlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri donlarga etkazadi.

-Kleykovina miqdorining ortishi natijasida uning tarkibidagi glutenin va gliadin oqsillari miqdori ham ortib boradi va bu oqsillar unning pishish sifatini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.The Times of Central Asia. Fevral, 2024

2.World Bank Group web site. 2025.

3.N.N.Abduraximov, K.Temirov. Bahorgi sug‘orish sonining kuzgi bug‘doyning don hosildorligiga ta’siri. “Qishloq xo‘jalik ekinlari agrobiologiyasi yutuqlari, muammolari va istiqbollari”. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari to‘plami. 10-12 betlar. Toshkent-2015.

4. N.B. Berdiyeva. Kuzgi bug‘doyni yomg‘irlatib sug‘orish rejimlarini ishlab chiqish. Oktabr 2025. “Ilm-fan xabarnomasi”, 10-son.

5.M.M.Annakulov. Sug‘orish usullari va mineral o‘g‘it me’yorlarining kuzgi bug‘doy qishga chidamliligiga ta’siri. Yanvar 2026. “Innovatsion texnologiyalar”, 1-son.

6.V.V.Butkevich. Интенсивность бельковости и белковой продуктивности пщеници род влиянием агротехнических и природных факторов. 1950г. “ Сельхозгиз.”

7. The Crop Journal. Micri-sprinkling irrigation simultaneously improves grain yield and protein concentration of winter wheat in the North China Plain. Dekabr 2021. “ScienceDirect”, 9- son.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA “YASHIL IQTISODIYOT” MODELINI JORIY ETISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH TENDENSIYALARI

Bobojonov To‘lqinbek Maxmud o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tbobojonov.tb@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezis qishloq xo‘jaligi tizimlarida "yashil iqtisodiyot" prinsiplarini joriy etishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi, yer va suv resurslarining tanqisligi sharoitida agrosanoat majmuini ekologik barqarorlashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Jahon bankining statistik ma'lumotlariga asoslanib, an'anaviy qishloq xo‘jaligidan yashil modelga o‘tishning iqtisodiy samaradorligi va ekologik foydalari qiyosiy baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, resurs tejamkor texnologiyalar, xususan, tomchilatib sug‘orish va organik dehqonchilik nafaqat issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartiradi, balki uzoq muddatli istiqbolda hosildorlik va iqtisodiy rentabellikni sezilarli darajada oshiradi. Tezisda yashil o‘tish jarayonidagi institutsional to‘siqlar, moliyaviy muammolar muhokama qilinib, davlat subsidiyalari va ekologik ta'limni kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ekologik barqarorlik, resurs tejamkor texnologiyalar, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, karbonat angidrid emissiyasi.*

Аннотация. *Данная тезис направлена на глубокий анализ теоретических, методологических и практических аспектов внедрения принципов «зеленой*

экономики» в сельскохозяйственные системы. В условиях глобального изменения климата и дефицита земельно-водных ресурсов вопросы экологической стабилизации агропромышленного комплекса приобретают все большую актуальность. В исследовании на основе статистических данных Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН и Всемирного банка проведена сравнительная оценка экономической эффективности и экологических выгод перехода от традиционного сельского хозяйства к зеленой модели. Результаты исследования показывают, что ресурсосберегающие технологии, в частности капельное орошение и органическое земледелие, не только сокращают выбросы парниковых газов, но и значительно повышают урожайность и экономическую рентабельность в долгосрочной перспективе. В статье обсуждаются институциональные барьеры и финансовые проблемы в процессе зеленого перехода, а также разработаны научно обоснованные рекомендации по расширению государственных субсидий и экологического образования.

Ключевые слова: *зеленая экономика, сельское хозяйство, экологическая устойчивость, ресурсосберегающие технологии, изменение климата, продовольственная безопасность, выбросы углекислого газа.*

Annotation. *This thesis aims to provide an in-depth analysis of the theoretical, methodological, and practical aspects of implementing "green economy" principles in agricultural systems. In the context of global climate change and the scarcity of land and water resources, the ecological stabilization of the agro-industrial complex is becoming increasingly important. Based on statistical data from the Food and Agriculture Organization of the United Nations and the World Bank, the study comparatively evaluates the economic efficiency and ecological benefits of transitioning from traditional agriculture to a green model. The results indicate that resource-saving technologies, particularly drip irrigation and organic farming, not*

only reduce greenhouse gas emissions but also significantly increase crop yields and economic profitability in the long term. The thesis discusses institutional barriers and financial challenges during the green transition and develops scientifically grounded recommendations for expanding state subsidies and environmental education.

Keywords: *green economy, agriculture, ecological sustainability, resource-saving technologies, climate change, food security, carbon dioxide emissions.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va sayyora aholisining muttasil o‘sib borishi insoniyat oldiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, atrof-muhitni muhofaza qilishdek o‘ta murakkab vazifani qo‘ymoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hisobotlariga ko‘ra, bugungi kunda an'anaviy qishloq xo‘jaligi va yerdan foydalanish tizimlari global issiqxona gazlari tashlanmalarining qariyb 24 foizini, chuchuk suv iste'molining esa 70 foizdan ortig‘ini tashkil etadi [1]. Bu ko‘rsatkichlar mavjud ishlab chiqarish usullarining ekologik jihatdan nobarqaror ekanligini va qisqa muddatli iqtisodiy foyda ortidan quvish sayyoraning bio-hayoiy tizimlariga tuzatib bo‘lmas darajada zarar yetkazayotganini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi iqlimi qurg‘oqchil va suv resurslari cheklangan mintaqalarda qishloq xo‘jaligining ekologik barqarorligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy masala, balki milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. Shunday sharoitda, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) tomonidan ilgari surilgan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi agrosanoat majmuini rivojlantirishning yagona muqobil yo‘li sifatida e'tirof etilmoqda [2]. Yashil iqtisodiyot modelini qishloq xo‘jaligiga joriy etish iqtisodiy o‘sishni atrof-muhit degratatsiyasidan ajratish g‘oyasiga asoslanadi va bu jarayon tuproq unumdorligini tiklash, bioxilma-xillikni asrash hamda resurslar samaradorligini keskin oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llashning joriy holati va istiqboldagi tendensiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda resurs tejamkor texnologiyalarning iqtisodiy rentabelligi va ekologik samarasini amaliy ma'lumotlar asosida baholashdan iborat. Shuningdek, tezis an'anaviy agrar iqtisodiyotdan yashil modelga o‘tish yo‘lidagi asosiy institutsional, moliyaviy va ijtimoiy to‘siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha makroiqtisodiy yechimlarni taklif etishni ko‘zda tutadi. Ushbu muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokama qilinayotganiga qaramay, rivojlanayotgan davlatlar, xususan, O‘zbekiston sharoitida yashil agrotexnologiyalarni to‘liq joriy etishning kompleks iqtisodiy-ekologik bahosi hamon yetarli darajada o‘rganilmagan va ushbu tezis mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida qishloq xo‘jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolarini o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv hamda aralash metodologiya (mixed-methods) qo‘llanildi. Ilmiy izlanishning mantiqiy poydevori sifatida tizimli tahlil va qiyosiy iqtisodiy baholash usullaridan foydalanildi. Xususan, global va mintaqaviy tendensiyalarni obyektiv baholash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon banki, FAO hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018–2023-yillardagi ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan ikkilamchi raqamli ko‘rsatkichlar ekstrapolyatsiya va trend tahlili usullari orqali qayta ishlandi. Bunda asosiy e'tibor agrosanoat sohasida foydalanilayotgan suv hajmi, mineral o‘g‘itlar sarfi, yashil texnologiyalar bilan qamrab olingan ekin maydonlari ulushi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda ajralib chiqayotgan issiqxona gazlari (CO_2 ekvivalenti) dinamikasiga qaratildi.

Metodologiyaning ikkinchi qismi nazariy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimli tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategiyalari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish

konsepsiyalari hamda ularning xalqaro ekologik standartlarga mosligi qonunchilik hujjatlari asosida deduktiv usulda o‘rganildi. Shuningdek, xarajatlar va foydani tahlil qilish modeli asosida an'anaviy sug‘orish va dehqonchilik usullarining iqtisodiy-ekologik oqibatlari resurs tejamkor va organik dehqonchilik ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi. Bu orqali yashil iqtisodiyotning bevosita moddiy foydasidan tashqari, atrof-muhitga ijobiy ta'siri kabi yashirin iqtisodiy qadriyatlar ham umumiy natijadorlik doirasiga kiritildi. Tahlillar davomida har qanday ma'lumotlarning ishonchliligi va obyektiyvligini ta'minlash maqsadida faqat tasdiqlangan, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan metodologik qo‘llanmalar va rasmiy statisika ma'lumotlariga tayanish qat'iy belgilab olindi.

NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va "yashil" tamoyillarga o‘tkazish jarayoni oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish rentabelligi va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tubdan o‘zgartirmoqda. FAO ma'lumotlari tahliliga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida an'anaviy dehqonchilik tizimiga asoslangan hududlarda tuproqning sho‘rlanishi va eroziyasi oqibatida hosildorlik yiliga o‘rtacha 1,5-2 foizga pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa, innovatsion va ekologik toza yondashuvlar qo‘llanilgan hududlarda bu ko‘rsatkich ijobiy o‘sishni namoyish etgan. Yashil iqtisodiyot modelining qishloq xo‘jaligidagi eng ko‘zga ko‘ringan elementi bo‘lmish suv tejovchi texnologiyalar amaliyotini o‘rganish g‘oyatda qiziqarli natijalarni berdi. Xususan, global iqlim o‘zgarishi oqibatida suv resurslari taqchilligi keskinlashgan sharoitda, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarining joriy etilishi nafaqat ekologik stressni kamaytirmoqda, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlarning eksponensial o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu iqtisodiy va ekologik transformatsiya natijalarini raqamli ko‘rsatkichlar orqali aniqroq ifodalash maqsadida quyida an'anaviy dehqonchilik hamda resurs tejamkor yashil texnologiyalar o‘rtasidagi qiyosiy tahlil natijalari keltirilgan.

Jadvaldagi ma'lumotlar Jahon banki va mintaqaviy qishloq xo‘jaligi monitoringi hisobotlaridan olingan o‘rtacha ko‘rsatkichlar asosida shakllantirilgan [3].

1-jadval. Qishloq xo‘jaligida an'anaviy va yashil texnologiyalar samaradorligining qiyosiy ko'rsatkichlari (1 gektar ekin maydoni misolida)

Asosiy ko‘rsatkichlar (Indikatorlar)	An'anaviy dehqonchilik usuli (Egatlab sug‘orish va kimyoviy o‘g‘itlar)	Yashil iqtisodiyot modeli (Tomchilatib sug‘orish va biologik o‘g‘itlar)	Tizimli ekologik va iqtisodiy farq (Samaradorlik darajasi)
Suv resurslari sarfi (m^3)	8 500 – 10 000	4 000 – 5 500	Suv sarfi 45-50% ga qisqaradi, er osti suvlari zaxirasi saqlanadi.
Mineral va kimyoviy o‘g‘itlar sarfi (kg)	400 – 600 (azot, fosfor va b.)	150 – 200 (asosan organik va bio-o‘g‘itlar)	Kimyoviy moddalar hajmi 60-70% ga kamayadi, tuproq degradatsiyasi to‘xtaydi.
O‘rtacha hosildorlik (paxta/g‘alla, sentner)	25 – 35	40 – 55	Hosildorlik 30-40% ga oshadi, mahsulot sifati (ekologik tozaligi) ta'minlanadi.
Energiya sarfi va issiqxona gazlari (CO2 ekv.)	Yuqori darajada (nasos stansiyalari va texnika tufayli)	O‘rtacha past (quyosh panellari va avtomatika qo‘llanilganda)	Karbonat angidrid tashlanmalari taxminan 30-35% ga qisqaradi.
Tuproqning meliorativ holati o‘zgarishi	Sho‘rlanish, yemirilish va mikroflora yo‘qolishi xavfi mavjud	Tuproq unumdorligining tiklanishi va	Ekologik tizimning o‘zini o‘zi tiklash xususiyati

		mikrobiologik faollik o‘sishi	(rezilyentlik) faollashadi.

Jadval ma'lumotlaridan ochiq ko‘rinib turibdiki, yashil modelga o‘tish jarayonining eng katta afzalligi "Suv-Energiya-Oziq-ovqat nexusi" barqarorligini ta'minlashda namoyon bo‘ladi. Kimyoviy o‘g‘itlar o‘rniga biologik faol vositalardan, jumladan, mahalliy organik kompostlar va biogumusdan foydalanish tuproq tarkibidagi gumus miqdorini tabiiy usulda ko‘paytirishga xizmat qiladi. Buning natijasida tuproqning suv ushlash qobiliyati yaxshilanadi va yuzaki oqova suvlar bilan sodir bo‘ladigan azot va fosfor birikmalarining daryo va ko‘llarga yuvilib tushishi (evtrofikatsiya jarayoni) keskin kamayadi. Statistika agentligining so‘nggi yillardagi ma'lumotlari tahlili ham respublikada suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydonlarning kengayishi hisobiga milliardlab kub metr chuchuk suv tejalganini va bu agrosanoat subyektlarining qo‘shimcha moliyaviy daromad olishiga zamin yaratganini ko‘rsatmoqda [7]. Iqtisodiy tahlillar tasdiqlaydiki, yashil texnologiyalarni joriy etishdagi dastlabki kapital xarajatlar yuqori bo‘lishiga qaramay, 2-3 yillik ishlab chiqarish siklidan so‘ng olingan sof foyda va tejalgan resurslar qiymati kiritilgan sarmoyani to‘liq oqlaydi va barqaror foyda normasini ta'minlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, garchi "yashil iqtisodiyot"ning qishloq xo‘jaligidagi afzalliklari nazariy jihatdan shubhasiz bo‘lsada, uni keng ko‘lamda amaliyotga joriy etish o‘ta ziddiyatli va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi [5]. Birinchi navbatda, yashil transformatsiya yuqori miqdordagi dastlabki investitsiyalarni talab qiladi. Rivojlanayotgan davlatlardagi aksariyat kichik fermer xo‘jaliklari tomchilatib sug‘orish uskunalarini o‘rnatish, quyosh panellarini xarid qilish yoki xalqaro organik sertifikatlarni qo‘lga kiritish uchun yetarli boshlang‘ich sarmoyaga ega emas. Bu holat an'anaviy iqtisodiyot nazariyasida "bozordagi muvaffaqiyatsizlik" sifatida talqin etiladi, chunki xususiy sektor atrof-muhitni asrash kabi ijtimoiy ne'matni yaratish xarajatlarini to‘liq o‘z zimmasiga olishni xohlamaydi

[6]. Ushbu o‘rinda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi institutsional zaruratga aylanadi. Mintaqadagi davlatlar tomonidan suv tejovchi texnologiyalar uchun joriy etilgan subsidiyalash mexanizmlari qisman ijobiy samara berayotgan bo‘lsada, ularni taqsimlashda byurokratik to‘siqlar va moliyaviy resurslarning doimiy taqchilligi kuzatilmoqda.

Yana bir muhim jihat ekologik ta'lim va innovatsion malakaning yetishmasligi bilan bog‘liq. Fermerlarning uzoq yillar davomida an'anaviy, ko‘p suv talab qiladigan va kimyoviy o‘g‘itlarga tayangan agrotexnikalarga moslashgani yashil texnologiyalarni idrok etish va to‘g‘ri ekspluatatsiya qilishda kognitiv to‘siqlarni keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi faqatgina yerni ishlash emas, balki "aqlli dehqonchilik" sensorlar, datchiklar, dronlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi. Xalqaro tajriba, masalan Isroil yoki Niderlandiya misoli shuni ko‘rsatadiki, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasisiz yashil iqtisodiyot maqsadlariga erishib bo‘lmaydi. Qolaversa, muhokama natijasida shu narsa oydinlashdiki, organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki va tashqi bozor infratuzilmasi takomillashtirilishi zarur. Organik mahsulotlarning tannarxi an'anaviy mahsulotlarga nisbatan yuqori bo‘lgani sababli, aholining xarid qobiliyati va yashil iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonga bevosita ta'sir ko‘rsatuvchi eng muhim iqtisodiy drayverlardan biri sanaladi. Shuningdek, global qishloq xo‘jaligi siyosatida issiqxona gazlariga nisbatan uglerod solig‘ini joriy etish yoki emissiya kvotalari savdosini yo‘lga qo‘yish kabi iqtisodiy instrumentlar orqali an'anaviy va ekologik zararli faoliyatni moliyaviy jihatdan samarasiz holatga keltirish istiqbollari chuqur o‘rganilishi lozim.

XULOSA

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan kompleks ilmiy, tahliliy va statistik o‘rganishlar asosida qishloq xo‘jaligida "yashil iqtisodiyot" modelini joriy etish uzluksiz, hayotiy muhim va ortga qaytmas tendensiya ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Iqlim o‘zgarishi va

degradatsiya sharoitida eski, an'anaviy dehqonchilik usullarida davom etish nafaqat atrof-muhitni halokatga olib boradi, balki uzoq muddatda chuqur oziq-ovqat inqiroziga va agrosanoat sektorining bankrotligiga sabab bo‘ladi. Yashil texnologiyalar, ayniqsa, suvni tejaydigan innovatsion tizimlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan agro-logistika va organik dehqonchilik iqtisodiy o‘sish bilan ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi oltin muvozanatni ta'minlovchi yagona mexanizmdir.

Ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosati va agrosanoat islohotlarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi [4]. Birinchidan, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish, bunda nafaqat davlat byudjeti subsidiyalari, balki xalqaro ekologik fondlar, yashil obligatsiyalar va venchur kapitali kabi muqobil moliyaviy vositalarni keng jalb etish lozim. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi hududlarida konsalting xizmatlarini tubdan yangilash, klasterlar va fermer xo‘jaliklari qoshida innovatsion agrotexnologiyalarni o‘rgatuvchi amaliy-informatsion markazlarni tashkil etish talab etiladi. Uchinchidan, ekologik sof mahsulotlar bozori infratuzilmasini yaratishda davlat standartlarini xalqaro (GlobalGAP, Organic) talablarga to‘liq moslashtirish hamda eksportyorlarni iqtisodiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish yashil iqtisodiyotga o‘tish dinamikasini bir necha barobar tezlashtiradi. Yakuniy xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, qishloq xo‘jaligining yashil transformatsiyasi bir kunlik kompaniya emas, balki kuchli siyosiy iroda, davlat va xususiy sektorning birgalikdagi institutsional hamkorligini talab qiluvchi evolyutsion tadrijiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO). Jahon oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi holati: qishloq xo‘jaligi tizimlarida innovatsiyalarni joriy etish va barqarorlik. – Rim: FAO nashriyoti, 2022.
2. BMT Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP). Yashil iqtisodiyotga o‘tish: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni bartaraf etish yo‘llari. – Jeneva: UNEP, 2011.

3. Jahon banki guruhi. Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligining moslashuvi: iqtisodiy tahlil va siyosiy tavsiyalar. – Vashington: Jahon banki, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida: 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaror. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
5. Xo‘jayev Sh., Rahmatov A. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy-ekologik istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2021. – № 5(3). – B. 112–124.
6. Pearce D. W., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan Publications, 2013.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit indikatorlari yillik to‘plami. – Toshkent: Statistika agentligi axborot xizmati, 2024.

SUV OBYEKTLARINI YOPIQ TIZIMGA O‘TKAZISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Suyunov Sharofiddin Isroil o‘g‘li
“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy - loyihalash instituti
suyunovsharofiddin12@gmail.com

Annotasiya. *Mazkur maqolada suv resurslarini boshqarishda yopiq tizim (closed-loop water system) yondashuvining ahamiyati va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Isroil, Singapur, Ispaniya va Yevropa davlatlarida suvni qayta ishlash, qayta foydalanish va samarali boshqarish mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari suv tanqisligi sharoitida yopiq suv aylanish tizimlari barqaror rivojlanishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *suv resurslari, yopiq tizim, qayta foydalanish, oqova suv, irrigatsiya, suv boshqaruvi.*

Аннотация *. В данной статье анализируется значение подхода замкнутых систем водопользования в управлении водными ресурсами, а также рассматривается опыт зарубежных стран. Изучены механизмы очистки, повторного использования воды и эффективного управления в Израиле, Сингапуре, Испании и странах Европы. Результаты исследования показывают, что замкнутые системы водооборота являются важным фактором устойчивого развития в условиях дефицита водных ресурсов.*

Ключевые слова: *водные ресурсы, замкнутая система, повторное использование воды, сточные воды, орошение, управление водными ресурсами.*

Abstract. *This article analyzes the importance of the closed-loop water system approach in water resource management and examines the experience of foreign countries. The study explores mechanisms for water treatment, reuse, and efficient*

management in Israel, Singapore, Spain, and European countries. The research findings demonstrate that closed-loop water circulation systems are a key factor for sustainable development under conditions of water scarcity.

Key words: *water resources, closed-loop system, water reuse, wastewater, irrigation, water management.*

Kirish. Global miqyosda suv tanqisligi muammosi tobora kuchayib bormoqda. Jahon aholining katta qismi suv yetishmovchiligi sharoitida yashamoqda. Shu bilan birga, dunyoda hosil bo‘layotgan oqova suvlarning 80% dan ortig‘i tozalamasdan tabiiy suv obyektlariga tashlanadi. Bunday sharoitda suv resurslaridan samarali foydalanishning eng muhim yo‘llaridan biri — suv obyektlarini yopiq tizim asosida boshqarishdir. Bu tizim suvni qayta ishlash, qayta foydalanish va resurslarni tejashga asoslanadi.

Yopiq suv tizimining mohiyati. Yopiq suv tizimi — bu suv resurslarining qayta aylanishini ta’minlovchi boshqaruv modeli bo‘lib, unda:

- oqova suvlar tozalanadi,
- qayta foydalaniladi,
- suv sikli maksimal darajada yopiq holga keltiriladi.

Yevropa Ittifoqi ma’lumotlariga ko‘ra, qayta ishlangan suv suv resurslariga bosimni kamaytiradi va iqlim o‘zgarishiga moslashishda muhim rol o‘ynaydi

Adabiyotlar tahlili. Suv resurslarini boshqarishda yopiq tizim (closed-loop water system) yondashuvi so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda. Xususan, World Bank hisobotlarida suvni qayta foydalanish global suv tanqisligini kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Unga ko‘ra, dunyo bo‘yicha oqova suvlarning katta qismi hali ham tozalamasdan tashlanmoqda, bu esa suv resurslariga bo‘lgan bosimni oshirmoqda.

Yevropa hududida olib borilgan tadqiqotlarda European Commission tomonidan suvni qayta ishlash va undan qayta foydalanish siyosati iqlim o‘zgarishiga

moslashishning asosiy elementlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqotlarda qayta ishlangan suvdan irrigatsiyada foydalanish suv tanqisligi muammosini sezilarli darajada kamaytirishi ta’kidlanadi.

Isroil tajribasi bo‘yicha ilmiy ishlarda Ehud Friedler tomonidan suvni qayta foydalanish tizimi milliy suv boshqaruvining ajralmas qismi sifatida tahlil qilingan. Muallifning ta’kidlashicha, ushbu mamlakatda oqova suvlarning katta qismi tozalanib, qishloq xo‘jaligida qayta ishlatiladi va bu yopiq suv aylanish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy manbalarda suvni qayta ishlash texnologiyalari — membrana filtratsiyasi, teskari osmos va biologik tozalash usullari — yopiq tizim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. International Finance Corporation va Global Water Intelligence tashkilotlari tomonidan olib borilgan tahlillarda ushbu texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta’minlashi qayd etilgan.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda suvni qayta foydalanishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, suvni qayta foydalanish bozorlarini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellari va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yopiq tizimlarni keng joriy etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, suv obyektlarini yopiq tizimga o‘tkazish:

- suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi;
- ekologik barqarorlikni oshiradi;
- iqlim o‘zgarishi sharoitida muhim adaptatsiya chorasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda texnologik, moliyaviy va institutsional to‘siqlar mavjudligi ham qayd etilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha kompleks yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.

Isroil tajribasi. Isroil yopiq suv tizimi bo‘yicha dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi.

- Oqartirilgan oqova suvning **65–90% gacha qismi qayta ishlatiladi**

- Zamonaviy texnologiyalar orqali deyarli barcha suv resurslari qayta aylanishga jalb qilingan

Asosiy texnologiyalar:

- biologik va mexanik tozalash

- membrana filtratsiyasi

- tuproq orqali tabiiy filtratsiya (SAT)

Natijada, Isroil suvdan ikki marta foydalanishga erishgan yopiq tizim modelini yaratdi.

Singapur tajribasi. Singapurda “NEWater” tizimi yopiq suv aylanishining muvaffaqiyatli modeli hisoblanadi.

- qayta ishlangan suv milliy suv ta’minotining muhim qismini tashkil etadi

Texnologiyalar:

- mikrofiltratsiya

- teskari osmos (RO)

- ultrabinafsha dezinfeksiya

Bu tizim sanoat, kommunal xo‘jalik va ichimlik suvi ta’minotida qo‘llaniladi.

Yevropa davlatlari tajribasi. Yevropa davlatlarida suvni qayta foydalanish keng joriy etilgan:

- yiliga taxminan **1 mlrd m³ suv qayta ishlatiladi**

- suv tanqis hududlarda (Ispaniya, Italiya, Gretsiya) irrigatsiyada faol qo‘llaniladi

Biroq hozirgi foydalanish darajasi potensialdan 6 baravar kamligi qayd etilgan.

AQSh (Kaliforniya) tajribasi. AQShda yopiq suv tizimining zamonaviy modeli sifatida:

- oqova suv ichimlik darajasigacha tozalanadi

- qayta ishlangan suv yer osti qatlamlariga yuboriladi

Masalan, Orange County loyihasi hudud suv ta’minotining katta qismini ta’minlaydi .

Xalqaro tajribani umumlashtirish. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, quyidagi omillar yopiq tizim samaradorligini belgilaydi:

- yuqori texnologiyalar (membrana, RO, UV)
- qat’iy normativ-huquqiy baza
- davlat va xususiy sektor hamkorligi
- aqlli boshqaruv tizimlari

Natijalar va muhokama

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki:

1. Yopiq tizim suv resurslarini 2–3 barobar samarali ishlatish imkonini beradi
2. Qishloq xo‘jaligida suv iste’molini sezilarli kamaytiradi
3. Ekologik barqarorlikni ta’minlaydi

Shu bilan birga, quyidagi muammolar mavjud:

- yuqori investitsiya talabi
- texnologik murakkablik
- sanitariya va xavfsizlik talablari

Xulosa. Suv obyektlarini yopiq tizimga o‘tkazish xorijiy davlatlar tajribasida o‘zining yuqori samaradorligini isbotlagan. Isroil, Singapur va Yevropa davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suvni qayta ishlash va qayta foydalanish kelajakda suv tanqisligini bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tajribalarni joriy etish:

- suv resurslarini tejash
- irrigatsiya samaradorligini oshirish
- ekologik muvozanatni saqlash imkonini beradi

Kelgusida suv boshqaruvini takomillashtirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. United Nations Development Programme. Water resources management in Uzbekistan. – New York, 2020.
2. World Bank. Uzbekistan: Modernizing the irrigation sector. – Washington DC, 2019.
3. FAO. Irrigation in Central Asia in figures: AQUASTAT Survey. – Rome, 2018.
4. European Commission. Water Reuse.
5. World Bank. Water reuse and closed-loop systems.
6. Friedler E. Water reuse in Israel.
7. Envisioning Grid. Israel wastewater recycling.
8. AZU Water. Water reuse in EU.

TUMAN YER TUZISH CHIZMASINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Zaripboyeva Maftuna Umidjon qizi
“O‘zdavyerloyiha” DILI
maftuna.zaripboyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqishning bosqichlari, maqsadlari, vazifalari va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish hamda hududiy infratuzilmani samarali tashkil etishda mazkur chizmaning roli atroflicha yoritiladi. Maqola sohada erishilgan ilg‘or tajribalar va innovatsion yondashuvlarni umumlashtirib, yer tuzish chizmasining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Yer tuzish chizmasi, yer resurslari, oqilona foydalanish, ekologik barqarorlik, qishloq xo‘jaligi, hududiy rivojlanish, kartografiya, kadastr.*

Kirish. Yer resurslari har qanday davlatning milliy boyligi bo‘lib, ulardan samarali foydalanish barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligining asosiy shartidir. O‘zbekistonda dehqonchilik va qishloq xo‘jaligi sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, yer resurslarini boshqarish, ularning unumdorligini oshirish va muhofaza qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tuman yer tuzish chizmalari strategik rejalashtirishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu chizmalar nafaqat mavjud yer fondidan oqilona foydalanishni ta’minlash, balki kelajak avlodlar uchun ham yerning ekologik barqarorligini saqlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishlari, urbanizatsiya jarayonlari va aholi sonining

o‘sishi yer resurslariga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Bu esa yer tuzish ishlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirib, ularni ilmiy asosda, innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etishni taqozo etadi. Maqolada tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqishning kompleks yondashuvlari, asosiy bosqichlari va natijalari chuqur tahlil qilinadi.

Tuman yer tuzish chizmasining mohiyati va maqsadlari. Tuman yer tuzish chizmasi – bu reja oldi va loyiha oldi hujjati bo‘lib, u tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda yer resurslaridan oqilona foydalanish, yaxshilash va rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish loyihasidir. Unda tuman qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etish hamda hududning rivojlanish ehtiyojlariga javob beradigan infratuzilmani shakllantirish nazarda tutiladi. Istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

-yerdan foydalanish samaradorligini oshirish.

-yerlarni muhofaza qilish.

-yer munosabatlarini tartibga solish.

-tabiiy muhitni asrash, yaxshilash va hududni kompleks rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish.

Bu chizma ilmiy-texnikaviy, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, viloyatda yer islohotini ilmiy asosda amalga oshirishda asosiy hujjat hisoblanadi. U yerlarning agroekologik yaroqliligiga mos ravishda to‘liq foydalanishni, sanoat, energetika va transport uchun yerdan tejab foydalanishni, kichik va o‘rta aholi punktlarining iqtisodiy rolini oshirishni hamda qishloq hududlarini kompleks rivojlantirishni ta’minlaydi.

Tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqishning asosiy vazifalari va bosqichlari: Tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqish bir qator muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bularga yerdan foydalanish va uning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish, hududning iqtisodiy-geografik, ijtimoiy, demografik va ekologik

tavsifini baholash, yer fondidan foydalanishning umumiy strategiyasi va konsepsiyasini ishlab chiqish kiradi. Shuningdek, chizma yerdan foydalanishdagi mavjud muammolarni tahlil qilish, yerlarni tarmoqlararo qayta taqsimlash va yer resurslaridan foydalanish intensivligini oshirish bo‘yicha aniq takliflar beradi.

Yer tuzish chizmasi quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Hudud haqida umumiy ma’lumot.
2. Tuman tabiiy sharoitlarining xususiyatlari.
3. Yer resurslarining holati, taqsimlanishi va foydalanish istiqbollari.
4. Tuman agrosanoat majmuasini rivojlantirish va joylashtirish.
5. Hududlarda yerdan foydalanishni yaxshilash rejasi.
6. Aholi punktlari va ishlab chiqarish markazlarining rivojlanishi va joylashishi.
7. Yo‘l tarmog‘ini rivojlantirish va joylashtirish.
8. Hududni tashkil etish va rivojlantirish rejasi.
9. Atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari rejasi.
10. Chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi va chizmaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.
11. Chizmani joyga ko‘chirish rejasi.

Tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

I. Tayyorgarlik ishlari: Bu bosqichda tuman hokimi farmoyishi bilan Ishchi guruh tuzish, tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqishga topshiriqnoma tayyorlash hamda quyidagi hujjat va materiallarni to‘plash, o‘rganish va tahlil qilish amalga oshiriladi:

- tuman yer fondi toifalari bo‘yicha yerlardan foydalanish holati va foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

- “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti arxivlaridagi mavjud ma’lumotlar, kosmik suratlar va kartografik materiallar.

- aholini demografiyasi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, urbanizatsiya jarayoni, tuman ixtisoslashuvi, iqlim, yer, suv, mehnat resurslari, aholi punktlari chegaralari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari to‘g‘risida ma’lumotlar.

- sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati, meliorativ tadbirlar, yangi o‘zlashtirilgan yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar xaqida ma’lumot.

- tuproq, meliorativ, geobotanik tadqiqotlar, degradatsiya jarayonlari hamda xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik yer tuzish loyiha hujjatlari.

- qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, yer normal qiymati va monitoringi haqidagi ma’lumotlar.

- bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari holati.

- tumanlarning tasdiqlangan Yer hisoboti ma’lumotlari, tuman yer eksplikatsiyasi, UZCAD dasturidagi ma’lumotlar.

- tuman navbatchi xaritasi, elektron raqamli xaritalar, muhofaza etiladigan hududlar, o‘rmon va suv fondi yerlari chegaralari to‘g‘risidagi hujjatlar.

II. Dala kuzatuv ishlari: Ushbu bosqichda yerdan foydalanuvchilarning mavjud yer maydonlari yer turlari bo‘yicha xatlovdan o‘tkaziladi. Natijalar tasdiqlangan yer hisobotiga solishtiriladi va o‘zgarishlar joyida zamonaviy o‘lchash vositalaridan foydalangan holda xaritalarga tushiriladi. Dala kuzatuvlari Qishloq xo‘jaligi, Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi va tegishli yerdan foydalanuvchilar ishtirokida o‘tkaziladi. Bu jarayonda quyidagilar aniqlanadi va xaritalarga kiritiladi:

-yerdan foydalanuvchi va ijarachilarning nomi, chegaralari, shu jumladan dehqon xo‘jaliklariga ajratilgan yer uchastkalari.

-yangi va qaytadan o‘zlashtirilgan yerlar, meliorativ holati og‘ir bo‘lgan yerlar, qishloq xo‘jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlar, yaroqsiz holatga kelib qolgan ko‘p yillik daraxtzorlar, rekultivatsiya qilinadigan yerlar.

-noqishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan yerlar, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining chegaralari va holati.

-davlat ro‘yxatiga olinmagan yer uchastkalari aniqlanib, ularning holati xaritalarda belgilanadi.

-yer fondi toifalaridagi noaniqliklar dala sharoitida qayta o‘rganiladi.

III. Kameral ishlar: Bu bosqichda tuman yer tuzish chizmasining loyihasi yozma va kartografik qismlarda tayyorlanadi.

Matn qismi: Tuman tabiiy-iqlim sharoitlari, tuproqlar tavsifi, yerlardan foydalanish holati, yer fondi toifalari va turlari, tahlil natijalari, o‘zgarish dinamikasi, ma’muriy-hududiy bo‘linish, aholi punktlari va sanoat korxonalarining rivojlanishi bahosi, yer fondini istiqbolga taqsimlash balansi, suv xo‘jaligi, agrosanoat majmuasining joylashuvi va rivojlanish istiqbollari, yerlarni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish, eroziyaga qarshi tadbirlar, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish kabi masalalar aks ettiriladi.

Kartografik qismi: Tuman 1:10 000 yoki 1:25 000 masshtabdagi elektron raqamli xaritasi, yerdan haqiqatda foydalanilishi va istiqboldagi yo‘nalishlari ko‘rsatiladi. Shuningdek, tematik xaritalar (tuproq, irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari, ma’muriy-hududiy birliklar) va tushuntirish xati, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati kiritiladi.

IV. Kelishish va tasdiqlash: Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan yer tuzish chizmasi loyihasi manfaatdor davlat idoralari va tashkilotlariga (Qishloq xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirliklari, Kadastr agentligi va Davlat kadastrlar palatasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy bo‘linmalari va boshqalar) ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etiladi. Keyin tuman hokimi tuman Ishchi guruhi bilan ko‘rib chiqadi va tuman Xalq deputatlari Kengashining navbatdagi yig‘ilishi muhokamasiga kiritadi. Tasdiqlangan loyiha keyinchalik Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyatlar hokimliklariga taqdim etiladi va yakuniy qaror qabul qilinadi.

V. Ish natijalarini taqdim etish: Tasdiqlangan tuman yer tuzish chizmasi loyihasi bo‘yicha 4 nusxada hujjatlar tayyorlanib, tegishli arxivlarga va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga topshiriladi.

Tuman yer tuzish chizmasining afzalliklari va kutilayotgan natijalar. Tuman yer tuzish chizmasini sifatli ishlab chiqish hududni uzoq muddatli rivojlantirish va barqaror boshqaruvni ta’minlovchi muhim vositadir. Bu chizma bir qator afzalliklarni ta’minlaydi:

-hududdan foydalanishning muvofiqlashtirilgan tartibini yaratadi. Bu yerlarni haosli va befoyda ishlatishning oldini oladi.

-yer resurslarining isrofgarchiligiga yo‘l qo‘ymaydi. Samarali rejalashtirish orqali yer maydonlaridan maksimal darajada foydalanishga erishiladi.

-qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Ekin maydonlarini to‘g‘ri taqsimlash, tuproq unumdorligini oshirish va sug‘orish tizimini takomillashtirish orqali hosildorlikni oshiradi.

-ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, eroziyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, tabiiy landshaftlarni saqlash va tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

-aholi yashash sifati va iqtisodiy faoliyat uchun zamin yaratadi. Ishlab chiqarish obyektlarini, aholi punktlarini va infratuzilmani optimal joylashtirish orqali aholi turmush sharoiti yaxshilanadi.

Ushbu chizmani ishlab chiqish orqali qishloq xo‘jaligi, sanoat, rekreasiya, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, uy-joy qurilishi va chiziqli obyektlar uchun yer resurslariga bo‘lgan ehtiyoj ilmiy asoslanadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi oborotiga yangi yerlarni kiritish, yerlarni tarmoqlararo qayta taqsimlash, tuproq unumdorligini saqlash va

oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda kapital xarajatlar va mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash kabi asosiy masalalar hal etiladi.

Xulosa. Tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqish hududdagi yer resurslaridan uzoq muddatli va samarali foydalanishni ta’minlaydigan muhim hujjatdir. U hududni uzoq muddatli rivojlantirish va barqaror boshqaruvni ta’minlovchi fundamental vosita hisoblanadi. Uni sifatli ishlab chiqish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tuman yer tuzish chizmasini ishlab chiqish murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u turli soha mutaxassislarining hamkorligini talab etadi. Kelgusida yer tuzish ishlariga zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar (GAT), masofadan zondlash usullari va raqamli modellashtirishni keng joriy etish orqali chizmalarning aniqligi, samaradorligi va tezkorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu yondashuvlar yer resurslarini boshqarishda yangi imkoniyatlar ochib beradi va hududning barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot.

3. Avezbayev S, Volkov S.N. Yer tuzishning ilmiy asoslari: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. — 176b.

4. Avezbayev S, Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004. - 784 b.

5. X.Nomozov, Y.Qoraxonova, O.Amonov. Yer resurslaridan foydalanish va himoyalash: O‘quv qo‘llanma.- Toshkent-2011.

6. R.A.Turayev, G‘.T.Parpiyev, Q.M.Hojiyev. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasi. - Toshkent: “Zilol buloq” nashriyoti, 52 b.

7. Turayev R.A. Sug‘oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish: T.f.d. diss.avtoreferati. - Toshkent, 2021. - 28 s.

8. O‘zbekiston Iqtisodiy tadqiqotlar markazi, www.cyer.uz

9. Sharopov R.N., Zaripboyeva M.U. Respublika tumanlarining istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish “O‘zbekiston zamini” jurnali 2024-yil 1-son 75-78 b

10. Nurmatov N.J Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: O‘quv qo‘llanma T 2011

ҚИШКИ ИЛДИЗМЕВАЛАРНИ СУҒОРИШ ВА УРУҒ ҲОСИЛДОРЛИГИ

Ботиров Хидир Фаезиевич

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

E-mail: xidir_batirov@mail.ru

Рахматов Баходир Бахтияр угли

Шароф Рашидовномидаги Самарканд давлат университети

E-mail:bahodirrahmatov8040@gmail.com

Хурсанкулов Хуршид Хидир угли

Шароф Рашидов номидаги Самарканд давлат университети

E-mail: xurshidbekh2o1@gmail.com.

Аннотация.*Мақолада Самарқанд вилоятининг суғориладиган ерлари шароитида илдизмеваларни қиш даврида уруғликка ўстиришнинг экологик жиҳатлари баён қилинган бўлиб, унда экиннинг қишлаш даражаси ва эрта баҳорги ўсиш-ривожланиши, шунингдек, баҳорги ҳолатлари, уруғ маҳсулдорлиги ҳамда уларнинг сифаткўрсаткичлари борасида қизиқварли илмий маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *илдизмевалар, куз-қиш ва баҳорги даври, қишлаш даражаси, эрта баҳорги ўсиш-ривожланиши, уруғ маҳсулдорлиги ва сифат кўрсаткичлари;*

Аннотация. *В статье описываются экологические аспекты выращивания корнеплодов на семя в зимний период в условиях орошаемых земель Самаркандской области, содержится интересная научная информация о степени зимовки и ранневесеннего роста и развития культуры, а также о весенних условиях, семенной продуктивности и показателях их качества.*

Ключевые слова: *клубни, осенне-зимний и весенний периоды, степень зимовки, ранневесенний рост и развитие, семенная продуктивность и показатели качества;*

Abstract. *The article describes the ecological aspects of winter seed cultivation of root crops in the conditions of irrigated lands of the Samarkand region, and provides interesting scientific data on the degree of wintering and early spring growth and development of the crop, as well as spring conditions, seed productivity and their quality indicators.*

Keywords*: root crops, autumn-winter and spring period, degree of wintering, early spring growth and development, seed productivity and quality indicators;*

Кириш.Илдизмеваларни уруғликка ўстиришнинг муҳим шартларидан бири уруғ майсалашидан қишга қадар ўсимлик туп сонини тўлиқ сақлаш ва уни қишнинг ноқулай иқлим шароитларига таёрлашдан иборат бўлмоғи зарур. Бу эса биринчи навбатда, муайян тупроқ-иқлим шароитларидан ташқари ёш ниҳоллар учун озиқланиш ва айниқса, етарли нам билан таъминлаш муҳим ҳисобланадики, бундай ҳол ўзига хос хусусиятидан дарак беради.

Куз-қиш ва қиш палласида илдизмеваларни суғориш алоҳида хусусиятга эга бўлиб, бу даврда ўсимликларнинг ўсиш ва қишлаши билан боғлиқ жараён рўй беради. Бундан ташқари, мазкур экинлар қишга қадар фақат барг тўплам фазасини ўтайди ва шу ушбу палла ўсимлик маҳсулдорлиги билан бевосита боғлиқдир. Демак, бошқа экинлар сингари қишки илдизмева вакиллари ҳам

мақбул суғоришга эҳтиёж сезади.Бироқ шунга қарамай илдизмевалар куз-қиш давридаги сингари эрта баҳор, баҳор ва ёз давридаги у ёки бу даражада намга бўлган талаби етарли даражада ўрганилмагандир.

Ана шуни ҳисобга олиб биз Зарафшон воҳасининг суғориладиган ерлари шароитида изланишлар олиб бордик. Тадқиқот мақсади вилоятнинг суғориладиган ерлари шароитида илдизмевалар уруғини қишда ўстиришнинг био-экологик имкониятлари назарда тутилди.

Тадқиқотлар тўрт такрорли, икки поғонали, майдончалар эса кетма-кет тартибда жойлаштирилди. Ҳисоблаш майдони 50 $м^2$ бўлди. Биометрик ўлчашлар, анализ ва фенологик кузатувлар 100 та намуна ўсимликларда, тоқ қайтариқларда,тупроқ намлиги қуритгич шкафи (105 ^0C) да қуритилиб, доимий оғирликгача тарозида тортиш орқали, фенологик кузатувлар, ўсимлик туп сонини аниқлаш ва уларнинг қиш даврида совуққа чалиниш даражаси ва агротехнологиялари минтақага мос равишда ўтказилди.

Олинган натижалар ва муҳокамаси. Бу борадаги олинган маълумотлар қуйидаги жадвалда келтирилган. Бундан ташқари, кузда майсаларни суғориш натижасида тупроқ нам билан бир текис таъминланиб, бу кейинчалик уларнинг ноқулай об-ҳаво шароити (қиш даври), касаллик ва зараркунандаларга чидамлилигини ҳам оширадики, буни 2-жадвал маълумотларидан пайқаш мумкин.

1-жадвал

Вегетатив суғоришга қараб илдизмеваларнинг кузги ҳолати

(Самарқанд вилояти, Пайариқ тумани Н.Азимов ва «Ўзбекистон» хўжалиги, ўртача 2019-2023 йй.)

Экинлар	**Вариант**	**Кўрсаткичлар**			
		Вазни, г		**Барг сони, дона**	**Илдиз бошчаси диаметри, см**
		илдиз	**барг**		
Ош лавлаги	Суғоришсиз	22,8	40,2	12,5	1,9
	2 марта суғориш	37,4	75,0	22,4	2,6
Сабзи	Суғоришсиз	19,5	30,4	10,1	1,1
	2 марта суғориш	31,2	69,3	17,4	2,2
Брюква	Суғоришсиз	25,4	42,6	14,0	1,6
	2 марта суғориш	35,6	71,2	19,5	2,4
Тифон	Суғоришсиз	20,0	37,7	15,4	1,8
	2 марта суғориш	36,4	69,4	20,3	2,5

Жадвал маълумотларидан кўрамизки, қанд лавлаги суғоришсиз (назорат) вариантида илдиз ва барг вазни нисбатан 22,8 ва 40,2 грамм, барг сони 12,5 ва 22,4 дона, илдиз диаметри эса суғоришсиз вариантда 1,9 г, 2 марта суғорилганда эса 2,6 грамм бўлганлиги кузатилди.

2-жадвал

Суғоришнинг илдизмевалар маҳсулдорлигига таъсири (Самарқанд вилояти, Пайариқ тумани «Ўзбекистон» хўжалиги, ўртача 2019-2023 йй.)

Кўрсаткичлар	**Экинлар**			
	ош лавлаги	**сабзи**	**брюква**	**тифон**
Суғоришсиз (назорат)				
Вазни, г.: илдиз	89,9	59,7	67,9	76,8
поя	241,0	169,5	230,5	249,0
Уруғ маҳсулдорлиги, г	43,0	21,0	28,0	30,2
Уруғпоялар, %				
бир пояли	81	82	84	85
икки пояли	19	18	16	15
2 марта суғориш				
Вазни, г.: илдиз	148,4	119,0	119,5	128,9
поя	389,5	198,3	387,4	401,6
Уруғ маҳсулдорлиги, г	54,1	30,3	33,6	34,1
Уруғпоялар, %				
бир пояли	89	87	88	90
икки пояли	11	13	12	10
4 марта суғориш				
Вазни, г.: илдиз	167,7	145,6	138,3	145,0
поя	428,4	208,7	418,7	427,1
Уруғ маҳсулдорлиги, г	61,8	35,4	36,7	39,5
Уруғпоялар, %				
бир пояли	92	90	91	92
икки пояли	8	10	9	8

Бундай ҳол кузда экинлар 2 марта суғорилганда уларнинг ўсиши ва пировард натижада эса қишга чидамлилигини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

3-жадвал

Илдизмеваларнинг қишдан сақланиши, уруғ ҳосилдорлиги ва сифати

(Пайариқ тумани «Файзиобод» хўжалиги, ўртача 2017-2021 йй.)

Экинлар	**Кўрсаткичлар**	**Вариантлар**		
		суғоришсиз (назорат)	**2 сув**	**3 сув**
Ош лавлаги	Қишдан сақланиши, %	81,2	96,4	89,2
	Ҳосилдорлик, ц/га	14,5	20,2	16,9
	1000 та уруғ вазни, г	11,5	13,0	12,1
	Унувчанлиги, %	78,2	82,7	81,1
Сабзи	Қишдан сақланиши, %	79,3	92,1	85,0
	Ҳосилдорлик, ц/га	5,5	9,7	7,8
	1000 та уруғ вазни, г	1,0	1,7	1,2
	Унувчанлиги, %	70,2	81,4	74,9
Брюква	Қишдан сақланиши, %	85,4	97,0	91,2
	Ҳосилдорлик, ц/га	15,0	21,0	18,9
	1000 та уруғ вазни, г	1,5	2,4	1,9
	Унувчанлиги, %	84,4	93,0	86,5

	Қишдан сақланиши, %	87,7	90,0	96,4
Тифон	Ҳосилдорлик, ц/га	14,3	17,9	19,9
	1000 та уруғ вазни, г	3,0	3,6	3,9
	Унувчанлиги, %	82,0	87,8	91,7

Мазкур жадвалдан кўрамизки, суғориш сони ва ўсимлик суғоришсиз (назорат) ёки кузда 3 марта сув берилганда қанд лавлаги ва сабзида юқори ҳосил 2-вариантда (нисбатан 20,2 ва 9,7 ц/га) олинган бўлса, бу брюква тифонда эса 3 марта суғорилганда олинган. Бунда биринчи суғориш апрел бошида, иккинчи марта орадан 17-22 кун ўтгач, нисбатан 700-750 $м^3$/га ҳисобида, 3, 4-суғориш май охири ва июн бошида 750-800 $м^3$/га ва кейинги суғориш эса июн охири (650 $м^3$/га) ҳамда июл бошида (ўримдан 10 кун аввал) енгил (500 $м^3$/га) суғориш орқали амалга оширилади.

Жадвал маълумотларига кўра илдизмеваларда уруғ маҳсулдорлиги ва сифат кўрсаткичлари етилиш муддатига қараб турлича бўлади. Уруғнинг етилиш даражаси 30-45 % бўлганда бир дона поя маҳсулдорлиги қанд лавлаги ва сабзида 28 г, 45-60 % да 30 грамм бўлган. Крамгулдошлиларда эса аксинча, уруғ маҳсулдорлиги 30-45 % бўлганда юқори, яъни нисбатан 28, 31 ва 27 граммни ташкил этган. Уруғларнинг етилиш миқдори 60 % дан ортганда эса унинг пишиб етилиши оқибатида бир мунча тўкилиши кузатилди ва бу масалан, экинлар бўйича ош лавлаги ва сабзида нисбатан 3,9 ; 2,1 ц/га, брюква ва тифон эса 4,9; 4,5 ва 4,1 ц/га атрофида бўлди.

Хулоса.Шундай қилиб, бу борада олинган маълумотлар илдизмевалар ни ўриб-йиғиб олишнинг мақбул муддати ош лавлаги ва сабзида 45-60 %, қолган вакилларида эса 30-45 % бўлганда кузатилди. Бизнинг шароитимизда илдизмева

уруғпояларини тўғридан-тўғри комбайнлар («Кейс» ёки “Доминатор”) билан ўриб олинди.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил 23-октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 - 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисид”ги ПФ-5853 сонли фармони.

2.Батиров Х.Ф. Зимнее выращивание семян овощных двулетников (монография) // Самарканд, СамГУ им. Ш.Рашидова, 2022, 150 с.

3.Батиров Х.Ф. Корнеплоды зимней вегетации в условиях орошения (монография) // Самарканд, СамГУ им. Ш.Рашидова, 2023, 119 с.

4.Батиров Х.Ф. Экологическая адаптация культур в агроценозах (монография) // Изд-во СамГУ им.Ш.Рашидова, Самарканд, 2024, 156 с.

5.Горелов Е.П. Батиров Х.Ф. Использовать собственные возможности // «Сельское хозяйство Узбекистана», 1992, №4-5, С.24-25.

6.Доспехов Б.А. Методика опытного дела // Москва, «Агропроиздат», 1985, 347 с.

Жученко А.А. Адаптиивное растениеводство // Кишинёв, «Штинница», 1990, 431 с.

7.Мухаммеджанов М.В. Берегите землю, приумножайте её плодородия // Ташкент, «Мехнат», 1985, 48 б.

8.Тошмухамедов А.А. Безрассадный способ выращивания моркови // “Картофель и овощи”, 1978, №12, С.23-24.

9.Утеуш Ю.А. и др., Выращивание и пожнивное использование редьки масличной // УкрНИИНТИ, 3-чикув, Киев, 1987, 9 б.

10.Slavir J. Bielro E. Возможность внедрения перспективных озимых брюквенных промежуточных культур (Чеш.яз.) // “Rostl Yyroba”, 1985, s.v. 31, №2, s. 173-180.

11.Цолов Ц. Биология и агротехника новой культуры тифона (Чеш.яз.)// «Земледелие», 1982, №7, С. 38-41.

